



SALOHIYAT - MEZONI



9

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI**

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

«SALOHIYAT MEZONI»

9-SON



NAMANGAN-2016

YŷK: 103..2.5.4

KBK: 80(5ŷ36)2

M - 50


Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasining 2016 yil 6 fevraldagi 6-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Mas'ul muharrir: t.f.n. B. Talapov

Mamatov O. f.f.n., dotsent
Norqo'ziyev S. f.f.n., dotsent
Qozoqov T. t.f.n., dotsent
Isaqova Z. f.f.n., dotsent
Po'latov D. s.f.n., dotsent
Karimova F. f.f.n., dotsent
Sidiqov Q. f.f.n., dotsent
Topildiyev O. t.f.n., katta o'qituvchi
Zamilyeva R. katta o'qituvchi
Tillayev B. katta o'qituvchi
Abdullayev A. katta o'qituvchi
Akayeva M. yu.f.n., dotsent
Umarov J. katta o'qituvchi

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2016 yil 10 mart kungi 3-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-3818-8-9



© Namangan davlat universiteti, 2016 yil

MILLIY G' OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA

DEMOKRATIYANI EKSPORT QILISHNING VOSITALARI, MANBAALARI VA NAMOYON BO' LISH SHAKLLARI

*B. Talapov - t.f.n., dots. NamDU, Milliy g' oya, ma' naviyat
asoslari va huquq ta' limi kafedراسi mudiri*

Jamiyat hayotini demokratlashtirish, inson huquqlari ustuvorligi va so' z erkinligini ta' minlash bugungi kunda fuqarolik jamiyati qurishning asosiy qonuniyatlaridan bo' lib, davlat islohotlar tizimida yetakchi o' rinni egallaydi. Zero, yurtboshimiz e' tirof etganidek, islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, inson manfaatlarini ta' minlash uchun xizmat qilishi kerak. Biroq muayyan bir davlatning geosiyosiy manfaatlariga mazkur jarayonning bo' ysindirilishi, tashqi kuchlar ta' sirida ko' r-ko' rona singdirishga urinish jamiyat xavfsizligiga jiddiy xatar tug' diradi.

Prezident I.A.Karimov ta' kidlaganidek: “Xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan yangi tahdidlarning ko' lami emas, balki qo' yilgan geosiyosiy maqsadlarga erishishning ma' no-mazmuni, vosita va uslublari ham, har bir mamlakatning o' ziga xosligi va undagi mavjud vaziyatni hisobga olgan xolda, tubdan o' zgarib borayotganligiga e' tibor qaratish joiz”¹.

Ana shu vositalar sirasiga “Rangli inqilob”lar texnologiyasini keltirish mumkin. “Mintaqaviy siyosat jamg' armasi” rahbari S.Jo' rayev ta' kidlaganidek, hozirgi global sharoitda ayrim yirik davlatlar o' rtasida gegemonlikka intilish avj olgan bo' lib, bu yo' lda turli usul va vositalardan keng foydalanishmoqda. Ulardan biri “rangli inqilob”lardir.

“Rangli inqilob”lar – bu geostrategik va geosiyosiy kuchlar markazlarining manfaatlarini avj oldirish, u yoki bu davlatning ichki ishlariga aralashish, hokimiyat tepasiga qo' g' irchoq hukumatni keltirishning o' ziga xos yo' lidir. Asosiy maqsad – inqilobni moliyalashtirgan va uning qonuniyligini e' tirof etgan tashqi kuch foydasiga geosiyosiy yo' nalishni o' zgartirishdir².

Ma' lumki, “rangli inqilob”lar atamasi Markaziy va Sharqiy Yevropa jamiyatlarining kommunizmdan keyingi harakatlari bilan bog' liq. Bu harakatlar “demokratiya”, “liberalizm”, “milliy mustaqillik” shiorlari ostida olib borilgan. Serbiyadagi 2000 yil Slobadan Meloshovichni ag' darishga qaratilgan inqilob “birinchi tinch” inqilob sifatida baholansa-da, lekin ko' plab mutaxassislar bu inqilob biror rangni ramz qilib olmagan uchun “rangli inqilob”larning boshlanishi sifatida tan olishmaydi. Ular “rangli inqilob” ilk bor Gruziyada boshlangan deb hisoblashishadi³.

¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. —T.: O'zbekiston, 2005.-B. 442.

² <http://www.press-info.uz> – 2006 yil 10 may.

³ http://en.wikipedia.org/wiki/Color_revolution

“Rangli inqilob” lar senariysi**1-guruh: Mavjud tizimni o'zgartirishga qaratilgan. Ulardan 4 tasi muvaffaqqiyatli chiqqan**

<i>Davlat</i>	<i>Rang, ramz</i>	<i>Sodir bo'lgan Vaqt</i>	<i>Vujudga kelish holati</i>	
Serbiya	Buldozer	2000 yil	Slobadan	Meloshivichni ag'darish bilan bog'liq
Gruziya	Atirgul	2003 yil	Parlament saylovlari davrida	
Ukraina	Zarg'aldoq	2004 yil	Prezident saylovlarida	
Qirg'iziston	Lolarang	2005 yil	Parlament saylovlari davrida	

2-guruh: Mavjud tizimni o'zgartirishga yoki yangi tizimni vujudga keltirishga qaratilgan emas

<i>Davlat</i>	<i>Rang, ramz</i>	<i>Sodir bo'lgan vaqt</i>	<i>Vujudga kelish holati</i>	
Livan	Kader inqilobi	2005 yil	Rafiq Haliliyning	o'limidan so'ng boshlangan, Livanda Suriya qo'shinlarining turishiga qarshi qaratilgan
Iroq	Qirmizi	2003 yil	Iroqqa AQSH va Angliya qo'shinlari kirib kelishi bilan ifodalangan.	
Quvayt	Moviy	2005 yil	Saylovlarda huquqlarini chiqishlari bilan bog'liq	ayollar o'z talab qilib

Manba: http://en.wikipedia.org/wiki/Color_revolution

E'tirof etish joizki, muayyan bir mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning hal etilishi davlat nazoratida bo'lmas ekan, o'sha davlatga tashqi siyosiy kuchlarning ta'siri ortib boraveradi. Bu holatni quyidagi ko'rsatkichlar bilan izohlash mumkin:

“Demokratiyani yoyish” shiori. Manfaatdor kuchlarning o'z faoliyatini “demokratiyani yoyish”, “inson huquqlarini qaror toptirish”, “so'z erkinligi”, “liberalizm” shiorlari bilan niqoblashi.

Xususan, inqiloblar seriyasini amalga oshirishda yetakchi bo'lgan AQSHda jahonda “demokratiyani yoyish” davlat rahbarlari oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylangan deyish mumkin. Ma'lumki, bu holat bir qator davlat strategiyalarida, prezident va mansabdor shaxslar nutqida hamda ilmiy asarlarda o'z aksini topgan.

AQSHning sobiq prezidenti B.Klinton tasdiqlagan 1997 yilgi **“Yangi yuz yillik uchun Milliy xavfsizlik strategiyasi”**da quyidagi fikrga urg'u berilgan:

“Qo’shma Shtatlarning hayotiy muhim manfaatlarini Rossiya, Ukraina va boshqa yangi mustaqil davlatlarning barqaror zamonaviy demokratiyani yaratish, tinch va gullab-yashnayotgan, integratsiyalashgan jahon hamjamiyatini tashkil etish yo’lidagi evolyutsiyasidan iborat”⁴.

AQSHning 2006 yil martida qabul qilingan yangi “*Milliy xavfsizlik strategiyasi*”da quyidagilar belgilangan: “Qo’shma Shtatlar siyosati bizning dunyomizda bora-bora zulmni bartaraf etish maqsadida har qanday davlat va madaniyatda demokratik harakatlarni qo’llab-quvvatlash va unga yordam berishdan iborat. ... sivosatimizning maqsadi dunyoda o’z fuqarolari ehtiyojlarini qondira oladigan xalqaro doirada javobgarlikni bo’yniga oladigan demokratik, yaxshi boshqariladigan davlatni bunyod etishga ko’maklashishdir. Bu – amerika xalqi xavfsizligini ta’minlashning eng yaxshi usulidir”⁵.

Shu maqsadda 2005 yil martda Amerika razvedka milliy kengashi AQSH milliy manfaatlariga tahdid solishi mumkin bo’lgan 25 davlat ro’yxatini tuzib, Vashingtonning ularni “demokratlashtirish” ishlariga aralashi zarurligi ta’kidlandi⁶. Shuningdek, bu masala davlat rahbarlari nutqida ham aks etadi. 2005 yil may oyida J.Bush “Demokratiyani yoyishni ikkinchi prezidentlik muddatim davomida men uchun bosh vazifalardan biri deb bilaman. Bugun ozodlik Yer kurrasi bo’ylab mislsiz rivojlanish va yoyilishni kasb etayotgan ekan – bu hali debocha xolos. ...Kavkazda, O’rta Osiyoda, qolaversa, hamma mintaqalarda millionlab odamlar bo’ljak buyuk o’zgarishlarni orziqib kutmoqda. Va, bu albatta, ro’y beradi”⁷.

Shuningdek, “demokratiyani yoyish” niqobi ostida muayyan davlat ichki ishlariga aralashish, ularga bosim o’tkazish AQSH ilmiy doiralari tomonidan tabiiy fenomen sifatida isbotlashga urinishni kuzatish mumkin. Masalan, AQSH Xavfsizlik masalalari bo’yicha sobiq davlat maslahatchisi G.Kissenjerning yaqinda chop etilgan “Diplomatiya” asarida: “AQSH qadriyat va tartibotlari dunyoning barcha mamlakatlarida amalga oshirilsagina jahon siyosatida barqarorlik, barkamolikka asos solinishi mumkin”, degan oshkora missionistik g’oya ilgari surilgan. A.Straus o’zining “Unipolyarizm kontsepsiyasi”da XXI asrda bir qutbli jahon tartiboti qaror topishi, u Yer kurrasi aholisi va moddiy salohiyatining 70% ga yaqinini qamrab olgan ulkan “yagona makon” va nihoyat, uning homiy va rahnomasi Amerika Qo’shma Shtatlari bo’lishi zarurligini isbotlashga harakat qilgan⁸.

2.Saylovlarga aralashish. Inqiloblar, asosan, saylovlar bilan bog’liq – jamiyatda “qo’zg’alish” holati vujudga keladigan vaqtlarda qo’llanilishi namoyon bo’lmoqda. Tbilisi davlat universitetining siyosiy fanlar doktori M.Matsaberidze ta’kidlaganidek, bugungi sharoitda tashqi kuchlar tomonidan u yoki bu mamlakatdagi maqbul bo’lmagan rahbarlarni siyosiy maydondan olib tashlash va

⁴ National Security Council - <http://clinton3.nara.gov/WH/EOP/NSC/html/nschome.html>

⁵ The National Security Strategy: March 2006 - <http://www.whitehouse.gov/nsc/nss/2006/index.html>

⁶ Batyuk V.I. Rossiya, SShA i “TSvetnie revolyutsii”. Institut SShA i Kanadi Rossiyskoy Akademii Nauk. <http://www.humanities.edu.ru/db/msg/81506>

⁷ Jo’raev T., S.Akobirov. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik, —T.:Akademiya, 2007. - B.52.

⁸ Jo’raev T. Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik (Global kontekst) —T.: Akademiya, 2007. —B.100.

maqsadga mos shaxslarni hokimiyat tepasiga keltirish bilan bog'liq geosiyosiy vazifalarni amalga oshirish uchun saylov va saylov texnologiyalari vosita sifatida qo'llanmoqda⁹. 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Gruziyada 2003 yil parlament saylovlarida, Ukrainada 2004 yil prezident saylovlarida, Qirg'izistonda 2005 yil parlament saylovlaridan so'ng "inqilob" amalga oshirilgan.

3. Oppozitsiyani har tamonlama qo'llab-quvvatlash yoki yoshlar harakatini vujudga keltirish. Bu texnologiya chetdan turib, bilvosita muayyan davlat ichki ishlariga aralashish imkonini beradigan "inqilob"larning o'ziga xos xususiyatidir. Bu holatni Rossiya MDH mamlakatlari instituti direktori o'rinbosari V.Jarixin quydagicha izohlaydi: "... demokratlashtirish bo'yicha turli xil G'arb jamg'armalari qizg'in faoliyatini, ularning oppozitsiya harakatlarini qo'llab-quvvatlashi faqat bitta senariy – hukumatni o'zgartirish bilan tugaydi. Agar bunday harakatlar muvaffaqiyatga erishsa, ular so'ngra uni "tinch demokratik inqiloblar" deb ataydi"¹⁰.

2-jadval.

Tashqi kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlab turilgan guruhlar		
№	Davlatlar (inqilob muvaffaqiyatli deb hisoblangan)	Tashqi kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlab turilgan guruhlar
1	Serbiya	<u>OTPOR</u> - yoshlar harakati
2	Gruziya	<u>KMARA</u> – fuqarolar harakati
3	<u>Ukraina</u>	<u>PORA</u> guruhi
4	<u>Qirg'iziston</u>	<u>KEL-KEL</u> – yoshlar harakati

Manba: http://en.wikipedia.org/wiki/Color_revolution

4.Noxukumat tashkilotlar roli. Ular oppozitsiya yoki turli diniy tashkilotlar singari inqiloblarda tashqi kuchlar aralashuvini niqoblovchi vositalardan biridir. Angliyaning "Guardian" jurnalida keltirishicha, bunga AQSH davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan "Ozodlik uyi", "Xalqaro respublikachilar instituti", "Milliy demokratik institut"lar bevosita jalb etilgan¹¹. Masalan, bosh qarorgohi AQSHda joylashgan "Fridom Xauz" tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasining mas'ul xodimi Robert Fridman Ukrainada yuz bergan "zarg'aldoq inqilob" deb nomlanayotgan harakatlar ortida turgani ma'lum¹². Shuningdek, Serbiyadagi "Otpor" va Ukrainadagi "Pora" harakati o'z strategiyasini shakllantirishda AQSH asos solgan Albert Eynshteyn institutidan yordam olganligi internet materiallarida ta'kidlab o'tilgan¹³.

⁹ Matsaberidze M. "Revolyutsiya roz" i strani Yujnogo Kavkaza // TSentralnaya Aziya i Kavkaz, № 2(38). 2005. –B.11-12.

¹⁰ Jaxirin V. Spasibo revolyutsiyam // "Evraziya" jurnali. 2005, dekabr soni, -B.54.

¹¹ Traynor I. US campaign behind the turmoil in Kiev // <http://www.guardian.co.uk/world/2004/nov/26/ukraine.usa>

¹² Xalq so'zi gazetasi. 2005 yil, 14 iyun, №113(3658).

¹³ http://en.wikipedia.org/wiki/Color_revolution

Bu kabi tashkilotlar o'z Nizomi doirasidan chetga chiqib, faoliyatida must'molchilikka yo'l qo'ygani uchun bir qator mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda "Fridom Xauz" faoliyati sud xukmiga binoan cheklab qo'yildi.

Keltirib o'tilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda "rangli inqilob"larning ro'y berishiga turtki bo'lgan omillar sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

- Rangli inqiloblar muayyan millatning tabiatidan (iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz yoki siyosiy tizim faoliyatsizligi oqibatida) kelib chiqqan. Ularni ilhomlantirish va qo'llab-quvvatlash boshqa davlatlar yoki nohukumat tashkilotlar ta'sirida kelib chiqqan. Qirg'izistonda vujudga kelgan vaziyatni shunday baholash mumkin. "Nyu-York tayms" gazetasida keltirilishicha, Qirg'izistondagi ichki ijtimoiy-siyosiy muammolarga chetdan ta'sir qilish unchalik katta rol uynamagan va A.Akayevni hokimiyatdan chetlashtirish uchun AQSH tomonidan eng minimal miqdorda – 12 million dollar sarflangan, xolos¹⁴.

- Xalqaro munosabatlarni global harbiy-siyosiy muvozanatga keltirish tizimining yo'qligi ayrim mamlakatlarning global miqyosda ham, mintaqaviy miqyosda ham gegemonlik ko'rsatishlari uchun sharoit yaratdi. Xalqaro huquq bajarilishini nazorat qilishning samarali emasligi va ularni harakatga keltirishning tegishli mexanizmlariga ega bo'lgan sanksiyalar tizimi yo'qligi ham bunga yordam bermoqda. Natijada, qator mamlakatlar yo liberal-demokratik tartibning adolatli shiorlari bilan niqoblanib, ochiqchasiga yoki ekstremistik guruh va harakatlarni tashkil etish hamda moliyalashtirish orqali yashirin ravishda jahonning katta siyosiy hududini o'z nazorati ostiga olishga urinmoqda¹⁵.

- Tabiiy resurslar va xom ashyo tanqisligi muammosining mavjudligi va ularni qo'lga kiritish uchun kurash. "Ko'pdan buyon kuzatilayotgan haqiqat shundan iboratki, nima uchundir erkinlik va demokratiyani, odatda, neft va gazga boy davlatlar, mintaqalarga yoyishga, rivojlantirishga zo'r beriladi"¹⁶ degan edi davlatimiz rahbari I.A.Karimov. AQSH Energetika Departamenti tahliliga ko'ra, jahonda energetika mahsulotiga bo'lgan talab 1993 va 2015 yil oralig'ida 50%ga ortadi. Kaspiy dengizi atrofidagi inqiloblar yuz bergan mintaqalarda 17-49 mlrd barel neft va 232 trln.kub gaz zaxiralari mavjud bo'lsa, Yaqin Sharq mintaqasida dunyo neft zaxirasining 61,7% va gaz zaxirasining 40,6% joylashgan¹⁷. Natijada kundankunga jahon hamjamiyatining ehtiyoji ortib borayotgan energetika zahiralari egalik qilishga xalqaro maydonda gegemonlikni ta'minlovchi vosita sifatida qarash kuchaymoqda.

- Iqtisodiy potentsialni yanada rivojlantirish uchun yangi bozorlarga bo'lgan talab.

¹⁴ The New York Times – 2005 – March 30 // V.I. Batyuk . Rossiya, SSHA i "TSvetnie revolyutsii". <http://www.humanities.edu.ru/db/msg/81506> - Institut SSHA i Kanadi Rossiyskoy Akademii nauk.

¹⁵ S. Jo'raev. Zamonaviy xalqaro munosabatlar –T.:Akademiy, 2007. -B 42.

¹⁶ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. –T.: O'zbekiston, 2005. –B.393.

¹⁷ Mirskiy G. Bolshoy Blijniy Vostok — samiy konfliktniy region mira // <http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm> –Klub mirovoy politicheskoy ekonomiki.

Hozirgi kunda “rangli inqilob”lar texnologiyasini qo’llash tendentsiyasi saqlanib qolgan bo’lsa-da, ularning avj olishiga monelik qiluvchi bir qator omillar mavjud. Mazkur omillarni “rangli inqilob”larning salbiy oqibati sifati ham izohlash mumkin:

- Inqiloblar xalq tashabbusi mavjud bo’lsa-da, asosan ularni “yirik” mamlakatlarning manfaatlaridan kelib chiqqanligi tobora oydinlashib bormoqda. Bu xususda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o’tish joiz: “Bu mamlakatlardagi har bir xalqning turmush tarzi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Va “rangli inqilob”lar ham mutlaqo bir-biriga o’xshamaydi”¹⁸. “Barcha mamlakatlar uchun, ularga xos bo’lgan xususiyat va alomatlarini hisobga olgan holda, birdek mos keladigan yakkayu yagona – universal demokratiya modeli yo’q va mavjud bo’lishi ham mumkin emas. Demokratiyani eksport qilish va uni chetdan turib zo’ravonlik bilan joriy etish – o’zi aynan demokratiya tabiatiga zid narsa. Bu haqiqatni oxirgi davrda juda ko’p misollarda ko’rish mumkin”.

- Inqilob yuz bergan davlatlarda ijtimoiy-siyosiy beqarorlik saqlanib qolayotganligi va gegemonlikni talab qilayotgan davlatlar manfaatleri to’qnashuv markaziga aylanib borayotganligi.

Taniqli amerikalik ekspertlar Z.Bzejnskiy va G.Kissenjer erkinlik va demokratiyani ilgari surish jarayonida shoshma-shosharlik va biryoqlamalik salbiy oqibatga olib kelishi to’g’risida ogohlantirganlar. Yevropada hozir mavjud “demokratiyaning universal modeli” demokratik qadriyatlar yuz yillar davomida shakllanganligini unutgan holda uni qandaydir o’n yillar davomida biror-bir mamlakatga ko’r-ko’rona nusxa ko’chirish yo’li bilan olib kelish - bu juda katta xato va uzoqni ko’ra olmaslikdir, deya baholaydilar. Ularning ta’kidlashlaricha, jarayonlardan uchinchi kuch foydalanib qolishi mumkin¹⁹.

- “Rangli inqilob”larning eng muxim jihati ko’plab davlatlarning xavfsizligiga, siyosiy barqarorligiga tahdid solishdir. Ekspertlarning fikricha, “rangli inqilob”lar usuli iqtisodiy rivojlangan, lekin bir muncha beqaror, o’zini eplay olmaydigan, biroq muhim geosiyosiy mavqeni egallaydigan, har qanday tojovuzkor mamlakatni o’z tabiiy resurslari bilan jalb qila oladigan va o’z milliy mafaatlarini butunlay amalga oshirishga qodir bo’lmagan mamlakatlarga nisbatan qo’llaniladi²⁰.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadryatlarni hisobga olmagan xolda demokratiyani “eksport” qilishning bunday usuli jahonda hukmronlikka intilayotgan davlatlarning geosiyosiy maqsadlariga erishish vositasi bo’lib, bu yo’lda turli nohukumat tashkilotlar, diniy-ektremistik guruhlar va oppozitsiyalardan ularga har tomonlama yordam ko’rsatish orqali foydalanilmoqda. Bosh maqsad jamiyatdagi ijtimoiy - iqtisodiy tartibsizlikdan foydalangan holda hokimiyatga o’z tarafdorlarini keltirishdir. Muayyan davlatda hukumat milliy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan va puxta ishlab chiqilgan strategiya asosida qat’iy siyosat yurgizsa, jamiyatda yuzaga kelgan muammolarning hal etilishi davlat tomonidan doimo nazorat etib borilsa

¹⁸ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. 13-jild. T., O’zbekiston, 2005.-B. 330.

¹⁹ Saidolimov S., S. Jo’raev, Z. Abdug’anieva. Xalqaro xavfsizlik. T., Akademiya. 2007. –B.117.

hamda hukumat organlari va fuqarolar aloqasini mustahkamlovchi ijtimoiy institutlar faoliyati to'g'ri tashkil etilsa, demokratiyani chetdan joriy etishning bu kabi salbiy usullari o'zini oqlamaydi. Jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan tahdidni bartaraf etish imkoni oshadi.

YOSHLAR FAOLLIGINING ORTIB BORISHIDA MA'NAVY OMILLARNING ROLI

Tillayev Bobomurod - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Hozirgi kunda mamlakatimiz bor kuch-qudratini demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirgan. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng haqiqiy insonlar yurtimiz taqdirini hal qiladilar. Shuning uchun ham kelajakka munosib bo'lgan ma'naviy boy yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim muammolari sirasiga kiradi. "Ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi, - deydi I.A.Karimov, - imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat"²¹.

Yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosi, ularni ma'naviy kamol toptirish, mehnat faoliyatida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish, Vatan taraqqiyoti ehtiyojlarini anglab yashashga, samarali mehnat qilishga o'rgatish, ijtimoiy faolligini oshirish jamiyatimiz oldiga muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashuvini rag'batlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-nazariy salohiyatlarini o'stirish uchun zarur sharoitlar yaratib berish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun quyidagi sohalarda katta ishlar boshlab yuborilgan - huquqiy sohada, ish bilan ta'minlash va bandlik sohasida, oilani mustahkamlash va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, yoshlar iqtidorini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash sohasida va hokazo. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yoshlarning o'z hayot yo'llarini topishga, shaxsiy-ijtimoiy mavqeini kuchaytirishga bo'lgan xohishi va intilishlari ijtimoiy muhitga moslashishning qiyin kechishi bilan to'qnashdi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida, bir tomondan, madaniyat mohiyatining o'sib borishi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, madaniy jarayonlarning kommertsiyalashuvi, ommaviy madaniyatning kirib borishi, elektron ommaviy axborot vositalarining ta'siri ham kuzatilmoqda. Ular esa, o'z navbatida, yoshlarning maqsadlari, ma'naviy-madaniy ideallari va qiziqishlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yoshlarga doir olib boriladigan har qanday

²¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz//Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.8-jild.- T.:O'zbekiston, 2000, 25-bet.

tadqiqot “yoshlar” tushunchasining mohiyatini ochib berish, mazkur ijtimoiy guruhning turlarini aniqlash, yoshlar yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy muhitning holatini hisobga olishni talab etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun, ularga uchta o'zaro bog'liq darajada yondashish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: birinchidan, yoshlarga ijtimoiy fenomen sifatida umummetodologik darajada yondashish; ikkinchidan, yoshlarga maxsus-nazariy darajada yondashish, ya'ni ularni alohida ijtimoiy-demografik guruh deb hisoblash, xulqi, yashash tarzining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boylik mo'ljallarini o'rganish; uchinchidan, yoshlarga empirik, ya'ni sotsiologik tadqiqotlarning dalillari va ko'rsatkichlariga asoslangan holda yondashish. Yoshlarni mazkur yondashuvlar asosida o'rganish, ularga ma'lum yoshdagi kishilar sifatida qarabgina qolmay, balki o'ziga xos ijtimoiy-demografik guruh sifatida qarashga ham imkon beradi.

Yoshlarga oid masalalar ta'lim-tarbiya, axloq-odob, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy munosabatlar, siyosat, huquq, din, bo'sh vaqtni tashkil qilish, oila, mehnat, sport bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi kunda O'zbekiston yoshlari bilan bog'liq muammolarning asosiy qismi jamiyatda ro'y berayotgan ob'ektiv jarayonlar bilan bog'liq. Bugun yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rinlarini aniqlashi va topishi eski qarashlar, qadriyatlarning so'nishi hamda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi davrida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham yoshlar orasida agressiya, lokaydlik, ekstremistik kayfiyatlar, sarosimaga tushish holatlari ham uchramoqda. Yoshlar – ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlaridir. Shu tufayli ham ular ob'ektiv ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisiga aylanganlar.

Yoshlar ongining beqaror va ziddiyatli xarakteri ularning xulqiga va faoliyatiga, albatta, ta'sir etadi. Biz yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanganimizda asosiy e'tiborni ularning kasbiy tayyorgarligini o'stirishga, ma'naviy baquvvatligini shakllantirishga, qonunlarga rioya qilishlikka da'vat etishga qaratamiz. Aslida esa, tarbiyaning eng muhim vazifasi, yoshlarni hozirgi kunning muammolari haqida mustaqil fikrlashga undashdan, Yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda shaxsiy faoliyatni tashkil qilishni rejalashtirishdan, mazkur jarayonlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda amalga oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Barpo etilayotgan yangi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirishini talab etadi. Endilikda har bir kishi o'zgalarga emas, balki shaxsan o'zining imkoniyatlariga, qobiliyati va iste'dodiga tayanishi, shulardan kelib chiqib yashashi kerak. Hozirgi yoshlarni bundan 20-30 yil avval yashagan yoshlardan ko'p farqli jihatlar ajratib turibdi. Bugungi kun yoshlarining ulg'ayishi ko'pgina ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq. Hozirgi yoshlar qo'proq rivojlangan G'arb va rivojlanayotgan Sharq mamlakatlariga ixlos qo'yib, u yerda yashovchi yoshlarga e'tiborni qaratmoqdalar. Yoshlar orasida ommalashib borayotgan ekstremistik kayfiyatlar, jamiyat qonun-qoidalari va axloqiy me'yorlarini inobatga olmaslik va inkor etishda namoyon bo'lib, ularni turli yondashuvlardan kelib chiqqan holda tushuntirish mumkin.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan bir qatorda tez sur'atlarda anti ta'lim ham rivojlanib, turli yo'nalishlarda o'z ifodasini topmoqda. Turli kanallar orqali yoshlar psixologik holatiga katta ta'sir etadigan bunday nomadaniy hodisalar, ulardagi tabiiy o'zini-o'zi himoya qilish reaksiyasini so'ndiradi va yoshlar ma'naviy olamini salbiy qarashlar, ular asosida shakllanadigan kayfiyatlar bilan to'ldirib boradi. Bunday almashuvning asosiy sababi, yoshlar dunyoqarashining to'la shakllanmaganligi, ma'naviy jihatdan chegaralanganligidir. Keksa avlod uchun ma'naviyat madaniyatning ajralmas qismi, deb hisoblanadi. Ammo ayrim o'qituvchi va ota-onalar ma'naviy qashshoqligining o'sib borishi natijasida, yoshlar yaxshilik va yomonlikni ixtiyoriy tarzda tanlash masalasiga ro'baro' bo'lmoqdalar. Jamiyatda amalga oshirilayotgan turli islohotlar albatta yoshlarga ta'sir etadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanayotganligini hisobga olsak, mamlakatimizga begona qarashlar, G'arbning ommaviy madaniyati, mentalitetimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan stereotiplar, yashash tarzi ham kirib kelayotganligini ta'kidlashimiz mumkin. Mazkur jarayonlar oldida deyarli butunlay ochiq ekanligimizni ham ayitishimiz kerak. Eng muhimi shuki, yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish va o'tkazishlari ta'lim hamda madaniyat idoralaridan tashqarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda, yoshlar bo'sh vaqtlarini televizor tomosha qilib o'tkazishar ekan. Televidenie – endigina shakllanayotgan yoshlar ongiga katta ta'sir ko'rsatadigan vosita. Aynan shu sababdan ham, bugungi kunda yoshlarimizni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa qilib shuni ayitish mumkinki, yoshlar haqiqatdan ham, jamiyat tarkibidagi alohida ijtimoiy-demografik guruhdir. Yoshlarga jamiyat boshqa a'zolaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlar va tavsiflar xos. Yoshlar faolligining ortib borishida ma'naviy omilning roli nihoyatda kattadir. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni chuqur o'rganish esa muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

YOSHLAR MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY YONDASHUVLAR

Tillayev Bobomurod Abduvahobovich - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini katta o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart"²². Huquqiy demokratik davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan qadam qo'yayotgan O'zbekiston Respublikasida fuqarolar huquqiy bilimi, huquqiy madaniyati va ma'naviyatini

²² Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-jild.- T.: O'zbekiston, 1996.-B.10.

yuksaltirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy davlatning quyi-dagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: Birinchidan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun ustuvorligi. Huquqiy qadriyatlar tizimida huquq eng oliy qadriyat hisoblanadi. Huquqiy davlatda qonun ustun bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda, barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart. Bu ham fuqarolik jamiyatining asosiy shartlaridan biridir.

Bugungi kunda yosh avlodimizni mustaqillikning barcha xususiyati hamda imkoniyatlari bilan chuqur va atroflicha tanishtirish davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu borada qonunga hurmat bilan qarash, unga og'ishmay rioya qilish barchamizning burchimizdir. Yoshlar huquqiy ongining darajasini ko'tarish uchun oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat va jamoat institutlarining hamkorlikdagi harakatlari zarur. Bunday ishlarni amalga oshirishda ko'plab ijtimoiy harakatlar boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining ishtiroki, homiyligi katta ahamiyatga egadir. Masalan, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida huquq-tartibot idoralari, xalq ta'limi muassasalari xodimlari, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa mas'ul tashkilotlar tomonidan huquqshunoslar, taniqli sportchilar, san'atkorlar, psixolog, tibbiyot xodimlari, taniqli olimlar, mutaxassislar ishtirokida tarbiyaviy aksiyalar, diniy idoralar va imom-xatiblar bilan hamkorlikda yoshlar orasida qonunbuzarlik, buzg'unchilik, giyohvandlik, diniy ekstremizm g'oyalariga qarshi qiziqarli uchrashuvlar, davra suhbatlarini tashkillashtirishmoqda. Voyaga yetmagan yoshlar orasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam ko'rsatish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xavfsizligini ta'minlash, mehnatga o'rgatish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy maqsad yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini o'stirish, qonunbuzarlik holatlarining oldini olishdan iboratdir. Huquqiy madaniyati, bilimi, savodxonligi o'sgan jamiyatdagina qonunbuzarliklarga qarshi kurash olib borish ancha yengillashadi. Shunday ekan, Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz darkor.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida huquqiy bilimlarga ega bo'lgan milliy kadrlarga ehtiyoj ham kun sayin o'sib bormoqda. Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlaridagi huquqiy bilimlar standartlari, o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarga o'zgarish hamda yangilik kiritish, ularni zamonamizga muvofiqlashtirish harakatlari amalga oshirilmoqda. Masalan, hozirgi kunda barcha oliy o'quv yurtlarida "Huquqshunoslik", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" kurslari o'qitilmoqda. Yoshlarimiz o'z zimmalariga yuklatilayotgan mas'uliyatni chuqur anglagan holda bor kuch va idroklarini puxta bilim olishga hamda olgan bilimlarini vatanimizning buyuk kelajagi va ravnaqi yo'lida sarflashga harakat qilishlari kerak.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, inson huquqiy jihatdan qancha bilimli, yuksak huquqiy maduniyatli va ma'naviyatli bo'lsa, ma'rifiy, mafkuraviy jihatdan shunchalik mukammal shakllangan bo'ladi;

– ikkinchidan, huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari qonunlarga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, ularga bo'ysunish madaniyatini shakllantirish zarurligi huquqdagi milliy istiqbol mafkurasi g'oyalari va talablarini omma ongiga singdirish hamda bu masalada qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligi qonun ijodkorlarining hayotida, o'z ishlarida naqadar halol, odif, haqqoniy bo'lishlariga bevosita bog'liqdir;

– uchinchidan, huquqiy bilim va madaniyat har bir insonga, fuqaroga o'z haq-huquqlarini bilish va himoya qilishga ko'maklashadi. Huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lish, ularga hayotda qat'iy amal qilish, qonun ustuvorligini dildan, qalbdan his qilib, faoliyat ko'rsatish kishiga juda katta ta'lim-tarbiya beradi, hayotda uning bexatar, tinch-omon yashashi va faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashadi. Huquqiy bilim va madaniyat xalq va millat yetukligining muhim ko'rsatkichidir;

– to'rtinchidan, huquqiy bilimi va madaniyati o'sgan xalq, millat o'zini o'zi anglab yetadi, kuchi va imkoniyatlariga xolisona baho beradi, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilikka asoslanib ish tutish eng katta ijtimoiy ofat va fojealarning sababi ekanligini chuqurroq idrok etadi;

– beshinchidan, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o'rin olib, odamlar xulq-atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy va psixologik ta'sir etadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi;

– oltinchidan, yoshlarning huquqiy ongi va bilimining rivojlanganlik darajasi ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarida, o'z-o'zini boshqarish organlarida faol ishtirok etishlari huquqiy ong va madaniyat darajasining o'sib borishiga olib keladi.²³

YOSHLAR RUHIYATIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BARTARAF QILISHNING YO'L – YO'RIQLARI. AMALIY MASALALARNI HAL ETISH: MUAMMAO VA YECHIM

R. Sharafiddinov – FVXTXQTMOI,

M. Ne'matova, Yo. Asqarova- Farg'ona pedagogika kolleji

Yurtboshimiz Islom Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi "Birinci chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI – Sessiyasida

²³ Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli. Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning huquqiy jihatlari. Toshkent – 2006. B. 141-161

soʻlagan nutqida: “Biz fuqarolarga keng huquq va erkinliklar berish, lozim boʻlsa, turmushimizda sodir boʻlayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishini ragʻbatlantirish yoʻli bilan, oʻrtaga qoʻyilgan maqsadga erishishimiz mumkin. Bu oʻrinda shunisi muhimki, har bir kishi oʻzini oʻz mamlakatining haqiqiy fuqarosi deb his etishi, oʻziga berilgan huquqlar va erkinliklarini tushunib etishi va qadrlashi, ogʻir mehnatga, zoʻr kurashda qoʻlga kiritilgan demokratik qadryatlarni eʼzozlashi va himoya qilishi lozim. Qisqa qilib aytganda, demokratiya jamiyatning har bir aʼzosi hayotning oʻzviy bir qismiga aylangan taqdiridagina, demokratiya hisoblanadi. Farzandlarimizni bolalikdanoq ayni shu ruhda tarbiyalab borish zarur, ” – deb taʼkidlagan edi.

Xoʻsh, davlat va jamiyatimizda boʻlib oʻtayotgan islohotlar huquqiy davlatni qurish, fuqarolik jamiyatni demokratlashtirishga qaratilgan boʻlsa, yoshlar ruhiyatiga qanday salbiy taʼsir etuvchi omillar bunday islohotlarni chuqurlashtirishga toʻsqinlik qilmoqda? Qanday yoʻl – yoʻriqlar bilan bunday salbiy omillarga qarshi kurashishimiz mumkin?

“...yoshlarni oʻz fikriga ega, turli maʼnaviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir boʻlgan, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada maʼnaviy – maʼrifiy targʻibot ishlarining taʼsirchanligini taʼminlaydigan zamonaviy informatsion kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetining kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-usublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qoʻllanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotgan chuqur tushunib olishimiz zarur, ”- vazifani aniqlab berdi Prezidentimiz Islom Karimov.

Darhaqiqat, Respublikamizda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish borasidagi koʻplab qonunlar, qarorlar va qonun osti huquqiy – meʼyoriy xujjatlar xayotga targʻib etilmoqda.

Ammo, globallashuv jarayonida yoshlarni tarbiyalash, ularni baxtli qilib shakllantirish oson kechayotgan emas. Balki boshqa – boshqa muammolar tugʻilmoqda. Masalan, ayrim ota - onalar oʻz farzandlarning taʼlim – tarbiyasini amalga oshirmasdan, nazorat qilmasdan, oʻz moddiy manfaatlarini koʻzlab ne-ne hatolarga yoʻl qoʻymoqdalar. Ayrimlari Rossiya, Qozogʻiston va boshqa chet – el Respublikalariga ketgan. Aynan, bunday ota – onalarning farzandlari koʻplab muammolar keltirmoqda:

1. Maktab ishlaridan masʼuliyatsiz uzoqlashmoqda;
2. Kollej va litseylarda tahsil olish jarayonida darsga tayyorlanish, uy vazifasini bajarishda xohishi oʻzi yoʻq;
3. Jamoat joylarda xattoki kekxa odamlar oldida uyatli soʻzlardan foydalanish kabi faktlar toʻgʻri – ma toʻgʻri jamiyat hayotiga putur yetkazishini anglay olmaydilar;
4. Kitob oʻqish masalasi kerakli darajada emas;
5. Fanni oʻzlashtirish, jamoat ishlariga jalb qilish, koʻrik –tanlovlarga passiv oʻquvchilarni qizitirmaslik;
6. Kasb – hunarni erkin tanlamasligi;
7. Mahalla va ota – onalar bilan hamkorlik ishlari mavjud emasligi;

8. Maktab, kollej bilan Ichki Ishlar organlari va Prokuratura organlari bilan o'rnatilgan aloqalar keng emasligi.

Bunday salbiy holatlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Eng muhimi, yoshlarga davlatni boshqarish, qonunlarga itoat qilish, huquqbuzarlikni oldini olish ishlarni yoshi kattalar tomonidan namoishi amalda ko'rsatilsa, yoshlarimizning ongida fuqarolik tuyg'usi, demokratik shakllanish, ongli o'sish, davlat siyosati va islohotlariga itoat qilish, faol qatnashish kabi intilish-u xohish kabi ma'naviy kuch – qudrat shakllanar edi. Ming afsuski, ko'plab oilalarda bironta yuridik adabiyot (Qonunlar, Konstitutsiya, Kodekslar va boshq.)lar yo'q. Oilalarda nafaqat ekologik tarbiya, balki huquqiy tarbiya amalga oshirilmagan. Ota – onalar o'z bolasi, nafaqat internetning qaysi saytiga kirishi, balki farzandining do'stlari kimligi bilan qiziqishmagan.

Bizning davlatimizda bunday salbiy omillarga qarshi ko'plab yuridik xujjatlar qilinmoqda, va jamiyatimizda targ'ib etmoqda "Bunday keng ko'lamlı va o'ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy – tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalombor Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy – amaliy markazi tomonidan har tomonlama asoslangan takliflar, tavsiyalar, tadqiqotlar asosida olib borilmoqda. "Ota – onalar, ularning farzandlari, tashkilotlar muassasalar Prokuratura va Ichki Ishlar organlari o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish borasida hamkorlikni shakllantirish bo'yicha olib borilgan ishlarining guvohi bo'lyapmiz. Bunga 2014 yilning aprel oyida "Huquqbuzarlikni profilaktika qilish to'g'risida" qonunining ham qabul qilinishi qo'shimcha asos bo'lib xizmat qiladi. Qonunda nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari ham huquqbuzarlikni profilaktika qilishda faol qatnashish yo'l – yo'riqlari ko'rsatilgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, ushbu qonun bo'yicha mahalla, ota-onalar, maktab, kasb-hunar kollejlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ko'rik-tanlovlar, davra suhbatlar, keng olib borilishi zarur. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda quyidagi takliflar kiritmoqchimiz:

1. Jamoat joylarida uyat so'zlardan foydalangan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish;

2. Uyda, internet-kafelarda kiperpatrul va unga o'xshash uyatli saytlarni ta'qiqlovchi moslamalarni o'rnatmagan shaxslarni jazoga tortish;

3. Ota-onalar o'z farzandlarini maktabga, kollejga kuzatayotganda darsga tayyorgarlikni (daftar, ruchka, o'quv forma va hokazo) agar nazoratga olmasa ma'muriy dalolatnoma tuzilib jazoga tortilsin.

4. Respublikamizda ota-onalar faoliyatini nazorat qiluvchi tashkilotni (organ) tashkil etish;

Agar bunday sog'lomlashtirish protseduralar inobatga olinsa quyidagi amaliy-pozitiv natijalarga erishish mumkin:

1. Jamoat joylarda yoshlar ma'muriy va jinoiy mas'uliyatni his etadilar. Xalq, jamiyat manfaatları bilan o'ynashmaydilar, qonunga itoat qiladilar;

2. Internetda foydalanishning printsipial qoidalarga amal qilinadi. Nima qifish mumkin emasligini anglaydilar;

3. Bilim olish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni sifatli kechadi. Darsga tayyorgarlik qilmagan (xohlamagan) shaxslar davlat tomonidan berilgan, ma'muriyat tomonidan jadvalda tasdiqlangan (dars) fanni o'qitilishi, ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulot to'sqinliksiz, salbiy omillarsiz o'taydi.

4. Qonunlarga amal qilmagan ota-onalar aniqlanadi, o'rganiladi va jazolanadi.

Faqat bunday, bizning fikrimizcha, amaliy ish, usullar, yo'l-yo'riqlar, protsedura, profiklaktik ishlar va qonunlarga amalda itoat qilish ishlar bilan yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish ularda soxta diniy g'oyalar va aqidaparastlikka qarshi mustaxkam tafakkurni shakllantirish ma'naviy tahdidlar va informatsion xurujlardan himoya qilishimiz mumkin. Zero, bunday voyaga yetmaganlar hayotidagi kamchiliklarni bartaraf qilar ekanmiz, har qanday davlat vazifa qilib qo'ygan g'oyani amalga oshirish to'sqinliklar o'zidan o'zi yo'qoladi. Shuni unutmasligimiz kerakki o'quv muassasalarida passiv shaxs bo'lishiga yo'l qo'yilsa farzandlarimiz og'ir o'smirlar, pedagogik ta'sirga bo'ysunmagan hamda kelajakda qonunni hurmat qilmagan shaxslar qatoriga o'tishi mumkin. Yuqorida aytilgan amaliy yo'l-yo'riqlar hozirgi zamonda inobatga olinishi zarur.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MA'NAVIY MADANIYATNING O'RNI

Xotamov Nosirjon,

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan bir masalaga alohida to'xtalib o'tish lozim, deb o'ylayman. Ya'ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turlituman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo'lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Tabiiyki, «omnaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalari tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.

Xulosa kilib aytganda yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Manaviyatning xayotimizdagi urni xakidagi fikr muloxazalarga yakun yasayekanmiz ma'naviy yuksalishga yerishishi bu bir yillik yoki besh un yillik ish yemas. Chunki manaviyat kotib kolgan akidalar yigindisi yemas doimiy xarakatdagi uzliksiz jarayon bulib tarakkiyot davom yetar ekan uning o'iddatli yurishi tufayli ma'naviy xayot oldida kuyiladigan talablar ham mutasil paydo bo'laveradi.

“OMMAVIY MADANIYAT”-MA'NAVIYAT KUSHANDASI

Gavharoy Mo'minxo'jayeva - Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 406-guruh talabasi,

Ilmiy rahbar: M. Tojahmedova

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng o'jiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha -qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim.

Ya'ni kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda barpo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan “omnaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmashlik kerak.

Bugungi kunda sog'lom ma'naviyatli insonlarni tashvishga solib kelayotgan illatlar sifatida buzg'unchi kuchlar tomonidan targ'ib-tashviq qilinayotgan, qo'shtitimoq ichidagi “omnaviy madaniyat”ni misol qilishimiz mumkin.

Shu o'rinda “omnaviy madaniyat” tushunchasini kelib chiqishiga bir nazar tashlasak, ushbu tusuncha XX asrning o'rtalaridan boshlab “o'rgimchak to'ri” bilan bog'liq ravishda o'zbek tiliga kirib kelgan. “Ommaviy madaniyat” so'z birikmasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor bersak “madaniyat” so'zi arab tilidan olingan bo'lib “taroqqiyot”, “svilizatsiya” degan ma'nolarni anglatadi. Shunday

ekan ma'daniyat–bu rivojlanish, yuksalish demakdir. Uning muomala, kiyinish, jamoat joylarida o'zini tutabilish madaniyati kabi bir qancha turlari mavjud. Madaniyatli kishilar esa chuqur bilim olishga, taraqqiyotga qarab intiladi. Shu bilan birga, xalqlarning milliy madaniyati, milliy qadriyatlari boyib borsa, ular taraqqiylashib, yuqorilab borsa, o'sha xalqning ma'naviyati, ma'naviy hayoti ham boyib va yuksalib boradi.

Shu o'rinda, "ommaviy madaniyat" tushunchasiga nisbatan salbiy qarashlar boisi nimada ekanligini anglab yetishimiz lozim.

O'tgan asrda biror yurtni yoki mamlakatni zabt etish uchun qimmatbaho qurol - aslahalar, harbiy texnika, yuksak darajadagi sarkardalik salohiyati zarur bo'lgan bo'lsa, hozirda kishi ongiga axborot yordamida ta'sir etish, uni ma'naviyatidan, o'zligidan mahrum etishga qaratilgan maqsadlarga yo'naltirilgan global tarmoq orqali "mafkuraviy urush quroli" vositasida butun bir mamlakatni zabt etish mumkin va undan manfaatdor guruhlar vujudga keldi.

Shuning uchun ham biz globallashuv jarayonida yoshlarning ma'naviyati va madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyatdan" ogoh bo'lishimiz va albatta mana shunday muammoli vaziyatlarga loqaydlik bilan qaramasligimiz lozim.

MILLIY MA'NAVİYATNI ASRASHDA MAFKURANING O'RNI

Xurshid Mirzaxmedov – NamDU katta o'qituvchi,

Muxammadsharif Sharipov - NamDU talabasi

Bugungi kunda globallashuvning mohiyatini, ushbu jarayonda yuz berayotgan ma'naviy tahdidlarni aniqlash va ularni ilmiy–nazariy tahlil etish masalalari dolzarb vazifalardan biridir.

Globallashgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. U jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kel-masligini tushunish, anglash qiyin emas.

Globallashuv sharoitida muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo'l urayotgan yovuz kuchlar o'z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Shunday sharoitda yosh avlodni turli xil yot g'oyalar ta'siridan asrab-avaylash muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Shunday ekan, avvalom bor yosh avlodni vatanga, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni asrashning muhim omillaridan biridir.

Milliy qadriyatlarni asrashdagi asosiy vosita bu haqqoniy yoritilgan tarix bo'lib, shu orqali yoshlarda milliy g'urur va iftixor xislarini shakllantirish lozim. Bu borada O'zbekiston Prezidenti shunday degan edi: «...O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni, ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...».²⁴

Bugungi kunda axborot taraqqiyoti misli ko'rilmagan tarzda taraqqiy etib bormoqda. Mazkur masalaning ijobiy jihatlari bilan birgalikda salbiy tomlari ham mavjud.

Bugungi yoshlar axborot globallashuvi zamonida "Internet" tarmog'idan turli ma'lumot va tasvirlarni ko'rish, o'qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomondan ijobiy holat bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishi, ularni axloqiy jihatdan tubanlashuviga, zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. G'arbdagi turli markazlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida har xil g'oyaviy zararli saviyasi past, ma'naviy tubanlikka yetaklovchi, animatsion va badiiy filmlar, rok-n – roll, pop, metallist yo'nalishlaridagi quloqni qomatga keltiruvchi, sharqona axloq-odobga xilof bo'lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e'tiboriga havola etishmoqda.

Bugungi kunda internet tarmog'ida to'qqiz mingdan ortiq o'z joniga qasd qilishni targ'ib etuvchi, to'rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdagi mavjud resurslarning o'n ikki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'lim-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo'lib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "Ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

Mustaqillik ma'naviyati Vatanga muhabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi. Unda milliy ma'naviy merosdan mukammal bahramandlikka intilish umumbashariy qadriyatlardan og'ishmaslik, o'zga millatlar madaniyati, o'zga mintaqa va o'lkalarda erishilgan ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish ishtiyoqi bilan uyg'unlikda to'laqonli natijasini topadi. Bir so'z bilan aytganda, haqiqiy insonparvar, Vatanga mehrdan, Vatan va millat, mamlakat va xalq oldidagi yuksak mas'uliyat hissidan boshlanadi.²⁵

Bugungi kunda milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish bevosita yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq ekan, bu albatta ta'lim tizimi bilan aloqador holda amalga oshiriladi.

Milliy mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or – nomusi, ishonch – e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot

²⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q/Muloqot.-1998.-№5.-B. 13.

²⁵ Ma'naviyat asoslari (Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma).-Toshkent: 2008.-142 bet.

yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Milliy g'oya bugungi tez sur'atlar bilan jadal o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boyligni asrab – avaylab, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur. Hozirgi sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib – unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

IQTISODIY TARAQQIYOT JARAYONIDA MA'NAVIYATNING O'RNI

B.B.Ibrohimov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi

Insonning ishlab chiqarish faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki o'zining ma'naviy jihatlari ham ega. Iqtisodiyot bilan ma'naviyat rivojiga bir xil katta ahamiyat bergan jamiyat o'zining yirik ijtimoiy ziddiyatlarisiz va qarama – qarshiliklarsiz barqaror taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligi, hamoxangligi ta'minlangan mamlakatda rivojlanish, taraqqiyotda ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi. Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat asosiy e'tiborni faqat moddiy boyluklarni ishlab chiqarish va ko'paytirishga qaratib, uni yaratuvchi insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni o'ylamasa, u albatta tanazzul va inqirozga yuz tutadi. Iqtisodiy rivojlanish faqat ma'naviy rivojlanish bor bo'lgan joydagina muvaffaqiyat qozonadi. Bundan ko'rinadiki iqtisod va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq.

Ma'naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma'naviyat yuksak bosqichga ko'tarila olmaydi.

“Ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'li mana shu”,²⁶-deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz. O'z-o'zidan ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida iqtisodiyot va ma'naviyat munosabatlari, ularning o'zaro aloqadorliklari va bir-biriga ta'siri masalasi to'g'ri hal qilinmog'i lozim.

Oldin iqtisodiy masalalarni, vazifalarni hal qilib, so'ng ma'naviyat bilan shug'ullanish lozim deguvchi ba'zi bir siyosatchi va nazariyotchilarning fikrlari mutlaqo xato bo'lib, yangi jamiyat, yangi hayot qurish jarayonida faqat zarar yetkazishi mumkinligini bugun hayotning o'zi har qadamda tasdiqlab bermoqda.

Yurtboshimiz iqtisod va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatib shunday degan edi:

“...Insonga xos orzu- intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak... o'rinni bo'ladi.

²⁶ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston, 1995, 47-bet.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish- o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi."

Ko'rinadiki, moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik, uyg'unlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdiridagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish jarayonida iqtisod va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligi asos qilib olinganligi hamda ahamiyati haqida Prezidentimiz: "Bizning islohotlar davomida nainki moddiy farovonlikka ayni paytda ma'naviy yuksalishga ham erishishni o'zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og'ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo'lgan muvozanat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda... faqat moddiy boylik ortidan quvish – xalqimizning azaliy orzu intilishlariga ham, insoniylik bilan yo'g'rilgan milliy qadriyatlarimiz mohiyatlariga ham to'g'ri kelmas edi. Shu bois islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o'zimiz uchun dasturil amal sifatida belgilab oldik",²⁷ - degan edi. Chunki har qanday iqtisodiy masalalarni ma'lum ma'naviyat va ma'rifat sohiblari hal etadilar. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat shuncha yuksak bo'ladi. Yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati ham yuqori bo'ladi. Demakki, ma'naviyati va ma'rifati yuksak inson yurt, mamlakat, xalq oldida o'ziga yuklatilgan ma'suliyatni chuqur his etadi. Shu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, fidokorona yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksaklikka parvozi uchun o'z hissasini qo'shishi kerakligini teran his etadi. Shunday qilib, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yuksak iqtisod bilan, yuksak iqtisod esa yuksak ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'lanib ketgan jamiyatda taraqqiyot oson kechadi.

Iqtisodiy munosabatlarda ma'naviyat masalalari, xususan insonparvarlik talablari va me'yorlari yetarlicha xisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarish o'sishi, iqtisodiy rivojlanish bo'lishiga qaramay jamiyatda insoniy axloqiy munosabatlar tanazzulga uchraydi, insonlar o'rtasida begonolashish kuchayadi. Bu esa oxir – oqibat natijada ijtimoiy – iqtisodiy tanazzulga olib kelishi mumkin.

Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarning qiymati tushib ketadi, madaniyat va ma'naviyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma'naviy qashshoqlik avj oladi, deb da'vo qiladilar. Erkin bozor iqtisodiyoti bilan ma'naviyatni bunday qarama – qarshi qo'yish mutlaqo o'rinsiz, aksincha yuqorida aytganimizdek ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin.

²⁷ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B.107.

G'UYALAR –IJTIMOIY HAYOT IN'IKOSI

Xurshid Mirzaxmedov - NamDU katta o'qituvchisi,

Shahnoza Mamatobilova – NamDU talabasi

Biz uchun yagona mafkura - bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir.

I. Karimov

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, g'oyalarning yashovchanligi to'g'risidagi o'z mulohazalarida ularning sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilib beradi, "Misol uchun, «Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir.

Ana shunday g'oya sifatida, I. Karimov "Avesto"ni misol keltiradi va unga yuksak baho beradi. "Ota-bobolarimizning asrlar davomida gullagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan – qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvoxlik beradi.

Milliy g'oyaning shakllanishida vatanparvarlik tuyg'usi markaziy o'rinni egallaydi. Mustaqillik va vatanparvarlik bir-biriga yaqin tushunchalardir. Vatan mustaqilligi, xalq farovonligi, erkin huquqiy munosabatlar, odamlarning ruhiy tetikligi, mag'rurligi – vatan ozodligidan boshlanadi. Shuning uchun ham xalq maqolida: «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas», - deb bekorga aytilmagan. Mustaqillik tuyg'usi insonda go'daklikdan boshlanadi. Oilada go'dakning har bir mustaqil harakatidan ota-ona zavq oladi. Inson mustaqilligi, oila mustaqilligi va Vatan mustaqilligi bir-biriga uzviy bog'liqdir. «Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib yuksala boradi. Prezident I.Karimov vatanparvarlik tushunchasi juda chuqur ma'noga ega ekanligini, uning mohiyati yuksak tuyg'ularga chorlashini ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, vatanparvarlik – o'tmishni anglash, ajdodlarimizga nisbatan chuqur hurmatni uyg'otish va shu orqali o'zligini anglash bilan uzviy bog'liqdir. O'zligini anglagan insongina Vatanni angelaydi. O'zlikni anglash, Vatanni anglash, bular shunchaki insonning yoki xalqning o'zigagina bo'lgan munosabatini ifodalamaydi. O'zlikni va Vatanni anglash dialektik xususiyat kasb etib, ular juda chuqur munosabatlarni ifodalaydi. O'zlikni va Vatanni anglash Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan «Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab

ketyupmiz? Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo‘yganida bizning o‘rnimiz qayerda va qanday bo‘ladi» deb aytganlar.

Milliy o‘zlikni anglash, bu o‘tmishni, hozirgi, jahon xalqlarining bizga bo‘lgan munosabatini, bizning jahon xalqlariga bo‘lgan munosabatimizni anglashdan iborat bo‘lsa, Vatanni anglash tug‘ilib o‘sgan yurtimizni, xalqimizni, uning ulug‘vorligini anglashdan iboratdir. Inson dunyoga bir marta kelganidek, uning Vatani ham bitta hisoblanadi.

Vatan mustaqilligini ta‘minlash yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan boshlanadi. Vatanparlik juda ulug‘vor tushuncha bo‘lsada, undan mafkuraviy dushmanlar juda nozik usullar bilan o‘zlarining qabix niyatlarini amalga oshirishda mohirlik bilan foydalanishga urinadilar.

Bugungi kunda ana shunday «vatanparvarlar» ortidan ergashgan juda ko‘plab yoshlarimiz vatangadolarga aylab qolganlari sir emas. Ular porloq kelajak haqidagi yolg‘on va‘dalarga uchib, ana shunday ahvolga tushib qolganlar. O‘tish davrining qiyinchiliklariga dosh bera olmagan, mustaqillikning ulug‘vor ekanligini anglab yetmagan yoshlar ozgina manfaat ortidan quvib Vatanni sotishga, o‘z ota-onalari, opa-singillari, aka-ukalariga qarshi qurol o‘qalishgacha bo‘lgan qabih ishlarga qo‘l urdilar. Ko‘plab yoshlarimiz bu xatolarni anglab yetmoqdalar. Lekin, Manfaatparastlik yo‘lida qilingan har bir qing‘ir ish, u qanchalik balandparvoz ta‘rif – tavsiflarga o‘ralmasin, fatvolar to‘qib chiqarilmasin, baribir Vatanga xiyonatdir. I.Karimov shuningdek, ana shu yoshlarning kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun kurashish zarur ekanligini ta‘kidlab o‘tadi²⁸.

«Men zamonaviy fikrlaydigan, Vatanga sadoqat ruhida tarbiya olayotgan, jahon taraqqiyoti va madaniyati bilan hamqadam bo‘lishga intilayotgan yuz minglab yoshlarimiz bilan bir qatorda, hali u darajaga yetmagan qanchadan-qancha farzandlarimiz ham borligini o‘ylasam, oldimizda naqadar katta muammolar turganligini yaqqol tasavvur etaman». deb aytganlar.

G‘oyaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o‘zi g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi, o‘zi yaratgan g‘oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e‘tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi.

Yuksak g‘oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G‘oyasi yetuk, e‘tiqodi butun, qadriyatleri yuksak insongina mardlik namunalarini ko‘rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari – buyuk g‘oya sohiblaridir.

Ming yillar o‘tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o‘chmaydi. Chunki ular yuksak g‘oyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo‘lida jon fido qilganlar. Axmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o‘tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug‘vor g‘oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan²⁹.

²⁸ Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O‘zbekiston, 2011. -B.20

²⁹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -Toshkent: Sharq, 1998. - B.7.

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi. Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya deb aytgan. Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch – bunyodkorlik va buzgunchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o'z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi.

ПЕРСПЕКТИВЫ ГЛОБАЛИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Н. Исмоилова - преподаватель кафедры «Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане».

Сохиба Хабибуллаева –ст-ка социально-исторического факультета 3 курса направления история.

Глобализация – это объективная реальность, исторический процесс, который нельзя игнорировать, остановить или отложить. Она представляет собой процесс возникновения единого общечеловеческого культурного, информационного, экономического пространства, усиления взаимозависимости и взаимовлияния государств и регионов. Регионы планеты становятся органическими компонентами мировой экономики и общемирового единого информационного пространства; будучи комплексным явлением, глобализация имеет свои специфические аспекты, взаимосвязанные и взаимообусловленные составляющие элементы. Главными из аспектов этого процесса являются глобализация в сфере идей и культуры, информационно-коммуникационная глобализация, экономическая глобализация и геополитическая глобализация. Глобализация как термин был популяризован английским исследователем Р. Робертсоном. В вопросах глобализации имеются шесть вопросов: политический, экономический, образовательный, информационный, лингвистический, культурологический.

Глобализация создала невиданные ранее возможности для человеческого развития, решения проблем, которые в предыдущие эпохи казались непреодолимыми. Она стала катализатором ускорения модернизации стран во всех регионах мира. Люди стали более мобильными, информированными, а

мировые рынки – более доступными и открытыми. Это позволило многим странам добиться впечатляющего экономического взлета. В государствах, совсем недавно бывших периферией мировой экономики и политики миллионы людей изменили стиль и качество жизни, достигнув уровня благосостояния, бессмысленного для предыдущих поколений; народы Центральной Азии, как и другие срединные общества, обладают предрасположенностью и особым потенциалом участия в широком международном сотрудничестве, в глобализационных процессах. Однако их вхождение в мировое сообщество в эпоху ускорения глобализации было сопряжено со специфическими трудностями переходного периода. Их интеграция в мировую экономику значительно осложнялась весьма неблагоприятными стартовыми условиями, особенностями географического расположения, структурой экономик устойчивое развитие Центральной Азии и каждой из стран региона невозможно без обеспечения широкого регионального сотрудничества и полномасштабного включения в общемировые глобализационные процессы. Центральная Азия обладает значительным ресурсным потенциалом для реализации крупных проектов регионального и мирового значения. Использование природных богатств и ресурсного потенциала любой из стран региона в силу геоэкономических условий требует взаимодействия с соседними странами.

Процессы глобализации общественных отношений приводят к значительному усложнению всей системы экономической, политической и социальной деятельности различного рода субъектов и формированию необходимых механизмов их управления и информационного обеспечения. При этом проведение системного анализа и исследования ряда операций сегодня невозможно без отлаженных информационных процессов. Развитие новых информационных и коммуникационных технологий, их широкое внедрение во все сферы жизни человека привели к их серьезной перестройке и появлению новых форм общественной деятельности. При этом сами информационные технологии и механизмы их функционирования, да и сама глобальная система новых цифровых взаимосвязей во многом основаны на достижениях интеллектуального труда. Именно благодаря многообразию современных средств коммуникации и обеспечивается процесс «цифровизации» общества.

Информационное общество – социологическая и футурологическая концепция, полагающая главным фактором общественного развития производство и использование научно-технической и другой информации. Концепция информационного общества является разновидностью теории постиндустриального общества, основу которой положили Д.Белл, З.Бжезинский, О.Тоффлер. Рассматривая общественное развитие как «смену стадий», сторонники теории информационного общества связывают его становление с доминированием «четвёртого», информационного сектора экономики, следующего за сельским хозяйством, промышленностью и экономикой услуг. При этом утверждается, что капитал и труд как основа индустриального общества уступают место информации и знанию в информационном обществе. Информационное общество – это достижение человеческой цивилизации, позволяющее иметь доступ к различного рода

ресурсам с целью не только узнавания всех процессов, происходящих в своей стране и в мире, но и с целью непосредственного участия в процессе формирования гражданского общества.

В Узбекистане формирование информационного сообщества находится пока еще на первичной стадии. Тем не менее, за последние годы также намечился определенный рост сетевых отношений. Расширились круг Интернет-пользователей, провайдеров, а также и количество отечественных веб-ресурсов

Республика Узбекистан является активным членом мирового сообщества и поэтому основные тенденции и последствия глобализации неминуемо проецируются во все сферы социальной жизни нашего общества. Для наиболее адекватного восприятия глобализационных процессов необходимо, в первую очередь, иметь представление об основных аспектах самой глобализации. Социально-философский анализ таких аспектов позволяет выявить специфические закономерности глобализационного развития и антиглобалистских тенденций в мире.

В Ташкенте в 2012 году состоялся «круглый стол», посвященный процессам глобализации и культуре пользования молодежью социальными сетями. В нем участвовали специалисты Узбекского агентства связи и информатизации, преподаватели и исследователи вузов, эксперты и журналисты.

На мероприятии отмечалось, что под руководством Президента Ислама Каримова в стране уделяется особое внимание обучению молодежи на уровне современных требований, ограждению ее от чуждых нашему менталитету вредных идей, подготовке зрелых специалистов, обладающих самостоятельным мышлением, широким мировоззрением.

Сегодня современные информационные технологии проникают во все сферы жизни. В частности, интернет превратился в наиболее массовое и скоростное средство передачи информации. В нашей стране большинство пользователей интернетом составляют молодые люди. В нынешних условиях, когда углубляются процессы глобализации, усиливаются попытки манипулировать сознанием людей, важной задачей является ограждение молодых людей от негативной информации в социальных сетях.

Независимым институтом мониторинга формирования гражданского общества проведено специальное социологическое исследование среди молодежи, посвященное данным вопросам. В нем приняли участие студенты около двадцати вузов. Согласно данным исследования, современная молодежь пользуется всемирной паутиной для получения информации. По мнению экспертов, получение молодыми людьми большого объема информации приумножает их знания, расширяет кругозор. Также было выявлено, что некоторые молодые люди заходят на иностранные сайты. Это требует более интенсивного развития национальных сайтов и увеличения количества информации, интересующей молодежь.

В ходе мероприятия состоялся обмен мнениями по вопросам ограждения молодых людей от негативной информации, повышения их навыков

пользования информационно-коммуникационными технологиями, развития национального сегмента в сети интернет.

Телекоммуникационная инфраструктура расширяется с каждым годом. Выход в сеть интернет становится всё более лёгким и доступным. Во всех учебных заведениях имеются компьютеры с доступом в интернет.

Молодёжь не представляет свою жизнь без интернета. Особенно подвержёнными влиянию интернета оказались подростки и молодёжь, для которых Интернет стал частью повседневной жизни:

- основным источником коммуникации и обмена информацией и способ проведения досуга и обмена формами (текстовыми, аудио, видео, фото и пр.);
- сферой развлечений;
- способом совершать покупки.

Для определения пользования интернетом был проведён опрос. Как предполагалось, основная цель использования интернета – образование(77 %). Также среди часто встречающихся ответов – для общения (59%), удовольствия (50%), узнаю новости – 42%. В первую очередь, интернет воспринимается пользователями как склад информации (82%), во вторую- как канал общения (50%) и местом отдыха и развлечения (45%).

На сегодняшний день почти вся молодёжь пользуются услугами интернета: по телефону 90% имеют доступ к интернету, из Net book 20% и 35% через Note book включая устройство модем выходят в сеть, а услугами «интернет кафе» пользуются почти 70% молодежи.

Студенты пользуются интернетом в основном для образования и общения, а также воспринимают интернет как склад информации. Почти многие пользуются услугами этой сети и с каждым днём этот процесс растёт.

MILLIY G'OYA VA YOSHLAR

Xurshid Mirzaxmedov - Nam DU katta o'qituvchisi

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milily g'oya va qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongiga qanday tasir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bog'liq.

Milliy g'oya deganda, ajodlardan-avlodlarga o'tib, asrlar davomida ezozlanib kelayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, tabir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid – maqsadlarini o'imizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunda keng ma'noli tushunchaning mazmu-mohiyatini ifoda qilgan bo'lardi. Yoshlar respublikamiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shuningdek, yoshlarning milliy g'oyani anglashi ishonch va etiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunki milliy g'oyabir tomondan, yoshlarni o'zining obykti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oy bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Bu holat milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bog'liqligini belgilaydi.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqda mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o'zining ijobiy munosabati shakllanadi. Demak, jamiyat milliy mafkura orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi³⁰.

Eng muhimi shundaki, har bir jamiyatda qanday maqsadda bo'lmasin yangi g'oya va konsepsiyalarga nisbatan yoshlar o'z munosabatini bildiradi va aholining boshqa qatlamiga nisbatan tezroq qabul qiladi. Chunki yoshlar fiziologik va psixologik jihatdan hali shakllanish bosqichida bo'lgani uchun ularda yangiliklarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi va uni e iqodiga aylantirish ehtiyoji katta bo'ladi. Shuningdek, yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik, jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibli holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim «adolatsizlik»lar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli yetkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milily g'oya, milliy g'urur va or-nomus bilan bog'liq maaviy-ruhiy xolatlar muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan say harakatlari va erishilayotgan amaliy natijalar xususida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e ibor berish yoshlarning jamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo'lgan ishonch-e iqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz, ma uchilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotchilarning birinchi darajali vazifa hisoblanadi.

Milliy g'oyaning yoshlarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati, talim va tarbiyada tutgan o'rni va roli uning hayot haqiqatlariga, real borliqqa, xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Hayot haqiqatlariga mos kelmaydigan, real voqelikdan, borliqdan, xalq hayotidan, kundalik turmushdan ajralib qolgan suhbatlar, ma uzalar, muloqotlar, uchrashuvlar qanchalik jozibador, obro'li bo'lmasin, baribir, uning amaliy samarasi bo'lmaydi. Yoshlarning ko'z o'ngida, qalbida turgan muammolarni o'zida aks ettirmagan, uni qiziqtirib kelayotgan savollarga yetarli darajada javob bermaydigan, odamlarning yuragiga jiz etib tasir ko'rsatmaydigan muloqotlar, mafkuraviy ishlar naf emas, uning obrusini tushiradi, bunday uchrashuvlarga yoshlar ishonmaydi, ixlos ko'yumadi.

³⁰ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.:O'zbekiston, 1999. – B.41.

Yoshlarda haqiqatga moyillik yuqori bo'la olmaslik, ko'z bo'yamachilik, so'z bilan amaliyoti boshqa bo'lmaganlardan jirkanadi, nafratlanuvchi ruhiyati kuchli bo'ladi.

Yoshlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, maaviy va ruhiy barkamollik kabi fazilatlari va ijtimoiy sifatleri butun jamiyatning rivojlanish darajasiga salmoqli tasir ko'rsatmoqda.

YOSHLARNI G'OVAVIY TARBIVIALASH MASALALARI

B. Tillayev - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Prezidentimiz ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yutkazishda tarbiyachi ustozlarning, ota-ona ibratining, ijodkorlarning, oilaning, mahallaning, madaniy-boshqaruv muassasalarining o'rni katta ekanligini doimo ta'kidlab kelmoqdamiz. Mana shu omillar ajdodlarimizning ma'naviy merosi avaylab asrashda, ularni yanada boyitishda jamiyatdagi amalga oshirilgan yangilanishlarda o'ziga yarasha katta ahamiyatga egadir. Jamiyatning yuksalib, o'zgarib borishini asosiy sababchisi bo'lgan voyaga yyotib kelayotgan yoshlarning ma'naviy tarbiyasi doimo juda dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda ham unga katta e'tibor berib kelinmoqda. Chunki yoshlar ajdodlarimiz boy ma'naviy merosini avaylab asrovchilar, ularni yanada rivojlantiruvchilardir.

O'zbekistonning ertangi kunga bo'lgan yoshlarni ma'naviy barkamol yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazib berishni ta'minlash barchamizning burchimiz va vazifamizdir.

Yoshlarning ma'naviy jihatdan yuksalib borishiga qaratilgan tarbiya uzluksiz bo'lishi kerak. Bunday mas'uliyatsiz jarayon tanaffuzsiz davom etishi kerak va hech qachon bo'shliqqa o'rin qoldirish kerak emas. O'zbekiston yoshlar mamlakatidir. Yurtimizning ertangi kuni bo'lgan mana shu yoshlarni ma'naviy yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazib borilishi jamiyatdagi yangilanishlarning yanada samarali bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'plab millatlar o'z ona tilida ilm olish imkoniga ega bo'ldilar. Bularning barchasi yurtimizda millatidan qat'iy nazar har bir insonni ma'naviy jihatdan voyaga yetkazishga qaratilgan siyosatdir. Boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ushbu vazifani milliy istiqloq g'oyasi bajaradi. Prezidentimiz "Millatni asrash kerak" degan g'oyani ilgari surdi. Millatni asrash - o'zligimizni, odob-axloqimizni, merosi, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalardan va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunityotni shakllantirish degan ma'noni anglatadi¹.

Turli millat vakillarining o'zga millat vakillarining tilini hurmat qila bilishi ham yuksak ma'naviyat belgisidir. Mustaqillik yillarida ko'p millatli O'zbekistonda,

¹ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. - B.78

turi millat vakillarining davlat tiliga hurmatda bo`lib kelishi amalda o`z o`rnini topib kelmoqda.

Insoning ma`naviy kamolotini ifodalab beruvchi fazilatlardan jamiyatning yangilanishini ta`minlab beruvchi omillardan biri- Vatanga muhabbat tuyg`usini his qila bilishlikdir. Vatan tuyg`usini his qila bilishlik muqaddas tuyg`u va yuksak ma`naviyat belgisi ekanligi to`g`risida gapirib, Prezidentimiz shunday dedilar: “Barchamizga ma`lumki, inson o`zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg`usi ildiz otib, ulg`aya boradi. Bu ildiz qonga teran bo`lsa, tug`ilib o`sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo`ladi”¹.

Milliy g`oyaning yoshlarga nechog`li ta`siri, safarbar etuvchilik, ilhomlantiruvchilik, buyuk kelajak sari chorlovchilik sohasidagi ahamiyati, ta`lim va tarbiyada tutgan o`mi va roli uning hayot haqiqatlariga, real borliqqa xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Milliy g`urur va or-nomus tuyg`ularini shakllantirishda xalqning madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ulug` mutafakkirlarning ibratli hayoti, bugungi erishilayotgan yutuqlar muhim. Yosh avlod ongida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy adolat haqidagi g`oyalarini singdirishda Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig”, Nizomulmulkning “Siyosatini”, Amir Temur “Tuzuklari”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” nomli mashhur asarlari tarixiy-ilmiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Yoshlarning maqsadi va orzu-umidlariga munosib go`zal hayot barpo etish juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb yotadi. Chunki “Kelajak buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo`lajak fuqarolarining madaniyati, ma`lumoti va ma`naviyati haqida g`amho`rlik qilmog`i zarur. Yosh avlodga ozod va obod vatanni merosi qoldirar ekanmiz, ular mutafakkirlarimizning, davlat rahbarlarining ulug` ishlarini davom ettirishlarini niyat qilar ekanmiz, yoshlarning ma`naviy uyg`oqligiga ahamiyat berishimiz lozim. G`aflat uyqusidan uyg`onib, erqin ko`z bilan kelajakka nazar tashlaydigan zamon keldi”.

Milliy an`analarimiz va udumlarimizni tiklash va rivojlantirish tamoyili kuchaydi. Islom dinimizni qadrlash ma`naviyatimizni yangi ma`nolar bilan to`ldirishga olib keldi. Ulug` bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorislik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo`ldik. Yurtimizda yashayotgan barcha millat va ellat vakillarining tinch-inoq yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo`lmoqda.

Yangi jamiyatning qaror topishi va rivojlanishi, o`z navbatida, ma`naviy yangilangan, rivojlangan va shakllangan avlodlar ruhining poklanishini ham taqozo etmoqda. Tafakkur va ongimizda mustaqillik g`oyalari mustahkamlanmoqda. Dunyoni, o`zimizni va o`zligimizni anglash imkoniyati qo`lga kiritildi. Bu yoshlar tafakkurini mustaqillik tafakkuri talablariga mos shakllantirmoqda.

Milliy g`oya, milliy tafakkur va milliy mafkura yo`lida yoshlar qanchalik birlashsa, jipslashsa jahon xalqlari ko`z o`ngida kuchimiz, mavqeyimiz va o`rnimiz shunchalik baland ko`tariladi. Hozirgi davr uchun dolzarb va asosiy hisoblangan milliy g`oya tamoyillari millat tarixi va uni idrok etish darajasiga bog`liq bo`ladi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – B. 90.

Milliy mafkuraning yoshlar ongi va tafakkuridan chuqur o`rin olganiga asosiy mezon shu aziz Vatanimiz, shu aziz xalqimiz qadriyatlarini barchamizniki, bu Vatan, bu millat uchun yashash va uning istiqboli uchun halol va pok mehnat qilish baxt ekanligini his qilishdir.

XXI asrda yashayotgan bugungi yoshlarimizning ma`naviyati ana shunday keng va chuqur, sof va beg`ubor bo`lmog`i darkor.

MILLIY QADRIYATLAR – YOSHLARNING MA`NAVIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL

Xurshid Mirzaxmedov - NamDU katta o`qituvchisi

Bugungi kunda turli zararli ta`sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo`lgan milliy qiyifa, betakror fazilatlar egasi bo`lib qolishimizda qadimiy an`ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilish yashash o`ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o`ziga xos bo`lgan an`ana va qadriyatlarini bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo`lgan bunday qadriyat va an`analar bir-ikki kunda paydo bo`lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko`rsatadiki, biror-bir narsaning an`anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o`tadi va sayqal topib boradi. Agar ular keying avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an`ana va qadriyat deb atash mumkin bo`ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog`liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma`naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog`liq holda namoyon bo`ladi.

O`zbek xalqining asrlardan asrlarga o`tib kelayotgan milliy qadriyatlarini ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan o`zi tug`ilib o`sgan ona yurtga ehtirom, o`z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o`tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko`rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e`tibor berish singari ko`plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlab ko`chmanchilikdan o`troq hayot kechirishga o`tgan, shunday hayot tarziga o`rganangan. Odamlar o`zi o`tmashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligini muhim manbaya hisoblangan³¹.

Demoqchimanki, xalqimiz o`zi tug`ulib o`sgan yer-zaminiga qattiq bog`langan, uni ezizlashni bolaligidan o`rganib, his qilib o`sgan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o`z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog`liq milliy an`ana va qadriyatlarini uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning

³¹ www.kitob.uz-bolalar kutuxonasi/ milliy an`ana va qadriyatlar

kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rstish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shavqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini-oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan ma'naviy merosimiz sanaladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlarida e'tiboran xalqimizning xotirasani tiklash, qadimgi urf-odatlar va qadriyatlarni e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qayatrish yuzasidan chinakkam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamlı jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning qadriyatlarga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib bormoqda. Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqorolarimiz namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning "Shu aziz Vatan barchamizniki" degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim ro'l o'ynamoqda.

Milliy qadriyatlar – yoshlarning ma'naviy tarbiyasini rivojlantiruvchi eng katta omillardan biri O'zbekiston Prezidenti asarlari hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatini tiklashda Prezident Islom Karimovning roli katta. Yurtboshimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Jamiyatimizning mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin», «Milliy istiqol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajagiga ishonchdir», «Ma'naviy yuksalish yo'lida», «Maktab-taraqqiyot, madaniyat va saodat kaliti» «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» va boshqa asarlarida zamonaviy milliy ma'naviyatimizning asoslari ishlab chiqilgan. Bu asarlarda milliy va ma'naviy kadriyatlarni tiklash va ma'naviyatni rivojlantirish g'oyalariga asoslangan ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berilgan.

Prezident Islom Karimovning yurtimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng qariyb bir yil keyin dunyo yuzini ko'rgan "O'zbekistonning o'z istiqol va taraqqiyot yo'li" asarida yaratganligini ta'kidlash joizdir O'zbekistonni taraqqiyotga burib yuborishda ma'naviy sohadagi bosh vazifalar mazkur asarda o'z ifodasini topdi. Shuni ta'kidlash lozimki, Sho'ro tuzumi davrida milliy tiklanish, milliy qadriyat, milliy til, milliy madaniy meros kabi iste'moldan chiqarib tashlangan taqiq sifat so'zlar Prezidentimiz asarida jilo topgach, millatimizning sevib-suyunchlanib aytiluvchi so'zlari sifatida lug'atimiz sahifasidan o'rin oldi, muomalaga kiritildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek ajdodlarimiz do'stlikning qadriga yetish, unga sodiq bo'lish, bag'rikenglik qilish ular bilan tinch-totu yashashda barcha ibratli an'analarga ega bo'lgan bu munosabatlarni ardoqlagan, avaylab avlodlarimizga yetkazib kelishgan. Maqol va matallar to'qishgan, misol uchun «o'zingga ravo ko'rmagan narsani o'zgaga ham ravo ko'rma», «do'sting uchun zahar yut!» «Yuz so'ming bo'lguncha, yuz do'sting bo'lsin» va shunga o'xshash yuzlab maqollar o'zga xalqlar, elatlar, qo'shni xalqlarga munosabat qanday insoniy tuyg'ularda ifodalanganligi dalildir³². Ushbu prezidentimiz asarlari, xalq maqollar va matallari ham yoshlarimizning ma'naviy ongida milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni yuksaltirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

³² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T: O'zbekiston 1993. -B.74.

O'QUVCHILAR ONGIDA YUKSAK MA'NAVIYATNI VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA AYRIM MASALALARI

O.Umarova, X.Akbarova - Uchko'prik xizmat ko'rsatish va servis kasb-hunar kolleji

Prezidentimiz aytganidek, “Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o’giti bilan birga singadi... ma’naviyat inson qalbiga kamol topishi uchun u qalbdan va vijdonan aql va qo’l bilan mehnat qilish kerak”.

Insoniyatning har qanday ulug’ maqsadlari, yangi jamiyat, farovon umr kechirish, jamiki inson zotiga xos bo’lgan komil insonlarga barkamol vatanparvar avlodlarga bog’liqdir.

Shunday ekan, insonlarning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo’nalish beradigan ma’naviyat yoshlarni o’z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqurroq bilish va tushunib yetishga yordamlashadi.

Albatta, inson ma’naviyatining sifat darajasini oshirishda nafaqat ota-ona, oila a’zolari, balki, fan o’qituvchilari, butun o’qish maskani katta vakolatga egadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim samaradorligiga erishish, ko’p jihatdan o’quv jarayonini to’g’ri rejalashtirish tashkil etish va amalga oshirishga bog’liqdir. Bu bog’liqlik quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

- dars mashg’ulotda bir qancha ilg’or pedagogik texnologiya qonuniyatlariga asoslangan noan’anaviy usullardan foydalanish;

- o’rganilayotgan manba bo’yicha muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish;

- boshqa fanlar bilan bog’lanish (integratsiyalashuvi);

- vatanparvarlikka oid mavzularni qiyosiy o’rganish;

- xalq og’zaki ijodidan foydalanish;

- sharq buyuk mutafakkirlarining qarashlarini chuqur anglash va ulardan foydalanish va h.k.

Shuningdek, o’qituvchi-pedagog o’z dars-mashg’ulotlarida o’quvchilarda tarixiy jarayonga aloqadorlik hissiyotini uyg’otish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda atrofda sodir bo’layotgan voqealarga mas’uliyatni shakllantirish katta o’rin tutadi.

Afsuski, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta’sir o’tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko’zga tashlanmoqda. Bunday mafkuraviy poligonlar jangovor qurollar bilan emas, balki, avvalo, inson qalbi va ongiga ta’sir o’tkazuvchi g’oyaviy qurollar bilan kurashish jarayonining kuchayib ketishi natijasida paydo bo’lmoqda.

Bundan tashqari, bir xilgi yoshlarda quyidagi salbiy tendentsiyasi yaqqol ko’rinmoqda:

- mo’maygina pul topish ilinjida chet elga ketish;

- odam savdosiga kirishish;

- o’z farzandlarini tashlab, chet el mamlakatlarga ishlash uchun ketish;

- o’z farzandlarining tarbiyasi bilan shug’ullanmasligi;

- o’z haq-huquqlarini bilmasligi va h.k.

O’qituvchi bularni va boshqa salbiy oqibatlarini o’rganib chiqishi, o’z dars-mashg’ulotlarida o’quvchilar ongiga quyidagi g’oya va qarashlarni singdirishi lozim:

- ota-onani hurmat qilish;
- o'zidan kichik bo'lganlarni himoya qilish;
- keksalarni e'zozlash;
- boshqa xalqlarning huquqlarini, dini, e'tiqodlari, madaniyatlarini tushunishga harakat qilish;
- tolerantlikka intilish;
- ota-bobolarimizning urf-odatlar va qadriyatlariga nisbatan hurmat bilan yashash;

- sharq mutafakkirlarining qarashlarini chuqur bilish va targ'ibot qilish;
- noxush harakatlardan uzoqroq yurish;
- davlat qonunlarini va Konstitutsiyasini ustun ko'rish va h.k.

O'zbek xalqining asosiy qadriyat va merosi – bu xushyor va ogoh bo'lishdir hamda o'z Vatani himoya qilishdir.

Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning mohiyatini ham ma'naviyati teran, boshqalar fikriga ergashmaydigan iymon-e'tiqodi sof avlodni yetishtirish masalasini tashkil etadi. Chunki e'tiqodsizlik, turli yot oqim va mafkuralarga erishish holati jamiyatni inqiroz sari yetaklaydi. Shuning uchun ham, I.A.Karimov barcha asarlarida yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondoshish va ularni yot g'oyalardan muhofaza qilish lozimligini ta'kidlaydi. “Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar, bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur”, deb ta'kidlaydi, Prezident I.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida Ta'lim sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad ham xalqimiz ongida saqlanib kelayotgan Vatanga e'tiqod g'oyalari yosh avlodga singdirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida mamlakatimiz kelajagini belgilay oladigan barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Masalan, ona tili va adabiyoti o'qituvchisi ma'naviy va milliy istiqbol g'oyasidan keng foydalanishi mumkin. Shartli ravishda mifologik qahramonlik, tarixiy qismlardan iborat bo'lgan. “Shohnoma”da Firdavsiy vatanparvarlik, xalqparvarlik, tinch-totuv yashash, adolat, ma'rifatparvarlik kabi g'oyalarni ilgari surgan.

Xalq qahramoni Rustam butun umrini Vatan va xalqni balo-qazolardan asrash, bosqinchilardan himoya qilishga sarflaydi. O'z hayotini xavf ostida qoldirib bo'lsa ham, xalqni Yaman sehrgarlari va Mozandaron devlari qo'lidan xalos etadi. U bu yo'lda yetti dahshatli to'siqni yengib o'tadi. Yana bir qahramon obrazi Siyovush hamisha adolat uchun, turli xalqlarning tinch yashashi uchun kurashadi, qonli urushlar oldini aql-zakovat bilan, sulh yo'li bilan olishga intiladi. Uning asarlaridagi Zoli, Zar, Sudoba, Suhrob, Hojir va Humoy singari obrazlar ham o'z ona zaminini asrash, yer yuzida adolat tantanasi uchun kurashadilar. Feodal o'rta asri sharoitida xalq qahramonligini ulug'laydi, chinakam vatanparvarlik g'oyalari ilgari surishga o'rgatadi.

Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,
Bilimdan keksalar dili navqiron,
Ikki do'st turarkan yelkama-elka
Tog'larni ham oson ayladi tilka.

(Firdavsiy hikmatlaridan)

Bugungi kunda jamiyatning yuksak ma'naviy axloqiy salohiyati va buyuk aqldollarimizning boy ma'naviy merosidan keng foydalanish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek adabiyotida harbiy vatanparvarlik mavzusi g'oyalari uzoq tarixga ega. Jasur, mard yurt himoyachilari haqidagi qadimiy rivoyatlar ("Shiroq" va "To'maris") va xalq qahramonlik dostonlari ("Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avuzxon") dan tortib, yozma adabiyotimizning yorqin namunalari bo'lgan Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Navoiyning "Xamsa"sidagi "Farhod va Shirin" dostonlarning asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, dars-mashg'ulotlarda integratsiyalashuv jarayonini tashkil etishda yoshlar ongida yuksak ma'naviyatni shakllantirish hozirgi kunda ham dolzarb masalasiga aylangan.

Har bir o'qituvchi kitob bilan ishlash, darslikdan unumli foydalanish, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish kabi ishlarga o'quvchilarni jalb qilishi kerak.

Eng asosiysi, har bir o'quvchining ideali bo'lmish ota-ona yoki opa-singil, aka-ukasini ham kitobxonlikka jalb qilishi zarur. Shuning uchun ham Respublikamizda "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar" belgilangan.

Davlat tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ota-onalar bilan ishlash g'oyasi mavjud, chunonchi, ota-onalar mas'uliyati to'g'risidagi g'oyasi olg'a surilgan.

AXBOROT - MAQSADGA ERISHISHNING GLOBALLASHGAN USULI

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi

Turli sivilizatsiyalar bir-biridan farqlanishi yomon emas, dahshatlisi, ularning bir-birini yeyishga harakat qilishidir, bunda eng asosiy qurol-axborot. Jamiyat taraqqiylashib borgani sari ilm-fan, texnika, san'at ham yangi-yangi marralarni zabt etmoqda. Bu jarayonlarda axborot va axborot vositalarining o'zmi beqiyosdir. "Bugungi kunda-degan edi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov-insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol - yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta havf - insonlarni qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlari emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Kurashning bu turida eng samarali qurol-axborot". Shu bois axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda.

"Axborot uni uzatish va qayta ishlash yig'ish bosqichlari o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya'ni insonning oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarning asosi ham, dunyo davlatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarning manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Siyosat, avvalo ma'lum bir axborot maydonida amalga oshiriladi. Bu gaplarning tag zamirida qanday ma'no borligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Siyosat so'zining ma'nosi boshqaruv demakdir. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoga hukmronlik qiladi. Demak axborot maydonida boshqaruvchanlik qobiliyati yordamida

insonlar o'zining muayyan maqsadlarini amalga oshiradi³³. Mutaxassislar xulosasiga qaraganda rahbarlar, boshqaruv hodimlari o'z vaqtlarining 30%dan 80-95% gachasini sarflashar ekan. Axborot oqimlari haqida ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tadigan bo'lsak: - Vaqt va narx nuqtai nazardan:

- 50 yil oldin 30 betli matnni 5 ming kmga yuborish uchun 10 kun va 30 dollar kerak bo'lgan;

- 20 yil oldin bunday harakat bir soat va 50 dollarni talab qilardi;

-bugungi kunda bunga 3 soniya va 3 sent kerak;

Tezlik va hajm nuqtai nazardan:

oxirgi 50 yil ichida axborot tezligi va hajmi 1mln marta ko'paydi.

Inson bilimi nuqtai nazardan:

- 70-yillarda inson bilimi har 10 yilda 2 barobar oshardi;

-80-yillarda har 5 yilda;

-90-yillarning oxirida har 1 yilda.

Bugungi kunga kelib, qadim zamonlarda butun umri davomida oladigan ijtimoiy ma'lumotlarni odamlar bir kunda olmoqda ekan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli axborot xurujlari bo'lsa eng samarali vosita axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi. Hozirgi kunda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotlarning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Axborot xuddi manba faoliyat asosi bo'lganidek, qurolham bo'lishi mumkin. Bugungi globallashuv davrida axborot ta'sir etishning tezlashgan usuli bo'lib, jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubormoqda.

Axborot vositalari afzalliklari bilan bir qatorda yoshlar ma'naviyatiga mafkuraviy ta'siri, havf-xatarlarit o'g'risida ham so'z yuritishga to'g'ri keladi. Xorijiy ekspertlarning hisobiga ko'ra, hozirda axborot xurujlarini tashkil etish va olib borish uchun yiliga 120 mlrd dollar miqdorda mablag'sarflanadi. AQSH da axborot havfsizligiga qaratilgan umumiy harajatlar hozirgi paytda o'rtacha 50 mlrd dollarga yetadi. AQSH Savdo vazirligining ma'lumotiga ko'ra radio o'z auditoriyasini 50 mln odamga yetkazish uchun 30 yil, televediniyaga 13 yil ketgan bo'lsa, Internetga bor yo'g'i 4 yil yetarli bo'ldi. Xitoyda hozirgi "Axborot urushlari" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Bu endilikda axborot urushlari sanoatlashgan darajadagi mexanik urushdan, boshqaruv usllari va qarorlari urushiga, bilimlar va intellektuallar urushiga o'tilishini anglatadi. Germaniyada 500 nafar mutaxasis va yillik 50 mln yevro budjetga ega bo'lgan "Informatsion texnika xavfsizligini ta'minlash markazi" tuzilgan. Dunyo mamlakatlari axborot xurujlariga qarshi o'zida g'oyaviy immunitetni shakllantirmoqda.

Aslida hayotning o'zi turli - tuman g'oyalar kurashidan, bahs munozaralardan iborat. Taraqqiyotning ma'no - mazmuni kerak bo'lsa falsafasi ham shunda, ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda ogoh va sergak bo'lishdir.

³³ Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li -T.: O'zbekiston, 1992. -B.146

MILLIY- MA'NAVIY QADRIYATLAR

B.B.Ibrohimov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatları Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada turuqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga moil, tushunarli va yaqin bo'lgan Sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamu ko'st foydalanmog'imiz lozim.

«Bizning kelajagi buyuk davlatimiz, - deydi I. Karimov, - ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshiband, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temyp, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim»³⁴.

Darhaqiqat, islom ta'limoti ming yillar mobaynida xalqimiz yaratgan boy madaniy va mafkuraviy merosdir, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ijobiy rolini aslo inkor etib bo'lmaydi. Akademik Izzat Sulton ta'kidlaganidek, «diniy e'tiqodlarga keng yo'l ochilgan, din bizning madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lib qolgan bugungi kunda bizga diniy e'tiqod bilan sug'orilgan, ollohni tanishga asoslangan axloq zarur. Xalqimizning butun tarixi mobaynida ishlangan, asrdan - asrga boyitib va mukammallashtirib borilgan axloq bugungi va kelajagimizdagi axloqiy qoidalarimizga asos bo'la oladi»³⁵.

Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etish imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Bugungi kunda ulug' bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Baqovuddin Naqshband, Najmiddin Kubroning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi.

Avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmish tarixi va hayotini aks ettirgan asarlarning o'z ona tilimizda nashr etilayotganligi quvonchimizga quvonch qo'shmoqda. Endilikda o'tmishimizning ko'pgina sahifalari hujjatlar, qo'lyozma materiallari, birinchi manbalar asosida yoritilmoqda. Tarixiy haqiqatlar asl manbalarga tayanib tiklanayapti. Bularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g'alabasi, tantanasidir.

To'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy ma'naviyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni benihoya kattadir. Jamiyatimizda ruy berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun mohiyati jihatdan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o'rinni dunyoqarash masalasi egallaydi.

³⁴ Karimov I. A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - Toshkent: O'zbekiston, 1995. -B.9.

³⁵ Izzat Sulton. Bohovuddin Naqshband adabiyoti. - T.: Xalq merosi, 1994. -B.81.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kafshiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan — insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash — bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olamidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak - atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologik diniy, falsafiy dunyoqarash — ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga borliq bo'ladi.

Inson faoliyatida ilmiy falsafiy dunyoqarash asosiy rol o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlar, haqida yaxlit ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini, materiyaning doimo harakatda va rivojlanishdiligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida tasavvurlar hosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasi hisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifasidir.

JAMIYATNING MA'NAVIY HAYOTI

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi,

*M.Muhammadazimova - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Tarixiy milliy qadriyatlar, urf – odatlarning tiklanishi xalqning milliy ruxiga kuchli ta'sir etdi. Ona – tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va milliy g'oyaga sadoqat, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta ro'l o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etadi.

Mustaqillik sharoitida boy o'tmishimiz va milliy madaniyatimiz xolisona, ilmiy asosda o'rganila boshladi, ularga to'g'ri yondoshuv va munosabatlar yuzaga keldi Chunonchi, Eron axmoniyalariga qarshi Shiroqning, Iskandar Zulqarnaynaga qarshi Spetamening, arab fothihlariga qarshi Abu Muslim va Muqannalarning, mo'g'ul istilosiga qarshi Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Mahmud Torobiy va boshqalarning, ayniqsa adolatparvar, ma'rifatparvar xukmdor Amir Temurning sa'i-harakatlari, shuningdek, Po'latxon, Dukchi Eshon qo'zg'olonlari - bularning bari hech qanday «sinfy kurash»ga aloqasi yo'q edi.

Bunday harakatlarni yuzaga keltirgan, unga kuch bag'ishlagan asosiy omil milliy g'oya bo'lib, uning mohiyatini yurt ozodligi, tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi tashkil etardi.

Kishi yaxshi inson bo'lib yetishishi uchun yaxshilar bilan suhbatdosh bo'lib, yuxshilarni qidiradigan, ularga ergashadigan bo'lishi lozim.

Agar kishi yaxshilar bilan hamfikir, hamqadam bo'lmasa, unday odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Kishi shirinso'z, muloyim bo'lishi, atrofidagi kishilarni qo'pol, qattiq so'z bilan bezdirmasligi lozim. Mana shu hayotiy g'oya, falsafiy xulosa buyuk shoirlarning asarlarida o'zining teran badiiy talqinini topgan.

Ajdodlarimiz merosi va ma'naviyatini o'rganish biz yoshlarda g'urur uyg'otib, aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan soha o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umumdavlat siyosati miqyosidagi vazifadir. Darhaqiqat yoshlarni milliy g'oyani anglashi, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri. Zero, umuminsoniy qadriyatlar barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonlarda ham ahamiyati cheksiz bo'lgan. U jamiyat ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun zaruriyat bo'lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo'lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og'zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo'lgan vosita deb bilganlar.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili, inson ma'naviy faoliyatining mahsuli, uning moddiy dunyoga bo'lgan munosabatining ifodasi bo'lish bilan bir qatorda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

ДИАЛЕКТИЧЕСКОЕ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ УЧЕНИЕ ГЕРАКЛИТА

Ташбаева Д. Х. - к. ф. н. НамГУ

Гераклит из Эфеса (ок. 544 г. – 480 г. до н.э.) – древнегреческий философ, автор не дошедшего до нас философского сочинения, сохранившегося лишь во фрагментах (более 100). Гераклит излагал свои мысли афористически, в загадках и

образах, и за трудность интерпретации своего метафорического языка современниками был назван «темным», а за пессимистические взгляды на жизнь (в силу невозможности повлиять на ход дел в общественной жизни города, где торжествовала власть демоса) его называли «плачущий».

Своеобразием материалистической концепции мира у Гераклита является выбор в качестве первостихии, или первоэлемента, огня. Этот выбор мог быть объяснен народными представлениями о могучей силе огненной стихии. Специалисты считают, что свою роль в учении об огне, как и в концепции о борьбе противоположностей, могли сыграть идеи древневосточной, а именно зороастрийской религиозной философии об определяющем значении божественного огня.

Чтобы усилить философскую образность вечной огненной изменчивости, Гераклит чувственный мир уподобляет текущей реке, воды которой каждый раз в своем движении обновляются. Выражение «*В одну реку нельзя войти дважды*» устойчиво закрепилось за Гераклитом. Отсюда сильнейшей стороной философской системы Гераклита была ее диалектичность. Философ был убежден в подвижности и изменчивости всего сущего, и это свое убеждение он сумел доказать великолепно сопоставив жизненный процесс с водным потоком. Однако Гераклит и борьбу трактует предельно диалектически, у него это не просто раздор, это борьба противоположностей, которая, по мнению философа, составляет суть жизненного процесса и является, таким образом, стержнем существования. Ключевой концепт диалектики, в современном понимании, у Гераклита оказывается той гармонией, на которой держится целое в том смысле, что противоречивость сближает, разнообразие порождает прекраснейшую гармонию, и все через распрю создается. Венчает всю эту диалектическую конструкцию закономерное в этой связи убеждение в относительности всего сущего: «Муж, – утверждает Гераклит, – считается глупым у божества, подобно тому, как ребенок у взрослого <...> самая прекрасная обезьяна безобразна по сравнению с родом людей <...> мудрейший из людей по сравнению с богом кажется обезьяной – и по мудрости, и по красоте, и во всем прочем». [1].

Демократия в политике воспроизводит чувственный хаос мира, являясь воплощением принципа множественности на уровне социума. И как наилучшим и разумным в природе вещей является божественное разумное единство, так и в социальной жизни следовало бы, считает Гераклит, по возможности придерживаться единства. А это соответствует монархии как наилучшей форме правления. Формальной стороной единства и стержневым моментом построения любой формы государственности является закон, так что даже и при демократической форме правления соблюдение законов должно быть главным принципом управления.

Задумываясь над жизнью человека в обществе, Гераклит прежде всего столкнулся с проблемой *этоса* (нрава), т.е. с проблемой тех глубинных импульсов, которые определяют поведение человеческой личности в среде себе подобных. Выражаясь по своему обыкновению аллегорически, он говорит о подвластности человеческого нрава особому демону, по всей видимости,

воплощающему иррациональное начало: «нрав человека – его демон». Всё это приводит его к неутешительному заключению о слепоте человеческого нрава в сравнении с нравом божественным, под которым надо понимать воплощенную мудрость логоса. Гераклит имеет здесь в виду, что нрав человеческий не обладает прозрением, а божественный обладает.

Философ отмечает, что люди пытаются упорядочить свои отношения посредством законов, однако установленные таким путем понятия о справедливом и несправедливом весьма условны, ведь для Бога всё прекрасно, хорошо и справедливо, а люди одно приняли за справедливое, а другое за несправедливое. Людям трудно за поверхностью явлений обыденности рассмотреть действие глубинного естественного порядка и свои поступки, и правила согласовать с требованиями этого общего закона: «Разумение – величайшая добродетель, и мудрость в том, [чтобы] говорить правду и действовать в согласии с природой, ей внимая» [2]. Это положение имеет силу как вообще, так и для политической жизни в особенности: «Все желающие говорить разумно должны опираться на это всеобщее, подобно тому, как государство [зиждется] на законе, и даже еще крепче» [3].

Этика Гераклита оказывается вполне обусловленной той аристократической средой царского рода, к которой он принадлежал по рождению, по воспитанию. На первый план философ выдвигает традиционные аристократические идеалы воинской доблести и славы

Все эти положения, относимые собственно к области этики, являются в то же время и элементами политической доктрины Гераклита, которая, взятая сама по себе, как отношение к бытующим формам социально-политического устройства, носит еще более прозрачный характер. Время от времени мы и здесь сталкиваемся с превосходным применением общих диалектических принципов и глубоким постижением природы социально-политических отношений: «Война есть отец всего, царь всего, она сделала одних богами, других людьми, одних рабами, других свободными» [4].

Подчеркнем, что подобное постижение жизни оказалось возможным для Гераклита не только благодаря подвижной городской среде, в которой он жил, но и исключительной наблюдательности и уму, которыми он обладал от природы. Такая философия появилась в силу особенной, высокой культуры, унаследованной им от своих аристократических предков. Философия Гераклита Эфесского являет собой вершину интеллектуального развития мира ионийских греков. Это, как считают многие специалисты, – наиболее впечатляющий итог старинной аристократической культуры, стимулированной к новой жизни прогрессивными общественными импульсами. Существо философского учения Гераклита состоит в целостности развитого им взгляда на единую природу мира – огонь и единую проникающую его закономерность – логос. Однако главное в философии мыслителя – её диалектичность. Гераклита можно считать основоположником античной диалектики.

В христианской традиции с большим сочувствием было воспринято учение Гераклита о божественном логосе. В античности его философия оказала влияние, прежде всего, на учения софистов, Платона и стоиков.

Можно провести параллель от учения Гераклита к учениям китайских даосов. Прежде всего, понятия, данные Гераклитом в качестве основных, очень схожи с философией даосизма: Это Дао, Великий путь у Лао Цзы, и Логос – общий закон у Гераклита. И тот и другой – это всепроникающее, всемогущее, все – присущее нечто, неподвластное постижению земным разумом. Оба учения признают целью человеческой жизни постижение этого нечто. Второе центральное понятие в обоих учениях – это некоторая движущая сила, направляющая все бытие. Для даосов это сила – Дэ, сила, выполняющая функцию вскармливания, перевода огромного общего Дао в каждый земной объект или явление. Гераклит такую силу называет Дике, или Справедливость. Дике у него служит для претворения логоса в жизнь, для его воплощения на Земле в виде некоего всеобщего справедливого закона. И, наконец, оба учения, пронизанные зачатками диалектики, представляют мир как постоянно изменяющийся вследствие неустанного перехода из одного состояния в противоположное. Стало быть, с некоей долей философской иронии, можно заключить, что у даосов этот переход осуществляется от светлого к темному, а у Гераклита от горячего к холодному...

У Гераклита воистину торжествует рационализм, под которым следует понимать систему положений, облеченных в яркие образы. Одной из главных причин образности и глубины мировоззрения Гераклита могло быть и то, что мыслитель, возможно, был не столько натурфилософом, сколько социологом и психологом. А никакая трактовка человеческих и социальных проблем невозможна без эмоции, а стало быть, и без художественно-публицистической окраски. Вот почему у истоков научной социологической мысли и соответствующего литературного жанра мы находим колоритную фигуру ионийского мудреца Гераклита из Эфеса.

Выводы. Величие Гераклита как мыслителя заключено не в соответствии его политических идей передовым общественным устремлениям, а в общем созвучии его диалектико-материалистического учения прогрессивному духу времени. Для философии Гераклита характерно особенное проникновение в суть жизненных процессов, постижение наиболее важных закономерностей, которыми направляется развитие мира.

Гераклит не стесняется в своих «социально-философских выражениях». Впрочем, в устах человека, который имел предками царей, да и сам в свое время обладал царским саном, такие заявления не должны выглядеть неожиданными. На самом деле, судя по горделивым притязаниям философа на мудрость, таким одним, достойным власти, представляется ему, прежде всего, мудрец-аристократ. И существо его высказываний и используемая при этом традиционная терминология выдают глубочайшую, убежденную элитарность, этико-гносеологическая природа которой (лучший – это тот, кто разумнее других), чтобы там ни говорили, неразрывно связана с природою социальною (лучший это тот, кто от знатных своих предков вместе с фамильным наделом унаследовал и доблесть, и мудрость, возвышающие его над остальными).

Литература:

1. Бакина, В.И. Космологическое учение Гераклита [Текст] / В.И. Бакина // Вестник Московского университета. Серия 7: Философия. – 1998. – № 4. – С. 42–55.
2. История мировой философии [Текст] : учебник / А.И. Алешин [и др.]; под ред. В.Д. Губина, Т.Ю. Сидориной. – М., 2007.
3. История философии [Текст]: учебник / под ред. В.П. Кохановского, В.И. Яковлева. – Ростов н/Д : Феникс, 2008.
4. Соколов, В.В. Историческое введение в философию: история философии по эпохам и проблемам [Текст] : учебник / В.В. Соколов. – М.: ТК Велби, 2004.

GLOBALLASHUV VA MA'NAViy-AXLOQiy INQIROZ

Orifxo'jayeв Ayubxon - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3 bosqich talabasi

XX asr oxiri va XXI asrning dastlabki o'n besh yilligi yer shari uzra globallashuv jarayonining yanada yuqori sur'atlar va sifat ko'rsatkichlarida kechayotganligi bilan xarakterlanadi. Globallashuv aslida jamiyat hayotining barcha sohalaridagi integratsiyalashuv jarayoni bo'lib ijobiy mazmun va mohiyatga ega. Ushbu ijtimoiy-siyosiy jarayon bugungi kunda ilmiy-falsafiy tushuncha sifatida juda ko'p ma'nolarni ifodalaydi. Ya'ni globallashuv jarayoni keng ma'noda iqtisodiy munosabatlarni (birgalikda ishlab chiqarish, qo'shma korxonalar faoliyati, transkontinental birlashmalar, savdo-tijorat korxonalari, xalqaro kontsertsiyular va boshqalar) umumiy lashuvi bilan boshlangan. Ushbu tamoyil iqtisodiy sohalarini qamrab olish bilan cheklanmay, keyingi paytlarda ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy axloqiy sohalariga ham jadal kirib bormoqda. **“Globallashuv yana shunisi bilan xarakterliki, insoniyat tarixida biror bir voqea, xodisaniing sanoqli kunlar ichida butun yer yuzasini qamrab olish qudratiga ega bo'lgan jarayondir”¹**. Globallashuv yana shu jihatdan o'ziga xoski, bugungi kunda eng konservativ tipdagi, mustahkam chegaralarga ega bo'lgan biror bir davlat ham ushbu jarayondan mutlaqo o'zini himoya qilolmaydi. Zotan, iqtisodiy integratsiyalashuv xalqlarni nafaqat mulkiy jihatdan yaqinlashtiradi, balki ijtimoiy sohalarda ham hamkorlik, sheriklik va fikr, axborot almashuvlari bilan yaqin munosabatlarga olib keladi.

Ishlab chiqarish faoliyati, ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi xalqlarning o'zaro hamkorliklari, mehnat migratsiyasining rivojlanishi tabiiy ravishda turli madaniyatlarining yaqinlashuviga, ularni o'zaro ta'sirlashuviga olib keladi.

Daslabki bosqichda globallashuv jarayoni iqtisodiy sohalarda ijobiy holat sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, zamon o'tishi bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarda o'zining salbiy tomonlarini ham namoyon eta boshladi. Dunyodagi bugungi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, globallashuv tufayli vujudga kelgan jamiyatdagi “jarohatlar” ning turli tomonlarini namoyon eta boshladi.

Bu birinchidan, globallashuv jarayonida elektron aloqa tizimining paydo bo'lishi, internet ijtimoiy tarmoqlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi oqibatida "ommaviy madaniyat"-ni o'rgimchak to'riday sayyoramizni qamrab olishida, **ikkinchi tomondan**, globallashuv va mehnat migratsiyasi natijasida odam savdosi, mehnatga yaroqli kishilarning milliy-etnik, diniy-fundamentalistik mojarolar yuz berayotgan hududlarga, ayniqsa Yaqin Sharq mamlakatlariga borib, xalqaro diniy terroristik tashkilotlar ("Al-qoida", "Hizbulloh", "Ixtvonun-muslimin", "Islom davlati – Levante" va boshqalar) domiga tushib, jangari guruhlar safida harbiy harakatlarda ishtirok etayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining so'nggi xabarlarida ta'kidlanishicha, ayni kunlarda Suriya-Iroq hududlarida tuzilgan "Islom davlati – Levante" harbiy tuzilmalari safida Buyuk Britaniyaning 2400, Frantsiyaning 1800, Germaniyaning 2200, Italiya, Ispaniya, Gollandiya, Daniya, Belgiya kabi NATO blokiga a'zo mamlakatlarning 1200-1400 nafarga yaqin fuqarolari xizmat qilmoqda. MDH davlatlaridan Ukraina va Qirg'iziston fuqarolarining Islom terroristik tashkilotlari safida xarbiy harakatlarda ishtiroki haqida ma'lumotlar mavjud. Globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari ayniqsa madaniy-ma'naviy hayotda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. "Ommaviy madaniyat"ni ijtimoiy hayotga chuqur singib borishi natijasida axloqsizlik, behayolik, zo'ravonlik, irqchilik, diniy aqidaparastlik, fashizm va boshqa inson sha'nini yerga uradigan g'oyalarni targ'ib qiluvchi salbiy ma'nodagi audio, video, bosma materiallar hajmi keskin ko'paydi. Bunda global ijtimoiy tarmoqning roli beqiyos darajada o'sib bormoqda. "Ommaviy madaniyat" ayniqsa qadimgi Osiyo xalqlari ongida asrlar davomida shakllanib ustuvor mavqega ega bo'lgan sharqona turmush tarzi, axloq-odob me'yorlari, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini yemirilishiga, sharq xalqlari ma'naviyatini inqirozga yuz tutishiga qaratilganligi bilan namoyon bo'lib bormoqda.

Globallashuv jarayonining xalqlar hayotida tobora salbiy o'rin egallab borayotganini muhtaram yurtboshimiz shunday ifodalagan: "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgorigidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqaga qolib ketishi hech gap emas. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam albatta kuzatishi muqarrar"².

Globallashuv va "Ommaviy madaniyat" keyingi paytda ko'proq keng omma, ayniqsa yoshlarda shaxs ma'naviyatiga ta'sir o'tkazuvchi, shaxsning ma'naviy inqiroziga olib boruvchi, sharqona oila, turmush tarziga ta'sir etuvchi, sharqona axloq-odob me'yorlarini yemiruvchi vositaga aylanmoqda.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda "hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarini mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda barmisoli balo-

qizidek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashishning naqadar muhim ekanini anglab olmoqda³⁵.

Xo'sh, ushbu tahdidni oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Eng avvalo yuqoridagi mafkuraviy xavf-xatar, tahdidlardan yoshlar ongini himoyalash uchun zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishni cheklash bilan emas, balki ularni milliy-ma'naviy g'oyalarga, an'anaviy axloq-odob me'yorlari, umumbashariy va milliy qadriyatlarga sadoqat, insonparvarlik, vatanparvarlik, o'z eli-yurtiga sodiq, ma'naviy-ruhiy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash lozim.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol, sog'lom ilmiy dunyoqarashga ega, axloqan yetuk, bilimdon, turli zararli g'oyalarga qarshi tura oladigan, o'tkir zehnlil, mustaqil fikrga ega, tashabbuskor qilib tarbiyalashda oila, mahalla, ta'lim, tarbiya muassasalari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar, nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'zaro yaqin hamkorliklari muhim o'rin egallaydi.

AMIR TEMUR TUZUKLARI, UNDA ILGARI SURILGAN MA'NAVY G'OYALAR

*Xurshid Mirzaxmedov - Namangan davlat universiteti
katta o'qituvchisi,*

Ilhom Karimov - Namangan davlat universiteti talabasi

Zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ihsanli hayotlari va faoliyatlari, bema'l ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim

I.A.Karimov

«Tuzuki Temuriy», «Malfizoti Temuriy» va «Voqeoti Temuriy» nomli asarlar e'tiborga molik tarixiy manbaalar jumlasidandir. Bu asarlarning nusxalari, qo'lyozmalari ham, toshbosmalari ham ko'p tarqalgan, «Temur tuzuklari»-podshohlarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat: birinchi qismda jahon tarixida mashhur Fotih sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotigacha (1405 yil 18 fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, feodal tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, jumladan: Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritish, Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon (1376-1395), butun Yevropaga qo'rquv va dahshat solgan Turkiya Sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402)ga qarshi va nihoyat, Buyuk Jahongirning Ozarbayjon, Gruziya, Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan³⁶.

Ikkinchi qismi Jahongirning nomidan aytilgan va uning toji taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. U davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalari va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiy larni maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va

³⁶B.Ahmedov. «Temur tuzuklari» -T.: G'ofur G'ulom, 1991.-77 b.

qo'shin boshliqlarini burch vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko'rsatgan xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. Asarning muallifi ma'lum emas. Butun voqea bir shaxs Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Aslida shundaymi, yoki Amir Temur aytib turib kotib yozib olganmi, yo bo'lmasa uning aytganlarini kimdir jam qilib kitob tuzganmi, buhaqida qat'iy fikr aytish qiyin. Sharq mamlakatlarida mashhur bu asar chindan ham Amir Temur tarafidan yozilganligi va uning tarjimai holi ekanligi e'tirof qilindi. Chunonchi Somiyning «Qomusul-A'lam» asarida Amir Temurning «Tuzukot»-unvonli qonunlar majmuasini qalamga olib unda o'zining tarjimai holi ekanligi e'tirof qilinadi. Temur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi urushlar tarixini yozgan fransuz sharq shunosi M.Sharmu va rus harbiy tarixchisi M.I.Ivanin (1801-1874 yil) «Tuzuklar»ni Amir Temur o'zi yozgan va u muhim avtobiografik asar deb aytganlar. Biroq yevropalik boshqa bir guruh olimlar «Temur tuzuklari» ni soxta asar, uni Amir Temur yozmagan deydi. Ingliz olimi Ch.A.Storn yuqorida nomi zikr etilgan Mir Abu Al Xusayniy at-Turbatiyni asar muallifi deb taxmin qilgan. Xullas, qanday bo'lmasin asarni Temur yoki boshqa odam yozganligidan qat'iy nazar u soxta emas balki chin asardir. «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi uning zamonida, aniqrog'i 1342-1405 yillar orasida Mo'varounnahrningi jtimoiy-siyosiy ahvoli Temur va temuriylar davlati hamda, qo'shinining tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi.

«Tuzuklar»da qo'shin asosan o'n, yuz, ming va tumanga bo'lingan. O'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshliq o'nboshi, yuz kishilik qismning boshlig'i yuzboshi, ming kishilik qo'shin yetakchisini nomi-mingboshi, tuman boshlig'i no'yon deb atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otning bahosi barobarida, o'nboshi qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'n boshidan ikki barobar ko'p maosh olishgan.

Yana Amir Temur hech qaysi dinni alohida ajratib qo'ymagan «Temur tuzuklari»da shunday keltiriladi,, qaysi din vakili bo'lishidan qat'iy nazar men ularga o'z panohimdan joy berdim, ma'lum bir qulayliklar yaratib berdim hattoki, saltanatimda nufuzli lavozimlar berishga ijozat berdim'' deb yozilgan.

Amir Temur dunyoqarashida ma'naviyat, davlat boshqaruvi tizimida ma'naviy va diniy normalarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi o'z aksini topgan. "Temur to'zuklari"ning ma'naviy ahamiyati alohida tadqiqot mavzusidir. Zero ular orqali Amir Temurning ruhiy (naffsoniy) va shaxsiy sifatleri o'z aksini topadi, uning fikr-muloxazalarini tasvirlab, u olib borgan ma'naviy falsafani ifoda etadi desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa qiladigan Amir Temur faoliyati bugungi kun mamlakat rahbaridan tortib tashkilot rahbarigacha bolgan rahbarlarni boshqaruv sanatinu yuksak darasjada namuna bola oladi. Buni yorqin dalili sifatida shuni aytish joizki, yevropa va amerikada jahon tarixida o'tgan 4 ta shaxsni yonma – yon keltishni yaxshi ko'radilar. Bu shaxslar Iskandar, Atilla, Chingizxon, va Tamerlan (Amir Temur)lardir. Darvoqe fransuz olimi Rene Grussening 1939-yilda Parijda nashr etilgan kattagina kitobi xuddi shunday” “Sahro saltanati. Atilla, Chingizxon, Tamerlan” deb atalgan edi.

MILLIY G'OYA - MA'NAVIY YUKSALISH ASOSI

Xurshid Mirzaxmedov - NamDU katta o'qituvchisi

Milliy g'oya xamda ma'naviyat bu faqat insonga xos bo'lgan ajoyib xislat va fazilatdir. Insonning insonligi, olamda boshka jamiki mavjudodlarning ulug'i va yuksagi borlikning ko'rki va sharafi, eng oliy qadriyat ekanligining boyisi, belgilovchi sababi, uning ma'naviyat soxibi ekanligi boshkacha atganda ma'naviyat tutush bulganligidir³⁷.

Inson aqliga, idrok bilish qobiliyatiga onnga, taffakurga ega bo'lganligi uchun kuchlidir, qudratlidir.

Zero sharqning buyuk mutafakkirlari ta'kidlaganlaridek insonda bebaxo murvarid-zakovat mavjud. Unda tabiat va jamiat sir-asrorlarini va yuksalish cho'qqilarini bilish qobiliyati, eng nodir istedod jamuljamdir. Muayyan bir g'oya ham dastlab biron bir shaxsing ongida paydo bo'ladi. U yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lagini jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois u insoniy haqiqatga aylandi. Ma'naviyat kishilarda o'zaro muloqot extiyojini tugdiradi. Odamlar o'rtasidagi ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni kuchaytiradi, mexrokibatni mustaxkamlaydi. Madaniyat, manaviyat va ma'rifat jaxon xalqlarini o'zaro birdamlik sari chorlaydi.

Har millatlarga mansub bo'lgan odamlarda adolatparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik haqiqatga tashnalik istiqbolni ko'ra bilish va unga ongli intilish umumbashariy insoniy fazilatlarini shaklantirish va mustaxkamlashga asos bo'ladi.

Milliy g'oya va ma'naviy yuksalish inconlar ongida yillar davomida sayqallanadi xamda shaklanib keladi.

Darhaqiqat Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda milliy g'oya avlodlardan ajdodlarga o'tib asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan xar bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning mana'viy extiyoji va xayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa xar qaysi millatning eng ezgu orzu intilish va umid maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak o'ylaymanki bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.

Zero milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlar oliyjanob niyatlarini xayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, vatan ravnaki, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya xech qachon millatdan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. U millatning tamoyillarini o'zida aks ettirragina kuch-qudrat manbaiga aylanadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda milliy g'oyada mujassam bo'lgan g'oyalarni ruyobga chikarish avvalambor jamiyatimiz va undagi xar bir inson uchun mana'viyat olami bu xalqlarimizni birlashtiradigan oliy maqsadlar sari chorlaydigan beqiyos kuch xisoblanadi.

³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T., "O'zbekiston" 2011.

SHAHAR VA QISHLOQ HUDUDI YERLARINING UMUMIY TAVSIFI

Akayeva Marapat Abduxalikovna - yu.f.n., dotsent

Shahar va qishloq hududi, ya'ni aholi punktlarining yerlari mamlakatimiz yer fondi tarkibida mustaqil toifani tashkil etadi. Shahar va qishloq hududi yerlari deganda tasdiqlangan shaharsozlik va yer tuzish hujjatlari asosida chegaralari belgilangan aholi yashaydigan, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa inshootlar joylashgan shahar, posyolka, qishloqlarning tashqi chegaralari doirasidagi yerlar tushuniladi. Shahar va qishloq hududi yerlari huquqiy holati to'g'risida tushunchaga ega bo'lish uchun aholi punktlarining turlari, shahar va qishloq hududi yerlarining tarkibi, bu yerlardan foydalanish tartibi, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, bu toifa yerlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni aniqlash lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksida ko'rsatilishicha, - "aholi punktlarining yerlari - shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining yerlariga bo'linadi"³⁸. O'z navbatida shaharlar ma'muriy bo'ysunishi va aholi soniga nisbatan respublika, viloyat va tuman ahamiyatidagi shaharlarga bo'linadilar. qishloqlar esa istiqbolga mo'ljallangan va istiqbolga mo'ljallanmagan qishloq aholi punktlariga bo'linadilar.

Shaharlar deganda aholisi asosan sanoat va savdo, shuningdek xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan, madaniyat sohalarida band bo'lgan eng katta aholi punktlari tan olinadi. Shaharlar umumiy qoidaga binoan tuman, viloyatlarning ma'muriy va madaniy markazlari hisoblanadilar. Ularning xarakterli xususiyati aholining zich joylashganligi va qurilishlarning kompaktligidir. Shahar jamiyat hayotida ko'p jihatdan ijtimoiy organizm, murakkab iqtisodiy-geografik, arxitektura va qurilish, shuningdek madaniy majmualashgan sifatida bo'ladi. Shahar tipidagi posyolka - bu shaharga o'xshab ketadigan, lekin unga nisbatan kichikroq miqdordaligi bilan farq qiladigan shahar va qishloq hududidir. Agar shahar tipidagi posyolkalarning maydoni kengaytirilsa, ularni shahar tipidagi shahar va qishloq hududiga aylantirish mumkin. Shahar tipidagi posyolkalar aholi punktlari tizimida shahar shahar va qishloq hududi bilan qishloq shahar va qishloq hududi o'rtasida o'ziga xos oraliq o'rinni egallaydi. Shahar tipidagi posyolkalarda shahar aholi punktlariga ham, qishloq aholi punktlariga ham xos bo'lgan belgilar uchraydi.

Aholi punktlarining shahar va qishloq aholi punktlariga bo'linishi tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liqdir, ya'ni ularni toifalarga chegaralaydigan asosiy belgisi ular aholisining moddiy ishlab chiqarishning turli sohalaridagi ishtiroki hisoblanadi. Qishloq aholi punktlari mehnatga layoqatli aholisining katta qismi qishloq xo'jaligi ijtimoiy ishlab chiqarishida qatnashadi. Shunday qishloq aholi punktlarida sanoat, transport va boshqa korxonalar joylashgan bo'lishi mumkin, ammo ulardagi ishchi va xizmatchilar ko'pchilikni tashkil etmaydilar. Shahar va shahar tipidagi posyolkalarda ijtimoiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan mehnatga layoqatli aholining faqat kamgina qismi band bo'ladi. Ammo, aholi punktlarini shahar yoki qishloq shahar va qishloq hududi toifalariga kiritish faqat aholining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ishtiroki bilan emas, shu bilan birga

³⁸ O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. -T.,Adolat, 2013. 312-b.

aholining soniga qarab ham belgilanadi, yoxud shahar va qishloq hududini shahar toifasiga kiritish uchun qonunchilik ma'lum aholi soni bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Shahar va qishloq aholi punktlari huquqiy holatida farqlar mavjud. Ushbu farqlar shundan iboratki, shahar aholi punktlari mustaqil ma'muriy-hududiy birlik hisoblanganlar, qishloq aholi punktlari esa mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hududining uncha katta bo'lmagan qismini egallaydilar va davlat tuzilishining ma'muriy-hududiy tizimida eng quyi birlikni tashkil qiladilar. Shu sababdan shahar aholi punktlarining huquqiy holati qishloq aholi punktlarinikiga nisbatan ancha kengroq tartibga solingan. Shahar aholi punktlariga shahar yerlari birkutilgan bo'lib, ular shahar hokimligi tomonidan boshqariladi. Qishloq aholi punktlari qishloq xo'jaligi korxonalarini yerlarida joylashgan bo'ladi.

Aholi punktlarini shahar toifasiga o'tkazish davlat hokimiyatining Oliy organlari tomonidan quyi hokimiyat organlarining taqdimnomasi asosida belgilanadi. Viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlarining taqdimnomasiga ko'ra shahar va qishloq hududi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan shahar toifasiga kiritiladi. Aholi punktlarini posyolkalar toifasiga kiritish tuman xalq deputatlari kengashlarining taqdimnomasiga binoan viloyat hokimligining qarori asosida amalga oshiriladi. Aholi punktlarini qishloq toifasiga kiritish tuman hokimining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Aholi punktlarining chegarasi - shahar, posyolka, qishloq aholi punktlari yerlarining tashqi chegaralari bo'lib, ular ana shu yerlarni boshqa toifadagi yerlardan ajratib turadi. Aholi punktlarining chegaralarini belgilash tasdiqlangan shaharsozlik va yer tuzish hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, shaharlarning chegaralari shaharsozlik bosh rejalari asosan belgilansa, qishloq aholi punktlarining chegaralari esa ichki xo'jalik yer tuzish hujjatlariga asosan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 60-moddasida ko'rsatilishicha, aholi punktlarining chegarasi yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkalarining chegaralari bo'yicha belgilanishi lozim. Aholi punktlarining yerlari chegaralari tegishli davlat hokimiyati organlarining qarorlariga asosan o'zgartirilishi (kengaytirilishi) mumkin.

Shahar, posyolka, qishloq aholi punktlari yerlari huquqiy holatidagi o'xshashlik va yaqinlikni ularning umumiy foydalanishdagi yerlaridan foydalanish tartibi va maqsadlarida ko'rish mumkin. avvalo, aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlariga quyidagilar kiradi: maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olish uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, hiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar), kommunal-maishiy ahamiyatga molikerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ulardan foydalanish joylari) (er kodeksining 64-moddasi)³⁹.

Er qonunchiligida belgilanishicha, aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari yuridik va jismoniy shaxslarga birliktirib qo'yilmaydi, bu yerlar bevosita shahar, tuman davlat hokimiyati organlarining ixtiyorida bo'ladi. Umumiy foydalanishdagi yerlarda bu yer qaysi maqsadga xizmat qilsa, faqat shunga mos keladigan imorat va inshootlar qurishga ruxsat beriladi. shuningdek, bu yerlardan tuman yoki shahar hokimining qaroriga asosan yuridik shaxslar va fuqarolarga yengil

³⁹O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. –T.,Adolat, 2013. 313-b.

imoratlar, ya'ni savdo chodirlari, do'konchalar, reklama inshootlari qurish uchun vaqtincha foydalanishga ijara shartlari asosida yer uchastkalari berilishi mumkin.

Shahar va qishloq hududi yerlarining huquqiy holatida boshqaruv jihatdan ham farqlar bo'ladi. shahar aholi punktlarining yerlari tuman, shahar hokimligi tomonidan boshqarilsa, qishloq aholi punktlarining yerlari tuman hokimligi tomonidan ham, qishloq xo'jalik korxonalari boshqaruv organlari tomonidan ham boshqariladi.

Aholi punktlari yerlari huquqiy holati o'ziga xos-xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Gap shundaki, shahar va qishloq hududi yerlari tarkibida Yer fondining barcha toifalarini, ya'ni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar; sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari; alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari; o'rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari; zaxira yerlarni uchratish mumkin. Shu sababdan, shahar va qishloq hududi yerlari huquqiy holatini belgilashda shahar va qishloq hududi yerlaridan foydalanish va sanab ko'rsatilgan toifa yerlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olinishi lozim. Masalan, shahar va qishloq hududi yerlaridan foydalanishning o'ziga xos tartiblari O'zbekiston Yer kodeksining tegishli moddalarida, hamda shahar, posyolka, qishloqlarni rivojlantirish rejalarida belgilangan bo'lsa, shahar va qishloq hududida joylashgan alohida muhofaza etiladigan hududlar yerlarining huquqiy holati shahar va qishloq hududi yerlariga bag'ishlangan qoidalar bilan bir qatorda ular to'g'risidagi qonunda ham belgilangan bo'ladi va hokazo. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, shahar va qishloq hududi yerlari turli soha qonunchiligi normalari bilan tartibga solinib, kompleks (majmualashgan) huquq qoidalari ularning huquqiy holatini belgilaydi. Shu bilan birga, shahar va qishloq hududi yerlarining huquqiy holatidagi umumiylikni bu yerlarni boshqarish, foydalanish uchun berish, qaytarib olish kabi holatlardagi mushtaraklikda ko'rish mumkin.

Shahar va qishloq hududi yerlaridan foydalanish huquqi uchun shunday huquqqa ega bo'lgan turli xil sub'ektlarning ko'pligi xarakterlidir. Ularga qishloq xo'jalik korxonalari, noqishloq xo'jalik korxonalari, fuqarolar kiradi. Ayniqsa fuqarolar aholi punktlari yerlaridan foydalanuvchi asosiy sub'ektlar hisoblanadilar. ular shahar va qishloq hududi yerlaridan dehqon xo'jaligi yuritish, yoki turar-joy qurish maqsadida foydalanishdan tashqari, garaj, bog'dorchilik, polizchilik, fermalar maqsadida ham shahar va qishloq hududi yerlaridan foydalanadilar.

Shahar va qishloq hududi yerlaridan foydalanish huquqi mazmuni ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Aholining zich joylashganligi, bu yerlarda turli xil ob'ektlarning ko'pligi bu yerdan foydalanuvchilarga atrof tabiiy muhitni himoya etish bo'yicha alohida majburiyatlar yuklaydi.

ISHNI TAYYORLASH VA TAYINLASH HAQIDAGI AJRIM CHIQRISH

J.Umarov - Nam DU katta o'qituvchisi

Fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlash haqida ajrim shaxsan sudya tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslarni xabardor qilmay chiqariladi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash arizani qabul qilib olishdan boshlanadi. Shunga binoan, qonun ishini yurg'izishni qo'zg'atmay turib, tayyorlov harakatlarini boshlashga yo'l qo'ymaydi.

Aks holda qonun tomonidan ko'zda tutilmagan sudlovning orqali bosqichi paydo bo'ladi.

Undan tashqari, ishni ariza berishdan oldin tayyorlash manfaatdor maxrum qilladi: dalil, taqdim etish, ishning materiallari bilan tanishish, o'zining dalil va ilklarini aytish, boshqa taraf arizasiga e'tiroz bildirish kabi protsessual harakatlar faqat arizani sudda ko'rish uchun qabul qilinishi bilan fuqarolik ishi bo'yicha protsess vujudga keladi va ularning sub'ektlarida huquq va majburiyatlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ish qo'zg'atilmay turib, sudyada tayyorlov harakatlarini boshlash huquqi bo'lmaydi, manfaatdor shaxslar esa unda qatnasha olmaydi. Nihoyat, o'z vaqtida qo'zg'atilmagan ish qonun tomonidan o'rnatilgan muddatni o'tib ketishi huvflini tug'diradi. Sudya tomonidan ishni qo'zg'atish haqida qarorning qabul qilinishi ish bo'yicha tegishli tayyorlovni o'tkazishni anglatadi shuning uchun shartli ravishda ishni qo'zg'atish vaqti va sudyaning u bo'yicha tayyorlov ishlarini o'tkazish to'g'risidagi qarori vaqti bo'yicha mos tushadi. Sudyaning bu qarorlarini bitta protsessual hujjatda qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishni tayyorlash to'g'risidagi ajrimda sudya bir bir qator masalalarni belgilaydi, ularni hal qilish sud oldida sudlovning ushbu bosqichida turgan vazifalarini tegishli ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. To'g'ri, qonun bu haqda biror-bir ko'rsatma bermaydi, faqat shunday ajrim chiqarishni talab qilish bilan cheklanadi. Lekin tayyorlov haraktekrida bo'lgan tadbirlarni aniqlash to'g'risida ko'rsatma bermaydi, faqat shunday ajrim chiqarishni talab qilish bilan cheklanadi. Lekin tayyorlov xaraktekrida bo'lgan tadbirlarni aniqlash to'g'risida ko'rsatma bermaydi, Ishni yetarli darajada tayyorligini e'tirof etgach, sudya uni sud muhokamasiga tayinlash haqida ajrim chiqaradi. Lekin bu bilan tayyorgarlik tugamaydi. Sudya tayyorlov harakatlarini sud muhokamasi boshlangunga qadar davom ettirish huquqiga ega. Agar ishni ko'rib chiqish qoldirilsa, sud muhokamasi qaytadan boshlanishiga qadar davom ettiradi. Sudning hal qiluv qarori yoki ajrimi bekor qilinib, qayta ko'rish uchun yuborilganda, tayyorgarlik davom etishi mumkin.

Ishni tayinlash uchun chiqarilgan ajrimda sud majlisining vaqti va joyi ko'rsatilishi kerak. Qatnashuvchilarning sudga kelishlarini ta'minlash uchun chora-tadbirlar ko'rish kerak.

Masalan, otalikni belgilash va aliment undirish haqida, sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolar.

Ishni tayyorlash protsessda sudya boshqa harakatlarni ham amalga oshirib, da'vogarning ba'zi bir talablarini alohida ajratib oladi, da'voni ta'minlashchoralarini ko'radi. Ishni sudga oshirishga tayyorlash maqsadida sudya tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar doirasi uni ishn tayyorlashdagi harakatlarining rejasida ifodalanadi. U yoki bu harakatlarni amalga oshirish maxsus bilimni talab qilganda, masalan, ekspertza tayinlash, sud topshirig'ini jo'natishda, sudya ishni tayyorlash haqida umumiy ajrim chiqarishdan tashqari, alohida asoslangan ajrim chiqaradi. Ishni sudda ko'rish muddati sudya tomonidan (aniq kun va soatlar) qonun tomonidan ushbu toifadagi ishlarni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatni, shaxslarni habardor qilish muddatini va sud ishi tartibini hisobga olgan holda tayinlanadi. Muhokama qilish joyi ishni ko'rib chiqish uchun olgan sud binosi bo'ladi.

Agar sudya protsessning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish uchun ishni sud majlisida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb topsa, unda muhokama joyi deb, sud majlisi o'tkaziladigan binoning joylashgan joyi yoziladi. Sudda ishni ko'rish vaqti va joyi haqida ishda qatnashuvchi va vakillar qabul qilingan namuna buyicha sud chaqiruv qog'ozlari bilan xabardor qilinadilar. Guvohlar, ekspert va tarjimonlar ham mana shunday yo'l bilan sudga chaqiriladilar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarga chaqiruv qog'ozini shunday hisob-kitob bilan jo'natiladiki, unda sudga o'z vaqtida yetib kelish va ishga tayyorlanish uchun vaqtda ega bo'ladilar. Chaqiruv qog'ozini xabardor qilinayotgan yoki chaqirilayotgan shaslarga tarafklar yoki ishga qatnashuvchi boshqa shaxslar ko'rsatgan manzillar bo'yicha jo'natadi. Agar aytilgan manzilda ushbu shaxs yashamasa, unda chaqiruv qog'ozini ish joyiga jo'natiladi. Zarur hollarda, ishda qatnashuvchi shaxslar, guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar telefonogramma yoki telefon orqali xabardor qilinadilar.

Javobgarga chaqiruv qog'ozini bilan bir vaqtda da'vo arizasining nusxasi ham jo'natiladi, agar sudya lozim topsa, unda arizaga ilova qilingn xujjat nusxalari ham jo'natiladi.

Chaqiruv qog'ozlari pochta orqali yoki xat tashuvchi orqali jo'natiladi. Chaqiruv qog'ozining ikkinchi qismi topshirilgan muddati yozilgan holda sudga qaytariladi. Sudya sudga qatnashgan shaxsning rozili bilan boshqa xabardor qilinishi kerak bo'lgan shaxsga yoki shu ish yuzasidan chaqirilayotgan shaxslarga berib qo'yish uchun unga chaqiruv qog'ozlarini berib qo'yishi mumkin. Bunday hollarda, uning ikkinchi nusxasi o'sha yerda yashovchining olganligi to'g'risidagi imzosi bilan chaqiruv qog'ozini berib qo'yish uchun logan shaxs tomonidan sudga qaytariladi.

Chaqiruv qog'ozini chaqirilayotgan shaxsga shaxsan topshiriladi. Agar u davlat korxonasi, tashkiloti, muassasasi, jamoa xo'jaligi, boshqa kooperativ tashkilotlar, ularning birlashmalariga tegishli bo'lsa, unda tilxat bo'yicha tegishli mansabdor shaxsga topshiriladi. Agar chaqiruv qog'ozini olib kelgan shaxs ish bo'yicha xabardor qilinayotgan yoki chaqirilayotgan fuqaroni o'z joyidan topmasa, unda chaqiruv qog'ozini u bilan birga yashaydigan katta oila a'zosiga, ular ham bo'lmagan taqdirda, turar joylarni ekspluatatsiya qilish tashkiloti, mahalla kengashlari yoki uning ish joyi ma'muriyatiga topshiriladi.

Bunday hollarda chaqiruv qog'ozini olgan shaxs, uni ikkinchi nusxasida o'z familiyasi, ismi, otasining ismini va shu shaxsga munosabatini (xotini, o'g'li, qizi va boshqalar) yoki mansabini yozib, iloji boricha uni tegishli shaxsga topshirishi lozim.

Agar shaxs vaqtincha yo'q bo'lsa, chaqiruv qog'ozining ikkinchi nusxasiga uning ketgan vaqti va qaytib kelish vaqti haqida belgi qo'yiladi.

Bu ma'lumotlar tegishli uy-joylarni ekspluatatsiya qilish tashkiloti, maxalla kengashlari yoki izlangan fuqaroning ish joyi ma'muriyati tomonidan tasdiqlanishi va imzolanishi kerak.

Chaqiruv qog'ozini kelgan fuqaro uni olishdan bosh tortsa, unga kerakli belgi qo'yiladi va sudga qaytariladi. Adresantning chaqiruv qog'ozini olishdan bosh tortganligi tegishli roavishda tasdiqlanishi kerak. Chaqiruv qog'ozini olishdan bosh tortish ishni ko'rishga to'siq bo'la olmaydi. Ishda qatnashuvchi shaxslar va vakillar ish yuritilayotgan vaqtda yashash joylarini o'z'garganligi to'g'risida sudga xabar

berishlari kerak. Bunday ma'lumot berilmagan taqdirda, chaqiruv qog'ozi sudda qatnashuvchilarning so'ngi manzili bo'yicha jo'natiladi. Manzilning o'zgartirilishi to'g'risida sudga xabar qilish majburiyatini bajarmaganligi uchun sud sudda ishtirok etayotgan shaxslar va vakillarga jarima solish huquqiga ega.

Javobgarning haqiqiy yashash joyi noma'lum bo'lganda, sud turar-joylarni eksplutatsiya qilish yoki mahalla yig'inlari tomonidan qabul qilindi deb belgi qo'yilgan chaqiruv qog'ozini olgandan so'ng ishni ko'rishga kirishadi. Alimientlarni undirish va sog'liqqa zarar yetkazish, shuningdek, boquvchisining o'limga sabab bo'lgan zararni undirish ishlari bo'yicha, sudga ichki ishlar idoralari orqali javobgarga nisbatan qidiruv e'lon qilishga majburdir.

Da'vogarlar davlat korxonalari, tashkilotlar, muassasalari, jamoa xo'jaliklari, boshqa kooperativ tashkilotlar, ularning birlashmalari bo'lgan taqdirda ham sudya javobgarga qidiruv e'lon qilish mumkin.

Qidiruv e'lon qilish haqida ham alohida ajrim chiqaradi. Zotan, javobgarni topmasdan turib, ishni tayinlash maqsadga muvofiq emas. Chunki tayinlangan protsess qoldirilishiga sabab bo'ladi.

Fuqarolik protsessiga tayyorgarlik ko'rish va tayinlash mazmuni va tartibi ana shulardan iborat.

MEHNATGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI

A. Jumaboyev - Nam DU o'qituvchisi

Umumiy huquq nazariyasida huquqiy munosabatlar o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan sub'ektlar o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa sifatida ta'riflanadi. Darhaqiqat, hayotdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar huquqiy normalar yordamida tartibga solinadi. Shunday ekan, ijtimoiy munosabatlar umumiy nazariya fani nuqtai nazaridan qaraganda doimo huquq normalari bilan bog'liq holda uchraydi. Zotan, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. Huquq normalari esa o'z vazifalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi. Aniqroq aytsak, ularni ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantirish, ya'ni ularni tartibga solish orqali hayotga tatbiq etiladi.

Darhaqiqat, qonun bilan o'rnatilgan holatlar ijtimoiy munosabatlarga, jamiyat hayotiga ta'sir etmasa, bu munosabatlar huquqiy munosabatlarga aylanmaydi. Demak, ijtimoiy munosabatlarga huquq normalari ta'sir etsagina, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi.

Yuridik adabiyotda bu borada bildirilgan fikrlarning umumiy xulosasiga ko'ra, mehnat huquqi sohasidagi huquqiy munosabatlar—bu mehnat qonunchiligi normalari bilan tartibga solingan mehnatga oid munosabatlar va ular bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan xodimlarning mehnatga doir munosabatlaridan iborat. Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat huquqi sub'ektlarining yuridik aloqasidir.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari doimiy ravishda mehnat huquqi normalari asosida faoliyat yuritadi.

Ta'kidlash joizki, mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi barcha ijtimoiy munosabatlar mehnat qonunchiligi normalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, ular doimo mehnatga oid huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatning har bir turkumi mazmuni jihatidan o'ziga xos huquqiy xususiyatga ega bo'lib, u davlatning normativ-huquqiy hujjatlari ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Yuridik adabiyotda mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlardan tashqari mehnat huquqi sohasidagi yana boshqa munosabat turlari xususida fikr mulohazalar ilgari surilmoqda.

Umumiy tarzda tan olingan va mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- 1) mehnatga oid huquqiy munosabatlar;
- 2) kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi tashkiliy boshqaruvga oid huquqiy munosabatlar;
- 3) ishga joylashtirishga doir huquqiy munosabatlar;
- 4) korxonada kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga oid munosabatlar;
- 5) mehnat muhofazasini nazorat etishga oid huquqiy munosabatlar;
- 6) mehnat nizolarini ko'rishga oid protsessual huquqiy munosabatlar.

Bizning fikrimizcha, mehnat huquqi normalarining qo'llanilishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlarning barchasini mehnatga oid huquqiy munosabatlar, deya ta'riflash maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat huquqining mazmun-mohiyati va asosiy o'zagini xodimlarning mehnatga oid munosabatlari tashkil etadi.

Ularning boshqa munosabatlardan asosiy farqi shundaki, mazkur munosabatlar xodim mehnatining ishlab chiqarishda qo'llanilishi natijasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi, chunki mehnat jarayonida unga nisbatan huquq normalari qo'llanadi. Natijada xodim mehnat sohasida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar uzluksiz davom etish xususiyatiga ega bo'lgani sababli harakat yoki topshiriq bajarilgach, yo'q bo'lib ketmaydi. Bu munosabatlar shu jihati bilan boshqa, masalan, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan farq qiladi. Chunonchi, fuqarolik huquqiy munosabatlar topshiriq, pudrat shartnoma, mualliflik haqidagi shartnoma bajarilgach, tugaydi. Mehnat munosabatlari esa uzluksiz ravishda va belgilangan tartibda davom etaveradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar o'z sub'ektiga ega va ayni shu sub'ektlarning huquq va majburiyatlari mehnatga oid huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, barcha ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining yuridik aloqasi ularning tabiatini ifodalaydi. Bu esa ularning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Sub'ektlarning huquq va majburiyatlari mehnat qonunchiligi normalari, jamoa kelishuvi va shartnomalari hamda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilganini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Qolaversa, mehnatga oid huquqiy munosabatlarning o'ziga xos yana bir belgisi mavjud. Bu mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ixtiyoriylik xususiyatiga ega

ekani bilan izohlanadi. Chunki, bunday ijtimoiy munosabatlar doimo sub'ektlarning xohish-irodasi tufayli vujudga keladi. Shunisi ham muhimki, barcha mehnatga oid *huquqiy* munosabatlar bir-biridan sub'ekti, uning mazmuni, mazkur munosabatlarni yuzuga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish asoslari bilan farqlanadi. Bu haqda ushbu bobning keyingi sahifalarida ma'lumot beriladi.

MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH. AXBOROT SOHASIDA MILLIY XAVFSIZLIKNI TASHKILLASH TIZIMINING YARATISH ZARURIYATI

*Husnora Tursunova - O'zbek tili yo'nalishi
301-guruh talabasi,*

Ilmiy rahbar: A. Qambarov

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash bugungi globalashayotgan zamonning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Axborot chegarasiz va egasiz bir katta maydon. U yerda har kim o'zining xatti-harakatlarini o'zi tashkil etadi va o'zi baholaydi. Shu bois axborot sohasidagi xavfsizlikni eng avvalo ana shu axborot iste'molchilari yo'lga qo'yishlari lozim. Bejizga Yurtboshimiz quyidagi fikrlarni aytmagan: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zbo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi". Haqiqatan, ma'naviyat qaror topgan har qanday jamiyatga axborot xavfi o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Demak xavfsizlikni ta'minlashning dastlabki bosqichi – shaxs ma'naviyatini qaror toptirish. Agar axborot xavfsizligini ta'minlashning shu poydevor bosqichi amalga ohsa, undan so'ng keyingi tadbirlarning tashkillanishi osonroq bo'ladi. Shaxs ma'naviyati esa quyidagilar asosida shakllantirilishi mumkin:

- To'g'ri ta'lim-tarbiya;
- Urf-odatlar;
- Nurafshon tarixni o'rgatish;
- Ijodkorlik salohiyatini shakllantirish.

Ma'naviyati mustahkam bo'lgan inson hech qachon axborot xurujlari ta'siriga tushib qolmaydi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi ham ma'naviyatni o'z mezoniga aylantiri lozim. Buni axborot-psixologik xavfsizlikning ichki tomoni deb hisoblasak, uning tashqi tomonini quyidagilar tashkil etadi:

- Tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlanganlik. Zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan yetarli darajada qurollanish.
- Mustahkam moddiy-moliyaviy asoslarga ega bo'lish. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish;

• Zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaradigan, undan samarali foydalana oladigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, har tomonlama keng fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash⁴⁰.

Xavfsizlik tizimini yaratish uchun qar ikki, yani ichki hamda tashqi tomon o'zining muhim ahamiyatiga ega.

Sanalgan uch mezonni amalga oshirish uchun, avvalo, ichki xavfsizlik tizimini yo'lga qo'yib olish kerak. Ichki xavfsizlikda inson o'zi ustida ham ma'lum vazifalarni bajarishi kerak. Buning uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mavjud axborotlarni saralay olish qobiliyatini shakllantirish;
2. Bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay olish;
3. San'at sohasiga qiziqishni shakllantirish;
4. Zamonaviy texnika vositalaridan maqsadli foydalanish.

Axborotlarni saralash ko'nikmasi odamda turli vositalar yordamida shakllantiriladi. Bu jarayon maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktab va boshqa ta'lim, hatto iqtisodiyot, tibbiyot maskanlarida ham amalga oshirilishi yo'lga qo'yilmoqda. Bu albatta qat'iy yo'lga qo'yilgan. Lekin ana shunday vaziyatda ham axborot xurujlari ta'siriga tushib qolayotganlar yo'q emas. Bunday holda kasallik uchun tashxis, davolash rejalari qanday belgilansa, axborot ta'siriga tushib qolgan shaxs uchun ham shunday munosabatda bo'lish kerak. Prezidentimizning tubandagi so'zlari fikrimiz isbotidir: "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda".

Inson 24 soat davomidagi harakatlarini to'g'ri tashkillashi lozim. Bizni vaqt emas, biz vaqtni boshqarishimiz kerak. Har daqiqadan murodli foydalanish, bo'sh vaqtni to'g'ri tashkillay olish axborot-psixologik xavfsizlikning tayanch manbasi hisoblanadi.

San'atning barcha turlari inson ko'nglida ezgulikni shakllantirishga, komil insonni gavdalantirishga yo'naltiriladi. San'at bilan hamohang yuraklarda vayronkor g'oyalarga o'rin yo'q.

Bugungi axborot rivojlangan davrda OAVlaridan jamiyat a'zolari tengma-teng foydalanmoqda. Ana shu jarayonda axborot vositalaridan o'rinli foydalanish dolzarbligi bilan boshqa vositalardan ajralib turadi.

HUQUQIY MUNOSABATLAR-INSON ONGLI FAOLIYATINING MAHSULI

A. Jumaboyev -Nam DU o'qituvchisi

Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishi masalasi davlat va huquqning umumnazariy muammolari uchun g'oyat muhim metodologik ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Chunki ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari orqali tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil etadi, boshqacha aytganda, uning yordamida huquq hayotga tatbiq qilinadi. Demak, mohiyatan olib qaraganda, huquqiy munosabatlar – bu huquqqa asoslangan barcha ijtimoiy o'zaro munosabatlardir. Bunday munosabatlar jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini qamrab oladi. Shunga ko'ra, aytish joizki,

⁴⁰ Qozoqov T. O'quv-uslubiy majmua. Namangan – 2015.

ekologik huquq tomonidan insonning tabiatga bo'lgan moddiy munosabatlari tartibga solinadi; iqtisodiy munosabatlar yuridik mulk huquqida mustahkamlanadi; siyosiy munosabatlar esa konstitutsiya tomonidan aniqlanadi. Ayni paytda milliy va diniy, oilaviy va davlatlararo munosabatlar ham huquq tomonidan tartibga solinadi. Umuman, huquq ham butun ijtimoiy hayot singari insonlarning bir-biriga, atrof muhitga bo'lgan munosabatlari orqali shakllanadi.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, huquq normalashtirilgan qonunlar orqali iqtisodiy va texnologik munosabatlar – mulkiy, ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'mol va taqsimlashga doir faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Albatta, bunda huquq iqtisodiy negizga faqat taqozo etilgan hollardagina bog'liq bo'lishini ham nazardan soqit qilmaslik lozim.

Aytaylik, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilar bir-birlari bilan nafaqat ishlab chiqarish munosabatlariga balki huquqiy munosabatlarga ham kirishadilar. Xususan, mulkchilik sohasidagi bunday munosabatlar mulkka egalik qilish va egalik qilmaslik huquqiga taalluqlidir. Shu ma'noda mulkchilik munosabatlari huquqiy munosabatlarga aylanadi. Mulkdor bilan ishchi orasidagi, ya'ni birida mulkning mavjudligi va boshqasida mavjud bo'lmasligi bilan bevosita ifodalangan munosabatlar yuridik munosabatlar hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik lozimki, iqtisodiy munosabatlar ob'ektiv munosabatlar bo'lib, ular kishilar irodasi va ongiga bog'liq bo'lmaydi. Shu bois aynan ular pirovard natijada insonning sub'ektiv maqsadlarini, orzu-intilishlarini, ehtiyojlari va yo'l-yo'riqlarini shakllantiradi. Bu omillar orqali esa huquqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda huquqiy munosabatlar iqtisodiy munosabatlariga izchil ta'sir etadi, ularning rivojlanishini to'xtatadi yoki tezlashtiradi.

Huquqiy munosabatlarning muhim xususiyati – bu ularning *davlat siyosati* bilan bog'liqligidir. Bu o'rinda gap huquqiy munosabatlar kishilarning qonunlar bilan mustahkamlangan real manfaatlari ekanligi to'g'risida borishi tabiiy. Jumladan, mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati hamda bozor iqtisodiyoti talablariga mos demokratik qonunchilik tizimi yaratilganligi ham shundan dalolat beradi. Suveren davlatchilikni mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq Prezident I.A.Karimov bu haqda shunday degan edi: «Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tuzumni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin. Hozirgi mutlaqo yangi siyosiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi qonunlar majmuigina biz barpo etayotgan yosh ijtimoiy binoga barqarorlik, demokratik xarakter baxsh etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi»⁴¹. Kishilar turli ijtimoiy birlashmalar (oilalar, millatlar), siyosiy va jamoat tashkilotlariga uyushganlar. Ushbu birlashmalar va tashkilotlar orqali ular o'zlarining tub manfaatlariga ega bo'ladilar. Binobarin, bu manfaatlar huquqiy normalarning shakllanishi va singib ketishiga, pirovardida barcha ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan muayyan g'oyalarda, qarashlarda, rasmiy hujjatlarda, dasturlarda, diniy ta'limotlarda o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, hozirgi jamiyatda ijtimoiy va huquqiy munosabatlarning shakllanishi kishilar va ular birlashma-

⁴¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., «O'zbekiston», 1996, 192-bet.

larining⁴² hokimiyat bilan bog'liq munosabatlarida siyosat muhim o'rin tutadi. Zero, davlat siyosiy institut sifatida huquqiy mexanizmlar orqali o'z siyosatini amalga oshiradi. Shu sababli huquqiy munosabatlar har doim siyosiy munosabatlardir, ular siyosat bilan bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lmaydi. Ayni paytda huquqiy munosabatlar axloq bilan axloqiy munosabatlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Umuman olganda, huquqiy munosabatlar – bu doimiy faoliyatdir, aniqrog'i, kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati orqali amalga oshiriladigan va faqat ularning faoliyatida yuzaga keladigan munosabatdir. Demak, aynan faoliyatda huquqiy munosabatlarning sub'ektiv tomoni namoyon bo'ladi⁴³.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, davlat va huquqning umumnazariy muammolari orasida huquqiy munosabatlar eng muhim masalalardan sanaladi. Darhaqiqat, bu bejiz emas. Modomiki, huquqiy munosabatlar – huquq bilan bog'liq, huquq asosidagi munosabatlar ekan, demak, ular tabiiy huquqlar va majburiyatlar bilan birga paydo bo'ladi, davlatning paydo bo'lishi bilan esa ularning eng muhimlari qonuniy shaklga ega bo'ladi. Shu ma'noda huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq va yaxshiroq anglab olish g'oyat muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarga tayangan holda **huquqiy munosabatlarga xos belgi xususiyatlar asosan quyidagilardan iborat.**

1. Huquqiy munosabat – ijtimoiy munosabatdir, ya'ni odamlar o'rtasidagi hamda ular faoliyati, xatti-harakatlari bilan uzviy bog'liq munosabat bo'lib, har qanday ijtimoiy munosabatlar kabi huquqiy munosabatlar ham insonning ongli faoliyati samarasidir. Ayni chog'da kishilar o'rtasidagi huquqiy aloqalar ongli aloqalar bo'lib, inson oqilona faoliyati natijasi sanaladi.

Qayd etilganidek, huquqiy munosabat alohida xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar sifatida ijtimoiy hayotning butun xilma-xilligi bilan bog'liq bo'ladi, uning tomonidan taqozo etiladi. Shuning uchun ham huquqiy munosabatlar nafaqat moddiy, balki huquqning o'zining mavjud bo'lishini taqozo etuvchi barcha hayotiy vaziyatlardan kelib chiqadi. Chunonchi, faylasuf V.Solovev ta'biricha: «...tarixiy tartibda huquqiy munosabatlar zo'ravonlik munosabatlaridan keyin turadi – bu sayyoramizda organik hayot noorganik hayotdan keyin va uning asosida paydo bo'lganidek, mutlaqo shubhasizdir... Insondagi tabiiy kuchlar o'yini huquqiy munosabatlar uchun material xolos...»⁴⁴.

Huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati sifatida ularning mafkuraviy tabiatini tilga olish odat tusiga kirgan. Bu – to'g'ri yondashuv. Biroq faqat sinfiylik bilan mafkuraviy hodisa o'rtasida tenglik belgisi qo'yilmagan taqdirdagina bunga qo'shilish mumkin. Albatta, muayyan darajada mafkura sinfiy munosabatlarni aks ettiradi, biroq ularga mutlaqo mos kelmaydi. Zero, mafkura ijtimoiy hayotga xilma-xil qarashlar tizimidan iboratdir. Haqiqatan ham, xo'jalik hayotini markazlashgan tarzda tartibga solishga totalitar intilish – mafkura; bozorga va erkin tadbirkorlikka o'tish – bu ham mafkura; kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham mafkura.

⁴² «Xalq so'zi», 2004 yil 19 mart.

⁴³ *Ikonnikova G.I., Lyashenko V.P.* Osnovo' filosofii prava. M., «Ves Mir» 2001, 85-87-betlar.

⁴⁴ *Solovev V.* Soprotivlenie dobra. Nравstvennaya filosofiya. // Soch. V 2-x t. 1-tom. M., 1988, 525-bet.

Huquq va unga yo'ldosh bo'lgan huquqiy munosabatlar hamisha mafkuraviy hodisa bo'lib qolaveradi. Bu o'rinda, eng muhimi, mafkura faqat sinfiy, guruhiy emas, balki umuminsoniy asoslar va manfaatlarni, boz ustiga, so'zdragina emas, amalda ifodalashidir.

2. Huquqiy munosabat shunday munosabatki, u pozitiv (ijobiy) huquq normalarining kishilar xatti-harakatlariga, xulq-atvorlariga ta'siri natijasida yuzaga keladi. Huquq normasi bilan huquqiy munosabat o'rtasida qat'iy bog'liqlik mavjud – hayotda faqat yuridik norma ko'rsatib bergan huquqiy munosabatlarga vujudga keladi, boshqacha aytganda, huquqiy munosabatlar qonun munosabatlaridir.

Biroq hozirgi vaqtda vaziyat bir muncha o'zgarganligini sezmaslik mumkin emas. Iqtisodiyot sohasida «qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat etiladi» degan printsipning amalda joriy etilishi bilan huquqiy munosabatning huquq normalariga qat'iy tobeligi jiddiy zaiflashadi. Hozirgi vaqtda (turli mulk shakllariga ega bo'lgan) korxonalarining xo'jalik hayotida fuqarolarning mulkiy munosabatlarida yuridik normalarda nazarda tutilmagan ko'plab huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda va ular bundan keyin ham paydo bo'laveradi. Bu bilan bog'liq ravishda o'xshashliklar tuzilmasi o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Lekin qolgan boshqa hollarda: «*huquq normasi bor ekan – huquqiy munosabat vujudga keladi, huquq normasi yo'qmi, demak, huquqiy munosabat ham bo'lmaydi*», degan qoida amal qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, huquqiy munosabatlar nafaqat ijtimoiy guruhlar faoliyatida, balki alohida shaxslar xulq-atvorida ham shakllanadi. Bu jihatdan ular huquqiy normalar bilan aniq belgilangan xulq-atvorda doimiy ravishda takrorlanadigan xatti-harakatlar sifatida amalga oshiriladi. Bunda huquqiy normalarning mazmuni hamda shaxsning maqsadlari, orzu-umidlari, intilishlari mazmuni muhim hisoblanadi. Bu omillarning o'zaro ta'siri huquqiy xatti-harakat va huquqiy xulq-atvorni vujudga keltiradi, uning xususiyati esa jamiyatda huquqiy munosabatlar rivojlanishining mazmuni va yo'nalishini bashorat qilish imkonini beradi.

OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI ANIQLASH VA JOYLASHTIRISH

M.Akayeva - yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Falsafaning umumiy qonuniyatlariga ko'ra, har bir narsada mantiq yotadi. Uning kategoriyalaridan biri sabab va oqibat bo'lib, unga ko'ra har bir oqibat muayyan shart-sharoitlardan, sabablardan vujudga keladi. O'z navbatida, sabab va shart-sharoitlar muayyan oqibatlar tug'diradi.

Bilishning mazkur dialektik qonuniyatlariga asoslanadigan bo'lsak, ota-onalik huquqidan mahrum qilish qator huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Aslini olganda, huquqiy oqibatlarsiz ham ota-onalik huquqidan mahrum qilishning o'ziyoq naqadar jirkanch, naqadar ayanchlidir. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlanishni istradikki, mazkur masala haqida gap ketganda, G'arb va Sharq mamlakatidagi, xususan o'zbek millati mintalitetidagi o'ziga xosliklar ham e'tiborga molikdir.

Ma'lumki, oila huquqi bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda, oidalagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, yuqorida aytganimizdek qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishiga yo'l qo'ymaydi. Aslida yuqoridagi mavzu bo'yicha qalam tebratishdan ko'zlangan maqsad ham ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish va ularni aniqlash, joylashtirish shakllarini o'rganishdan iborat. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik tufayli vujudga keladigan huquqiy oqibatlar va bunda asosiy e'tibor bolalarning huquq va qonuniy manfaatlari nima bo'ladi, ularning taqdiri qanday bo'ladi? – mazkur savollarga javob izlashdan va ular bo'yicha muayyan javob berishdan iboratdir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, uning manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari himoya qilinish huquqiga ega. Shu ma'noda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalari zimmasiga yuklatiladi. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki biz so'zlayotganimizdek, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Vasiylik va homiylik organlari mahalliy organlar bo'la oladi. "ular voyaga yetganlarga nisbatan vasiylikni amalga oshirishi: yosh bolalarga nisbatan – xalq ta'limi bo'limlariga; ruhiy kasal va aqli zaiflarga nisbatan – sog'liqni saqlash bo'limlariga; vasiylikka oluvchilarning boshqa toifalariga nisbatan esa - ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatiladi"⁴⁵.

Ma'lumki, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"⁴⁶, "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"⁴⁷larda aytilganidek, "... barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar".

Ushbu xalqaro hujjatlarda bolaning himoyaga bo'lgan huquqi alohida normalanadi. Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, tabiiyki, u o'z huquq va majburiyatlarini, shuningdek himoya huquqini mustaqil amalga oshira oladi. Bola ota-onalar tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalani shu huquqiga ega. Masalan, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, jismoniy kuch ishlatish, ruhiy ta'sir ko'rsatish, bolaning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilish kabilar. Aynan Oila kodeksining 79-moddasi 4-xatboshisida, "ota-ona ota-onalik huquqini susite'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatrsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin"ligi normalangan.

Shunisi muhimki, bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (yoki ulardan biri) bolaning ta'lim-tarbiyasida o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganida yo bo'lmasa ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilganida bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, 14 yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil

⁴⁵ I.Zokirov. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. -T.: TDYuI. 2009. –B. 42.

⁴⁶ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. Human right fact sheet 10 the rights of the child to'plami. Jeneva, 1991 yil. -T.: Adolat. 1996 yil.

⁴⁷ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. Human right fact sheet 10 the rights of the child to'plami. Jeneva, 1991 yil. -T.: Adolat. 1996 yil.

uvishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi yoki sud bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tegishli choralar ko'rish shart.

Biz yuqorida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish xususida so'z yuritmoqdamiz.

Umuman olganda, qonun hujjatlaridagi holatlar va turmushdagi voqeliklardan kelib chiqib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar borligidan xabardor bo'lgan muassasalar (maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash va boshqa muassasa)larning mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday xabar olgan kundan boshlab uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi shart bo'lib, bunda bola ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligini aniqlasalar, uni joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minglashi shart bo'lib hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Demak, bugungi xulosa shundayki, inson va uning manfaatlarini bizning mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. To'g'ri, bu o'rinda davlatning ham mavqei pasaytirmaymiz. Nazariyotchilar aytganidek, davlatning asosiy ijtimoiy vazifasi uning hududida istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar, millatlar va ellatlar, ijtimoiy va etnik guruhlarning jipsligini ta'minlashdan iborat ekan, davlat bu sohadagi o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik printsiplari asosida amalga oshiradi.

JAMIYAT HAYOTINING MEZONI KONSTITUTSIYA

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi,

Kolmamat Ismoilov -Namangan davlat universiteti talabasi

«Konstitutsiya - davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir»

I. Karimov

Biron bir mavzuni mushohoda qilib uni kengroq yoritishda doimo tarixga murojat qilib kelganmiz. Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayirliydir, deydi dono xalqimiz. Shunday ekan biz ham bu aqidaga amal qilgan holda bugungi kun mavzusi bo'lgan Konstitutsitaning tarixiga murojat etamiz. Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz

ko'z o'ngimizga tarix gavdalanadi. Konstitutsiya yaqin yillarda paydo bo'lmagan, uning tarixi uzoqqa borib taqaladi. O'tmishdan bizga ma'lumki hatto ibtidoiy jamoa davrida ham qonun-qoidalar bo'lgan va unga amal qilingan, keyinchalik tuzumlar o'zgarib bu qonun-qoidalar xalqning urf-odatlariga, turmush an'analariga kelib chiqqan holda qonun-qoidalar ishlab chiqilgan edi. Bizga ma'lumki dastlabki Konstitutsiya AQSHda 1787-yilda qabul qilingan. Keyinchalik boshqa davlatlar ham o'z Konstitutsiyalarini ishlab chiqishgan.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo'lida hayratlanarli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Shu bilan birga hali ko'p ishlarni amalga oshirish, mustaqillikni avaylab asrash, uning negizlarini mustahkamlash, O'zbekistondagi barqarorlikni, xavfsizlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash lozim.

Muxtaram yurtboshimiz Islom Karimov Konstitutsiyamizning mohiyatiga ta'rif berar ekan, shunday deb ta'kidlab o'tgan edi, «Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech biro odam o'z ijtimoiy shaxsiy hayotini, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz manfaatini yo'lida xizmat qiladi. Asosiy qomusimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida, chunki u ham inson uchun xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizda fuqoralarimizni nafaqat O'zbekiston hududida, balki uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatish, ularning yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibisga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, dam olish, bilim olish huquqlari kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Jamiyat hayotining mezonini bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz dardkor. Konstitutsiyamiz qonun oldida hammaning tengligini ta'minlaydigan, har bir insonning o'z fikrini erkin ifoda qilishda, o'z haq-huquqlarini talab etishda, burch va mas'uliyatlarini bajarishda bamisoli qalqon bo'lib xizmat qilishkerak»⁴⁸.

Konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjat bo'lib, unda jamiki dunyoviy ne'matlarning eng ulug'i-inson, degan olijanob fakir ilgari surildi. Konstitutsiyamizning naqadar teran demokratik zamirga, qudratli siyosiy-huquqiy hamda ma'naviy-axloqiy ta'sir kuchiga egaligini bugun hayotning o'zi isbotlab turibdi. Barcha jabhalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar, avvalo, xalq uchun. Buni inson huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor, uning sha'ni qadr-qimmatini hurmat qilish eng oily qadriyat sifatida e'tirof etishdek ezgu g'oyaning bosh maqsad etib tanlanganligi bilan izohlash mumkin.

Konstitutsiyamizda xalqimizning huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati, erkin va farovon hayot qurishdek orzu-havasi o'zining to'la ifodasini topgan

⁴⁸ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 2001 yil 7 dekabr

ekan, uni nafaqat ta'riflaganda, balki qoidalarni moddama-modda ro'yobga chiqarish asosida uni hayotimizning Qomusi, deb bilish va qadirlashimiz katta ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ibot qilish va ular ongiga singdirish dolzarb masalalardan biri edi. 2001-yil 4 yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish tashkil etish to'g'risida»gi Prezidentimizning Farmoyishi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Natijada o'tgan qisqa davrda mamlakatimiz inson huquqlari va erkinliklaridan kelib chiqadigan, xalqaro andozalar talablariga asoslangan ochiq huquqiy-ijtmoy muhit qaror topdi. Bu esa fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida beosita ishtroki, shuningdek, barcha mulk shakllariga asoslangan ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari bilan turli-tuman munosabatlarni yo'lga qo'yishda imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Albatta, bularning barchasi xalqimiz uchun qulaylik va farovon turmush tarzini yaratib berishni nazarda tutadi. Bizdan esa faqat va faqat faol fuqaro sifatida qonunlarimizga hurmat bilan qarash va og'ishmay amal qilish talab etiladi. Anashundagina bosh qomusimiz farovon hayotimiz menoni bo'lib umirbot xizmat qiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI JINOYAT PROTSESSINING ASOSIY HUQUQIY MANBASI

J.Umarov - NamDu katta o'qituvchisi

Har bir xalqning taqdirida muhrlanib qoladigan tarixiy hujjatlar millat ravnaqi, davlatchilik poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. O'zbek xalqi tarixida ham keskin burilish yasagan, istiqloq uchun kurashlar samarasi bo'lgan, ahamiyati jihatidan asrlarga tatigulik huquqiy hujjatlar qatorida «Mustaqillik deklaratsiyasi», «O'zbekiston respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi qaror, «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun va albatta, asosiy qonunimiz – konstitutsiyamizni alohida ehtirom bilan tilga olamiz.

Mustaqil davlatchilikning belgisi hisoblanmish konstitutsiya, avvalo, millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. tom ma'noda yangi demokratik tuzumni barpo etish maqsadida qabul qilingan konstitutsiyamizning g'oyasi, asosiy printsipi va qoidalari umum e'tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga, xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan⁴⁹.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etdi. Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan,

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh / Mualliflar jamoasi: TDYuI. – T.: O'zbekiston, 2008. B. 3.

siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi e'lon qilindi.

Bu esa Konstitutsiyamizning muhim muvaffaqiyatlaridan biri sifatida demokratik huquqiy davlat qurilishining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga muvofiq sud hokimiyati hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Qonun davlat muassasalari, fuqaro va tashkilotlarga sudga xurmat bilan qarash majburiyatini yuklaydi.

Davlat hokimiyatining biron-bir idorasi sudga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni yuklashi mumkin emas.

Ko'rinib turibdiki, Konstitutsiyaning jamiyat xayotida tutgan o'rni beqiyos. Endi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining manba sifatida ahamiyatini yoritishdan oldin umuman huquq manbalari haqida umumiy tushuncha berish lozim bo'ladi.

Mustaqil Respublikamizning Konstitutsiyasi asosiy qonun bo'lib, u barcha huquq sohalarining jumladan, Jinoyat protsessual huquqi uchun ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat protsessual huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish kafolatlanadi.

«Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega⁵⁰».

Bundan tashqari, sudlov ishlari yuritishning konstitutsiyaviy printsiplari ham unda mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga ko'ra, «Sudlar to'g'risida»gi qonunning 2-moddasiga va Jinoyat protsessual kodeksining 12-moddasida mustahkamlanishicha, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat ishlari faqat sudlar tomonidan ko'riladi. Sudning jinoyat ishlari bo'yicha chiqargan hukmlari faqat yuqori sudlar tomonidagina bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Konstitutsiyaga ko'ra, favqulodda sudlar tashkil etish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasidagi qoida Konstitutsiyaning 11-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipligiga asoslanadi», – degan norma mazmunidan kelib chiqadi.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / Mualliflar jamoasi: TDYul. – T.: O'zbekiston, 2008. B. 186.

Konstitutsiyaga binoan, O'zbekiston Respublikasining Oliy sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudidan iborat. Oliy sud hokimiyatini davlat hokimiyati tizimiga kiritilishi demokratik o'zgarishlarning asoslaridan biridir. Davlat hokimiyati tizimini uchga bo'lish ko'p hokimiyatchilikka olib kelmaydi, balki davlat hokimiyati tizimiga kirgan har bir hokimiyat bir-birlariga qarama-qarshi ish olib bormaydilar. Ularning har biri mustaqil hokimiyat maqomiga ega bo'lganlari bilan biri ikkinchisidan ajralgan holda ish yuritmaydilar.

Qonuniy sudlardan tashqari, boshqa biro-bir mahkama sudlov ishini amalga oshirishiga yoki favqulodda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiyaning 112-moddasida qayd qilinishicha, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qonuniylik jamiyat hayotining shunday jihatidirki, unga ko'ra, birinchidan, sifatli, qarama-qarshi bo'lmagan qonunchilik amal qilsa, ikkinchidan, qabul qilingan normalar hokimiyat idoralari, mansabdor shaxslar, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan hurmat qilinadi va ijro qilinadi. Qonun buzilsa, davlat buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarni belgilangan protsessual tartibda himoya qilish va qabul qilingan qarorlarni ijro qilish choralarini ta'minlashi lozim.

Sudlar faoliyatida qonuniylik deganida, ularning barcha qarorlari va protsessual harakatlari moddiy hamda protsessual huquq normalariga mos kelishi lozimligini anglatadi.

Qonuniylik printsiipi O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda asosiy printsiiplaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida e'lon qilingan. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat faoliyatini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiipi asosida amalga oshiradi deyilgan. Sud ham davlat organidir. U ham o'z faoliyatini qonuniylik printsiipi asosida amalga oshirishi lozim.

Sud ishlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida hal qilishi, ya'ni qonunga rioya qilgan holda moddiy huquq normalarini qo'llashi va protsessual harakatlarni amalga oshirishi zarur.

Sud, agar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga zid bo'lmasa, boshqa normativ hujjatlarni ham qo'llaydi. Sud qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq va normalarini ham qo'llaydi. Qonuniylik printsiipi – boshqa printsiiplar, ya'ni sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi kabi printsiiplar kafolati hisoblanadi.

Protsessual qonun sud xatolari bo'lishi mumkinligini inobatga olib, qonuniylik printsiipini real amalga oshirish uchun ishlarni apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko'rilishiga va qonuniylik printsiipi tantana qilishiga imkoniyat yaratadi.

Qonuniylik printsiipi ishning haqiqiy holati, isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar har tomonlama to'la va xolisona tekshirib chiqilishini talab qiladi. Protsessual qonun dalillarni to'plash, tekshirish va baholashning tartibini belgilab berish yo'li bilan buni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra, «Sud to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga va Jinoyat protsessual kodeksining 16-moddasida mustahkamlanishicha, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ehtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun va sud oldida tengdirlar.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi printsipli ikki turdagi mazmunga ega. Bunda birinchidan, yagona, ya'ni hammaga birday bo'lgan sud to'g'risidagi qoida ifodalansa, ikkinchidan, hammaga barobar tadbiq qilinadigan huquqning yagonaligi to'g'risidagi qoida o'z ifodasini topgan. Yagona sud to'g'risidagi qoida shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida millat, jins, ijtimoiy ahvol va boshqa holatlarga qarab ayrim shaxslarga muayyan imtiyozlar beradigan yoki huquqlarini kamsitadigan sudlar yo'q. Konstitutsiyamizda, sudlar to'g'risidagi qonunlarda belgilanganidek, sud tizimi yagona bo'lib hisoblanadi va sudlar barcha fuqarolar uchun bir xilda ish ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasiga ko'ra, Jinoyat protsessual kodeksining 14-moddasida mustahkamlanganicha, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovning amalga oshirishda sudyalarning mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning ishlari qonun asosida ishning holatiga muvofiq sudyalarga chetdan ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lmaydigan sharoitda hal qiladilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasida faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyani mustaqilligini ta'minlash maqsadida ma'lum kafolatlar berilgan. Ularning biri sudyaning shaxsiy va daxlsizligi. Daxlsizlik – sudyaga g'ayriqonuniy ta'sir etishdan saqlaydi, odil sudlovning amalga oshirayotganida uning huquqlarini cheklashga imkon bermaydi.

Sudyalarning mustaqilligi qator protsessual normalalar bilan ta'minlanadi. Chunonchi qaror chiqarishda sudyalarning maslahati sir saqlanadi, ish yuzasidan biron-bir masalani hal qilishda, qaror chiqarishda sudya va sud a'zolari mustaqildirlar.

Sud hokimiyatini mustaqilligi sudlarning va sud tizimlarida odil sudlovni amalga oshirayotgan sudyalarning raisliklarida chiqarilgan sudning hukmlari, ajrimlari va qarorlarining so'zsiz bajarilishi, ularni bajarishdan bo'yin tovlaganlik, sudlarning (sudyalarning) obro'lariga putur yetkazuvchi xatti-harakatlar uchun javobgarlikni va boshqa ta'sir choralarni tegishli qonunlarga belgilash bilan ham ta'minlangan.

Sudyalarning muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday tarzda bo'lmasin ta'sir o'tkazish, sudyaga hurmatsizlik bildirish, shuningdek uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi harakatlar qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Suddan ko'rilgan yoki sudlovida bo'lgan ishlar mohiyati bo'yicha tushuntirishlar berishni, shuningdek qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardan tashqari, kimga bo'lmasin, ishni tanishib chiqish uchun taqdim etishni talab etish ta'hiqlanadi.

Ommaviy axborot vositalari o'z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan bashorat qilishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga haqli emas.

Sudyalarning mustaqil bo'lish talabi sud hay'atiga oid bo'lgan munosabatlarda (sudyalarning o'rtasida bo'lgan teng huquqlilikni hisobga olib), jinoyat jarayonining boshqa qatnashchilari bilan bo'lgan munosabatlarda, sudning boshqa muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar bilan bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasiga ko'ra, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida va Jinoyat protsessual kodeksining 20-moddasida mustahkamlanishicha, O'zbekiston Respublikasida sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi.

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, ona tilida ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, sudda so'zlash, arz bilan murojaat etish va iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek qonunlarda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanadi. Sud hujjatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning ona tillariga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi. Sudlarda ish yuritish jarayonida yuritiladigan til to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyil, «Sudlar to'g'risida»gi Qonun, jinoyat protsessual qonunchilik qayd etilgan va Konstitutsiyada aks etgan. Sudlarda ish yuritish bo'yicha qo'llaniladigan til to'g'risidagi qoidalarni yanada rivojlantirib bir qator qo'shimcha va aniqlashtirmalarga ega. Masalan, Jinoyat protsessual kodeksining 20-moddasiga asosan ish yuritiladigan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi. Bunday hollarda, shuningdek ish materiallari bilan tanishishi vaqtida protsess ishtirokchilari qonunda belgilangan tartibda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Jinoyat protsessida milliy tilni yuritish masalasini shunday hal qilish tergov va sudda ishtirok etayotgan barcha shaxslar uchun tushunarli bo'ladi, boshqa tomondan bo'lsa, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda jabrlanuvchi va protsessning tilni bilmaydigan boshqa ishtirokchilariga tegishli harakatlarda ishtirok etish, o'zlarining huquqlarini amalga oshirib, o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini yaratib beradi. Ushbu tamoyilning buzilishi ish bo'yicha qabul qilingan sud hukmini bekor qilinishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 113-moddasiga ko'ra, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida va Jinoyat protsessual kodeksining 19-moddasida mustahkamlanishicha, barcha sudlarda ishlar oshkora ko'riladi, davlat sirlarini saqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'riladigan hollar, ba'zi hollarda o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning hamda ularning oila a'zolari yoki yaqin

qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash uchun boshqa ishlarni ham yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yiladi.

Jinoyat ishlarini yopiq sud majlisida ko'rish sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan amalga oshiriladi. Ish sudning yopiq majlisida ko'rilayotganida ishda ishtirok etuvchi shaxslar, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham qatnashadilar.

Ish sudning yopiq majlisida sudlov ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko'riladi. Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

Sudlarda jinoyat ishlarini oshkora muhokama qilish tamoyili barcha jinoyat ishiga taalluqlidir. Mazkur tamoyil jinoyat ishlarida taraf sifatida ishtirok etmagan fuqarolar uchun u yoki bu sud ishini sud tomonidan muhokama qilish paytida ishtirok qilish imkoniyati ta'minlab beradi. Sud jarayoni sudda ishtirok etayotgan fuqarolarga hamda taraflarning o'ziga tarbiyaviy jihatdan ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi bo'yicha barcha sudlarda ishlarni muhokama qilish ochiq ravishda o'tkaziladi va yuqorida keltirilgan holatlarda sud ishini yopiq holda ko'radi. Protsessual qonunchilikda qayd etilishicha shaxsiy xat-xabarlar bilan almashuv, telegraf orqali xat-xabarlar bilan almashuv sud muhokamasida aynan shu xabarlarini yuborgan va xat-xabarlarini olgan shaxslar ruxsatiga asosan oshkora qilinishi lozim.

Bunday ruxsat olinmagan taqdirda sud ularni yopiq sud majlisida o'rganishi kerak bo'ladi.

Sud faoliyatini oshkoraligini oshirish masalalarida sudlar ommaviy axborot vositalarining hodimlariga xabar qilishi, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalariga ma'lum qilishlari mumkin. O'z navbatida oshkora sud majlislarini bevosita korxon, muassasa va tashkilotlarda o'tkazishga ham haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga ko'ra, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, tumanlararo, shahar, harbiy sudlar, viloyat xo'jalik sudlaridan iborat. Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Bu printsip O'zbekiston Respublikasidagi sud tizimining mohiyati, ularning tashkil topish asoslari ochib berilgan.

Konstitutsiyada ularning saylanish va tayinlanish tartibi bilan kafolatlangan sudyalarning mustaqilligidan iborat asosiy printsip mustahkamlangan. Sudyalarning har qanday mahalliy ta'sirlardan holiligi va ularga mustaqillik printsiplari ta'minlanganligi faqat amaldagi Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishi muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, viloyatlarda faqat hokimlar va sudyalargina Prezident tomonidan tayinlanadilar. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda sudlarning tashkil topishi va faoliyat tartibi, barcha sudlar maqomining umumiy printsiplari bilan birga odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi, sud

hukmlari va boshqalarning majburiyligi O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat sudlari tarkibining, Oliy xo'jalik sudi Plenumi va Prezidiumlarining vakolatlari belgilangan.

Jinoyat protsessual kodeksida mustahkamlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari barcha birinchi instantsiya sudlarida ishlar bir tarkibdan iborat sud va sudyaning yakka o'zi tomonidan hamda ikkita xalq maslahatchisi ishtirokida ko'riladi. Ishni sudyaning yakka o'zi ko'rganida va hal etganida, u sud nomidan ish yuritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi raisining qaroriga muvofiq, har qanday ish hay'at tomonidan ko'rilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ishlar uch sudyadan iborat tarkibda ko'riladi.

Ishning kassatsiya tartibida, shuningdek sud nazorati tartibida ko'rish kamida uch nafar sudyadan iborat tarkibdagi sud tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat ishlarini hay'at tomonidan ko'rilishi har qaysi sudyaning bilimi va tajribasini hisobga olgan holda jinoyat ishining to'g'ri va asoslantirib hal qilinishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko'ra, Jinoyat protsessual kodeksining 11-moddasida mustahkamlanishicha, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilinishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa normativ hujjatlar ham qo'llanadi. Sud qonunga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi.

Jinoyat ishini yuritishni tartibga soladigan qonun bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tadbiiq etadi, bordi-yu, bunday qonun ham bo'lmasa, respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va mahnosiga tayanadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlariga muvofiq ish ko'rishlari va rioya qilishlari lozim. Konstitutsiyamizning 15-moddasida bu qoida o'z ifodasini topgan.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat'iy intizom, ichki uyushqoqlik va mahsuliyat jihatidan ustivor bo'lmasa, qonunlar va milliy anhanalar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qay bir jamiyatda qonun bajarilmay qog'ozda qolib ketsa, unday jamiyat aslo ravnaq topmaydi, adolat erisha olmaydi. Qonun amalda bo'lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham qat'iy bo'lmog'i zarur.

Konstitutsiya va qonun ustivorligi bu, birinchidan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qathiyon hukmronligini anglatadi, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa biror fuqaro qonunga bo'ysunishi majburiyatidan holi bo'lishi mumkin emas.

Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun ustivorligi shuni ifodalaydiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo'li bilan tartibga

solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortiladi. Jinoyat protsessida ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi printsiplari – ishlarning protsessual huquq normalariga aniq rioya qilingan holda ko'rilishi, ishlarning ko'rilishida moddiy huquq normalariga qat'iy amal qilinishi bilan ta'minlanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Jinoyat protsessual huquqining asosiy manbai ekanligini belgilab beradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA MILLIY AN'ANALAR IFODASI

Xurshid Mirzaxmedov - NamDU katta o'qituvchisi,

Marhabo Irgasheva - NamDU talabasi

Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-ahloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mana shu ezgu maqsadlarimizning huquqiy kafoloti bo'lajak.

Islom Karimov

XX asrning so'ngi yillari o'zbek xalqining tarixida tubdan burilish ro'y berdi. Asrlar orzuqib kutilgan va yana kimlarningdir armoniga aylangan, tom ma'noda o'zlikni qaytargan Mustaqillikdek buyuk ne'matga yetishdek!

Chunonchi, mustaqillikka erishish oson bo'lmadi, yurboshimizning bundagi jasorati taxsinga loyiq. Mustaqillik bizda neki yo'q bo'lsa, ya'ni, erkin so'zlash, o'zlikni anglash, tariximizni bilish, dunyoda o'z mavqeimizni egallash, o'z tarqqiyot yo'limizni tanlab olish uchun shuningdek, huquq va erkinliklarimiz taminlovchi Baxtimiz qomusi Konstitutsiyamizga ega bo'lish imkonini berdi.

O'zbekistonning ertangi kelajagining huquqiy poydevori bo'lgan Konstitutsiya bizning eng oliy qadriyatlarimizdan desak mubolag'a bo'lmaydi. «Konstitutsiya jamiyat hayotining poydevori, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va millatlararo totuvlikning asosidir. Ishonamanki, uning kechayotgan kunimizga ta'sirini, ozodligimiz, erkinligimizning huquqiy kafolati ekanini shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir fuqaro sezib, his etib turibdi»⁵¹

Prezidentimizning bu so'zlarining isboti o'laroq bugun xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishida, Konstitutsiyamiz xalqimiz qalbidan jo bolganing yorqin misolidir. «Aflotunning aytishicha eng mushkul ish-qonuni joriy qilishdir qonunga shubxa bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish eng oson ishdur». Darhaqiqat, Konstitutsiyamizga erishish oson bolmadi buni yurt boshimizning ushbu so'zlaridan bilib olish mumkin: Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri maxsulidir. Birinchi Konstitutsiyamiz loyihasi ana shunday xalqchil qomus bo'lishiga ishonaman. Sababi - uning loyihasi ustida tahminan ikki yil

⁵¹ Karimov I.A O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.

duvomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi.² Xalqimizning hujjatidan to kelajagigacha huquqiy asosini taminlab qo'ygan konstitutsiyamiz milliy mentaletimiz, an'ana va qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan. Konstitutsiyamiz jahon andozalariga mos ekanligini butun dunyo tan olgani, Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalariga qat'iy amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan ijodiy foydalanildi." Bugungi kunda Konstitutsiyamiz boshqa Konstitutsiyalar bilan teng raqobat qilaoladigan, xalqimizning orzu-istaklari, kundalik hayotidan borinkini kelajagigacha bo'lgan huquqiy poydevorni taminlovchi, hamisha adolat yo'lini yorituvchi mayoq bo'lib, qolishiga hech shubha yo'q.

Konstitutsiyamizning xalqona, milliy an'analarimizni o'zida jo qiliganini bilish uchun bor yo'gi 2-3 moddani ko'rib chiqish kifoya qiladi

23- moddada O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqorolarining va fuqoroligi bo'magan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq taminlanadi. Bizning xalqimizning dunyo xalqlaridan ajratib turadigan bir sifatimiz bu **mehmondo'stlik dir.**⁵² Azal-azaldan meros bo'lib qolgan mehmondo'stlik xalqimizning jon-joniga singanini «Mehmon otangday ulug» kabi maqol bilan ifoda etish mumkin. Nurrafshon O'zbekistonimizga tashrif buyurayotgan har bir insonning huquqlari eng oliy qadriyat ekanligini ularning hatii-harakatlariga nisbatan chora ko'rilishi esa xalqaro qonun hujjatlariga asoslanib ko'rilishini Konstitutsiyamiz o'z kafolotiga olgan.

64- modda. Ota-onalar o'z farzandlarini yoyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburlari⁵³.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishga, tarbiyalash va o'qishni taminlaydi bolalarga bag'ishlangan hayrli faoliyatlarni rag'batlantiradi.

Darhaqiqat bizning yana bir jihatimiz, yetmishga kirganimizda ham ota-onamiz uchun hali ham bola hisoblanishimiz. O'zbek xonadonida chaqaloq tug'ildimi dast avval unga chiroyli ism qo'yishdan boshlanadi bu ishni albatta kattalar o'z zimmlariga olishadi, chaqaloq shifoxanadan qaytgandan so'ng unga bag'ishlab turli marosimlar uyushtiriladi piravordida bolaning sog'lom va barkamol bo'lishi el-yurtiga, ota-onasiga munosib bo'lishi kabi ezgu maqsadlar turadi. Bolalar voyaga yetgunga qadar ota-onalar unga to'la g'amho'rlik ko'rsatib ta'lim tarbiyasiga to'la masul bo'ladilar. Mamlakatimizda bola tarbiyasiga jiddiy yondashuv qadim zamonlardan mavjud ekanini bilish mushkul emas, zotan, «Bir bolaga yeti mahalla ota-ona» yorqin misol. Fuqorilik Kodeksi da voyaga yetganlik 18 yosh deb belgilab qo'yilgan. Yurtimizda yetim bolalarga g'amhorlik yuksak darajada bo'lib, ularni hech

⁵² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

⁵³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

kimdan kam bo'lmay yashashlari, ta'lim-tarbiya olishlari davlat siyosat darajasiga ko'tarilgan.

66-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.⁵⁴

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) dan so'rashibdi: - Yo Rasulloh dunyoda birinchi bo'lib kimga yaxshilik qilaylik? Rasulullo - Onangizga deya javob beribdilar. Uch bora so'ralgandan so'ng esa otangizga deya javob beribdilar. Dunyoda biror mamlakatda nabiralari chevorilari bag'rida yayrab yashayotgan keksalarni ko'rish ancha dushvor, biroq axloqi qadryatga ega bu majburiyat bizning Konstitutsiyamizda Konstitutsiyaviy majburiyatga aylandi. Chunonchi malakatimizda yillarni nomlashda keksalarga ehtirom sifatida 2002-yil, „Qariyalarni qadrlash yili“, 2015-., „Keksalarni e'zozlash yili“ deb nomlanishi milliy qadryatlarimizning qonun darajasiga ko'tarilganini bilish mumkin.

KONSTITUTSIYA VA MA'NAVIY-MADANIY YUKSALISH

*Xurshid Mir-axmedov - katta o'qituvchi,
Lola Mo'minova - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Konstitutsiya insoniyat tafakkuri va ma'rifiy taraqqiyoti hamda huquqiy madaniyatining hosilasidir. Har qanday konstitutsiya jamiyat madaniy taraqqiyotining muayyan darajasini aks ettiradi. U-huquqiy madaniyat ko'zgusi. Konstitutsiya madaniy aloqalar va qoidalar tizimida alohida ma'naviy hamda ijtimoiy qadriyat tarzida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat jamiyat umumiy huquqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi, uning alohida shakli sifatida maydonga chiqadi. Ayni vaqtda, jamiyatning huquqiy madaniyati shu jamiyatda harakatda bo'lgan qonunlar bilan, ayniqsa, Asosiy qonun — Konstitutsiya bilan bevosita aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari huquqiy madaniyatning ahamiyati borasida quydagi metadalogik fikirni ta'kidlagan: «Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir»⁵⁵.

Konstitutsiya va qonunlar, bir tomondan, ijtimoiy, huquqiy ong, huququy mafkura va madaniyatning mahsuli sifatida vujudga keladi, ikkinchi tomondan esa, aholining huquqiy ongi, tafakkuri, mafkurasi va madaniyatini shakinlantirish, yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib hizmat qiladi.

Dunyoda mavjud konstitutsiyalarning barchasi ularni ijod etgan xalqning, millatning siyosiy tafakkuri, «ma'naviyati va madaniyati bilan uzviy bog'liqdir.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

⁵⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2010. -27-b.

tarixning guvohlik berishicha, ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch qudrat manbai»dir⁵⁶. Har bir Konstitutsiya o'z mazmunida jamiyatning, millatning ma'naviy — madaniy qadriyatlarini, uning tarixan shakillangan an'analari, urf-odatlarini va mentalitetini aks ettiradi. Xuddi shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz tabiatiga xos barcha ma'naviy- madaniy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan. Ayni vaqtda, Konstitutsiyaning o'zi o'zbek madaniyatining mahsuli, uning tarkibiy qisimidir. Bugungi kunda Konstitutsiyamiz xalqimizning milliy — madaniy qadriyati, g'ururi va iftixori timsolidir.

Shubhasiz, Konstitutsiyamizning har bir normasi o'z mazmun-mohiyati bilan xalqimizning qadimiy boy madaniyati va ma'naviyatiga bevosita yoki bilvosita aloqadordir. Shuni alohida takidlash joizki, Asosiy qonunimizning ma'naviy — axloqiy va madaniy qadri-qimmati quydagi yuksak mezonlarga to'la muvofiqligi:

- birinchidan, uning inson va jamiyat manfaatlariga to'la bo'sundirilganligi;
- ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirish manfaatlariga samarali xizmat qila olishi;
- uchinchidan, xalqimizning asriy orzusiga, u qaror toptirgan madaniy- ma'naviy qadriyatlar va adolat ideallariga muvofiqligi;
- to'rtinchidan, konstitutsiyaviy normalarning katta madaniy-tarbiyaviy salohiyatga egaligi va komil insonni tarbiyalashga to'la safarbar etilganligi;
- beshinchidan, xalqimizning boy ichki dunyosini, ichki ruhiyati, mentalitetini aks ettira olganligi, shuningdek, uning o'ziga xos eng yahshi axloqiy fazilatlarini, milliyligini ifoda eta olganligi;
- oltinchidan, hozirgi ma'rifiy dunyoda qaror topgan axloqiy-madaniy qadriyatlarni, umumbashariy insoniy me'yorlarni xalqimizning milliy madaniyati va ma'naviyati kategoriyalari bilan oqilona uyg'inlashtira olganligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, Asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi.⁵⁷

Umumbashariy ma'rifiy taraqqiyotning va jahon madaniyatining umum-e'tirof etilgan printsiplaridan biri — bu gumanizim, ya'ni insonparvarlikdir. Bugun dunyo madaniyatining ma'nosi, mag'zini, ustivor qadriyatini inson tashkil etadi. Zero, bu madaniyat inson shaxsini oliy ijtimoiy ne'mat sifatida ulug'lovchi, salbiy narsalardan vos kechib, hamisha ezgulik qilishga chorlovchi g'oyalar tizimi ta'sirida shakillanadi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish aholini, ayniqsa, yoshlarni, boy ma'naviy merosimiz, milliy va tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, demokratiya va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yurtimizda kechayotgan islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Ma'naviy makonda, xususan, huquqiy madaniyat muhim o'rin tutadi. Huquqiy madaniyat fuqorolik jamiyati ma'naviy kamolotining, davlat-

⁵⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T., 2008. — 29-b.

⁵⁷ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafoloti. — T.: «O'zbekiston», 1993. B. 54.

chilik binosi rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning yuksalib borishi turmushning barcha tomonlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi demokratik huquqiy jamiyatga xos tabiiy qonunyatdir. Huquqiy madaniyat darajasi jamiyatda qaror topgan huquqiy qadriyatlar ko'lami, ularning omma orasida tarqalganligi hamda insonlar tomonidan teran o'zlashtirilganligi bilan o'lchanadi. Har bir alohida olingan insonning huquqiy madaniyati uning huquqiy qadriyatlarini, qonunlar mazmunini o'z shuuriga qanchalik singdirganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida demokratiya, ijtimoiy adolat va inson huquqlariga sadoqat bildirilganligi, cheksiz hurmat bajo keltirilganligi ham xalqimizning yuksak madaniyatidan dalolat beradi. Yoxud insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishdek oliyjanob maqsadni ko'zlaganligi ham ana shu madaniy saviyamizning yorqin ko'rsatkichidir.

Bazan odamlar orasida «Pul bilan hamma narsaga erishish mumkin», degan o'ta zararli fikirni eshitib qolamiz, bunday kayfiyat ma'rifiy jamiyatga xos emas.

Ayniqsa, bu kayfiyat yoshlarning ma'naviyati va axloqiga katta putir yetkazishi mumkin. Yoshlar ongida barcha ne'mat va ijobiy darajalarga halollik, mehnat va bilim tufayli erishish mumkin, degan fikirni mustahkamlash lozim. Bu borada ularga, kattalar, ota-onalari o'rnak bo'lmoqliklari talab etiladi.

Ma'naviy va madaniy qadriyatlarimiz holati shunga borib yetmoqdaki, aksaryat odamlar nopok yo'llar bilan boyib ketgan kimsalarni «hurmatlaydigan» bo'lib qoldi. Insonning qadridan ko'ra lavozimi, amalning hurmati ustun bo'lib qolmoqda. Quvlik bilan ish bitiradigan «kimsa»larni «qudratli inson» hisoblab, e'zozlash, hokisorlik bilan savob uchun hojat chiqaruvchi kishilarni esa laqma sanab beqadir tutuvchi kimsalar ham uchrab turadi.

Mazkur vaziyatdan xolos bo'lish uchun, bugungi hayotiy qadriyatlarni jamiyat oldida turgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy vazifalardan, huquqiy davlat va fuqoroviy jamiyatni barpo etish manfaatlaridan kelib chiqqan holda qayta shakillantirish lozim. Yangi milliy mafkura va milliy g'oya ruhiga mos qadriyatlar tizimini vujudga keltirish ustida jiddiy bosh qotirish zarur. Butun ta'lim va tarbiya tizimi, ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'liq barcha muassasalar sof axloqiy, yuksak ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va omma ongiga singdirish vazifasiga xizmat qilishlari shart.

ISLOHOT VA IJTIMOY HAYOT

DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TOLERANTLIKNI SINGDIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

D. Xudoyberdiyeva – Far. pedagogika kolleji o'qituvchilari

M. Sharipova - Quva qishloq xo'jalik kolleji

N. Musoxonova - Qo'qon avtotransport kolleji

Yurtboshimiz Islom Karimovning “O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda” nomli kitobida jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini va mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash masalasi oltinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu kitobida: “O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligi ba'zi hukmronlik mavqeini saqlab qolishga intilayotgan siyosiy kuchlar va mamlakat ichkarisidagi ekstremistik unsurlarning tajovuz ob'ektlaridan biridir. Shu sababdan sodda xalqni avrash va chalg'itish orqali millatlararo mojarolarni sun'iy ravishda vujudga keltirish hamda yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millat va din vakillari o'rtasidagi do'stlikka raxna solishlari bilan mamlakatimizdagi vaziyatni beqarorlashtirishga urinish O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlikga tahdid soluvchi potentsial va real manbalardan biri ekanligini hisobga olmay bo'lmaydi, albatta.

“... ko'p millatli davlatdan etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlar milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri ekanligi aniq bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, millatlararo, qavmlararo munosabatlarda ro'y beradigan xilma-xil ziddiyatli holatlarni, mojarolarni ilmiy tahlil etishni talab qiladi”⁵⁸, - deb uqtirdi.

Har bir kishilar jamiyatda tolerantlikni shakllantirish masalasi haqida Prezidentimiz I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyalaridan birida fikir yuritdi. Zero, tolerantlik-bu quyidagi insoniylik fazilatlaridir:

- o'zga millat va ellatlarni hurmat qilish;
- boshqa din va din sohibalarini hurmat qilish;
- sabr- tovoqat qilib yashash;
- boshqa kishilarning huquq va yerkinliklarini hurmat qilish;
- o'z huquq va yerkinliklarini himoya qila olishdir.

Bu borada jamiyatning oilalarida va maktablarida bolalarga milliy mafkuramiz ruhida ta'lim berish, tarbiyalashga yetarli etibor berilmas yekan, inson millatchiga yoki milliylikdan begona “manqurt”ga aylanadi.

Falsafa fanlari doktori, professor B. R. Karimov o'z “Ayollar dunyo qarashida insonparvarlik, tolerantlik va adolatlatlilik tamoyillari shakllantirish oilani mustahkamlashdagi o'rni” ilmiy maqolasida: “Agar oilada intellektual salohiyat darajasi past bo'lsa, u holda oiladagi munosabatlar sezilarli darajada irratsional, haqqoniylikdan yiroq, anglanmagan, oldindan bilib bo'lmaydigan va istiqbolini belgilash qiyin bo'ladigan bo'ladi”, - deb ta'kidlab yozadi.

⁵⁸ Karimov I. O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 326-bet

Biz bu fikr va maqoladagi boshqa talqinlarini to'liq qo'llab- quvvatlaymiz. Qo'shimcha ta'kidlash kerakki ushbu tolerantlik (ho siyosiy tolerantlik, ho insoniylik tolerantlik) ni shakllantirishda, eng avvalambor, davlatdagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ishlari ostida shakllanadi degan fikrni chuqurlashtirmoqchimiz. Chunki, jamiyatimizda qabul qilinayotgan har bir farmon, qonun yoki qaror, avvalambor inson huquqlari, yerkinliklarini, manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarimizda huquqiy madaniyat, demokratik qarashlarini, Vatani uchun milliy g'ururlikni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim- tarbiya sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida o'qituvchi-pedagoglarning dunyo qarashi, huquqiy savodxonligi, fuqorolik his-tuyg'usi yangi bosqichka o'tdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu jarayonlar esa, o'z navbatda bilim oluvchilarda yangi motivatsiyalarni uyg'otadi, albatta.

Dunyoqarashlar dialogi: Ayol va jamiyat taraqqiyoti. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2014-yil 5-mart. T., 2014, 68-bet.

Demak, hozirgi zamonda har bir kelayotgan kun inson qaysi sohada o'qimasin, ishlamasin, o'z ustidan ishlashni talab qiladi.

Dunyodâ bo'layotgan globallashuv jarayonlar har bir jamiyatdagi va oilaning muhitidagi past-balandlik, sovuq-yaxlit holatlarni ham aniqlashni tezlashtiradi. Jamiyatni rivojlantirishida, tolerantlikni tarbiyalashda mahalla va ijtimoiy tuzilmalarning katta o'rni va ta'siri borligi haqida hammamiz bilamiz. Mahalla oqsoqollari, diniy ma'rifat va ma'naviy- axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, mahalla posbonlarining jamiyatimiz hayotida tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat va hamjihatlik, hushyorlik va ogohlik muhitini mustahkamlashdagi mas'uliyati yanada ortdi.

Respublikamizda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi qabul qilinishi jamiyatimizda tolerantlikning shakllanishi haqida dalolat beradi. Mehr-oqibat, ulug' yoshidagi insonlarga, e'tibor-ehitrom tolerantlik g'oyasini boyitadi. Chunki o'z qalblarida tolerantlikni saqlab kelgan yoshi ulug' insonlar quyidagi insoniy fazilatlarni hech qaysi zebi-ziynatlarga alishtirmaydilar:

- tinchlik-osoyishtalik qadriga borish;
- yomonlarga qo'shilmaslik;
- yaxshilarni qo'llab-quvatlash;
- yetim- yesirlarning mulkiga ko'z olaytirmaslik;
- qalb pokizaligini saqlash;
- tozalik- pokizalik qoidalariga itoat qilish;
- yoshlarni bilim va kasb-hunarga yo'naltirish;
- sabr- tohqat bilan yashash;
- boshqa millat va din sohibalarini hurmat qilish;
- ota-bobolarning udumlari va tarixiga sadoqatlik bo'lish va h. k.

Agar aholining aynan shu qatlamni faollashtirsak, ya'ni "Keksalarni e'zozlash yili" dasturini amalga og'ishmay oshirsak, yoshlar ongiga tolerantlik his- tuyg'usini singdirish, shakllantirish jarayoni yanada ham muvaffaqiyatli bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov "Turkiston" gazetasi muhbiri savollariga bergan javoblarida shunday deydi: "... yagona oila bo'lib yushayotgan ko'p millatli xalqimizning dolzarb shioriga aylangan so'zlarni eslatmoqchiman. Shu aziz Vatan barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish biz uchun eng katta baxtdir. Ishonchim komilki, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikka chorlayotgan bunday shior milliy g'oyamiz va tafakkurimizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan ezgu orzularimizni ro'yobga chiqaradigan asos bo'lib xizmat qilar yedi"⁵⁹.

FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISH KONTEKSTIDA O'RTA SINFINI QO'LLAB-QUVVATLASH DAVLAT SIYOSATI

Gulnoza Rafiqova - O'DJQN o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov milliy davlat tizimini belgilab bergan isloh qilish davrining asosiy bosh vazifasi quchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish bo'ldi.

I.Karimovning hamma tomonlama yordami va ko'magida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mamlakatning modernizatsiyasi va demokratik yangilanishiga qaratilgan keng miqyosli o'zgarishlar, jamiyat liberallashuvi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurish: bozor va demokratik institutlar shakllanib takomillashmoqda, ijtimoiy-siyosiy hayot shakl mafkura va fikrlarning xilma-xilligi asosida tashkil etilayotgani ahamiyatli va muhim rolni o'ynayapti. Aholining tobora o'sib borayotgan ijtimoiy faolligi, fuqarolarning siyosiy va huquqiy ongida kechayotgan chuqur va sifatli o'zgarishlar islohotlarni yanada chuqurlashishiga, fuqarolik jamiyati institutlarining roli va faollashuvini yanada oshishiga ko'maklashmoqda.

Aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati mustahkamlanishi hamda siyosiy-huquqiy darajasi va ongini o'sishi tufayli fuqarolarni mamlakat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan yangi vazifalar olg'a surilmoqda.

Mamlakatning mustaqil rivojlanishining boshlang'ich bosqichida (1991-2001 yillar davrida) miqyosli islohotlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy buyruq tizimini buzishga hamda assolarni, aavalambor, qonun chiqaruvchi bazani shakllantirish uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Demokratik jarayonlarni hamda fuqarolik faolligini faollashishiga ko'maklashgan muhim qabul qilingan qonun va me'yoriy aktlar qatorida quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz: Fuqaro, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish haqida", "Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari haqida", "Xususiy korxonalar haqida", "Valyutani tartibga solish haqida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat haqida", "Fermer xo'jaligi haqida", "Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini kafolatlari haqida", "Jamoat fondlari haqida", "Homiylik haqida", "Nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqaro jamiyaining boshqa institutlarini

⁵⁹ Karimov I. O'zbekiston XXI-asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 334-bet

qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish choralari haqida" Qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga ko'maklashish bo'yicha choralari haqidagi" Qarori. Bular nafaqat keyingi liberallashtirish va modernizatsiyalashuv, o'rta sinfni shakllanishining mustahkam huquqiy asosi bo'ldi, ularning barchasi amalga oshirilayotgan islohotlarning qaytmasligining kafolati bo'ldi.

Hozirgi paytda mamlakatda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Ijtimoiy fikrni baholash instituti, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyat yuritayapti.

O'z navbatida, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishida, o'rta sinfning bu jarayondagi o'rni va roli bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribasi mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy va davlat qurilishining islox qilish davrida siyosiy davralarining diqqatining ob'ektiga aylandi.

Jahon tajribasi va mustaqil O'zbekistonning milliy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, Prezident I.Karimov bizning asosiy aniq maqsadlarimizni belgilab berdi: huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish. "Ko'plab davlatlar erkin fuqarolik jamiyatiga demokratik an'analarni asrlar mobaynida to'plangan tajribasi va rivojlanishi asosida erishdi. Biz ham shunday jamiyatni qurishni orzu qilamiz va bunga intilamiz"⁶⁰.

I.A.Karimov O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda o'rta sinfga alohida rolga ega deb hisoblaydi, bu o'rta sinfga juda ham boy va kambag'alham bo'lmagan insonlarni mansub deb hisoblaydi, ya'ni tadbirkor va biznesmenlar, fermerlar, kichik biznes va xizmat sohasi vakillari, bir so'z bilan aytganda, moddiy va intellektual mulk egalari o'rta sinfni tashkil qiladi. Prezidentimiz o'z nutqlarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Buguni kunda barqarorlik va farovonlik ta'minlab berilayotgan dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari tajribasi bizning fikrimizcha, eng muhim, ya'ni birinchi navbatda, xususiy shaxsiy mulkni ustivorligi, xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar mulkdorga shaxsiy va oilaviy farovonligi savollarini hal qilish bilan bir paytda milliy boylikni ko'payishiga o'z xissasini qo'shishga, ijtimoiy muammolarni hal qilish jamiyatda barqarorlik va osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash uchun javobgarlikni olishga tayyorligidan guvohlik beradi. Bu borada, bu imjtimoriy qatlam jamiyatdagi eng ko'pchilikni tashkil qilib, o'rta sinfni tashkil qilgan"⁶¹.

Bunda I.Karimov "O'zbekistonda tarixan shakllangan milliy madaniy xususiyatlar, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqqan holda" aholi bandligini yaxshilashning hamda farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat sohasi va uy mehnatining rivojlanishini qo'llab-quvvatlab rag'batlantirishning uzoqni ko'zlagan siyosatini amalga oshirib, ularga ustivorlikni ta'minlab bermoqda.

Bu kontekstda shakllanayotgan o'rta sinf tobora rivojlanib va kengayib hokimiyat bilan o'zaro manfaatdor hamkorlikni yanada mustahkamlashishiga, o'z

⁶⁰ Каримов И.А. Свое будущее мы построим своими руками. - Ташкент: «Узбекистан», 1999. Том 7. - С.295.

⁶¹ Доклад Президента И. Каримова на IV съезде Движения предпринимателей и деловых людей — Либерально-демократической партии Узбекистана (Ташкент, 06.11.2007 г.).

manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashishiga ko'maklashuvchi fuqarolik jamiyati asoslarini shakllanish jarayonini kuchayishidan manfaatdordir. O'z sa'y-harakatlarini birlashtirgan holda, o'rta sinf vakillari fuqarolik jamiyati qurilishiga o'z xissasini qo'shmoqda. Aynan shu o'rta sinf muvaffaqiyatli rivojlanib, zamonaviy O'zbekistonda demokratiya va fuqarolik jamiyatini qurish uchun baza bo'lgan bozor iqtisodiyotini shakllanishiga ko'maklashadi. Fuqarolik jamiyati shakllanishining jadallashuvi mamlakat hayotida barcha fuqarolarning faol ishtiroki usos bo'lgan huquqiy demokratik davlatni qurish uchun barqaror platformani yaratishga qodirdir.

"Qisqa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kundayoq aholi bandligini ta'minlab beruvchi asosiy xalqa va daromadlarning manbasi bo'ligina qolmay, iqtisod barqarorligining muhim omili bo'lib, jamiyatimizning ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati va tayanchi hamda mamlakatimizni progress yo'lidan olg'a surilishining faol harakatlantiruvchi kuchidir".

"Biz qurayotgan jamiyat O'zbekiston xalqiga munosib hayotni, uning huquq va erkinliklarini kafolatlashi, ya'ni milliy qadriyat va madaniyatni tiklanishini, insonning axloqiy barkamolligini ta'minlashi lozim..."

Barcha jahon qadriyatlaridan biz eng buyugi - insonni ajratdik va bu asosda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ratsional huquqiy yechimini topishga intildik"⁶².

TARAQQIYOTNING O'ZBEK MODELI JAMIYATNING TADRIJY RIVOJLANISHI KONTSEPTSIYASI SIFATIDA

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi,

Maxmudov Fazliddin - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ijtimoiy taraqqiyotga yondoshuvlar xilma-xilligi, Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi qadimgi dunyo mutafakkirlaridayoq qiziqish uyg'otgan. Antik faylasuflar chiziqli tarix falsafasining uch muhim yo'nalishi: progressiv, regressiv va tsikli yo'nalishlarni farqlaganlar. Shuni qayd etish muhimki, bu yo'nalishlarning barchasi hozirgi vaqtda ham o'z izdoshlariga ega. Shu bilan bir qatorda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy rivojlanishning nochiqiq kontseptsiyasi ham asoslangan.

Antik davr mutafakkirlarining aksariyati, shu jumladan Protogor va Demokrit jamiyatning rivojlanishi asosan yovvoyilikdan «oltin asr» sari yuksalib boruvchi yo'nalishda kechgan deb hisoblagan. Ularni progressiv yo'nalish asoschilari deb hisoblash mumkin. Boshqa mutafakkirlar (Gesiod, Seneka), aksincha, jamiyatning rivojlanishi regressiv yo'nalishga ega, ya'ni u «oltin asr»dan jamiyatning tanazzuli, axloqning buzilishi va hokazolar bilan tavsiflanuvchi «temir asr» sari rivojlanadi, degan fikrni ilgari surgan. Yana bir toifa faylasuflar (Platon, Aristotel, Polibiy)

⁶² Доклад Президента РУз. И. Каримова на заседании КМ, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2006 году и важнейшим приоритетам углубления экономических реформ в 2007 году (Ташкент, 13.02.2007 г.)

jamiyat yuksalib boruvchi yo'nalishda, lekin tutash doira bo'ylab harakatlanadi va har doim ortga, dastlabki bosqichga qaytadi, deb hisoblagan.

O'rta asrlar faylasuflari, tarix muayyan yo'nalishda rivojlanuvchi jarayon ekanligini rad etmagan holda, uning yo'nalishini Xudo belgilaydi, deb hisoblaganlar. Bundan keyin ham jamiyatning rivojlanishi to'risida ko'plab kontsepsiyalar yaratigan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan song dunyo hamjamiyati endi O'zbekiston qaysi yo'ldan boradi degan manoda uni kuzata boshladilar. Shundan so'ng Jahon tajribasiga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning o'zbek modeli yaratildi.

I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida bozor munosabatlariga o'tish davrida ommaviy noroziliklar, hatto fuqarolar urushi vujudga kelishi mumkinligini, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun etilgan muammolarni oqilona hal etish zarurligini ko'rsatdi. Jahon tajribasi har bir mamlakat xalqlarining o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy-davlatchilik asoslarini yaratish, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini belgilash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli butun insoniyatning ilg'or tajribasiga, xalqimizning milliy xususiyatlari va mentalitetiga tayanadi.

Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanligini, jamiyatning tadjriy (evolyutsion) taraqqiyoti normal-tabiiy rivojlanish yo'li ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadjriy yo'li mohiyatini shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashsiz evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish-tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir»⁶³. «Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inkilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»⁶⁴ O'zbek modelining asosiy tamoyillari:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy siyosat;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari milliy davlatchilik asoslarining barpo etilishida, milliy qadriyatlar tiklanishida, milliy o'zlikning anglanishida, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan ustuvorligining e'tirof etilishida, milliy mentalitet xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishida, milliy g'oya va milliy

⁶³ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida -T.: 1997.-B.184.

⁶⁴ Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li -T.: O'zbekiston, 1992. -B.10-41-46.

mafkura ijtimoiy-siyosiy faolligining muhim omili ekanligining e'tirof qilinishida, demokratik qadriyatlarining rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishida, o'z imkoniyatlariga tayanishida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishida, xorijiy mamlakatlar bilan turli sohalaridagi munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi printsiplari ishlab chiqilishida o'z ifodasini topdi. «Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'analariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi».

O'zbek modelining hayotiyligi jahon jamoatchiligi, etuk fan, siyosat, san'at urubolari tomonidan e'tirof qilindi.

O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlari rivojlanishida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy taraqqiyot kontseptsnyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy davlat, yangi demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati - kishilarning yuksak axloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

«Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkynliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi».⁶⁵
Degan edi prezident Islom Karimov

O'zbekiston – o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda O'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion – tadjriy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

⁶⁵ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: 1997.-B.173.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatning evolyutsion rivojlanishi va taraqqiy etishida eng to'g'ri yo'l bo'lib jaxon hamjamiyatidad e'tirof etilmoqda. Rivojlangan Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Frantsiya, Xitoy kabi mamlakatlarning taraqqiyot medallarini ko'radigan bo'lsak ular ko'proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida, iqtisodiy islohotlar davrida, milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar ham dolzarb bo'lmagan, Taraqqiyotning o'zbek modeli esa iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda milliy davlatchilik, milliy ma'naviyat, madaniy meros kabi jihatlarga ham alaxida etibar qaratilganligi bilan farqli bo'lib samarali natijalarga erishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatning evolyutsion rivojlanishi kontseptsiyasiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

*Axrorjon Akbarov - NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy
fakulteti, milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquqta'limi yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Bugun mamlakatimiz kunsayin taraqqiy etib, dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. 25yillik qisqa fursatda shunchalik katta yutuq va marralarga erishish mustaqillikning ilk yillaridanoq O'zbekistonning o'z oldiga aniq va puxta o'ylangan maqsadlarni qo'ya olganligi, shu bilan birga bu yo'lda sobitqadamlik bilan qilingan mashaqqatli mehnatlarning samarasidir. Zero, Alloma Abdulla Avloniy aytganlaridek: «Har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritmakg'a bog'lidir»⁶⁶.

Bunday yuksalishning zamirida yana xalqimiz, ya'ni hamjihatlikda yashayotgan 130dan ortiq millatlarning o'rmini ham alohida e'tirof etish zarur. Chindan ham ko'p millatli O'zbekiston xalqini yagona Vatan manfaati yo'lida birlashib, ahillikda kun kechirayotgani bugungi farovon hayotning muhim omillaridandir. Atoqli yozuvchimiz Tohir Malik o'zining «Odamiylik mulki» asarlarida ta'kidlab utganlaridek: «Mamlakatni taraqqiy etish yo'lini belgilovchi omillar ko'p. Shulardan eng muhimi – Vatan mustaqilligi bo'lsa, keyingi o'zida esa o'zaro ahillik va ittifoqlikningo'rni beqiyosdir.»⁶⁷ O'zbeklar esa azal-azaldan bag'rikeng, millatparvar, tinchliksevar xalqdir.

Bugun «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidanqat'i nazar qonun oldida tengdirlar»⁶⁸. Va

⁶⁶ Tafakkurdur donalari. 111 vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari (Hikmatli fikrlar). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. -B.36.

⁶⁷ Malik Tohir. Odamiylik mulki - Husnu xulq (Axloq kitobi). –Toshkent: Sharq, 2014. -B.899.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.

“(O‘zbekiston xalqini, millatidan qat‘i nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi)”⁶⁹. deyahuquqiy jihatdan ham kafolatlangan bo‘lib, shuningdek ularning vijdon va e‘tiqod erkinligi ham alohida e‘tirof etiladi. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 18-moddasida «Har bir inson vijdon va din erkinligi huquqiga egadir» deb keltirib o‘tilgan bo‘lsa, O‘zbekiston ham ushbu xalqaro huquq normasini tun olgan holda o‘zining oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», deb belgilab qo‘yilgan.

Ta’kidlash kerakki, diniy bag‘rikenglikka e‘tibor shunisi bilan ham ahamiyatliki “diniy e‘tiqod insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ma’naviy-madaniy hayotning muhim bo‘lagi sifatida barcha mamlakatlar va jamiyatlarning ma’naviy-madaniy va hatto, iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita yoki bilvosita o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan.”⁷⁰ Qolaversa, millatlararo totuvlikni jamiyatimizning bosh g‘oyalardan biri ekanligi, diniy bag‘rikenglikka e‘tibor ham ustuvorg‘oyamiz deb bilishimizni yana bir muhim jihati shuki, dunyodagi barcha dinlar ezgulik g‘oyalariiga asoslanadi va chinakam insoniy fazilatlar, do‘stlik, tinchlik, yaxshilikka tayanadi. Insonlarni esa faqat ezgulikka da’vat etadi. Bugungi kunda esa bu g‘oya nafakat dindorlar balki, butun bir jamiyatning hamkorligini, birdamligini, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdek olijanob maqsadlarni yuqori o‘ringa qo‘yishi bilan ahamiyatlidir.

Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglikka kelsak “O‘zbeklar qiyinchilik yillarida o‘zlari yemay, bolalariga yedirib ichirmay, mutlaqo begona, ammo yordamga muxtoj odamlar bilan topganlarini baham ko‘rdilar. O‘sha og‘ir yillarda turli millatlarga mansub bir emas, o‘nlab yetim bolalar shundoqham ko‘p bolali o‘zbek oilalarida yangi ota-ona ortirdilar, ota va ona mehriga qondilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak olijanoblik va ma’naviy fazilatlarini namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi.”⁷¹ Demak, mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka alohida e‘tibor qaratilib kelingani bejis emas balki, “O‘zbekiston o‘z tarixida ana shunday sahifalar bo‘lganligi va hozir ham borligi bilan faxrlanadi. Xalqimiz va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik, va o‘zga millatga, o‘zga xalqqa mensimasdan, hurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo‘lgan sharmandali sahifalario‘qligi bilan faxrlanadi.”⁷² Chunki tarixan va bugun guvohi bo‘lib turganimizdek, dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi notinchlik, parokandalik va g‘alayonlar sodir bulayotganligining muhim sabablaridan deb millatchilik va diniy qarama-qarshiliklarni ayta olamiz. Zero, bunday illatlar va ziddiyatlar bor joyda esa farovonlik bo‘lmaydi. Farovonlik yo‘q joyda esa taraqqiyot aslo yuksalmaydi. Buni

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016.

⁷⁰ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. -Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2008. -B.227.

⁷¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O‘zbekiston, 1997. -B.80.

⁷² O‘sha asar... B.81.

teran anglagan holda O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenlikka o'z vaqtida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralgani va bu masalalarda adolatli va keng qamrovli, izchil siyosat olib borilgani o'zining ijobiy samarasini berdi va mamlakat taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

MILLATLARARO TOTUVLIK ILMIY VA UMUMINSONIY QADRIYAT SIFATIDA.

B.B.Ibrahimov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedراسi o'qituvchisi

Millatlararo totuvlik g'oyasi - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod axoli mavjud. O'zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Millatlararo totuvlik tushunchasini to'laroq, kengroq izohlashdan avval "millat" so'zini tushunib olishimiz darkor.

Millat(lotin. *natio* — millat) til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruxiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan, shuningdek, odatda o'z davlatiga ega bo'lgan hamda mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi.

Millat ma'lum hududda turgun yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma'naviy-ruxiy salohiyati yagonaligi asosida shakllanadi. U faqatgina «kapitalistik jamiyatning muqarrar maxsuli» emas, balki insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotining maxsulidir.

Millatning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ammo ular millat abadiyligini ta'minlashning so'nggi imkoniyati emas. Ular millat taraqqiyoti uchun zarur shart xisoblanadi. Millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili — uning ichki ma'naviy-ruxiy salohiyatidir.

Millat insoniyat mavjudligi sharoitida hech qachon o'lmaydi, o'zga millatlar bilan o'zaro qo'shib ham ketmaydi, balki takomillashib, rivojlanib borish asosida o'zining ichki ruxiy salohiyatida mavjud bo'lgan yangi qirralarni namoyon qilib boradi. Milliy taraqqiyot zaminida uning jahondagi ko'plab millatlar uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan turli soxalardagi o'ziga xoslik asosida umummilliy va umuminsoniy salohiyat shakllanib, rivojlanib boradi.

Millatlarning ichki ruxiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mehnati, tadbirkorligi va o'ziga xosligini rivojlantirish asosida zamonaviy sivilizatsiya yuzuga kelgan. Mutaxassislarning hisoblashlaricha, Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular insoniyatning o'rta hisobda 96 foizini birlashtiradi, qolgan to'rt foizni elat va qabilalar tashkil qiladi. Har bir millatning tarkibiga kiruvchilarning soni bir necha o'n mingdan bir necha milliongacha borib yetadi.

Millatlarni faqat son jihatdan guruhlarga ajratish mumkin. Ammo ularning xususiyatlari, jahonda tutgan o'rinlari jihatidan «buyuk» yoki «kichik» guruxlarga ajratib bo'lmaydi. Chunki son jihatdan eng kichik millatdan jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga ulkan xissa qo'shadigan insonlar chiqib, ular o'z millatini yuksaklik darajasiga olib chiqishi mumkin. Son jihatidan kichik bo'lgan millatning o'z hududlari butunligini, huquqini ta'minlashga yoki ma'naviy boyliklarini himoya qilishga qaratilgan harakatlari butun jahonni larzaga solishi mumkin. Milliy rivojlanishda, tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, jahonda va ko'p millatli mamlakatda sodir bo'layotgan juda ko'plab mojarolar, ular oqibatida yuzaga kelayotgan beqarorlik, iqtisodiy va ma'naviy tanazzullar, aynan millatlararo munosabatlarga borib taqalmoqda. Ya'ni qayerda u yoki bu millat huquqlari poymol etilar ekan, albatta, bu mamlakat taraqqiyotini izdan chiqarishi muqarrar. Sobiq Ittifoqning ich-ichidan yemirilishi va oxir-oqibatda yo'q bo'lib ketishini tezlashtirgan eng qudratli omillardan biri ham «mayda» millatlarga nisbatan amalga oshirilgan buyuk millatchilik shovinizmi siyosati edi.

Jahonda va ko'p millatlar yashayotgan mamlakatlarda barqarorlikni ta'minlashni va taraqqiyotga erishishning muhim shartlariga, birinchidan, millatlarning teng huquqliligini amaliy jihatdan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, u yoki bu millat u hatto son jihatdan juda kichik bo'lmasin, ularga «katta» millatlar tomonidan kam sonli millatning urf-odatlarini, an'analarini va qadriyatlarining xurmat qilish kabilar kiradi.

Millat inson kabi muqaddasdir. Uning ichki ma'naviy ruxiy salohiyati, ornomus, qadr-qimmat, g'urur va iftixor kabi ulug' tuyg'ularni mustahkamlaydi hamda himoya qiladi.

O'z navbatida millat taraqqiyoti ikki asosga:

Birinchidan, o'z zaminlari, imkoniyatlari va salohiyatlariga;

Ikkinchidan, turli millatlar bilan bo'ladigan o'zaro hamkorlik va o'zaro yordam kabilarga tayanadi.

Har bir millat imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning muqaddasligini e'tirof etish va huquqlarini ta'minlash umummilliy taraqqiyotning asosiy sharti xisoblanadi.

Har bir millat yaratganning mo'jizasidir. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Oллоh asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'pmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qilad. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri xisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahonda vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Xalqimizning «qo'shning tinch - sen tinch» degan maqolida ana shu

haqiqat nazarda tutilgan. Bugun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik osoyishtalik barqarorlik hamkorlik hamjihatlik teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan xech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarini teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri xal qilishga yordam beradi. Bug'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro xurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining istedodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha takidlagan: «Respublika axolisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda xayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida masul bo'lishdan ham iboratdir». Bunday muxit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Q. T. Inamov - Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi

Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga farzanlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak⁷³ - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa - 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etadi.⁷⁴

Mustaqil Respublikamiz davlat siyosatida ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor berilib, milliy kadrlar tayyorlash dasturi ishlab chiqildi. Yoshlarni o'zlari hohlagan yo'nalishlari bo'yicha ilm olishlariga keng yo'l ochib berildi. Gimnaziya, litsey, kollejlarda tashkil topib, ularda kelajaga porloq yoshlar bilim

⁷³ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent «O'zbekiston». 2000. 19 bet.

⁷⁴ Karimov I. A. Asosiy maqsadimiz - yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir // O'zbekiston ovozi, 2007 yil, № 149.

olmoqdalar. Bugungi kunda yurtimizda “Ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o’quv yurtlari muhim o’rin egallamoqda. O’tgan davr mobaynida ularning soni ikki barabar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o’quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta’lim olmoqda.”⁷⁵

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega, hayotga yangicha qaraydigan, sobiq mustabid tuzumga xos tushunchalardan ozod bo’lib voyaga yetayotgan, o’z fikri va qarashlariga ega bo’lgan navqiron yoshlarimiz hayotga ishonch bilan kirib kelmoqda, jamiyatimizda mustahkam o’rin olmoqda va mamlakatimizning taraqqiyoti yo’lida hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Shuning bilan bir qatorda yoshlar o’rtasida olib borilayotgan ommaviy tarbiyaviy ishlarda jiddiy xato va nuqsonlar mavjud. Bu oila, bola bog’chalaridan tortib oliy o’quv yurtlari, mehnat jamolaridagi yoshlarga bo’lgan munosabat paterkalistik an’analar har qanday holatda ham kattalar, rahbarlar ko’rsatmasiga amal qiladigan, o’zining mustaqil shaxsiy fikri, hayotiy, siyosiy pozitsiyasi rivojlanmagan, “qolipdan” chiqmaydigan itoatkor, mo’min, qobil kishilarni tarbiyalash uslublari o’z kuchini yo’qota olmaganligi, ko’pchilik yoshlarda milliy g’urur, o’zlikni anglash, “Men”lik ruhining ko’zga tashlanmaganligi ularda “Kichik odam” ruhiyati mening qo’limdan hech narsa kelmaydi, mening fikrim, talabimga hech kim e’tibor bermaydi, mening uchun ota-onam, rahbarlar, davlat o’ylashlari, qilishlari kerak qabilidagi befarqlik, loqaydlik mas’uliyatsizlik o’z kuchi bilimi, qobiliyatiga ishonchsizlik kabi boqimandalik kayfiyati saqlanib qolishidir. Bizning ayrim yoshlarimizga tashabbuskorlik, haqiqatga, yangiliklarga intilish, fidoiylik yetishmaydi. Ayniqsa, yoshlik davrining muhim voqealaridan biri kasb-hunar tanlashda bu yaqqol ko’zga tashlanmoqda.

Yoshlik –qizg’in munozaralar,atrofdagi borliqni tanqidiy tushunish davri.14-18 yoshdan bola o’zini to’la mustaqil hisoblashga harakat qila boshlaydi. Endi u o’ziga nisbatan kattalardek munosabatda bo’lishni,uning fikr-mulohaza va rejalarini ham xisobga olishni talab qiladi. Bu yoshda faqat boshqalarni emas, balki o’ziga ham baho berishga intilish paydo bo’ladi.O’zining kuchli va bo’sh tomonlarini tushunib olishga harakat qiladi. Bu xususiyat yoshlarda tobora taraqqiy etib boradi va o’z-o’zini anglash ehtiyojini uyg’otadi. D.Ushinskiy aytganidek, agar yoshlik orzusi bo’lmaganda, inson hayoti bir nuqtada to’xtab qolgan bo’lar edi, ko’pgina ulug’ g’oyalar xayolparast yoshlikning beg’ubor palasida nish urgan.

Yoshlik davrining muhim voqealaridan biri kasb-hunar tanlashdir.

Yoshlikning o’zi uchun namuna sifatida tanlab olgan, izidan borishga harakat qiladigan ideal kishisi bo’ladi.Ularning ideali o’ziga xos axloqiy andoza bo’lib, hayotda ularga o’xshashni istaydilar. Bundan tashqari, ularda ommaviy kasblarga

⁷⁵ Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi halqaro konferentsiya materiallari.-T.: “O’zbekiston” NMIU, 2012. 6-7-betlar.

qiziqish kuchli bo'ladi. Masalan, vrachlik, yuristik, o'qituvchilik, diplomatlik va boshqalar. Bu-bolalikdagi sof tuyg'ularning bir ko'rinishi, xolos. Aslida o'spirinlik tugab, kasb egasi bo'lish arafasida real hayotiy sharoitni hisobga olib kasb tanlanadi. Bunday sharoitlarga oila a'zolarining ta'siri, ota-onaning kasb-kori, moddiy ta'minot, qobiliyat va hokozolar kiradi.

To'g'ri kasb tanlashning inson kelajagini belgilashdagi ahamiyati kattadir. Hayotda o'z kasbining ustalari, obro' va e'tibor qozongan mutahassislar juda ko'p. Ular o'z kasblarini, eng avvalo, qiziqish va qobiliyat nuqtai nazaridan tanlaganlar. Natijada shu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishganlar. Umri davomida tanlagan kasbi-koridan nolib o'tganlar ham yo'q emas, albatda.

Yoshlarning kasb tanlashida ota-onaning roli benihoya kattadir. Lekin ular hayot tajribalari asosida oqilona maslahatlar berishlari zarur.

“Ota-onalar ayni o'zlari singdirgan nuqsonlari uchun farzandlari ularni kamdan-kam kechiradilar” degan edi Shiller. Chindan ham ota-onalar ba'zan farzandlarining qiziqishini hisobga olmay ular uchun kasb tanlab, ularni shu sohada ishlashga ko'ndiradilar, hatto majbur qiladilar, oradan ma'lum vaqt o'tgach, kasb noto'g'ri tanlangani, ya'ni farzandlari uni sevib, ardoqlay olmasligi yaqqol ayon bo'lib qoladi. Bunday hollarda 4-7 yillik kasbni o'zgartirishga, hayotini ma'lum bosqichini qaytadan boshlashga to'g'ri keladi. Oliy o'quv yurtlarini bir mutaxassislik bo'yicha tamomlab, boshqa sohalarda ishlayotganlar ham oz emas. Shuningdek, oylab, yillab bolalari va ayolini yolg'iz qoldirib, pul topish umidida begona shaharlarda umrini o'tkazayotgan oila boshliqlari, yosh norasidalarini eriga tashlab, belini bog'lab, shahar-ma-shahar yurgan ayrim ayollar orasida oliy ma'lumotli mutaxassislar borligi ham hech kimga sir emas. Har yili ta'lim sohasini rivojlatirish va isloh qilishga yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizi va davlat byudjeti xarajatlarining 35 foizini yo'naltirilayotganini hisobga olsak, bundaylarga qanchadan-qancha davlat mablag'i behuda sarf bo'lgani, shuningdek ularning umrlarini ma'lum yillari samarasiz o'tgani ma'lum bo'ladi. Demak, noto'g'ri kasb tanlash ham moddiy, ham ma'naviy zarar keltirar ekan. Shuning uchun ham yoshlar o'zlarining bor qobiliyatlarini namoyon qilishlarida ota-onalar va ustozlarning o'rni beqiyosdir.

Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning “Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda qanday orzu-niyat va o'y-hayollar bilan yashamoqda biz bunga loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-ona, ustoz-murabbiy, yetakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo'q”⁷⁶, deb ta'kidlashlari ham bejiz emas.

⁷⁶ Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza.

DAVLATNING IJTIMOY-SIYOSIY ISLOHOTLAR TIZIMIDA MILLIY MAFKURANING TUTGAN O'RNI

Rafiqova Gulnoza - O'DJQNA kafedrası o'qituvchisi

Davlat – jamiyat siyosiy institutlarining asosiy elementi sifatida, millatning rivojlanish g'oyalarini amalga oshirishning mafkuraviy vositasidir. Agar biz O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishda davlatning bosh islohotchilik rolini tan oladigan bo'lsak, islohotlarga faqatgina demokratik davlat qodir bo'lishini e'tirof etishga majbur bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan, davlatning bosh islohotchilik rolini, uning samarasini jamiyatdagi siyosiy kuchlarning harakatlarini murosa falsafasi, liberalizm g'oyasi asosida muvofiqlashtirishda ko'rishimiz mumkin. Chunki, hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning olamshumul miqyosda globallashuvi, intensivlashuvi, integratsiyalashuvi va universallashuvi jamiyat, davlat boshqaruvini demokratiyalashtirish tamoyillarini, baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Ya'ni, yuqorida uytilgan jarayonlar bir-biriga uyg'un bo'lgan ikki tendentsiyani vujudga keltirmoqda.

Birinchisi – umumxalq tarkibidagi ma'lum qatlam manfaatlarining ustuvorlashuvi asosida, millat taqdirini belgilaydigan jamiyatni va davlatni boshqarishning ijtimoiylashuvini; ikkinchisi – har bir shaxs, millat, davlat manfaatlarining umumillat va jamiyat manfaatlaridan nisbatan mustaqil individuallashuvida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birgalikda, ko'rsatilgan jarayonlar har qanday ijtimoiy tabaqada erkinlik va tenglikning nisbiyligini, hatto jahon miqyosida kuchaytirmoqda. Davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozimligini Prezidentimiz ham ta'kidlab o'tgan. Ya'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi... Bundan shunday xulosa chiqadiki, biz avvalambor qanday jamiyat qurmoqchimiz, o'z kelajagimizni qanday tasavvur etamiz, degan savollarga o'z javoblarimizni yana bir bor aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shu olijanob maqsadlar atrofida birlashtirishimiz zarur⁷⁷.

Darhaqiqat, hech bir millat, hech bir xalq o'zining ijtimoiy-tarixiy maqsad va vazifalarini mafkurasiz amalga oshira olmaydi. Demak jamiyatda amalga oshiriladigan har qanday ijtimoiy islohot, har qanday o'zgarish inson – jamiyat – davlat tizimiga taalluqli bo'ladi. Ammo, ba'zida o'zgarishlar bu tizim sub'ektlari hayotiga teng ta'luqli bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, eski tuzum davrida KPSS amalga oshirmoqchi bo'lgan islohotlar insonga, jamiyatga qaratildi, lekin davlatning totolitar mohiyati, mustabidligi saqlanib qoldi. Oqibatda ko'zda tutilgan o'zgarishlarga erishilmadi, aksincha, ma'muriy buyruqbozlik yanada avj oldi.

Mustaqillikning ahamiyati shundaki, endilikda islohotlar insonga ham, jamiyatga ham, davlatga ham bab-barobar ta'luqli ekanligi e'tirof etilmoqda. Mustaqillik tufayli, o'z oldimizga qo'ygan g'oyaviy maqsadlarimiz tufayli kishilarimiz ruhiyati va xulq - atvorida bir qancha ijobiy o'zgarishlar sodir

⁷⁷ Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy - ma'naviy kuch - quvvat manbai. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000. –B. 464 - 465.

bo'Imoqda. Ya'ni, odamlar o'zlarini ancha erkin tutishini, kelajakka ishonch bilan qarashi, uddaburonroq bo'lib qolganligi va xulq - atvorida moddiy qadriyatlar ma'naviy qadriyatlardan ustunlik qila boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, kishilar ruhiyatidagi o'zgarishlarga qaramay, ayrim odamlarning ruhiyatida "sovet hayoti"ga shaxsiy daxldorlik tuyg'usi hamon saqlanib qolmoqda. Buni "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikirni o'rganish Markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalaridan bilishimiz mumkin.

Milliy mafkura mavjud tizim sub'ektlariga dialektik bog'liqlikda, uyg'unlikda qarashni taqazo etadi. Milliy mafkura o'ziga xos institut bo'lib, hech qanday islohot, biror demokratik o'zgarish uningsiz amalga oshirilishi mumkin emas, ya'ni u davlat faoliyatiga ham bevosita taalluqlidir. Milliy mafkura davlatga demokratik o'zgarishlar jarayoning bosh sub'ekti sifatida qarab, aynan uning faol tashabbusi fuqarolik jamiyati qurilishini ta'minlaydi degan nazariyadan, kontseptsiyadan kelib chiqadi. Shuning uchun mahsus adabiyotlarda ham mafkura ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning extiyojlarini, maqsad va intilishlarining ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimi sifatida ta'riflanadi.

Inson, davlat va jamiyat ham o'zining mustaqil xususiyatlaridan kelib chiqadigan extiyoj va manfaatlariga ega. Shunday ekan, har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisa, muqarrar ravishda, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'ladi. Mafkura millat va xalqning nafaqat ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida birlashtirib turadi, shu bilan birga, unga qanday kelajak qurish mumkinligini ham belgilab beradi. G'oya, mafkura ijtimoiy bashorat funksiyasini bajargani tufayli millatning, xalqning eng ma'rifatparvar, tajribali, bilimli qatlami uni kishilar ongiga, qalbiga singdirishga intiladi.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa, har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. To'g'ri yo'ldan borayotgan oqsoq yo'lning nom - nishoni bo'lmagan joydan borayotgan sog'lomdan o'zib ketishi muqarrar.

Milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir"⁷⁸.

Ushbu ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, mafkura ijtimoiy ong darajasini, millat va xalqning tarixiy tajribasini, kelajak haqidagi tasavvurlarini, rejalarini, nima uchun yashayotganini ifoda etuvchi nazariy qarashlar majmuidir. Ijtimoiy g'oyalarning yig'indisi va ularning muayyan mantiqiy tizimi mafkurani tashkil etadi. Milliy mafkura va milliy demokratik taraqqiyot substantsional uyg'un voqeliklardir. Milliy

⁷⁸ Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. - T.: O'zbekiston, 2000. -B. 221.

mafkura muayyan g'oyalar yig'indisi bo'lsa, milliy demokratik taraqqiyot bu g'oyalarni ijtimoiy hayotga, davlat va jamiyani boshqarishga, sotsiumning barqaror rivojlanishiga tadbiiq etish usulidir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy davlat va fuqarolik jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi va taqazo etuvchi, rivojlanish bosqichlari umumiy bo'lgan ijtimoiy jarayondir. Shunday ekan, davlatni fuqarolar bilan aloqadordigini ta'minlash va o'zaro munosabatida davlat va fuqarolar manfaatlarini ifoda etuvchi milliy mafkura, milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etadi.

YOSHLAR TA'LIM TARBIYASIDA MADANIYAT MUSSASALARINING O'RNI VA ROLI

*K Xolmirzayev - Ijtimoiy-Madaniy faoliyat yo'nalishi
4-bosqich talabasi,*

M. Tojiahmedova - Ilmiy rahbar

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda respublikamizda yoshlarga keng imkoniyat eshiklari ochib berilib, qaysi sohada bo'lmasin yuksak natijalarni qo'lga kiritishlari uchun ularga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shu o'rinda yoshlar va o'smirlarning tarbiyasi, ularning ma'naviy dunyoqarashi, xulq atvori, har qaysi sohada bo'ladimi bilim olishi, ulardan kelajakda o'z mutahassisligining yetuk va malakali kadrlari bo'lib yetishishlari va bu sohada bajarilishi kerak bo'lgan islohotlar bugungi kunning dolzarb vazifasi bolib qolmoqda. Yoshlar tarbiyasida madaniy- ma'rifiy muassasalarning ahamiyati haqida so'z borar ekan, shubhasiz bu soha e'tibarimizdan chetda qolmasligi kerak bo'ladi. Bugungi zamonamizda madaniy- ma'rifiy muassasalar jamiyat va insonlar hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgiran. Ammo yoshlarimiz va o'smirlarimiz o'rtasida bu soha faoliyatiga bo'lgan e'tibor sust darajada. Respublikamiz mustaqillika erishgach madaniy- ma'rifiy muassasalarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Sovetlar davrida foydalanishga yaroqsiz holga keltirilgan jamoatchilik markazlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar, muzeylar, teatrlar, aholi dam olish maskanlari, istirohat bog'lari va kutubxonalar mustaqillik sharofati bilan yangitdan tamirlanib kapital rekanstruksiya ishlari olib borilmoqda. Madaniy-ma'rifiy maskanlarning faoliyatida birmunch o'zgarishlar va yangilanishlar ro'y berdi. Madaniyat muassasalarida faoliyat olib borayotgan xodimlarni ish uslublari yangicha zamonaviy axborot tehnalogiyalari bilan ta'minlanmoqda.

Respublikamizda sodir bo'layotgan bu o'zgarishlar natijasida kishilarimizning ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy ehtiyojlari kundan kunga o'sib, o'zgarib, bormoqda. Yoshlarimizning axloqiy qiyofasi, dunyoqarashi va fel-atvorida ham o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday sharoyitda madaniy-ma'rifiy ishlarning sho'rolar davrida maqbul bo'lgan shakl va usullari bugungi kunda eskirib, talabga javob bermay qolishi odatiy holdir. Mustaqillik sharofati yoshlarimizning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, unga g'oyaviy ta'sir etishning yanada yangi, samarali usul va vositalarini qo'llashni talab qilmoqda. Bu esa madaniy-marifiy ishlarning mazmunini takomillashtirib, yangilab borishni taqazzo etadi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to’g’risidagi 1996-yigi Farmonida “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo’nalishi, deb hissoblansin”, deb qayd qilinishi bu soha rivojiga ulkan turtki bo’ldi. Hozirda yirik nufuzli tashkilotlarga ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha maxsus raxbarning birinchi o’rinbosarlari lavozimining joriy atilishi—ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy sohalarining birinchi o’ringa olib chiqilganiga amaliy isbot bo’ldi. Ayniqsa, oliy va o’rta maxsus bilim yurtlarida rektor va direktorlarning “ma’naviyat va ma’rifat” ishlari bo’yicha birinchi o’rinbosari lavozimlari joriy etilishi o’quv yurtlarida taqsil olayotgan yoshlarimizning yetuk mutaxassislar, balki ma’naviy kamol topgan bo’lajak raxbarlarni tarbiyalashda yuksak imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Bu islohotlarning barchasi yoshlarimiz ongida madaniy- ma’rifiy sohaga bo’lgan e’tiborni kuchayishiga olib keladi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad yoshlarimiz ongida yangicha fikrlash, dunyoqarashining keng doirada bo’lishi, o’z vataniga, o’z oilasiga va hayotga bo’lgan muhabbatini yuksak cho’qqilarga olib chiqishdan iboratdir. Shuni aytib o’tish joizki, madaniy-ma’rifiy muassasalarning asosiy vazifalaridan biri bu kishilarning ishdan bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, aholining madaniy ehtiyojlarini o’rganish hamda, madaniy-ma’rifiy va ko’ngil ochar hususiyatga ega bo’lgan xilma-xil xizmatlar ko’rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san’at bilan shug’ullanuvchi yoshlar uchun sharoitlar yaratishdan iboratdir. Ulg’ayib kelayotgan yosh avlod bu dunyoga kelib o’z aqlini taniy boshlashi bilan yaxshi hayot tarziga ega bolish va bu orqali chuqur bilim olish, yaxshi kasb egasi bo’lish o’z vatanini, yurtini, oilasining rivojiga biror bir foyda keltirish haqida o’ylay boshlaydi. Endigina ulg’ayib ijtimoiy hayotga qadam qo’yayotgan yoshlarimiz bu maqsadlariga erishish yo’lida olg’a boradilar. O’zlari tanlagan sohaning malakali kadrlari bo’lib yetishib chiqqan yoshlar endi ma’lum bir kasbiy faoliyat turi bilan shug’ullana boshlashadi. Shunday paytlarda yoshlarimiz ongiga salbiy g’oyaviy tahditlarning ta’sirini oldini olish ularning ish faoliyati va bilim olishdan bo’sh vaqtlarini mazmunli va ma’naviy boy tasurotlar bilan o’tishini aynan madaniy-marifiy muassasalar faoliyati taminlaydi.

Ta’lim tarbiyasiz hayotdagi yaxshilik va yomonliklarni farqlamasdan, ularni anglamasdan turib, odamning shaxs bo’lib shakllanishi mumkin emas. Ta’lim tarbiya, yaxshi-yomonning farqiga boradigan darajaga yetishish esa uzoq vaqtlarni talab etishi, hatto, insonning umrini ohiriga qadar davom etishi mumkin. Demak, harqanday odamni ham, bu dunyoda bosh ko’tarib yurgan hamma insonlarni ham, shaxs deya olmaymiz. Bu nomga sazovor bo’lishning o’ziga yarasha talablari va mezonlari bor. Bu talab mezonlari ichida madaniy-ma’rifiy mezonlar muhim o’ringa egadir.

Madaniyat – jamiyat va insoniyat taraqqiyotining muayyan darajasi bo’lib, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko’rinishlarida, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarda o’z ifodasini topadi. Madaniy ma’rifiy muassasalar esa – moddiy va ma’naviy darajasi, ko’rsatgichlari bilan birga inson faoliyati yoki turmushining o’ziga xos sohalarini ham belgilaydi. Buni mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati, ma’naviy madaniyat va boshqa madaniyatlarda ko’rish mumkin. Lekin madaniyat tor ma’noda kishilarning faqat ma’naviy hayoti

muhasiga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, "axloqiy madaniyat – insonni ma'naviy va madaniy jihatdan kamolotga yetkazuvchi jarayon" deb ta'rif beradi, tadqiqotchi U.Mahkamov. Vaholanki, axloqiy madaniyat madaniy va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, u kishilarning har bir jamiyatga xos milliy umuminsoniy me'yorlari majmui sanaladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, madaniy-ma'rifiy muassasalar va madaniyat uylari fuqarolarni ma'naviy ongini, g'oyaviy siyosiy salohiyatini to'g'ri tarbiyalashda mustaqil davlatchiligimizning tayanch punktidir. Aholining ma'naviy savodxonligini oshirishda ma'daniy-ma'rifiy sohada tashkil qilinayotgan tadbirlar, yoshlar ta'lim tarbiyasida beqiyos o'rin tutadi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mavzuidagi ma'ruzasida "Biz mamlakatimiz istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib, voyaga yetishiga, fuzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak", - deb ulohida ta'kidlaydi. Mazkur ko'rsatma balog'at yoshidagi bolalarda milliy umuminsoniy qadriyatni shakllantirishga aynan bog'liq. Ayniqsa, yosh avlodda milliy umuminsoniy qadriyatni shakllantirishda milliy umuminsoniy madaniyatimiz muhim ahamiyatga ega. Dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti bugungi kunda bilimli, madaniyatli, salohiyatli fuqaroni shakllantirishga bog'liq. Shunday ekan yosh avlod tarbiyasida, ularning, eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jihatdan to'g'ri shakllanishiga bevosita bog'liqdir.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA EKOLOGIK TARBIYANING SINGDIRILISHI

*Abdulhayeva Maftuna - Nam DU BT va STI yo'nalishi
402-guruh talabasi,*

Ilmiy rahbar: B.Tillayev

Hozirda, XXI asr bo'sag'asida, fan – texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarimoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. [1,112-114-b]

Haqiqatan ham, bugungi kunning eng muhim muammolaridan biri ekologik muammolardir. Ana shu muammoni bartaraf etishni biz uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirishimiz lozim. Ya'ni, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktabi tizimida ekologik muammolarni kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish yo'llarini ekologik tarbiya orqali yosh avlod ongiga singdirish lozim. Bu borada bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri va asosiysi ta'lim - tarbiya bo'lib, unda barqaror rivojlanish g'oyalarini kelgusi avlod ongiga singdirish muhim o'rin tutadi. Bunda ekologik tarbiya insonning tabiatga, biosferaga bo'lgan yangicha munosabatlarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Respubli-

kasining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Xalqaro hamkorligi tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu sohada asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi lozim:

-Orol havzasida yuzaga kelgan ekologik holatni yaxshilash;

-Flora va faunaning genetik fondini saqlash;

-Suv, tuproq va atmosferaning ifloslanishini oldini olish;

-Xavfli chiqindilarni atrof- muhitga salbiy ta'sirini minimumga tushirish va ekologik xavfsizlikni saqlash, zaharli kimyoviy moddalar ishlatilishi, shuningdek azon qatlamini yemiruvchi moddalarni ishlab chiqarishdan olib tashlash;

-Tabiiy resurslardan samarali foydalanish.

Mustaqillik davrida bir necha marta Orol dengizining muammolariga bag'ishlangan seminarlar, Konferentsiyalar va uchrashuvlar o'tkazilgan.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish deganda bizni o'rab turgan tabiatni, havoni, suvni, tuproqni, o'simlik va hayvonot dunyosini insoniyatning halokatli ta'siridan asrash tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilish deganda esa, undan noo'rin foydalanish tufayli uni butkul xarob bo'lishdan himoya qilishni tushunish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bilan birga, siyosiy g'oyalar, iqtisodiy va ekologik tarbiyalar shakllantirilib borilishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan o'quv ishlarining barcha shakllarida ekologik tarbiya berish zarur. Masalan: sinfdan tashqari mashg'ulotlardan ekologik ekskursiyalar tabiatda, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishlarida, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, muzeylar, ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa joylarda o'kaziladi.

Ekskursiya - o'quvchilarni voqea va hodisalarni bevosita kuzatishi, tabiiy sharoitda o'rganish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishlariga uyushtirilgan ekskursiyalarda ekologik bilimlarning amalda qanday qo'llanilayotgani kabilarni bilib oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ekskursiyaning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, o'quvchilarga ongli intizom, o'rtoqlik va do'stlik, tashabbuskorlik va havaskorlik, hislatlarini tarbiyalaydi. Shuningdek, tetik va sog'lom, estetik tuyg'ular, boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni shakllantiradi. Ekskursiya davomida o'quvchilarning bajargan ishlari ekologik ko'nikmalarni hosil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida ommaviy tadbirlar o'tkazish o'quvchilarni foydali ijtimoiy mehnatga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning har tomonlama bilimli aqlli, o'z ona vataniga sadoqatli bo'lishi, o'z ona tuprog'ini va tabiatini sevib kamol topishi va mustaqillik ruhida tarbiyalanishida maktabning roli katta va ma'suliyatlidir. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda atrof-muhit to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarni vujudga kelishida oila a'zolari va tarbiyachilarning roli kattadir. Hozirgi maktab o'quvchilari 5;10- yildan so'ng ona Vatanimiz tabiatining yetuk yoshlari bo'lib yetishadilar. Shuning uchun ham bugungi kundagi maktab o'quvchilarini tabiatni sevishtga, tabiatga hurmat bilan qarashga, uni e'zozlashga o'rgatish maktab

murabbiylarining asosiy burchidir. Tabiatni muhofaza qilish ishi esa, maktab o'quv-tarbiya ishlarining ajralmas qismidir.

Boshlang'ich sinfda predmetlararo ekologik tarbiya berish amalga oshiriladi. Hoshlang'ich sinfda o'quv predmetlari qo'yidagilar ya'ni, "Ona tili", "O'qish", "Matematika", "Odobnoma", "Tabiatshunoslik", "Tasviriy san'at" kabi fanlar orqali ekologik bilim beriladi. O'qish darslarida o'rganiladigan badiiy janrlar, ya'ni ertak, maqol, she'r, hikoya, rivoyat, masal va topishmoqlar orqali ekologik tarbiyani o'quvchilar ongiga singdirish ham mumkin.

Tabiat va insoning o'zaro uzviy aloqadorligi atrof tabiiy muhitda aks etadi. Hozirgi zamonda atrof tabiiy holati ko'proq tabiatga emas, balki kishilik jamiyatiga bog'liqdir. Biz tabiatdan ajralgan holda yashay olmas ekanmiz, uning bir bo'lagi bo'lib qolishimiz lozim. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash esa burchimizning muqaddas burchimizdir.

Inson va tabiat o'rtasida doimo aloqadorlik mavjud. Demak, atrof- muhit, yer osti va yer usti boyliklarini kelajak avlodga yetkazish, tabiatni asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir. Zero, Hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov ijtimoiy ekologiya muammolarini dialektik tahlil qilar ekan, tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'lishini, bu qonuniyatlarni buzish tuzatib bo'lmas ekologik falokatlarga olib kelishini ta'kidlab, ularni milliy xavfsizlikka qarshi yashirin taxdidlardan biri sifatida baholaydi. "Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish – o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lib kelmoqdalar" deb fuqarolarning ona-tabiat, atrof-muhit uchun ekologik mas'ulligi haqida alohida to'xtaladilar. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deyilgan. [2,112-b.]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: "O'zbekiston", 1997. – 112-114-b.
2. Po'latova X.M. - Tabiatshunoslikni maxsus o'qitish metodikasidan (ma'ruza matnlari).T., 2000.

OTA-ONALAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION YONDOSHUVNING DOLZARB AHAMIYATI

D.Axunjanova - Marg'ilon tibbiyot kolleji,

*G.Dadajonova, I.Mahmudov - Farg'ona Pedagogika
kolleji o'qituvchilari*

Farzand – oilaning quvonchi, totuvligi, muhabbat rishtasi, orzu-havasga, kelajakka undovchi yo'lchi yulduzidir. Farzandlarni bekamu-ko'st voyaga yetkazib, ta'lim-tarbiya berib, xalqimizga xizmat qiluvchi insonlar qatoriga qo'yish va g'amxo'rlik qilish har bir ota-onaning vazifasidir. Zero, bugungi jamiyat taqdirini belgilaydi.

Shuning uchun ham qonuniyatimizning a'zosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarning, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash, uni kuchaytirish borasida olib borayotgan barcha ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida ko'plab huquqiy asoslar yaratildi.

Respublikamiz Konstitutsiyasida alohida bobning oila mavzusiga bag'ishlangan ham fikrimizning isboti desak mubolag'a bo'lmaydi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV-bob 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" ekanligi ta'kidlangan.

Demak, ota-onalar farzandlarini katta oilaviy hayot yo'liga tarbiyalashda, ularni kasb-hunarni egallashga va o'z bilim va salohiyati bilan Vatanga xizmat qilishda ko'maklashishlari lozim.

Ming afsuski, ayrim ota-onalar o'z davlatimiz oldidagi burchlar haqida chuqur o'ylamaydilar. Ularning befarqligi bolalarida quyidagi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi:

- o'qishga befarqligi;
- kasb-hunarni egallashga intilmasligi;
- mahalla ahliga behurmat munosabatda bo'lish;
- o'quv muassasasida o'z mavqeini toptirishga intilmasligi;
- fan o'qituvchilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmaganligi;
- o'z shaxsiy hayotini noto'g'ri rejalashtirishi;
- noqonuniy xatti-harakatlarini sodir etishi va hokazo.

Albatta, yosh shaxs ustidan fan o'qituvchilari, kurator (sinf rahbari), o'quv muassasasining pedagogik Kengashi, ota-onalar Kengashi kabi o'z nazoratini tashkil etadi. Ammo, asosiy tarbiyaviy muhit – bu ota-onalar, ya'ni oilaviy muhiti rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotining abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lish yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor".

Shu bilan birga davlatimizda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish uchun ko'plab ijtimoiy institutlar barpo etilgan. Shuningdek, mahalla, xotin-qizlar qo'mitalari, sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalari, Kamolot yoshlar harakati, iste'dod va qobiliyatni shakllantiruvchi jamg'armalari tashkil etilgan.

Bugungi zamonaviy o'qituvchi-pedagog ota-onalar bilan ishlashda quyidagi asoslarga tayanishi mumkin:

- huquqiy asoslarga;

- ota-onalar Kengashi faoliyatiga;
- mahalla yordamiga (ma'lumot va amaliy yordamiga);
- siyosiy partiyaga;
- xotin-qizlar qo'mitasiga;
- sport tashkilotiga;
- IIBga;
- Prokuratura organlariga.

Ming afsuski, ayrim ota-onalar nafaqat sinf rahbarining harakatlariga, balki o'z holasiga ham loqaydligini ko'rsatmoqda.

Aynan, ularning loqaydligi orqali, bola ham o'quv muassasasida, ham mahallasida, ham jamoat ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Norasmiy liderlik salbiy fakt sifatida yuzaga kelgach, dars-mashg'ulotlarda ham salbiy oqibat keltirib chiqaradi.

Shuning uchun, ota-onalar bilan ishlashda innovatsion yondoshish zarur bo'ladi.

Innovatsion yondoshish quyidagi ish shakllaridan iborat bo'ladi:

- ota-onalarni o'quv muassasaga chaqirtirib fan o'qituvchilar bilan sodda tushuntirishlari asosida fanni o'zlashtirish me'yoriy darajasi bilan tanishtirish. ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarning mustaqil hayotda kerak bo'lishini unglashga ko'maklashish;

- ota-onalar kengashi yordamida otalar majlisini tashkillash. ya'ni onalarsiz, otalar fikrini o'rganish va bola bilan suhbat uyushtirish;

- bolaning hayotiy rejasi bilan yaqindan tanishish. agar bunday shaxsiy hayotiy reja bo'lmasa, rejani tuzishda ko'maklashish;

- telefonomoniyaning salbiy oqibatlari haqida tushuncha berishi;

- ota-onalardan bolasining eng yaqin do'stu birodarlari haqida bilishlarini aniqlash;

- ota-onalarga "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yoshlarga oid davlat siyosati", Konstitutsiya, ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeksi, Jinoyat Kodeksi va boshqa Davlat huquqiy hujjatlari bilan tanishtirish va ota-onalarning mas'uliyatini oshirishga qaratish.

Demak, hozirgi kunda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish hamda ularning ota-onalar bilan ishlashda quyidagi mas'uliyat va burch talab qilinadi:

- ota-onalarning burchni bajarishi va mas'uliyatni doimiy sezishga harakat qilishi;

- kuratorning shaxsiy mas'uliyati va pedagog sifatida o'z burchini ado etishi;

- ota-onalar Kengashining ma'uliyatli yondoshi va majburiyatlarini bajarishligining mas'uliyati;

- fan o'qituvchilarning fanni o'zlashtirishda doimiy nazorat qilish (uy vazifasini bajarishda, darsda o'quv qurollarini, tayyorgarligini tekshirish);

bola nazoratsizligi aniqlansa barcha shart-sharoitlardan foydalangan holda yuqori sub'ektlar bilan birlashib, birgalikda ishni olib borish.

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

*Tursunova Sarvinoz - Pedagogika fakulteti, BT va STI
yo'nalishi 401-guruh talabasi,*

Ilmiy rahbar: B. Tillayev

O'quvchilar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda dastlab ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali mazkur qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida shu qadriyatlarga sodiq qolgan, ulardan farzandlar tarbiyasida foydalana olgan.

Istiqlol tantanasi bilan bugungi kunda barkamol avlodni asrlar osha sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash, madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimizni har tomonlama o'rganib, ta'lim-tarbiya sohasida qo'llashga keng imkoniyatlar yaratildi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov: "Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak", - deb ta'kidlaydi. Urf-odatlar, islom dini bilan bog'liq rasm-rusumlar, xalqona udumlar, marosimlar, an'analar xalq ijtimoiy hayoti, orzu-umidlari va xalqona ideallarini aks ettiradi, insonni imon-e'tiqodda butun, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil bo'lishga undaydi. Xalqona qadriyatlar va urf-odatlarimiz islomiy qadriyatlar bilan hamohangdir. Ularda eng avvalo, vatanparvarlik, halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, hushyorlik, saxiylik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi buyuk insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Adovat, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinxo'rlik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi insonga salbiy ta'sir etuvchi illatlar qoralanadi.

Har bir urf-odat, udum, an'analar yuqorida ulug'langan fazilatlarini yosh avlod tarbiyasiga singdirish, qoralangan illatlardan yiroqlashtirish yoki forig' qilish kabi o'z maqsad-vazifasiga, o'z yo'nalishiga ega. Masalan, odamiylik, do'st-birodarlik, bir-biriga ixtiyoriy yordam, ahillik va o'zaro hamkorlikning yorqin namunasi bo'lgan hashar hozirgi kungacha yetib kelgan go'zal odatlarimizdan biridir. Hashar o'zbeklarda jamoat yoki shaxs ishiga ixtiyoriy yordam berish, ko'pchilikning bir maqsadda, bir yoqadan bosh chiqarib, tezkorlik bilan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llangan. Bu haqida yurtboshimiz shunday deydilar: "Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylangan hashar odati istiqlol davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. ...Bu esa, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda."

Demak, aytish joizki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy taraqqiyotida qadriyatlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham yosh avlod turbiyasida xalq an'analari, urf-odatlari, udumlari, marosimlarining mohiyatini keng tushuntirishimiz dardkor. Xalq pedagogikasida tarbiya milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'ana va udumlarimizning tub mohiyatini o'rganish, o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik va kelajakka umid ruhida olib boriladi.

Qadriyat - "tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir".

An'ana - kishilar ongida, hayotida o'z o'rnini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalaridir.

Urf-odat - kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash va h.k.

Marosim - ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir.

An'ananing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'lib, odat kundalik hayotda uchrashi mumkin bo'lsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Yosh mutaxassislarining o'qishni bitirib, ishga joylashishi odat bo'lsa, bunga bag'ishlab tashkil qilingan an'anaviy tadbirlar marosimga aylanadi. Barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar va an'analarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Masalan, xalqimizda salomlashish va hol-ahvol so'rashish har bir kishining aqli, odobi, zakovati, madaniylik darajasini ham ko'rsatadi. Salomlashish tarbiyasi borasida qator hadislar, o'gitlar, pandnomalar mavjud. Masalan, ot mingan kishining piyodaga, ozchilikning ko'pchilikka, tashqaridan kelgan kishi ichkaridagilarga, kichik yoshdagilarning kattalarga salom berishi odat tusiga aylangan. Muomalaning asosi bo'lgan salomlashish xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z aksini topgan. "Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim", - deb yovuz kuchlar milliy o'yin va doston qahramonlariga yordam bergan, manmanlik bilan salom berishni unutanlar esa jazoga giriftor bo'lgan. "Odobingni salomingdan bilurlar" maqolida salom insonning fe'l-atvori, odobining ko'zguasi ekanligi ta'kidlangan. "Alpomish" dostonida chiltonlar Alpomishga shunday maslahat berishadi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,
Bemavrid ish qilib topmagin alam,
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,
Kim bo'lsa oldidan o'tma besalom.

Bittagina salomlashish va hol-ahvol so'rashish odobi va odati orqali xalqimizga xos bo'lgan insonni sevish va ardoqlash hissining ustunligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, xalq pandnomasi farzandning tug'ilishidan boshlab oila, birinchi navbatda, ota-ona bajarishi lozim bo'lgan hayotiy va xalqchil odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, an'analarga nihoyatda boy. Bolaning ilk bor sochini va tirnog'ini olish, tishi chiqishi, atak-chechak bo'lishi, birinchi so'zni aytishi, o'tirishga o'rganishi, birinchi

qadam bosishi, kiyim kiya boshlashi, o'simliklar va hayvonot olami bilan birinchi tanishishi, tarbiyachi qo'lga berish, maktabga ilk qadam qo'yish bilan bog'liq ko'plab axloqiy tarbiya, xulq-odobga oid udumlar, odatlar, rasm-rusumlar shular jumlasidandir.

AYOLLARGA E'TIBOR – ELGA E'TIBOR

*O. Chuboyeva – huquqshunos,
Dildora O'rmonova - Milliy g'oya, manaviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

Yer yuzidagi barcha muqaddas kitoblarda ayollar haqida to'xtalib o'tilgan. Shunday muqaddas va qadimiy kitoblarimizdan biri bu “Avesto”dir. Hattoki shu qadimgi manbada ham ayollar masalasiga alohida etibor qaratilgan. Onalar o'z qizlarini tarbiyali, odob- axloqli, uy ishlarida saramjon sarishta va hunarli bo'lishini ta'minlaganlar. Qizlar tarbiyasi bilan shug'illanganlar. Shuning bilan birga oila qurish, nasl qoldirishni istamagan qizlarni qat'i jazolaganlar. Shuningdek islom dinining muqaddas kitobi “Quroni karim”da ham shu masalalarga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari yana birqancha manbalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ayollarning huquqlari masalasi bugungi kunda ham muhim masala hisoblanadi. Inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda. Ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ba'zi jamiyatlardagi ayollar uchun haqiqiy tenglik hali hamon orzuligicha qolib kelmoqda. Ular huquqlarining cheklanishi va xo'rlanishida namoyon bo'layotgan diskriminatsiya qilish hollari ana shundan dalolat beradi. Bizning mamlakatimizda bunday holler kundan kunga kamayib bormoqda. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, ularning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Muhtaram prezidentimiz I. Karimov'zining turli chiqishlarida bu masalaga doimiy ravishda e'tibor qaratib keladilar. Xususan, u 1998-yil 5-dekabrda Konstitutsiya qabul qilinganligining o'lyi yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali majlisda qilgan nutqida 1999-yilni “Ayollar”yili deb e'lon qilar ekan, shunday degan edi: “Insoniyat tarixi guvohlik beradiki, ming yillar jarayonida har jamiyatning madaniy va ma'naviy hayoti ularning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilangan. Bizga bu qadriyat yanada qimmatlidir, chunki biz ayollarga sharqona hurmat bilan munosabatda bo'lamiz”.

“Ayollarimizning turmush sharoitini yengil qilish borasida biz uchun mayda narsaning o'zi yo'q va bo'lmaydi ham. Ayolning kayfiyati yaxshi bo'lsa, ayol hayotdan rozi bo'lsa, oila hayotdan rozi bo'ladi. Agar oila rozi bo'lsa, mahalla, butun el- yurt rozi bo'ladi”⁷⁹ Shunday ekan ayollarga doimo e'tibor qaratilishi, ularning huquqlarini himoya qilishni yanada rivojlantirish ertangi kunimizning poydevoridir. Chunki qiz bola-bu bo'lg'usi ona, farzandlarimizning tarbiyachisi, ertangi avlod esa O'zbekistonning kelajagi deganidir. Mana shunday har bir tarbiyachi dunyoqarashi

⁷⁹ Karimov I.A. Ona yurtim baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oily saodatdir. T.: O'zbekiston. 2015y 227-b.

keng, ziyoli bo'lishiga intilmoqdamiz. Qizlar va ayollarning o'qishlariga hamda kasb egallashlariga mablag' ajratish yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samara keltirib, barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishishning eng yaxshi vositalaridan biridir. Bu to'g'risida prezidentimiz ham shunday deganlar: "qiz bolani kollejni hitirmasdan, hunar egallasidan kimki turmushga bermoqchi bo'lsa, bilib qo'yinglar, men bunga mutlaqo qarshiman. Qiz bola avvalo kasb egallasin, o'z fikriga ega bo'lsin, hayotni anglasin. Shundan keyin u hayotda o'z o'rnini topadi, yo'lini yo'qotmaydi"⁸⁰.

Bugungi kunda mamlakatimizda ishbilarmon, tadbirkor, har bir egallagan kasbining mohir ustasi bo'lgan ayollarning va qizlarning soni ko'paymoqda. Bu ayollarga bo'lgan e'tiborning naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

KOMIL INSON - BUYUK KELAJAK POYDEVORI

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi

Komillik – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqqoqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

Vatanparvarlik – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

«Avesto»da vatanparvarlik g'oyasi ulug'lanib, odamlarni barkamol bo'lishga da'vat etilgan. «Menga barkamol va dino-goh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar», deyiladi. Shuningdek, asarda ona zaminni e'zozlash, uni obod qilish g'oyalari targ'ib qilinadi. Jumladan, «Avesto»da yozilishicha, Zaminni hammadan ko'proq baxtiyor qilgan shaxs, hammadan ko'p bug'doy, giyoh va mevali daraxtlar ekan zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir..., — deyiladi.

Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buhoriy, Imom Termiziyarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy,

⁸⁰ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oily saodatdir.-T.: O'zbekiston, 2015.- 232-b

Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o‘rin egalladi.

Prezident Islom Karimov «Jamiyatni baxt-saodatga, buyuk va yorug‘ kelajakka boshlab boruvchi yagona kuch - ma‘naviyatdir» - degan edilar. Aql-zakovatli, yuksak ma‘naviyatli kishilar tufayli jamiyat yangilanib, kuchayib, taraqqiy topib boradi. Yoshlar ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni milliy istiqlol g‘oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Puxta ishlab chiqilgan strategik yo‘nalish davlatning is-tiqbolini belgilaydi. O‘zbekistonning strategik maqsadla-ri Islom Karimovning qator asarlarida, jumladan, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» hamda «Uzbekiston XXI asrga intilmokda» asarlarida belgilab berilgan. Shu maqsadlar sari insonlarni safarbar qilish ularni g‘oyalar shaklida singdirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning taqdiri, so‘zsiz, har bir fuqaro, aniqrog‘i, insonning faolligiga bog‘liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirinishi talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ‘iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko‘rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bot islohotchi ekanligi ham O‘zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ‘ib qilishni talab etadi. Bunday targ‘ibot islohotlarni «mafkuraviy asosda ta‘minlash»ga xizmat qiladi.

O‘zbekiston hayotidagi o‘zgarishlar insonlar ongida ham katta o‘zgarishlar qilishni talab etadi. O‘tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat yangi zamon kishisinitarbiyalash haqida jiddiy qayg‘urishi, tabiiy. Demak, O‘zbekistonda ham «komil inson» g‘oyasida e‘tirof etilgan shaxs sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko‘ndalang turibdi. «Fuqarolik axloqi»ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot g‘oyaviy ta‘sirarga qarshi kurashda uzilishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday sharoitda begona g‘oyalarning qo‘poruvchi ta‘siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg‘ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Ommaviy axborot vositalari — eng asosiy, qudratli va ta‘sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o‘ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilot-chisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta‘sirchan quroli bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g‘oya va demokratik tamoyillar targ‘ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so‘z erkinligining o‘ziga xos o‘lchovi, ko‘rsatkichi bo‘lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag‘batlantiradi va mustahkamlaydi. M.Xolmatova: “oila - odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy

munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir»⁸¹, - deb ta'rif beradi. Bu yerda ma'naviy munosabat deyilganda esa, er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehri-muhabbat, oqibat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya kabi insoniy tuyg'ular va talablar ko'zda tutilmoqda.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllandi. Shu ma'noda oila – haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muxitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muxitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

INTELLEKTUAL SALOHİYATLI AVLOD TARBIYASI JARAYONI

B.B.Ibrahimov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi

Hozirgi davrdagi jamiyat taraqqiyoti intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash muammosini nihoyatda dolzarbligini ta'kidlamogda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli ham intellektual salohiyatli avlod va uni shakllantirish muammosining yechimlari azal-azaldan xalqimizning ezgu-orzusi bo'lib kelgan.

O'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak ajdodlarimiz ham yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e'tibor berib kelgan va ularning doimo amaldagi orzusi bo'lgan, ya'ni bu istiqbolli orzu doimiy maqsadga aylangan va bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmandlari-ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo'lgan. Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati («Fozil odamlar shahri»), Yusuf Xos Hojibning «Saodatga eltuvchi bilim», shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahrori Valiy, Al-Marg'inoniy, An-Nasafiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya'qub Charhiy, Xoja Muhammad Porso, Mahdumi A'zam Xojogon, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abdulholiq G'ijdivoniy va boshqalarning «Ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug'bekning koinot ta'limini ommaviy ravishda olib borishi (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni («Xatti Boburiy») isloh qilish sohasidagi, Alisher Navoiyning adolatli jamiyat qurish haqidagi va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiyasining «Donishmandlik uyi» («Bayt-ul hikma»)dagi ta'limotlarida teran ifoda qilingan.

⁸¹ Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 25 b.

Hozirda bunday boy o'tmish merosimizga ega bo'lgan ajdodlarimiz orzusiga, ya'ni mustaqillikka erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarida tub burilishlar qilishga, islohatlar qilishga ilhomlantirdi. Jumladan, ta'lim tizimida ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (KTMD) qabul qilinib, bulardan maqsad – ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, uni o'tmishdan qolgan zararli sarqitlardan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir.

Ma'lumki, bunday maqsadni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimi (UTT)da islohatlarni muntazam amalga oshirib va kuzatib borishga to'g'ri keladi hamda lozim topilganda rostlash, tuzatish ishlarini qilish lozim bo'ladi.

Ushbu faoliyatni amalga oshirishda esa quyidagilar nazarda tutilmog'i lozim:

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turini rivojlantirish;

- UTTni tarkibiy jihatdan qayta qurish: ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarni hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish va yangilarini yaratish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq, ya'ni kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

- milliy istiqloq tamoyillari va xalqni boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish jamiyat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;

- ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlar rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tizimini yaratish va joriy etish;

- UTTda fan va amaliyot (ishlab chiqarish) bilan integratsiyalashning mukammal mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq ishlarni chet el bilan hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirish va rivojlantirish;

ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gegiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish va h.k.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY G'OYA VA MAFKURA ASOSIDA TARBİYALASHNING AHAMIYATI

Mo'minova Shohista -BTI va STI 403-guruh,

Ilmiy rahbar: B.Tillayev

Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p usrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi.

Mustaqillikning bugungi dolzarb pallasida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqloq g'oyalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimizga, merosimizga hurmat ruhida tarbiyalash har bir fan ustoz-pedagoglari oldida turgan mas'uliyatli vazifalaridandir.

Darhaqiqat, O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, xalqimizning o'z yurti madaniyatini yuksaltirishga, milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni tiklashga e'tibori kuchaydi va bunga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu boisdan ham jamiyatning kelajagi bo'lgan yosh avlodga dunyoviy bilimlarni singdirish va ularni kasb-hunarga o'rgatish bilan bir qatorda, mehnat an'analari vositasida mehnatga qiziqitirish, tabiatni asrash va yuksak ma'naviyatli kishilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi.

O'zbekistonimizning kelgusi taraqqiyoti, buyuk istiqboli ko'p jihatdan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga, farzandlarimizning yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi esa, albatta, o'qituvchilarimizga, ularning pedagogic mahorati salohiyatiga bog'liq.

Bo'shlang'ich sinf o'quvchilari qalbida mehr-muruvvat, himmat, qayg'urish bir-biriga izzat-ikrom, ehtirom hislarini tarbiyalashga maktab, oila, ota-onalar, jamoatchi tashkilotlar ta'siri beqiyosdir. Ya'ni har bir shaxsning ma'naviy kamoloti ijtimoiy muhit, yashash sharoitlari, mehnat tarsi va boshqalar bilan munosabatda bo'lishi negizida shakllanadi va mustahkamlanadi. Millatning o'zligini anglashi, qadr-qimmatini, ahilligi, yurtida tinchlik va osoyishtalikning qaror topishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zaro hamkorlik, hamjihatlikka asoslanishi ma'naviyat mezonlari sanaladi.

Milliy isyiqloq g'oyasi erkin fikr, demokratiya, fuqarolik janmiyati, hur va ozod tafakkur haqidagi fandir. Bugungi kunda bu fanning hayotimiz uchun zarurati va yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni Prezident Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan.

Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida takidlangani-dek, "Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan. Shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur

qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz".

Milliy istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiya, oila, mahalla va mehnat jamoalarining o'rni beqiyosdir.

Milliy istiqloq mafkurasini yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalgam oshiriladi.

Fan va ilmiy muassasalar milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubhona, teatr, madaniyat uylari va saroylari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalgam oshirish lozim.

Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota-ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalgam oshirishda tayanch bo'ladi.

Hamмамizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir.

O'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'alariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongida ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida mahallaga nisbatan "xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining noyob usuli" degan ta'rif ishlatiladi.

"Baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligidir".

Demak, shaxsning kelajagi oiladagi muhitga, undagi tarbiyaga, tarbiyachi bo'lmish ota-onaning o'z vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga chambarchas bog'liqdir.

СОЦИОЛОГИЯ КАК НАУКА

*Азамжон Ахмадалиев - НамГУ,
направления история, 3-курс*

Социология — одна из многих общественных наук, которые изучают жизнь общества, функционирование общественных институтов, поведение человека. Хотя предмет социологии отличается от предметов других общественных наук, она активно взаимодействует с ними, воздействуя на них и испытывая ответное влияние. В системе общественных и гуманитарных дисциплин социология взаимодействует практически со всеми другими

нисками, обогащая их результатами своих конкретных исследований и обмениваясь необходимыми данными. В этом процессе происходит взаимообогащение, развитие как социологии, так и соответствующих наук.

С момента зарождения социологии в научном мире начались дискуссии о взаимодействии социологии с социальной философией. Согласно первой точке зрения, социология отождествляется с социальной философией, т.е. социология понимается как наука о наиболее общих законах развития общества. Однако в этом случае невыясненным остается статус конкретных, эмпирических микросоциологических исследований.

Социология может сыграть значимую роль в формировании духовной культуры, создании позитивной нравственной атмосферы в обществе, выработке ценностей, моральных норм, эстетического вкуса, а также оказывать влияние на воспитание людей. Социология, в частности, призвана помочь российскому обществу, находящемуся в состоянии затянувшегося перехода, восстановить и обрести вновь духовные ценности, напомнить ему о необходимости сохранения великой духовной культуры, религиозных, моральных, эстетических, а также материальных ценностей. Это особенно значимо в условиях, когда процессы глобализации «размывают» культурную и социальную идентичность многих народов мира. Правовые науки также накопили богатый опыт использования социологических данных для совершенствования юриспруденции, в применении законодательных актов, соблюдении норм права, в процессе формирования правовой культуры. Без социологии трудно определить пути становления правового государства, гражданского общества, развития демократии, укрепления правопорядка, регулирования конфликтов. В частности, специфические методы социологии в сочетании с имеющейся объективной информацией позволяют оценить состояние и тенденции совершенствования российской законности, государственности, обеспечения прав и свобод граждан, уровня их правовой культуры. На стыке социологии и правовых наук возникла и бурно развивается такая дисциплина, как социология права.

Во взаимодействии исторической науки социология обогащает последние время историческим методом исследования. Поэтому социологи широко используют ретроспективный анализ в эмпирических исследованиях, что в свою очередь влияет на историческую науку при изучении проблем эволюции общественного сознания, вооружает ее количественными и другими методами. На стыке социологии и истории функционирует дисциплина, называемая исторической социологией.

Помимо названных дисциплин на междисциплинарной основе возникла социальная психология, развивается социолингвистика, проходят стадию становления социопедагогика и другие смежные области знания.

Таким образом, в социологии все большее значение приобретают междисциплинарные связи как стимул развития не только науки, но и всей современной жизни. Наибольших успехов научные работники могут достичь, выстраивая мосты между разными дисциплинами. Современные студенты, которые хотят получить качественное образование, востребованное в будущем, должны учитывать не только особенности «своих», но и новейшие достижения «чужих» (и даже не обязательно родственных) дисциплин.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MA'NAVIYAT VA O'ZLIKNI SAQLASH

*Nozima Ahmadxonova - O'zbek tili yo'nalishi
301-guruh talabasi,
Ilmiy rahbar: A. Qambarov*

Bugun zamon tez sur'atlar bilan o'ta shiddatli tarzda o'zgarib bormoqda. Hozirgi globallashuv davrida odamzot dunyoning bu chekkasida turib, yer yuzining boshqa bir chekkasida yuz berayotgan voqealardan hech qiyinchiliksiz xabar topish imkoniyatiga ega. Xo'sh, globallashuv o'zi nima, u dunyo mamlakatlari ijtimoiy siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.⁸² Bundan tashqari uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari orasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi deyish mumkin. Fransuz tadqiqotchisi

B. Bandi globallashuv jarayonini uch o'lchovli deya ta'riflaydi:

Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;

Globallashuv – jahonning gemogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;

Globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

Hozirda jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, bu fikrlarning naqadar to'g'ri ekanligini guvohi bo'lamiz. Har bir hodisaning ijobiy va salbiy tomoni mavjud bo'lgani singari, globallashuv jarayonining ham yaxshi va yomon tomonlari mavjud. Hozirgi paytda uning ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish mumkin. Masalan, bugungi kunda jahon axborot maydoni tabora kengayib borayotgan bir paytda axborot olishda internet juda ham keng imkoniyatlarga ega. Mana shunday global-lashuv jarayonida internetning ijtimoiy tarmoqlari yoshlarga xorijlik tengqurlari bilan tanishish, muloqotga kirishish, o'zaro fikr almashish kabi imkoniyatlarni berayotgani, ilm-fan sohasidagi yutuqlar, chet eldagi ta'lim tizimi, dunyodagi boshqa millat va elatlarning urf-odatlarini, madaniyati haqida bevosita xorijlik do'stlaridan ma'lumot olishi uning ijobiy tomoni, bu yaxshi, albatta. Ammo internetning foydali tomonlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham yo'q emas. Birinchidan, ko'pgina yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishi ularning bilim olish sifatiga yomon ta'sir ko'rsatyapti. Ikkinchidan, internet saytlariga turli ijtimoiy qatlamga va saviyaga mansub kishilar ham kiradiki, bu o'z navbatida yoshlarning ma'naviyatiga putur yetkazadi. E'tibor bersak, ba'zi yoshlar virtual olamga shunday bog'lanib qolganki atrofidagi yor-do'stlari, qarindoshlariga e'tibori susayganini, avvallari o'zidan kattalarga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beradigan yoshlarning qo'lidagi telefoniga tikilganча beparvo o'tib ketayotganini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasi esa o'zaro mehr-oqibat, hurmat singari insoniy fazilatlarining nochorlashuviga olib keladi. Bunday jarayonlar yoshlarning ba'zi yot g'oyalarga ergashish va turli yo'llarga kirib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Globallashuv mana shunday mafkuraviy ta'sir o'tkazishning kuchli bir quroliga aylanib borayotgan bir paytda, u xalqning ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazmasligi uchun nima qilmog'imiz darkor. Yurtboshimiz Islom Karimov o'zlarining “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” asarida shunday fikr bildiradi: “...Jahon axborot

⁸² Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent: 2010.-B.111.

maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab – chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz”.

Demak, globallashuv jarayonidan chetda turish xalq dunyoqarashining tarayishiga, dunyo sahnida bo'layotgan yangiliklardan bexabar qolishiga, buning natijasida ma'naviy va madaniy jihatdan qoloq bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bunday mamlakat esa rivojlanishdan ortda qoladi.

Globallashuv jarayonida ma'naviy ravnaqqa erishish uchun, avvalo, yoshlarning qalbida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, ularni ona Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhi va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Xalqimizda “Odobni odobsizdan o'rgan” degan naql bor. Shu naqlga amal qilgan holda bolani yoshligidan mustaqil fikrga ega irodali qilib tarbiyalansa, u yaxshi yomonni ajrata oladi, yuz berayotgan har bir voqea hodisaga o'z fikrini bildirib, xulosa chiqaradi va o'zi uchun foydali bo'lgan tomonini o'zlashtiradi.

Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida turli xil g'oyalarning kirib kelishi, ayrim yoshlarning bu g'oyalarga ergashishi va axloqsizlikni madaniyat deb bilish, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimaslik hollari kuzatilmoqda. Bu ularning yurish-turishi, kiyinishi, jamoat orasida o'zini tutishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu holat bizning ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, ibohayo, uyat va andisha kabi yuksak axloqiy tuyg'ularimizga mutlaqo mos kelmaydi. Biz har qanday sharoitda ham o'zligimizni yo'qotmasligimiz, kimning avlodlari ekanligimizni unutmashimiz kerak. Mushtarak maqsadimiz ozod va obod, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, Prezidentimizning “...agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”⁸³ degan da'vatlarini yodda tutgan holda bu yo'lda barchamiz birdamlikda harakat qilmog'imiz darkor.

Xulosa qilib aytganda, biz boy madaniyatimiz, urf-odat va an'analarimizga hurmat bilan qarasaq, ularni ko'z qorachig'idek asrasakkina o'zligimizni saqlay olamiz.

⁸³ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yyengilmas kuch”. Toshkent: 2010. -B.123.

TARIX VA ETNOGRAFIYA

TARAQQIYPARVARLAR HARAKATI TARIXINING O'RGANILISHI

Tohirjon Qozoqov - Tarix fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina jadidchilikka ob'ektiv-xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'rinda tarixchi va adabiyotchi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda adabiyotchi olimlarimizdan U. Dolimov, Sh. Rizayev, Sh. Turdiyev, B. Qosimov, S. Qosimov va boshqalarning bir qator maqola va risolalari muhim o'rin tutadi.

Jumladan, B. Qosimov o'zining Ismoilbek Gaspiraliga bag'ishlangan risolasida jadidchilikning kelib chiqish ildizlari, «Usuli savtiya» maktablarining ta'lim tizimi, jadidchilik harakatining mohiyatini ancha keng yoritib bergan. B. Qosimovning ushbu risolasi jadidchilikni umumturkiy jarayon va mustamlakachilikka qarshi qaratilgan ziyolilar harakati sifatida olib qaralishi bilan ham qadrlidir.

Sh. Rizayevning «Jadid dramasi» asari ham, alohida e'tiborga molik bo'lib, o'rganilayotgan davr muammolari yechimini topish uchun ahamiyatlidir. Muallif o'z asarida jadid adabiyoti, xususan dramaturgiyasining paydo bo'lish sabablari, tarixiy-ijtimoiy sharoit, eskilik va yangilik o'rtasidagi g'oyaviy kurashlar, jadidlarning ma'rifatparvarlik harakati bosqichlari, yangi usul maktablarining ochilishi, taraqqiyparvarlar asos solgan gazeta va jurnallar, dastlabki pesalar, jadid teatrchiligi tarixi kabi masalalarni yoritib bergan.

Shu bilan birga A. A. Jalolovning «O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jarayoni (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)» nomli doktorlik dissertatsiyasida Farg'onaning atoqli jadidlaridan Cho'lpon, Hamza, Ashurali Zohiriyarning faoliyatiga to'xtalib o'tildi. Muallif A. Zohiriyning vatan, til, millat taqdiriga befarq qaramagan ma'rifatparvar ziyoli bo'lganligini, ma'rifatchining o'sha davr matbuoti sahifalarida e'lon qilingan maqolalari orqali isbotlab beradi⁸⁴.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari, xususan, jadidchilik harakati tarixini yoritib berishda tarixchi olimlarimiz ham so'nggi paytlarda talaygina ishlar qildilar. Bu o'rinda R. Abdullayev, S. A'zamxo'jayev, D. Alimova, H. Uzoqov, S. Xolboev, R. Shamsuddinov va boshqalarning maqola va risolalarini keltirish o'rindir.

Jumladan, Turkiston jadidchilik harakatining atoqli vakillari ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini yoritib berishda tarixchi olim D. Alimovning ilmiy tadqiqotlari g'oyat ahamiyatlidir. Uning maqola va risolalarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayevlarning jadidchilik harakati tarixida tutgan o'rinlari xolisona talqin etildi. Jumladan, ularda Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z vatanining dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan faqat bilim va ma'rifat taraqqiyoti tufayligina joy olishi mumkinligini ko'ra olgan, milliy vatanparvar deb ta'riflaydi⁸⁵.

⁸⁴ Jalolov A.A. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jarayoni (XIX asr oxiri va XX asr boshlari): Filol. fanlari d-ri. dis... avtoref. - T., 1994. -B. 15, 17.

⁸⁵ Alimova D. Istoricheskoe mirovozzrenie djadidov i ix proektsiya buducego Turkestana. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. -T.: Fan, 1996. -S.11.

Tarixchi olim R. Shamsutdinov tomonidan chop etilgan ko'plab ilmiy maqolalar Farg'ona vodiysidagi jadidlar tomonidan tuzilgan «Taraqqiyparvar» va «G'ayrat» jamiyatlari, bu jamiyatlarning rus sotsial-demokratlari bilan olib borgan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi⁸⁶.

Tarixchi olim S.S. A'zamxo'jayev o'zining Turkiston Muxtoriyati tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida jadidlar tomonidan Andijon va Qo'qonda tuzilgan jamiyatlar, Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishda ishtirok etgan Farg'onalik jadidlar faoliyati haqida qisman to'xtalib o'tadi⁸⁷. A'zamxo'jayevning tadqiqotlari Farg'ona vodiysidagi mahalliy ziyolilar tomonidan tuzilgan tashkilotlar haqidagi yangi hujjatlarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Farg'ona jadidlari va ulamolaridan Sayyid Nosirxonto'ra, Ashurali Zohiriy va boshqalarning istiqlolchilik harakati tarixida tutgan o'rinlari tarixchi olim Q. Rajabovning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha bayon etildi⁸⁸.

Xuddi shuningdek, H. Uzoqovning tarix Fanlari doktori ilmiy darajasi olish uchun yozgan: «O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi (1900-1940 yillar) (Jurnalistlar faoliyati misolida)» mavzusidagi ilmiy ishi ham bu sohada muhim ahamiyatga egadir. Ilmiy ish asosan milliy jurnalistika tarixiga bag'ishlangan bo'lsada, dissertatsiyaning birinchi bobi «Jadidchilik harakatining shakllanishi va o'sishi (1900-1917)» deb nomlanadi. Bu bobda Turkistonda ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan milliy jurnalistlarning faoliyat va qismlari atroflicha yoritiladi. Muallif Turkistonda, xususan Qo'qonda tuzilgan dastlabki jadid tashkilotlari to'g'risida ham ma'lumotlar beradi. U Farg'ona taraqqiyparvarlaridan A. Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Obidjon Mahmudov, Abdurahmon G'oyibiyar haqida ham to'xtalib o'tib, asosan ularning jurnalistik faoliyatiga baho beradi.

Respublikamiz tarixchi olimlarining sayi-harakatlari bilan keyingi yillarda jadidchilikka bag'ishlangan bir qator risolalar chop etildi va ilmiy anjumanlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi Akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi tashabbusi bilan 1999 yil 7-8 yanvar kunlari tashkil etilgan «O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologik muammolar» mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani, huddi shu yil 16-18 sentyabr kunlari o'tkazilgan «Markaziy Osiyo XX asr boshida: Islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik)»⁸⁹ mavzusidagi anjumanlar jadidchilik tarixiga oid yangi ma'lumotlarga boyligi bilan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur anjumanlarda jadidchilik harakati tarixi bilan shug'ullanuvchi xorijlik tadqiqotchilar ham ishtirok etdilar.

⁸⁶ Shamsutdinov R. Jadidchilik haqiqat va uydirma //Muloqot.-1991.-№11-12.- B.19-20.; o'sha muallif: Andijonda jadidchilik harakati. Andijonoma.-Andijon, 1992.-B.38.

⁸⁷ Agzamxodjaev S.S. Turkiston Muxtoriyati: Borba za svobodu i nezavisimost (1917-1918gg.): Avtoref. Dis...d-ra. ist. nauk.-T., 1996.-S.29.;

⁸⁸ Rajabov Q. Jadidlar Istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.T.: Eldinur, 1998.-B.11-24.

⁸⁹ O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologik muammolar. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari (to'plam).-T.: Akademiya,1998.-360b.

Ushbu anjumanlarning ahamiyatli tomoni yana shunda bo'ldiki, Turkistondagi jadidchilik harakati nafaqat Respublikamizda balki, xorijdagi tadqiqotchilar tomonidan ham chuqur qiziqish bilan o'rganilayotgani ma'lum bo'ldi, hamda bu harakat XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatiga aylanganligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning yangi tarixini birinchi kitobida jadidchilik harakati tarixiga ham keng o'rin ajratilgan. Jumladan, unda, jadidchilikning vujudga kelish omillari, yangi usul maktablarining tashkil etish zaruriyati va sabablari, jadidlarning siyosiy faoliyatlari, jadid matbuoti, teatri to'g'risida, 1916 yilgi milliy-ozodlik harakatida jadidlarning ishtiroki haqida yangi ma'lumotlar berilgan⁹⁰.

AMIR TEMUR – MARKAZLASHGAN DAVLATNING BUNYODKORI

M. Nematova, P. Atajonova - Farg'ona pedagogika kolleji, T. Ne'matov Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish kolleji

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning nomi qaytadan tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi.

O'zbek xalqimiz asrluk tarixi davomida XIV asrning ikkinchi yarmida ulug' fotih Amir Temur nomi bilan bog'liq davr o'ziga xos o'rin egallaydi. Amir Temur mamlakatdagi hukmron bo'lgan bosh – boshdoqlikka chek qo'ydi. O'rta Osiyo yerlarini bir markazlashgan davlatga birlashtirdi. Shuningdek, XIV asrning o'rtalarida siyosiy maydonga chiqib, Movarounnahrda bir yarim asr davom etgan mo'g'ul xonlari zulmi va istibdodiga barham bergan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy jihatdan kuchli, mustaqil davlatni barpo etdi.

O'rta Osiyo yerlarini bir markazlashgan davlatga birlashtirdi. So'ng kichik Osiyodan to Hindistongacha, Janubiy Erondan va Bog'doddan Volga bo'yigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga o'tkazib ulug' bir davlat barpo qildi. Bobomiz Amir Temur mamlakatimizni jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko'targan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Shu yili mashhur davlat arbobi va buyuk sarkarda, Sohobqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida keng nishonlandi. UNESCO qarori bilan 1996-yil aprelda Parijda mashhur davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan

bir haftalik xalqaro tantanalar bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal o'rnatildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va haykal o'rnatildi. Shaharga Amir Temur ordeni topshirildi.

⁹⁰ O'zbekistonning yangi tarixi /Tuzuvchilar: SodiqovH., Shamsutdinov R., Ravshanov P.-T.: Sharq, 2000.-464 b.

2006-yilda Amir Temur tavalludining 670 yilligi munosabati bilan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida Sohibqironga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazildi, ilmiy ishlar va maqolalar chop etildi. Ana shu maqolalardan biri Italiyada nashr etiladigan "Marco Polo" jurnalining 2006-yil 2-sonida bosilib chiqdi.

"Buyuk davlat arbobi va sarkarda" deb atalgan ushbu maqolada Amir Temurning olamshumul faoliyatiga insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Makedoniyalik Aleksandr va rimlik Yuliy Sezar darajasida eng buyuk baho berilgandi.

Ko'plab tarixchilar uni jahon sivilizatsiyasi, tarixi, madaniyatida yangi davr ochgan insoniyat ijtimoiy taraqqiyotiga yangi nishonlar, ustuvor qadriyatlar bergan favqulodda shaxs deb baholab kelishmoqda. Darhaqiqat, xal qiluvchi, belgilovchi iqtisodiy, harbiy-siyosiy salohiyat, iqtidorning shakllanishida Amir Temurning favqulodda aqlu-zakovati, po'lat irodasi, yangi saviyaga ko'targan harbiy-siyosiy madaniyati, planetar ko'lamdagi tafakkuri asosiy tamal tosh rolini o'ynadi.

Tarixiy manbalarda ko'plab isbotlar keltirilmoqda. "Temurning 1360-1370 yillar orasidagi siyosiy faoliyati kabi uning din kishilari bilan bo'lgan munosabatlari oid malumot juda ham ozdir. Temur bu o'n yil ichida kurashlarda ishtirok etgan, yo u tarafda, yo bu tarafda turib, o'z manfaatini ko'zda tutgan holda qilich o'ynatgan. Kelajakda foydasi tegadigan, kishilarga yaqinlashgan, atrofiga o'ziga sodiq qurol-doshlarini to'plagan, ularni asosan urug'i bo'lmish barloslar ichidan tanlagan." (1,6 – bet)

Siyosiy beqarorlik, feodal urushlari, ocharchilik, shu tufayli bo'lgan qo'zg'olonlar, qon to'kilishi, bular barchasi Amir Temurdan sabr-toqat, diplomatik yondashuv, hushyorlik va shaxsiy ibrat bo'lishini talab qilar edi. "Havo o'lguday issiq edi. Yo'ldoshlaridan bir nechisini atrofdan suv izlashga yuborishdi, ammo natija chiqmadi. Faqat bir necha yutumlik suv topildi xolos. Ibach O'g'lon shuning bir necha tomchisini ichdi, biroq chanqog'i qolish o'rniga kuchaydi. U yo'ldoshi Amir Jalolga: "Chanqovdan o'lyapman, agarda suvning qolgan qismini ham menga bag'ishlasang, meni qutqarib, buyuk bir yaxshilik qilgan bo'larding", dedi. Amir Jalol unga shunday dedi: "Men Amir Temurdan shunday bir hikoyat tingladim: bir arab bilan ajam yo'lda yo'ldosh edilar, kun shunaqayam isibdiki, ikkalovi suvsizlikdan o'lar darajaga yetibdi. Arabning yonida bir oz suv bor ekan, ajam unga qarab: "Arablarning yaxshiligi va jo'mardligi mashhurdir, shu bir yutum shu bilan meni yo'q bo'lishdan qutqar", debdi. Arab bir oz o'ylanib, so'ngra: "Har holda shu suvni senga berishim bilan o'zim ham suvsizlikdan o'lishimni bilaman, biroq arablarning yaxshiliksevarligi, jo'mardligi shuhrati davom etishi mening hayotimdan muhimroqdir, deya suvni ajamga beribdi va uni qutqarib qolibdi". Amir Jalol ham suvdan kechgani haqida eshitib, Amir Temur Jalolning bu ishidan juda sevinibdi va uning otasi Amir Hamidning vaqtida shundayin fidokorliklar qilganini xotirlab, bu so'zlar abadiyan unutilmayajagini so'zlabdi". (3, 22-bet)

Amir Temur o'z avlodlariga doim shijoat va qat'iyat bilan birga hushyorlik va ehtiyotkorlikni unutmazlik haqida qayta-qayta maslahat berganligi "Temur tuzuklarida" ko'pgina sahifalarida bitilgan. Tuzuklarning ikkinchi kitobida fikrini shunday davom ettiradi: "Bu tuzuklardan saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma"

sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zarar va tanazzuldan omon bo'lgay". (4, 53-bet)

Markazlashgan davlatni bunyod etgan buyuk shaxs Amir Temur adolatni ustun ko'rar edi. Shuning uchun davlat boshqaruvining o'ziga xos tizimini tashkil etib, tarixiy tajribalar asosida boshqaruv tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirgan.

Amir Temur markaziy boshqaruvida 7 ta vazirlikni tuzgan. Boshqarishda esa 5ta bosh tamoyilni asos qilgan. "Birlamchisi – fuqaroga ko'rsatadigan marhamati. Ikkilamchisi – mamlakatni saqlab tura oluvchi adolati. Unda har bir tadbirga adolat ila qaror qabul qilgan. Uchlamchisi – zolimni jabrini mazlumdan qaytara oluvchi haybati (siyosati). Unda sud – huquq tizimi namunali tashkil etilgan. To'rtlamchisi – dushmanning mak –xiylasidan ogohlikka vosita bo'la olg'uvchi donishi. Bunda o'z davrining konstitutsiyasi hisoblangan "Temur tuzuklari" dan foydalangan. Beshlamchisi – fursatni g'animat bilmoq uchun ish oqibatini ko'ra bilmoq, yani tadbir natijasini oldindan ko'rib, uzoqni ko'ra bilga". (3, 22 – bet)

Mazkur 5 ta tamoyil ham davlat boshqaruvida juda ham muhim o'rin kasb etib, markaziy hokimyatni kuchaytirishda ijtimoiy – iqtisodiy hayotni keskin rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan.

Amir Temur ilm – ma'rifat homiysi bo'lgan. O'z davrida olim va fuqarolarga inomini ko'rsatgan. Bolqon yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarni turklar zulmidan qutqargan bo'lsa, Sharqiy Yevropada zulmini yoygan Oltin O'rdaga putur yetkazdi.

Shuningdek, Buyuk Ipak yo'lini ham tikladi. Urush bo'lib o'tgan hududlarda o'z marhamatini ko'rsatdi. Vayron bo'lgan joylarda bunyodkorlik qilgan. Shunday ulug' ishlarni amalga oshirgan bobokalonimiz bilan faxrlanamiz.

ДУХОВНЫЕ И НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЖАДИДОВ

Ташбаева Д.Х. - к.ф.н. НамГУ

Истоки духовности, нравственности и культуры находятся в глубинах богатого наследия прошлого узбекского народа. Независимый Узбекистан выбрал собственный путь развития государства и общества, ориентируемый на возрождение духовных ценностей. Нравственные и духовные ценности на Востоке это не просто слова – это образ жизни, эталон поведения, смысл существования, смысл бытия. В историческом плане значительный вклад в развитие духовно-нравственных устоев, возрождение традиций, обычаев, культуры, пропаганды светских знаний внесли представители общественно-политического движения – джадидизма. До конца семидесятых годов XX века про джадидское движение и его деятелей, кроме Садриддин Айни, умалчивалось. И. Каримов в своих речах, выступлениях, трудах подчеркивал о недопущении фальсификации нашей истории, о возрождении бесценного наследия предков. После обретения Республикой Узбекистан суверенитета стали издаваться книги джадидов. Движение джадидов (от араб. «джадид» — новый) зародилось в Крыму, Поволжье, Азербайджане. В Центральной Азии

джадидизм, как уникальное общественно-политическое и культурно-просветительское течение, формировался под воздействием взглядов новой исламской философии того времени и социально-политических идей Исмаила Гаспринского, известного крымско-татарского политического деятеля.

Основателем и одним из теоретиков джадидизма в Туркестане был Михмуджон Бехбуди. Наиболее видными представителями движения стали Абдукадыр Шакури, Мунавваркари Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат, Чулпон, Фуркат, Ахмад Дониш и десятки др. В целях социально-культурного развития Средней Азии в новом направлении джадидские лидеры предложили ряд реформ в области образования, историографии, литературы, печати, религии, искусства. Они выступали с идеями переоценки и усовершенствования этики, религии, правосудия, здравоохранения, улучшение положения женщин, всех сторон жизни.. Общим для джадидов Туркестана было то, что они выступали носителями идей независимости, свободы и борьбы за светлое будущее. Сферой общественной жизни, наиболее приемлемой для различных национальных течений, в том числе, движения джадидов, было народное просвещение. Сопоставляя Восток и Запад, Исмаил Гаспринский (1851-1914гг.) одним из первых понял причины все большего отрыва мусульманского, тюркского мира от мирового развития. Он начал движение за устранение невежества среди тюркских народов, достижение уровня развитых стран через духовность и просвещение населения. Исмаил Гаспринский поднял вопрос о реформировании системы просвещения, об изучении в школах светских знаний.

Стремясь модернизировать мусульманскую систему образования в Туркестане, джадиды открыли новометодные, так называемые русско-туземные школы. Первая школа была открыта 19 октября 1884г. в доме богатого ташкентского купца Сайда Азимбаева, а затем и в других городах. Несмотря на отсутствие единой системы учебников, и пособий, джадиды стремились к тому, чтобы учащиеся этих школ овладели практическими знаниями. Учебная программа в новометодных школах включала чтение, письмо на тюркском языке и языке фарси, арифметику, историю, географию, большое место в ней занимали основы религии. Были изданы специальный учебник для обучения детей грамоте, а также хрестоматия для чтения. В 1903г. в Туркестане функционировали 102 начальных и 2 средних джадидских школ. Выпускниками первых школ были Маннон Уйгур, Хамза, Каюм Рамазан, Ойбек. В Самаркандской области была создана организация джадидских школ Джурабаева и Абдукадыра Абдушукурова (псевдоним — Шакури, его школа была известна как «школа Шакури»). Шакури первым ввел совместное обучение мальчиков и девочек.

Джадиды выступили с инициативой о направлении молодежи для учебы в зарубежные страны. Десятки одаренных подростков были направлены на обучение в Германию, Египет, Турцию, Россию. В 1910г. в Бухаре преподаватель Ходжи Рафии и др. создали благотворительный фонд «Детское воспитание» и в 1911 и 1912 гг. учащиеся были отправлены в Турцию. Созданное в 1909г. М.Абдурашидхановым в Ташкенте «Благотворительное

общество» оказывало помощь в обучении детей нуждающихся родителей, а также содействовало в учебе молодежи в зарубежных странах. Дджаиды заложили фундамент развития национальной прессы. М.Абдурашидханов в 1906г. организовал издание журнала «Хуршид» («Светило») и сам его редактировал. Журнал пропагандировал правовые знания, что также способствовало росту национального самосознания. Однако царские чиновники вскоре запретили выпуск журнала. Но в 1913г. М.Бехбуди основал частное издательство и библиотеку и стал издавать газету «Самарканд» и журнал «Ойна» («Зеркало»).

Просветительская деятельность туркестанских джаидов сыграла важную роль и в становлении национальной периодической печати. Через газеты, издававшиеся на собственные средства, джаиды пропагандировали преимущества новометодных школ, ратовали за подготовку национальных кадров. В периодической печати джаиды также вели активную пропаганду, направленную против невежества и фанатизма, старых обрядов и традиций, за осуществление реформ экономической, политической и культурной жизни колониального Туркестана.

На страницах периодической печати джаидов особое место занимали проблемы экономического развития Туркестана. Это такие проблемы, как создание и развитие национальной промышленности; открытие национальных банков; развитие сельского хозяйства; внутренней и внешней торговли; ограничение вывоза из Туркестана полезных ископаемых, внедрение достижений науки и техники в производство.. Джаиды Туркестана с огромным восхищением писали о достижениях русского, еврейского, армянского, немецкого и других народов Европы в области экономики, политики, культуры, науки и техники. На страницах периодической печати джаиды поднимали такие проблемы: как подготовка национальных кадров в учебных заведениях развитых стран мира, прежде всего Европы; использование религии ислама как средства воспитания народов Туркестана в духе высокой духовности, патриотизма, солидарности; создание условий для привлечения женщин к общественно-полезному труду, политической и культурной жизни; предоставление широких демократических прав и свобод гражданам, независимо от социального и национального происхождения, вероисповедания. Джаиды сразу же оценили театр как острое оружие идеологической борьбы. Начиная с 1911г., они регулярно публиковали в периодической печати статьи, где доказывали полезность театра для духовного просвещения.

В 1913г. по инициативе М. Абдурашидханова была создана группа «Туран» — общество любителей драматического искусства. В Ташкенте 27 февраля 1914г. в здании театра «Колизей» состоялась церемония официального открытия первого узбекского национального театра. Пьесы «Падаркуш» («Отцеубийца», М.Бехбуди) и «Бахтсиз куев» («Несчастный жених», А.Кадыри) имели огромный успех на всей территории Туркестана. В национальном театре воспевается прекрасное, разоблачается отвратительное, вредное, варварское.

Джаиды поднимали проблемы, связанные с реформой управления краем, рыночными отношениями, пропагандировали достижения европейской научно-технической мысли, культуры, нормы экономической и общественно-политической жизни, стремились пробудить интерес к истории ислама, выступали за светское образование. Деятельность просветителей Центральной Азии представляет собой одну из ярких страниц истории общественной мысли. Их заслуга состоит в том, что в мрачный период феодальной отсталости и колониального гнета царизма они пропагандировали идеи прогресса и социальной справедливости, формировали сознание национальной независимости.

SOVET HUKUMATINING O'ZBEKISTONDA OLIB BORGAN QULOQLASHTIRISH VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI: UNDA TEMIRYO'LNING ISHTIROKI

B. Jalolov - Nam DU tadqiqotchisi

O'zbekistonning sovet rejimi davridagi tarixining mislsiz alamlari va qayg'uli sahifalaridan biri XX asr 20-30 yillardagi qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va shu asosda quloqlashtirish, quloqqa tortilgan dehqonlarni surgun qilish va ularning surgundagi hayoti masalalaridir. Bu jarayonda xalqimiz o'z boshidan mislsiz azob-uqubatlarni kechirishga mahkum etilgandi. Ayniqsa, qishloq aholisining katta qismi uy-joyidan, ot-ulovidan, yaqinlaridan, mahalla-kuyidan, qavmu-qarindoshidan, qisqasi butun borlig'idan mahrum qilinib, qamoqqa olindi, uzoq begona yurtlarga surgun etildi. Sovet davri manbalarida "quloq" kabi terminlar tilga olinar ekan, avvalo jamiyat qatlamlarini turli toifa va sinflarga bo'lib tashlash, ular o'rtasida nafrat urug'ini sochish, ularni biri-biriga nisbatan qarama-qarshi qo'yish kabi siyosiy o'yinlar o'ylab topilib, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyot tizimi tubdan vayron qilindi.

Qishloqlardagi tadbirkor, ishbiarmon dehqonlar qatlami faoliyatiga deyarli barham berilib, ular o'z joylaridan badarg'a qilinib, ularni qisqagina qilib, "quloq" tamg'asi bilan badnom qilishdi. Quloq tushunchasi sovet davri manbalarida quyidagicha izohlanadi: "quloq" - ruscha "kulak" - "musht" so'zidan olinganligi va ularni qishloq burjuaziyasi sifatida ta'kidlanib, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonida dehqonlar ichida paydo bo'lib, ularning eng badavlat qismi sifatida keltirilib⁹¹, aslida ular "yangi iqtisodiy siyosat" dan ilhomlanib, oz bo'lsa ham qo'llarida 1-2 uy hayvoni va sarmoya jamg'argan, eng katta "ayb"lari o'z yerlarida yollanma ishchi kuchlaridan foydalanib, xo'jaliklarni tiklab olgan mirishkor dehqonlar edi.

Sovetlar tomonidan quloqlashtirish siyosati XX asr 20-yillar oxirida boshlangan bo'lsada, aslida ushbu mudhish jinoiy jarayonni oqlashga uringan, uni nazariy jihatdan asoslab bergan V. Lenin hisoblanib, uning davridayoq quloqlarga nisbatan shavqatsiz terror munosabatlari shakllangan bo'lib, "quloqlar sovet hokimiyatining ashaddiy dushmanidir. Quloqlarni ishchilar sinfi bilan hech vaqt yarashtirish mumkin emas. Quloqlarga qarshi ayovsiz urush ochish kerak! ularga

⁹¹ O'zbekiston Sovet entsiklopediyasi. T.: O'SE davlat nashriyoti. 1980. 14-tom. -B 239.

o'lim!⁹²” degan fikrlari “dohiy” o'limidan so'ng uning fikrlarini o'zlariga dastak sifatida qabul qilgan safdoshlari, xususan I. Stalin davriga kelib quloqlarga nisbatan keskin choralar ko'rish to'g'risida farmonlar qabul qilindi. Quloqlarni sinf sifatida tugatish 1929 yil 7 noyabrda “Pravda” gazetasida Stalinning “Buyuk burilish yili” nomli maqolasi e'lon qilinishi bilan boshlandi va ayni shu “buyuk burilish” yilining dekabriga kelib, Stalin tomonidan quloqlashtirishga yo'l ochib bergan “jamoalash-tirish uchun moddiy baza tayyor” deb aytilgandi⁹³. Jamoalash-tirishni boshlash degani bu avvalo quloqlarga nisbatan “urush e'lon qilish” degani edi, shu sababdan quloqlarni iqtisodiy jihatdan sindirish maqsadida ularga nisbatan soliqlar miqdori yildan-yilga oshirib borildi, xususan bu ko'rsatkich 1929 yili 13, 5 foiz, 1930 yilda 32,5 foiz, 1931 yilga kelib, 66 foizni tashkil qildi⁹⁴.

Jamoalash-tirishni sun'iy tarzda tezlashtirish, quloqlashtirishni tezda yakunlash hamda ushbu kompaniyada “sotsialistik musobaqa”ni avj oldirish maqsadida VKP(b) MQ ning 1930 yil 5 yanvarda “jamoalash-tirishni sur'ati va kolxoz qurilishiga yordam berish tadbirlari to'g'risida”gi hal qiluvchi qaror qabul qilindi va “quloqlarni tugatish” jamoalash-tirish uchun moddiy baza sifatida mudhish rol o'ynay boshladi⁹⁵. Mazkur qarorda sobiq ittifoq hududi 3 guruh tumanlarga bo'linib, qaysi hudud qachon yuqoridagi kompaniyani tugallashi rejalashtirildi.

O'zbekiston uchinchi guruhga kirgizilib, 1931 yil bahorida tugallashi kerak edi. 1930 yil 30 yanvarda O'zbekiston KP(b) MQ byurosining “Yoppasiga jamoa-lashtirish tumanlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari to'g'risida”gi qaroridan⁹⁶ so'ng quloqlarga xujum kuchayib, Markaz O'zbekistondagi jamoalash-tirish tajriba-sini o'rganib chiqib, amaliy qat'iy chora-tadbirlarni belgilab berdi va unda O'zbekiston jamoalash-tirish juda sekin rivojlanib borayotgan hududlar qatoriga kiritildi. Markazning tanqidi asosida mahalliy rahbarlar respublikada jamoalash-tirishni yuqori sur'atlarda va safarbarlik asosida olib borishga olib borishga xarakter qilishar ekan, avvalo jamoalash-tirishni yuqori foizlarga ko'tarishga berilib ketishga, shu yo'l orqali bu sohada “eng ilg'or hududlar” yetib olish va ulardan o'zib ketishga intilishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Kompartiyasi MQ ning 1930 yil 17 fevralda “kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida” qaror qabul qilib, unga qarshi respublikada ommaviy sur'atda yalpi jamoalash-tiriladigan 17 hudud belgilab chiqildi va sotsialistik musobaqa avj oldirildi. “Sotsialistik musobaqa”da eng ko'p jabrlangan qatlam quloq tamg'asini olgan oddiy xo'jaliklar bo'lib, sovetlar mamlakatida 1930-1931 yillarda umumiy soni 1803392 kishidan iborat bo'lgan 381026 nafar oila quloq sifatida yashash joyidan ko'chirilib, bundan 6944 nafari O'rta Osiyo minataqasiga to'g'ri keladi⁹⁷.

⁹² Shamsutdinov. R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. T.:Sharq, 2001. –B 3.

⁹³ Shamsutdinov. R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari... –B 63.

⁹⁴ Razzoqov. A. O'zbekiston paxtachiligi tarixi. T.:O'zbekiston. 1994. –B 138.

⁹⁵ Shamsutdinov. R. Xudoyorov. I. Quloqlar surguni. // Muloqot. 2002. №3. –B 35.

⁹⁶ Egamnazarov. A. Surgun. T.:Adolat. 1999. –B 70.

⁹⁷ Rahmonqulova. A. Sho'ro tuzumining 30-50 yillardagi qatag'onlik siyosati va uning usullari. // O'zbekiston tarixi. 2000. №1-2. –B 64.

O'zbekistonda quloqlashtirish siyosatini amalga oshirishda qat'iy bir nizom yoki mezunga amal qilinmas, hamma joyda zo'ravonlik, shoshma-shosharliq, insonlar taqdiri ustida aksariyat mahalliy rahabarlar o'ylamay qaror qabul qilishdan toymas edilar, Masalan o'sha davr guvohlaridan biri bo'lgan Habibullo Qodiriy (yozuvchi Abdulla Qodiriyning o'g'li) ushbu jarayon haqida o'z mulohazalarni bildirib, shunday xotirlaydi: "birovni quloqqa, haqsizlikka tortish oson hal qilinmas edi. Avval ma'lum belgi-shartlar bo'yicha nomzod qilinlar, umummahalla majlisida ovozga qo'yilar, so'ng qaror chiqarilar edi. Ammo ba'zi mahalla-qishloqlarda tushunmagan, "ishbilarmon" hovliqmalar yoki g'arazchilar ham chiqib qolar, ular o'z g'arazlari yo'lida fursatdan foydalanmoqchi bo'lar edilar. Masalan, bizning mahallada ham "Julqunboy(A. Qodiriyning taxallusi) boyib ketdi, uni ham quloq qilish kerak" deguvchilar, yuqori idoralarga "xolis" qog'oz ko'tarib chiquvchilar bo'ldi. Biroq rahbar idoralar "da'vo"garlar gapiga quloq solishmadi" deya ta'kidlaydi⁹⁸. Quloqlashtirish siyosatini amalga oshirishda eng katta vakolat Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi(OGPU) va lagerlar bosh boshqarmasiga berilib, bu idoralar o'z rejalarini amalga oshirishda asosiy vosita sifatida temiryo'l transportidan unumli foydalandilar. Quloq xo'jaliklarni surgun qilishdan oldin ularni temiryo'l bekatlariga yig'ish, qaysi stantsiyadan qancha oila ketishi, ular ortilgan eshelonlarni jo'natish navbati, yo'nalishlari, surgun qilish tadbirlari bilan bog'liq xarajatlar smetasi ishlab chiqilishi va joylardagi siyosiy vaziyat haqida muntazam xabar qilib turishlari Markaz tomonidan talab etilar, bunda asosiy shtab vazifasini joylarda temiryo'l bekatlari o'taganlari sir emas edi, albatta.

Temiryo'l imkoniyatlardan kengroq foydalanish va tezkor harakat qilish, shuningdek, yuqoridagi qaror bandlarini ijrosini O'zbekistonda qat'iy ta'minlash vazifasi OGPU tomonidan vakil German Matson zimmasiga yuklatildi⁹⁹. 1931 yil 7 sentyabr holatiga ko'ra O'rta Osiyodan maxsus surgun qilinganlar joylashgan Shimoliy Kavkaz o'lkasiga yuborilayotgan 5 ta eshelon (1459 oila, 7460 kishi), Ukrainaga yuborilayotgan 8ta eshelon (2735 oila, 41460 kishi), hammasi bo'lib, 4194 oila, 18920 kishi yo'lga jo'natilgani OGPUning maxfiy ma'lumotnomasida keltirilib o'tiladi¹⁰⁰.

OGPU raisi o'rinbosari G. Yagodaning Stalinga yo'llagan ma'ruzanomasida 1931 yil quloqlashtirishda va surgunlarda odamlar, uy-ro'zg'or buyumlari, xo'jalik hayvonlarini tashishda jami 715 ta eshelon, 37987 ta vagonidan foydalanilganligi haqida ma'lumot beriladi. Temiryo'l transportining quloqlarni joylarga eltishda murakkab tomoni shunda ediki, quloq oilalar ortigan vagonlar umuman talabga javob bermasligi, shart-sharoitlarni umuman yo'qligi, sanitariya holatlari o'ta og'ir ekanligi kuzatiladi. Xususan, Ukrainaga jo'natilgan quloq oilalar yuklangan vagonlarda yotish-turish va boshqa zaruratlar ham vagon ichida joylashganligi, avgust oyi bo'lganligi kun isib ketib, vagonlarning qizib ketishidan och qolgan go'daklar issiqqa chiday olmay o'la boshlaganlari, har bir stantsiyada eshelonlar to'xtaganda vafot

⁹⁸ Habibullo Qodiriy. Otam haqida. T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. -B 149.

⁹⁹ Shamsutdinov. R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. T.:Sharq. 2003. -B 189.

¹⁰⁰ Shamsutdinov. R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun... -B 212.

etgan go'daklarni temiryo'l yaqinidagi qumliklar, dasht va tekisliklarga dafn etib yo'llarni davom ettirganlari manbalarda va xotiralarda qayd etib o'tiladi¹⁰¹.

Quloq qilinganlarning aksariyati ko'chib borgan joylarda turli kasalliklar, ocharchilik, sanitariya talablarining umuman mavjud emasligi tufayli ko'plab qirilib ketishdi. Ayniqsa ular orasida yosh go'daklarning ko'pligi achinarli holat bo'ldi. Bu ham yetmaganday, quloqlarga nisbatan mamlakat miqyosida "umumiy nafrat" to'liqini sun'iy ravishda yuzaga keltirilishi quloqlar ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Quloqlar masalasi doimiy ravishda bolsheviklar diqqat-e'tiborida bo'lib, ayrim hollarda ularning manfaatlari ham himoya qilingan edi, xususan Butunittifoq MIQsi 1931 yil 3 iyulda surgun qilingan quloqlarga fuqorolik huquqini berish to'g'risidagi qarori qabul qilingan bo'lsa-da, ayrim hollarda yana quloqlarga nisbatan ta'qib kuchaytiriladi. 1935 yil 25 yanvarda Butunittifoq MIQ raisi M. Kalinin va Butunittifoq Markaziy IQ kotibi Yenukidze imzosi bilan joylarga quloqlarga oid quyidagicha ko'rsatma berilgandi, ya'ni surgun qilingan quloqlarga fuqorolik huquqlarni berish-ularni turgan joylaridan ketishga ruxsat bermaydi¹⁰².

Ushbu ko'rsatma ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zSSR Sovetlari MIQ kotibi Sh. Karimov 1935 yil 17 fevralda tuman ijroqo'mlariga №137 sonli qarorni jo'natadi¹⁰³. O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish asosan 1935 yilda tugagan bo'lsada, quloqlarni respublika hududida qatag'on qilish davom ettirilib, 1936 yilning o'zida ham 2648 ta oila quloq xo'jaligi sifatida tugatildi¹⁰⁴. Zo'rvonlik, kuch ishlatish, quloqlashtirish siyosati tufayli 1939 yilga kelib ixtiyoriy-majburiy tarzda kolxozlarga kirgan xo'jaliklarning soni 800 mingga yetdi va jamoalashtirish kompaniyabozlik aylanib, sun'iy ravishda 1939 yilga qadar yildan-yilga ko'paya borganligini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin¹⁰⁵.

1941 yil boshlariga kelib, Butunittifoq miqyosida turli hududlarda taxminan 200 oila, 930221 nafar quloqlar bo'lib, urushning dastlabki davridagi eng og'ir damlarda ham quloqlar harbiy xizmatga olinmadi, kommunistlarning ularga nisbatan ishonchsizligi va har tomondan tahqirlash kayfiyati dushmanga qarshi ayovsiz janglarda quloqlarga qurol berish masalasida Markaz hayiqqanligi kuzatiladi. 1940 yil 27 fevralda, Ishchi-dehqon qizil qo'shini Bosh boshqarmasi "ishlash uchun ko'chirib keltirilganlar va ularning farzandlari qizil qo'shin va flotga chaqirilmasin" degan ko'rsatma berganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol ifodasidir¹⁰⁶. 1942 yil o'rtalarida urushning avj pallasida Butunittifoq Ichki Ishlar Xalq Komissarligi quloqlardan iborat 100 ming kishini qo'shinga safarbar qilish haqidagi taklifini Stalin keskin rad qilib, bu miqdordagi "sinfiy dushman"ga ishonish xatarli ekanligini uqtiradi¹⁰⁷, aslida g'alabaga yaqinlashtiruvchi yana bir imkoniyat yo'qqa chiqariladi. Urush yillarida ko'plab quloq oilalari nemislar bosib olgan hududlarda qolib ketishib, aksariyatlari qirib tashlandi, ko'plari urushning oxirgi paytlarida frontga safarbar

¹⁰¹ Egamnazarov. A. Surgun... -B 77.

¹⁰² Chust tuman davlat arxivi. 339-fond. 1-ro'yxat. 6-ish. 109-varaq.

¹⁰³ Chust tuman davlat arxivi. 339-fond. 1-ro'yxat. 6-ish. 109-varaq.

¹⁰⁴ Shamsutdinov. R. Karimov. Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. T.:Sharq. 2010. -B 268.

¹⁰⁵ Sovet O'zbekistoni ekonomikasi va madaniyatining rivojlanishi. T.:FAN. 1958. -B 175.

¹⁰⁶ Shamsutdinov. R. Abdullaev. M. Jangchi o'zbek quloqlari. // Fan va turmush. 2000. №6. -B 28.

¹⁰⁷ Shamsutdinov. R. Abdullaev. M. Jangchi o'zbek quloqlari... -B 28.

qilindi. O'zbekiston qishloqlarida esa ixtiyoriy-majburiy jamoalashtirishga jalb qilingan, aslida kommunistlar orzu qilgan, "bir burda non" uchun tunu-kun tinim bilmay "qullik qo'shig'ini kuylash"ga o'rgatilgan yo'qsillar kolxozlarda to'lib-toshdi. Kolxozlarda tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, jo'shqinlik kayfiyatlari jamiyat ongida qadr-qiyamatini yo'qota bordi. Qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyot uzoq yillarga orqaga surib tashlandi. Faqatgina respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritishi tufayli qishloqlardagi agrar islohotlarga keng yo'l ochib berib, kolxozlarning chinakam kooperativ mohiyati tiklandi va ishbilarmon dehqon-fermerlarga e'tibor kuchaytirilib, qishloqlarning madaniy qiyofasi o'zgardi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq Prezidentimiz I. Karimovning; "yurtni boqadigan va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini xom-ashyo bilan ta'minlaydigan-dehqon ahlidir. Boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari qatorida qishloq xo'jaligi sohasida ishlayotgan, mehnat qilayotgan kishilarga ko'proq erkinlik va imtiyozlar berilishi shart. Dehqon ahli bizni aslo dog'la qoldirmaydi. Birimizni albatta, yuz qilib qaytaradi"¹⁰⁸, deya ta'kidlagan fikrlari bu borada dasturamal bo'lib xizmat qilgani shubhasiz albatta.

O'ZBEKISTONDA JAMOAT TRANSPORTI: PAYDO BO'LISHI VA RIVOJI MASALALARI

Sharofiddinov Mahmudjon - NAMDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti,

Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Hozirgi kunimiz transport tizimiga e'tibor beradigan bo'lsak, uni jamoat transportlarisiz hayotimiz tasavvur qila olmaymiz. Jamoat transportlari dastlab G'arbiy Yevropa davlatlarida XVIII-XIX asrlarda paydo bo'ldi. Yevropadan esa, boshqa hududlarga tarqaldi. Turkiston o'lkasida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar jamoat transporti degan tushuncha bo'lmagan. Jamoat transportlarining Turkistonga kirib kelishi bevosita o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingani bilan bog'liq hisoblanadi. Turkistonda shahar yo'lovchilarini tashishning ibtidoiy turi XX asrning 2-yarmida paydo bo'lgan ko'p sonli izvoshlar edi. Toshkent ko'chalarida izvoshlar faoliyati alohida ahamiyatga ega hisoblangan. "Turkestanские ведомости" gazetasining 1902-yil 13(26)-yanvar sonida Yengil hamda yuk tashuvchi izvosh narhlari keltirilgan. Bunga ko'ra, yengil izvosh narxlari shahar ichida 10 kapeykadan- 30 kapeykagacha, yuk izvoshlari narxlari 15 kapeykadan, 50 kapeykagacha qilib belgilangan. XX asr boshlarida Toshkentga jamoat transportining dastlabki turi – konkalar kirib keldi. Konka – tor temir yo'l izida otlar sudraydigan bir vagonli dastlabki shahar jamoat transporti edi. Konkaning birinchi yo'nalishi 1901-yilda, ikkinchi yo'nalishi 1903-yilda ishga tushirildi. Konka uchun qurilgan yo'lning uzunligi 9.5 kmgga, vagonlarining soni 30 taga yetdi. Vagonlarni 230 ta ot tortib yurgan(har bir vagoniga o'rtacha 7 yoki 8 tadan to'g'ri kelgan). 1912-yilda Toshkent ko'chalarida ilk elektr tramvay qatnay boshladi. Tramvay izining uzunligi 23 km edi. 1913-yilda tor izli tramvay yo'lining uzunligi 38 km ga yetkazildi, 68 tramvay vagoni

¹⁰⁸ Karimov. I. O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. T.: O'zbekiston. 2011. –B 419.

qatnadi, 27 mln yo'lovchi tashildi¹⁰⁹. XX asrning 20-30-yillarida shahar transportida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. 1936-yilda To'qimachilik kombinati – Xadra maydoni uchatkali qatnovi yo'lga qo'yildi.¹¹⁰1940-yilga qadar Toshkentda keng izli tramvay qurildi . 1950-yilda Toshkentda 10.3 kmli tramvay yo'li ishga tushdi. 1910-yil 26-aprelda Toshkent ko'chalarida avval Kauffman prospektiga tegishli bo'lgan 8 o'rinli avtomobil – omnibus qatnay boshladi. Bu mashinaning kira haqi bir bekat uchun 15 tiyin edi. Bu o'sha davrdagi izvoslar xizmatidan arzon edi. Yangi avtomobildan foydalanish shahar aholisiga bir qancha qulayliklar tug'dirdi. Bu turdagi avtomobillaarning qatnovi Toshkentning yana 4 ta ko'chasida va yana shahar aholisiga qulayliklar yaratish maqsadida shahar tashqarisiga 2 ta yo'nalishda, ya'ni Nikolskiy va Qo'yliq qishloqlarigacha qatnay boshladi. Shahar aholisiga yanada qulaylik yaratish uchun 8 o'rinli omnibus seshanba va shanba kunlari Toshkentdan xohlovchi yo'lovchilarni Chimiyonga eltib qo'yan¹¹¹. O'zbekiston hududida dastlabki avtobus qatnovi 1906-yilda Farg'ona – Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan. 1910-yilda Toshkentda chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va 1 ta 40 o'rinli avtobus qatnay boshladi. Bir qancha viloyatlar markazida avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yildi. 1941-yilga kelib, Namanganga 215-16 rusumli 25 o'rinli birinchi avtobus kirib keldi.¹¹² Xalq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan avtobus transporti zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, fuqarolarning vaqtini tejash, ularning madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish ko'p jihatdan avtobus transportining aniq va muntazam ishlashiga bog'liq. Avtobus transporti barcha aholi punktlari, shaharlar, rayonlar, viloyatlar uchun bag'oyat katta xizmat ko'rsatadi. 1970-yillarda Respublikamizning ko'pgina rayonlarida avtobus yagona qatnov vositalaridan biri hisoblangan. 1965-1973-yillarda respublikamizda shahar va qishloq aholisiga yo'lovchi avtotransporti xizmati ko'rsatish ancha yaxshilanadi. Respublikaning 1973-yilda 1965-yildagiga qaraganda avtobuslar ikki baravarga ko'paydi. 1947-yilda Toshkentda trolleybus qatnovi boshlandi. Trolleybus yo'lining uzunligi 18 km, trolleybuslarning soni 10 ta edi. Aholiga transport xizmati ko'rsatishda yengil taksilar katta ro'l o'ynaydi. 1946-1947-yillarda ko'pgina shaharlarda taksilar xizmati yo'lga qo'yildi.¹¹³ Transportning bu turi 1970-yillarda respublikada rivojlanib borgan. Qulaylik, katta tezlik, yo'lovchini istagan joyigacha eltib qo'yish imkoniyati va boshqalar yengil taksini eng ommaviy transport turidan biriga aylantiradi. Hozirgi turmushni yengil taksilarsiz tasavvur qilish qiyin. XX asrning 70- yillarda butun sobiq sovet davlatlarining 1500 dan ortiq shahar va aholi punktlari, shu jumladan, O'zbekistonning 51 shahri aholisi taksi xizmatidan foydalangan. 1965-yildan to 1974-yilgacha taksi O'zbekiston shaharlarida parklari 2,4, taksomotor transportining umumiy kira haqqi 3, yo'lovchilar tashish xajmi 2

¹⁰⁹ Umarov I. Sovershestvovanie transportno-ekonomicheskoe svyazi nizovev Amudarii. // Obmestvennie nauki v Uzbekistane. 1967. – №. 8. – S. 41.

¹¹⁰ Wikipedia.com

¹¹¹ Abrarov Z. S. Razvitie gruzovogo avtomobilnogo transporta v Uzbekistane. // Obmestvennie nauki v Uzbekistane. 1965. – N. 4. – S. 40.

¹¹² Ismoilova N. Namangan tarixidan ayrim lavhalar / Namangan tarixidan lavhalar. – Namangan: 2010. – B. 113.

¹¹³ Yusupov S. O'zbekiston passajir transporti. T.:O'zbekiston, 1975.B.27

huravardan ziyodroq oshdi. Yo'lovchilar tashish xajmi yengil taksilardan foydalanishni yaxshilash hisobiga ham ortgan. Masalan, taksimotordan foydalanish ko'effitsiyenti 1965-yildagi 0,66 dan 1973-yilda 0,76 gacha, ya'ni 10 foizdan ziyodroq ko'paygan.¹¹⁴

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda jamoat transporti Chor Rossiyasi davrida kirib keldi. Bu davrda dastlab jamoat transportlaridan faqat shaharlar aholisining yevropalik qismi foydalangan bo'lsa, keyinchalik sovetlar davrida jamoat transportlarining turlari ko'payib va faoliyati kengaydi. Bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishiga olib keldi. Jamoat transportlari dastlab shaharlar ichida harakat qilgan bo'lsa, so'ngra esa butun mamlakat hududlarini qamrab oldi.

AVESTODA EZGULIK G'OYASI

Xurshid Mir-axmedov - katta o'qituvchi,

Gulnoza Abdurazzoqova - NamDU talaba

«Avesto» yoki «Ovasto» (parfiyoncha: aractak – matn; ko'pincha «Zend – Avesto», ya'ni “tafsir qilingan matn” deb ataladi) – zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. Tarixiy manba va adabiyotlardan ma'lumki, zardushtiylik dinining asosiy qonun-qoidalari, axloqiy g'oyasi, falsafasi, urf-odatlari va an'analari ushbu dinning muqaddas kitobi – «Avesto» da bayon etilgan.

«Avesto» o'ta ko'hna bitik bo'lib, unda qadimiy davrlarda Xorazm zaminida yashagan qadimgi xorazmiylar, marg'iyonlar, sug'diylar va boshqa xalqlarning, o'zaro aloqa va hamkorlikda bo'lgan etnoslarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ular amal qilgan siyosiy, falsafiy, diniy qarash va e'tiqodlar, adolat bilan yovuz kuchlar orasidagi o'zaro shafqatsiz kurashlar, hududning ba'zi geografik tuzilishi va sharoitiga oid ma'lumotlar saqlanib, bizgacha etib kelgan.

«Avesto»da Zardusht asos solgan zardushtiylik dinining qonun-qoidalari, farz va sunnatlari yoritilgan. «Avesto» ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan.¹¹⁵ Zardusht so'zining ma'nosi «nurli kishi» demakdir. Bu ham albatta, asarning bosh ezgulik g'oyasiga monand.

«Avesto»da bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Axuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramaynu Axuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga ojizlik qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. «Avesto»ning axloqiy-falsafiy mohiyati «ezgu fikr», «ezgu so'z» va «ezgu amal» kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardushtiylikning

¹¹⁴ Siddiqnazarov Q. O'zbekiston avtotransporti o'tmishda va istiqloq yillarida. T.: Toshkent Islom universiteti, 2001. B. 269.

¹¹⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2000. – 1-j. – B.65.

ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu uch ibora bilan boshlanadi. Zardushtiylik falsafasiga ko'ra yaxshilik va yomonlik insonlarning botiniy olami, ya'ni ichki dunyosida yashaydi. Inson esa Axuramazda ruhidan yaratilganligi tufayli yaxshilik uchun kurashmog'i zarur. Lekin bu dunyoning asoslari yaratilishida Ahriman aralashganligi sababli inson qalbi ham, butun dunyo kabi yaxshilik va yomonlik, sabr bilan nafs, saxovat bilan hasad kabi ezgu va qabih xususiyatlar kurashi maydonidir. Shu tufayli har bir zardushtiy ta'limotini qabul qilgan shaxs o'zini behdinon – ezgu dindagi deb ataganlar va bir umr zardushtiylik duolari bilan birga zardushtiylik axloqining asosiy uchligi bo'lgan «gumantu» – ezgu o'y, «gutka» – ezgu so'z va «gvarshita» – ezgu amalga rioya qilmoqliklari zarur bo'lgan. Demak, zardushtiylik imoni fikr sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat.

116

«Avesto» buyuk umuminsoniy qadriyat sifatida dunyoga keldi. U cheksiz tafakkur va taraqqiyot g'oyasi, umumbashariy madaniyatning yuksak cho'qqisiga aylandi. «Avesto» jahon tsivilizatsiyasiga daxldor bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarning rivoj topishiga hissa bo'lib qo'shilgan buyuk falsafadir.

«Avesto» falsafasi odam va odamiyatni, shaxs va shaxsiyatni, keng ma'nodagi insonni va insoniyatni komillikka da'vat etuvchi, barkamollikka, yetuklikka chaqiruvchi ulkan va noyob qadriyatdir.¹¹⁷ Bu qadriyatlar asosida ezgulik, faqat ezgulik g'oyasi yotadi.

«Avesto» dagi miflarning barchasida ham yaxshi xulq, yaxshi ish va yaxshi amal kabi barcha ezguliklar targ'ib etiladi. «Avesto» dagi «Ord Yasht ashi alqovi» dagi «*Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amallarga baxshida etaman, barcha qabih o'y, yomon so'z va yomon ishlardan tiyaman*», – degan duolar ham fikrimizning yorqin isbotidir.

So'z Zardusht nazdida yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir. Shuning uchun ovozining shiraliligi va mayinligi, she'rlarni chiroyli o'qiy bilishi inson estetik madaniyatining belgisi hisoblangan. «Yasna»da yozilganidek, Zardusht tug'ilgan zahoti she'riy duolarni to'rt marta to'xtab-to'xtab, har gal ovozini balandroq ko'tarib o'qigan.¹¹⁸ Shu bois «Avesto»ning ko'p o'rinlarida Zardusht bunga, ya'ni nutq odobi qonun-qoidalariga amal qilganligi namuna sifatida keltiriladi:

Ezgu o'yyu ezgu ish

Ezgu amal - qut ila...

Ashavanlar barcha amallarda, jumladan, so'zlashda ham ezgulikka rioya qilishga ahd qiladilar: «*Biz – er ashvanlar ezgu andisha bilan yashaydirmiz;*

Ezgu kalom bilan so'ylaydirmiz;

Ezgu amalga rioya aylagaydirmiz...»¹¹⁹

¹¹⁶ Ashirov A.A. «Avesto» dan meros marosimlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – B. 5.

¹¹⁷ Jo'raev N. «Avesto» zarurati // Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 4.

¹¹⁸ Avesto. Ord ash. Ashi alqovi // O'zbek tili va adabiyoti, 2000. – № 3. – B. – 74-75.

¹¹⁹ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.99. Barcha parchalar shu manbadan olinganligi bois keyingi o'rinlarda kitob sahifasini keltirish bilan kifoyalanamiz.

Zavt va Rospiy tomonidan ham ezgu amallar va ezgu so'z ulug'lanadi:

«Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman!

Niyat, so'z va amallar ichida men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman.

Men barcha qabiq andisha, qabiq so'z va qabiq amaldan yuz buraman».
(«Avesto», 56-b.)

Asarda ezgu duo qilinar ekan, «Samimiy so'zlar olamga bo'lsin!» – deya niyat qilinadi va rostgo'ylik, so'zda sobit turish muhimligi ko'p bora ta'kidlanadi.

Asarning boshqa bir qismida Xo'roz tilidan yana ezgulikka da'vat etibgina qolmasdan, ezgulikka zid bo'lgan qabihliklarga yo'l qo'ymaslikka undaladi:

– Hargiz bu uchlikda sustkashlik qilma: ezgu fikratda, ezgu amalda va ezgu kalomda.

Ushbu qabih uchlikdan zinhor yuz bur: yomon fikratdan, yomon amaldan, yomon kalomdan! («Avesto», 162-b.)

Zardushtning: «Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jami ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman», – degan ezgu mo''jizakor da'vat insonni ming bir hujayrasini, tizginsiz va chegarasiz xayolotini, orzu-maqсадlarini junbushga keltira-digan ruhiy holat, axloqiy da'vat, ma'naviy chaqiriq har qanday bag'ritosh insonning qalbini junbushga keltiradi. Unda mehr-shafqat, yaxshilik hislarini uyg'otadi. Oqibatda ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal – xatti-harakat, munosabatlar, pokiza xayolot va yaxshiliklar bilan yashash umidi odamni chulg'ab oladi. Inson o'zining hayotini, umrini mana shu ezguliklarga baxshida etib, jamiki yovuz fikrat – yovuz xayolot, yovuz orzu – umid, yovuz kalom – yovuz so'z, munosabatlar, yovuz amal – yovuz xatti-harakatlar va fe'l-atvorlardan yuz burib, komillikka intiladi.

Narzulla Jo'rayev ta'kidlaganidek, «Bu qariyb uch ming yil avval ko'hna Xorazmda dunyoga kelgan, bugungacha nafaqat qadimiy Sharq, balki butun Yer shari ahlini ezgulikka da'vat etayotgan mo''jizakor hayqiriq».¹²⁰

Asar boshdan oxir ezgulik g'oyasiga asoslangan. U faqat insonga ezgulikdan saboq beradi, uni keng ma'nodagi ezgulikka da'vat etadi, so'zda va amaliy faoliyatda ezguliklar sari yetaklaydi. Bizningcha, «Avesto» ning ilmiy-nazariy va amaliy, ma'rifiy va ma'naviy ahamiyati hamda qudrati ham ana shunda.

ИЗ ИСТОРИИ ДОСТИЖЕНИЯ БЛАГОРОДНЫХ ЦЕЛЕЙ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА

Н. Исмоилова - преподаватель кафедры «Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане»

В независимом Узбекистане происходят коренные изменения во всех в сферах жизни общества, включая духовную.

¹²⁰ Jo'raev N. «Avesto» zarurati // Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001.

История развития человеческой цивилизации подтверждает то, что ни одно общество не может развиваться без добрых идей и идеологии. Наша страна завоевавшая независимость по инициативе руководителей государства поставила перед собой цель построение свободной и процветающей Родины, достойной и благополучной жизни.

Достижение благородных целей, окончательное освобождение от старых идеологических догм, защита от посягательств чужих идей, воспитание всесторонне развитых личностей – все это требует формирования новой идеологии, соответствующей интересам нашего общества. Без идеи любое государство и общество, не говоря уже о человеке, неизбежно сойдут с пути.

Национальная идея призвана выражать мечты и чаяния народа, служить ему порой, поддерживать его дух в исторических испытаниях, когда общество ищет решение множества возникающих жизненно важных проблем. Она нужна не только для создания материальных богатств и изобилия, но и является стимулом, побуждающим стремиться к достижению высокой нравственности, факелом, освещающим путь прогрессу.

Стремление к новому, опора на лозунг «Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть»- требование идеи национальной независимости.

18 января 2001 года было издано распоряжение о введении предмета «Идея национальной независимости» в образовательную систему нашей страны, в качестве учебной дисциплины.

Изучение предмета имеет важное значение в изучении закономерностей, связанных с осуществлением реформ в нашей стране и в претворении в жизнь «Узбекской модели» демократического развития. Это даёт возможность ясного представления национальных и общечеловеческих принципов демократии, учит рассматривать их в связи с общественной жизнью.

Формирование демократии в нашей стране способствует укреплению чувства патриотизма, формированию демократического сознания и мировоззрения молодежи. Существуют своеобразная необходимость и причины изучения идеи национальной независимости:

Во – первых, во всём мире на сегодняшний день разработаны научные концепции о демократическом обществе. В них всё шире находят своё отражение общепринятые закономерности развития, жизни, образа демократического общества, а также его свойства, связанные с национально-духовными особенностями каждого народа, государства.

На сегодняшний день во многих государствах демократический строй признается в качестве общенародной и национальной ценности. Именно на современном этапе всеми признано то, что демократия – это наиболее приемлемый путь развития общества и это является причиной изучения её как науки.

Во – вторых, определение и изучение своеобразных особенностей создаваемого демократического общества связано с этой закономерностью.

Необходимо учитывать её изучение, как науки, наряду с социально – гуманитарными и общественно- политическими предметами, так как она обладает общим закономерностями, связанными с демократическими измене-

ниями в мире. Каждое независимое государство чувствует особую потребность в знании своего пути развития и строительства общества, в определении его закономерностей. С этой точки зрения, до настоящего времени в системе социально – политических предметов не существовало науки, изучавшей задачи, связанные с формированием основ гражданского общества и правового демократического государства.

Демократия - это способ функционирования политической системы общества, основанной на признании народа в качестве главного источника власти, и его праве участвовать в решении общественных и государственных дел и наделении граждан широким кругом прав и свобод.

И.А.Каримов говорил: «Государство, которое мы строим, должно гармонично сочетать общие черты демократии с коренными, нравственными устоями и потребностями народа, чтобы основные принципы демократии могли работать на нашей почве». Необходимо утверждение принципов подлинной демократии соответствующей опыту народной жизни, национально-культурным традициям интересам всех социальных групп и слоев населения.

Правовой основой демократических реформ является Конституция Республики Узбекистан, которая была принята Верховным Советом 8 декабря 1992 года. В ней закреплены основные демократические гарантии независимости. Конституция отражает волю, дух, общественное сознание и культуру народов страны. Прежде всего, следует отметить ее приверженность общечеловеческим ценностям.

Демократия всегда выражает стремление человечества к свободе и самоуправлению. Демократия- это такой процесс, который нельзя инициировать извне. Его поддержка со стороны государства позволит сконцентрировать внимание на укреплении демократических институтов, среди которых - свободные справедливые выборы, политические партии, независимая от властных структур судебная система, объективность и профессионализм в деятельности СМИ и ряд других связанных с соблюдением прав человека.

В своей книге «Узбекистан национальная независимость, экономика, политика, идеология» И. А. Каримов пишет: «Узбекистан-общество демократии и справедливости. Направления внутренней и внешней политики, их логика всецело определяется конечной целью-построением независимого Узбекистана. Главная задача-шаг за шагом созидать в республике общество народной справедливости, основа которого - трудолюбивая и зажиточная, нравственно прочная семья.

Узбекистан-государство великого будущего. Это суверенное, демократическое правовое государство. Это государство, основанное на принципах гуманизма, обеспечивающее права и свободы граждан, независимо от национальности, вероисповедания, социального положения и политических убеждений¹²¹.

Узбекистан на своём пути развития также прошёл из переходного этапа по словам Л. Левитина переходный период в Узбекистане - это, безусловно,

¹²¹ Таджиханов У., Саидов А. «И.А.Каримов о национальной государственности, идеологии, независимости и правовой культуре» -Т.: МВД-Академия, 1999 г.

ситуация «запаздывающей модернизации», идущей сверху, политическим путем, ситуация коренной перестройки экономики на основе изменения форм собственности, точнее установления частной собственности, попыток включиться в новую технологическую волну. Главная задача здесь постоянно находить некоторый, почти недостижимый оптимум необходимых темпов экономических и политических реформ, их соотношения и, главное по приемлемой социальной цене¹²².

После обретения независимости Узбекистан поставил перед собой задачу построения демократического государства основанного на принципах рыночной экономики. Наш президент И.А.Каримов говорит: «Мы хотим построить не просто демократическое общество, а справедливое демократическое общество... идея справедливости должны охватить все сферы нашей социальной жизни». Справедливость главное направление законодательной деятельности. Для построения демократического общества принимаемые законы должны быть объективно справедливыми и отражать интересы народа. Только при этом условии соблюдения законов демократия найдет свое место в обществе и укрепится.

Одним из важных признаков построения демократического общества является то, что все члены общества равны перед законом. Основная цель конституции и законов «обеспечение прав и свобод человека»¹²³.

Статья 15 Конституции РУ. Признается верховенство конституции и законов РУ.

Государство, его органы, должностные лица, общественные объединения, граждане действуют в соответствии с конституцией и законами.

Согласно статье 16 ни одно из положений настоящей конституции не может толковаться в ущерб правам и интересам РУ. Ни один закон или нормативно - правовой акт не может противоречить нормам и принципам конституции. В Узбекистане разработан и применяется на практике механизм, который обеспечивает соответствие нормативно - правовых актов с конституции. Контролирование соответствия нормативно - правовых актов Конституции осуществляется исходя из того, на каком этапе разработан этот акт. Его можно разделить на два этапа:

1. предварительный контроль, он производится посредством проведения правовой экспертизы после того, как нормативно - правовой акт подготовят в виде проекта. Правовая экспертиза проводится юридической службой той организации, которая подготавливает проект нормативно - правового акта или может быть проведена министерством юстиции. Последующий контроль осуществляется после принятия нормативно - правового акта.

« Где царит закон – там свобода» говорил великий государственный деятель Амир Темура. Именно в этом смысле надо понимать категории прав и свобод личности, когда права и свободы одинаковы и равнозначны для всех.

¹²² Левитин Л., Карлайл Д., «Ислам Каримов – Президент нового Узбекистана». -Т.: Узбекистан, 1966г.

¹²³ Конституция Республики Узбекистан. -Т.: Узбекистан, 2003г.

2. Основным приоритетом в стратегии реформирования общества И.А.Каримов выделил либерализацию в области государственного строительства и формирования гражданского общества: «От сильного государства к сильному гражданскому обществу». Именно такой подход обеспечит возможность широкого участия самих граждан в управлении и организации своей жизни и жизни всего общества, что полностью соответствует принципам гражданского общества.

«Гражданское общество, отмечает наш президент, социальное пространство, где верховенствует закон, который не только не противоречит, но и способствует саморазвитию человека, реализации интересов личности, максимальному функционированию ее прав и свобод... свобода и законопослушание действуют одновременно... законы государства не должны ущемлять права человека и гражданина, но и законы должны соблюдаться всеми беспрекословно». Именно такой подход к развитию гражданского общества даст максимальную свободу человеку- свободу жить наиболее полно в рамках существующих законов, свободу организовывать свою жизнь самому, управлять ею.

Из выше сказанного можно сделать вывод, что верховенство закона¹²⁴ найдет свое отражение в следующих трех случаях:

Во-первых: принимаемые законы и нормативно правовые документы должны быть социально обоснованными, и исходить из принципов справедливости.

Во-вторых: требования всех законов и нормативно-правовых актов должны строго выполняться со стороны всех государственных органов, должностных лиц, неправительственных организаций и граждан.

В-третьих: все нормативно-правовые документы должны соответствовать Конституции и законам РУ.

Верховенство закона «Как важный принцип демократического общества» является основой строительства гражданского общества.

Республика Узбекистан с самого своего возникновения провозгласила, что народ является «единственным источником власти», что признается безусловное верховенство Конституции и законов, что ставит перед собой задачу построения демократического правового государства и гражданского общества на основе учета специфических условий и социально-ориентировочной экономике. Правильное понимание законов способствует поддержке безусловному их соблюдению гражданами. При этом в обществе формируются правильные взгляды и представления о государстве, о порядке, появляется консолидированное правовое мышление, что способствует единству и сплоченности народа.

Выделяя значение гражданского общества не следует отделять его от функционирования государства. Чем сильнее государство, тем крепче гражданское общество. Но надо понимать, подчеркивает И.А.Каримов, что сильное государство- это не означает чрезмерную концентрацию властных

¹²⁴ Смотрите: Каримов И.А. «Справедливость в приоритете закона» Т.10.-Т.: Узбекистан, 2002г.

функций и усиление госаппарата как органа подавления и принуждения: « сила государства в его способности обеспечить условия для свободного функционирования демократических институтов, реализации всего политического, социального потенциала граждан и общества.

Общество демократического правового государства имеет национальные и общечеловеческие принципы и гуманные ценности. Которые служат к развитию гармоничной личности, а также наше государство имеет своё определённое место в мировой политике.

Важные стороны мирового государства выражаются в следующих направлениях:

- преданность идеям государственного суверенитета и прав человека;
- преданность социальной справедливости и демократии;
- признание главенства общепризнанных правил по правам человека;
- обеспечение достойной жизни граждан республики;
- строительство гуманного, демократического, правового государства;
- опора на исторический опыт узбекской государственности;
- равенство перед законом и отделения от государства религиозных организаций и объединений. Невмешательство государства в деятельность религиозных объединений;
- обеспечение спокойствия и межнационального мира граждан;
- понимание огромной ответственности перед настоящим и будущим поколениями;
- правовые основы строительства государства и общества в Узбекистане означает его обозначение в Конституции и ведении дел с опорой на неё.

Национальные принципы при строительстве демократического общества основанные на рыночной экономике были обоснованы президентом И.А. Каримовым в его произведениях: «Путь к независимости: проблемы и планы», «Узбекистан: свой путь обновления и прогресса»¹²⁵. Этот своеобразный путь развития Узбекистана со стороны мировой общественности получил название «узбекской модели развития». Именно в этих принципах гармонизировались с одной стороны национальные, а с другой стороны общечеловеческие ценности.

Первый принцип приоритет экономики над политикой. Экономические реформы не должны отставать от политических реформ¹²⁶.

Второй принцип- главный реформатор. Разработку политики обновления, изменений и претворение их в жизнь государство берет на себя.

Третий принцип - во всех сферах жизни общества обеспечивается верховенство закона. Принятая 8 декабря 1992 года Конституция Республики

¹²⁵ Каримов И.А. «Узбекистан: свой путь обновления и прогресса». Т.1- Т.: Узбекистан, 1996г. стр. 36-81.

¹²⁶ Смотрите: Каримов И.А. «Узбекистан - собственная модель перехода на рыночные отношения». Т.1. Т.: Узбекистан. 1996г. стр. 263-273, 287-306, 324-343; Салимов А.У. «Узбекистан 5 лет по пути демократических и рыночных реформ». Т.: 1996 г.

Узбекистан является образцом отражения в себе общечеловеческих и национальных принципов.

Четвертый принцип- это проведение сильной социальной политики с учетом демографической обстановки, 60% которого составляет молодежь, это социальная защита малообеспеченных семей, детей, пенсионеров.

Пятый принцип – это поэтапный, эволюционный переход к рынку с учетом традиций и обычаев нашего народа, объективных закономерностей рыночной экономики.

Таким образом, эти принципы или «Узбекская модель развития» составляют основу концепции перехода Узбекистана к правовому государству и демократическому обществу, последовательной его интеграции с мировым сообществом.

В докладе на 1-ой сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан 23 февраля 1995года. Основные принципы общественно политического и экономического развития Узбекистана глава нашего государства останавливается на трех основных принципах построения светского, демократического общества на Востоке и в частности в Узбекистане.

Характерной особенностью процесса демократизации в условиях Востока является его последовательность и постепенность. Революция, или, по определению западных ученых, примитивно-варварская форма социального прогресса, в этой области у нас неприемлема.

Второй принцип характеризуется нашим Президентом как «второе важное условие» демократизации. Вторым условием демократизации является оптимальное сочетание и соответствие уровня сознания людей уровню и интенсивности демократических преобразований. По нашему мнению это общечеловеческий принцип. Третье - «демократические институты должны отражать менталитет, особенности культуры нашего народа. Известно, что западный образец демократии основан на философии индивидуализма, чрезмерной политизации масс». Восток же предполагает демократию, основанную на идее коллективизма, патриотизма, приоритете общественного мнения. Демократический процесс развивается под воздействием таких черт нашего народа, как законопослушание, приоритет моральных, духовных начал в политических отношениях. Как в связи с этим не вспомнить нашего великого мыслителя Ахмада Яссави, который говорил: «Существование человечества немислимо без духовных порывов, а человек, не имеющий целей, незнающий забот, уподобляется животным».

Ни одно общество не может видеть свою перспективу без развития и укрепления духовного потенциала, духовных и нравственных ценностей в сознании людей.

Культурные ценности народа, его духовное наследие на протяжении тысячелетий служили мощным источником духовности для народов Востока.

С первых дней нашей независимости важнейшей задачей, поднятой на уровень государственной политики, явилось возрождение того огромного, бесценного духовного и культурного наследия, которое в течении многих веков создавалось нашими предками.

Каждая нация имеет свои ценности. Следовательно, от того, в какой степени используются эти возможности каждой страной, каждым народом играют важную роль в создании демократического общества. На сегодняшний день одна из основных особенностей ценностей заключается в этом. Потому что ни одно общество не развивая и не закрепляя в сознании людей духовные и нравственные ценности не может представить себе свое будущее. На Востоке тысячелетние национальные традиции народа служили ему могучим духовным источником. Как отмечает И. А. Каримов « Возрождение духовных ценностей мы рассматриваем как органический, естественный процесс роста национального самосознания, возвращения к духовным истокам народа, его корням».

Следовательно, при строительстве демократического общества в Узбекистане национальные общечеловеческие принципы нельзя отделять от ценностей каждого народа.

Для того, что бы какая- то вещь или явление превратились в ценность необходимо определённое время, определённый период. Демократия в формировании в качестве национальной и общечеловеческой ценности также прошла такую ступень.

Культурные ценности, духовное наследие народа в течении тысячелетий были мощным духовным источником для народов Востока . Несмотря на длившееся долгое время идеологическое давление народ Узбекистана смог сохранить свои исторические и культурные ценности передаваемые из поколения в поколение.

К своеобразным особенностям национальных ценностей народов Центральной Азии можно отнести следующее: уважение, почтительное отношение к Родине, к родному очагу; верность памяти предков; почитание старших и уважение молодых; любезность, учтивость в обращении к человеку; сдержанность, терпение, деликатность, тактичность.

Мы на сегодняшний день свои ценности должны бережно развивать на основе:

- последовательности, благоразумности
- проявления терпения, взвешенности, размеренности
- проявления любезности, обходительности в обращении, уважительного отношения к старшим
- сдержанности и непритязательности в общественно-политической жизни.

За годы независимости Узбекистан обрёл свой путь развития в сфере политики, экономики духовности. В данное время очень большое внимание уделяется на развитие всесторонне развитых молодёжь, для того чтобы наше государство и общество приобретало всё наилучшее, в этом духовность играет очень большую роль. Так как, духовность - один из важнейших факторов развития общества. Она мощная сила при повышении общественной активности личности, обеспечении согласия и единства в обществе, гармонизации общенациональных интересов, духовные основы идеи национальной независимости.

XALQ MILLIY O'YILARI MILLIY TARBIIYA ASOSIDIR

*Sobirjanova Naima - Pedagogika fakulteti, BT va STI
yo'nalishi, 401-guruh talabasi,*

Ilmiy rahbar: B.Tillayev

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz I.A.Karimov 2016-yilni "Sog'lom ona –sog'lom bola" yili deb e'lon qildilar, shu bilan birgalikda sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiya va sportning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Yosh avlodni ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashda barcha sohalar kabi biz pedagoglar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yad. Yosh avlodni ma'naviy ruhiyatiga ta'sir etishda va ma'naviyatini mustahkamlashda ta'lim va tarbiyaning roli benihoyat kattadir. Zero, talimni tarbiyadan, tarbiyani esa talimdan ajratib bo'lmaydi. Tarbiya-ijtimoiy aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa bo'lib, inson kamolotiga tasir etuvchi omillar ichida tarbiya muhim va yetakchidir.

Milliy qadriyatlar va xalqimizning ma'naviy – ma'rifiy madaniyatini qayta tiklash va ularni zamonaviy talablar bilan boyitish jarayonlarida xalq milliy o'yinlariga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, "Navro'z", "Qurbon hayit", "Ramazon xayit", to'y marosimlarini o'tkazishga keng o'rin berilishi va ularga kurash, darboz, ko'pkari, poyga harakatli o'yinlarni ularda qo'llash yurtimiz istiqloli va aholining turmush faravonligidan dalolatdir. Shu bilan birga milliy o'yinlarining mazmuni va ijtimoiy – pedagogik mohiyatlarini ilmiy asosda ommalashtirish maqsadlariga qiziqishlar tabora kuchaymoqda.

Pedagogika fanlari doktori, professor T.S. Usmonxo'jayev rahbarligida nashrdan chiqarilgan "Ming bir o'yin", "Harakatli o'yinlar" va qator ilmiy - nazariy ommabop risolalar xalq milliy o'yinlarining mazmuni va tarbiyaviy jihatlari o'z ichiga oladi. U.Qoraboyevning "O'zbek xalq o'yinlari" kitobi qadimgi ajdodlardan meros bo'lib kelgan turli - tuman o'yinlarni, ularni o'rganish va qo'llash yo'llariga bag'ishlanganligi bilan olqishga sazovordir. Aynan shu kitobda xalq milliy o'yinlarining sohaviy turlari va ularning kelib chiqish jarayonlari haqida juda boy materiallar bayon etilgan. Undagi ba'zi bir muhim tomonlari quyidagicha keltirish mumkin, ya'ni:

- ildizi uzoq tarix bilan bog'liq ovchilikka doir o'yinlar. Buning negizida chorvachilik yuzaga kelganligini takidlash lozim bo'ladi;

- chorvachilik o'yinlari, ot, xo'kiz, eshak, tuya, bug'u va boshqa hayvonlarning mehnatlaridan foydalanish jarayonida ularning harakatini taqlid qiladigan o'yinlarning yuzaga kelishi;

- dehqonchilik o'yinlari, odamlarning bahordagi mehnat mavsumiga kirishi va kuzda hosil yig'ish kuniga bag'ishlangan marosim o'yinlari ijtimoiy mehnat sharoitidan kelib chiqqan;

- shuningdek, xalq o'yinlari orasida boshqotirma (krossvord), so'z, qo'shiq, raqs o'yinlari ham mazmun va mohiyatidan faol harakat o'yinlari tarkibidan joy olganligini e'tirof etish kerakdir.

I. Abdurahmonovning " O'zbek xalq o'yinlari " kitobiga taqriz sifatida yondashib tabiatdagi iqlimiy o'zgarishlar, yil fasllariga mos tabiiy mavsumiy,

o'yinlarning vujudga keltirishiga zamin yaratganligini ta'kidlaydi va ularning quyidagi yo'nalishlarda ifodalab bergan, ya'ni;

1. Xududiy va turli joylarga mos o'yinlar ham alohida turkumini tashkil etadi. Muayyan joyga mos o'yinlar boshqa joyda noma'lum bo'lgan.

2. Turli yoshlarga mos o'yinlar har bir yoshga xos o'yinlar bor. Yoshlarga oid fe'l - atvor fazilatlar o'yin shakli va mazmunini belgilab bergan. Bola ulg'aygan sari uning o'yini ham jiddiylashib boraveradi.

3. Turli jinsdagilar o'yinlari:

Hammabop o'yinlar bilan bir qatorda o'g'il bolalar va qizlar o'yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o'yinlari ajralib chiqqan. Masalan, yosh qizlarga qo'ng'iroq o'yinlar moyillik sezilsa, o'g'il bolalar esa ish va urish qurollariga o'xshash o'yinchoqlar talab qilishgan.

4. Ma'lumot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar "Ov o'yini", "Kiyik ovi", "Podachi", "Hirmon-hirmon", "Kovushim", "Sartarosh", "Temirchi", xatto harbiylarning ham o'z ma'lumotlariga mos keladigan "Urush - urush", "Asr olish" kabi o'yinlarini ijod etilgan.

5. Voqeaband o'yinlar tarixiy voqealarni hayotning ta'siri, qiziqarli daqiqalarini badiiy-ijodiy ifodalaydi. Masalan, "Podsho-vazir", "Eskicho'pon" va hakoza.

6. Harakatli o'yinlar ephillik, chaqqonlik ko'pchilik musobaqachi sifatida bir necha tomonlar o'rtasida o'ynalgan.

7. Turli vositali o'yinlar.

Bu o'yinlarni ikkiga bo'lish mumkin:

Moddiy vositalar yordamida amalga oshiriladigan o'yinlar, ikkinchisi esa, ma'naviy o'yinlar, ya'ni badiiy ifodali vositalar yordamida bajariladigan o'yinlar.

8. Hayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar: bu haqidagi o'yinlar keng qadimgi o'yinlar hisoblanadi. Qadimgi ajdodlarimiz avvaliga tabiatning o'zida xayvonlar jangini tomosha qilishgan. Keyinchalik hayvonlarni ushlab, ularni o'rgatib maxsus uyushtirilgan. Natijada "Bedana urishtirish", "Xo'roz urishtirish", "Qo'chqor urishtirish", "Kuchuk urishtirish", "Kaklik urishtirish", "Itlar poygasi" kabi mahalliy o'yinlar paydo bo'lgan.

Ta'kidlash lozimki, milliy xalq o'yinlari asosida yurtimizda juda ko'p ommaviy va nufuzli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu o'rinda xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqalari (1991 - 1994, Forish), olimpiadalari (1994 - 1996, Forish), "Alpomish o'yinlari" Respublika festivallari (1998 - Termiz, 2000 - Farg'ona), "Ayollar" yiliga bag'ishlab o'tkazilgan To'maris Respublika festivallari (1999 - Jizzax, 2001- Shaxrisabz, 2003- Namangan) va shu mavzular asosida o'tkazilgan Respublika ilmiy nazariy va amaliy anjumanlari mohiyat jihatidan e'tiborga sazovordir.

Xalq milliy o'yinlarini o'rganish va ularni yirik tadbir hamda anjuman sifatida o'tkazishda Respublika xukumatining qator qarorlari, ayniqsa "Alpomish" dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlash to'g'risidagi qarori (1998 - fevral) muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda Alpomish va Barchinoy ramziy timsolida ma'naviy va jismoniy kamolot tarbiyasini izchil

o'rganish, ularni hayotda qo'llash hamda ommalashtirish masalalari dolzarb vazifalardan biri qilib qo'yildi.

Kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama komil insonlar qilib turbiyalash asosan o'qituvchilarga bog'liqdir.

INTELUKTUAL AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA OILANING ROLI

*Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi,
Muxammadsharif Sharipov - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

“Azal-azaldan xalqimiz uchun muqaddas bo'lishi oilani hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo'g'ini deb qabul qilishimiz zamirida, hech shubhasiz, juda katta ma'no-mohiyat mujassam. Chunki oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqaror”. Darhaqiqat, yurtboshimizning oilani jamiyatdagi o'rniga alohida e'tibor qaratishlari va uni ma'naviy-moddiy, jismoniy jihatdan shakllantirishga doir olib borayotgan ishlari yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillaridanoq davlat siyosati darajasiga ko'tarib kelinayotgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Jamiyatning barqaror va farovon bo'lishi albatta undagi oilalarning barqarorligiga bog'liq. Har bir insonda dastlabki ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy bilim, tasavvurlar ilk bor oilada shakllanadi.

Bugungi globallashuv jarayoni va “Ommaviy madaniyat” xuruji ortib borayotgan davrda yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun misli ko'rilmagan darajada kurash bormoqda. Bu xuruj albatta dunyoda oilalarga ham putur yetkazayotganini ham nazardan qochirmaslik kerak. Statistik ma'lumotlarda 1997-2000 yillar davomida dunyo bo'yicha eng ko'p ajrim AQSH da qayd etilgani ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkich albatta boshqa G'arb davlatlarida ham kuzatilgan. Sotsiolog olimlar g'arb dunyosida qurilayotgan har ikkinchi oilaning buzilishini bashorat qilmoqdalar.

Har bir inson uchun oila muqaddas dargoh, vatan ichidagi vatan hisoblanadi. Oila qurish esa unutilmas voqea va ulkan ma'suliyatdir. Bu nafaqat milliy balki umuminsoniy qadriyat, an'ana bo'lib, dunyodagi barcha xalqlarning o'z udumi, urf-odatlar mavjud. Azaldan ota-bobolarimiz bo'lajak kelin-kuyovning ajdodlarini surishtirishlarida, ham jismonan, ham ruhan ularning oila qurishga tayyorgarliklariga jiddiy e'tibor berganliklarini ko'ramiz. Bu borada ko'proq qizlarimizning tayyorgarliklari jiddiyroq sinovdan o'tkazilganligi bizga ma'lum. Chunki oilada yangi dunyoga kelishi kutilayotgan chaqaloqning sog'-salomat tug'ilishi, aqliy jihatdan barkamol inson bo'lib yetishishida onaning ruhiyati, ham ma'naviy, ham jismoniy faoliyati asosiy o'rin tutadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan yillaridanoq mamlakatimizda onalar va bolalar salomatligiga, ayollarning oila va jamiyatdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilayotgani ham buni tasdiqlaydi. Bo'lajak onalarni ham jismoniy, ham ruhiy, ma'naviy va kasbiy tayyorgarliklarini oshirish maqsadida biz quyida uslubiy taklifni o'rtaga tashlamoqchimiz. Bu albatta mavjud bo'lgan mamlakatimizdagi oilani, onalar

va bolalar salomatligini mustahkamlashdagi olib borilayotgan amaliy-uslubiy ishlarning uzviy davomi, yig'indisi desak bo'ladi. Biz o'rtaga tashlamoqchi bo'lgan taklifda joylarda "yosh ota-onalar markazi" ni tashkil etishdan iborat bo'ladi. Bu markaz bir necha bo'limlardan iborat bo'lishi mumkin:

➤ Bo'lajak onalarni ro'yxatga olish, ayollar maslahatxonasi, muolaja xizmati, tibbiy-diagnostika;

➤ Sport-sog'lomlashtirish;

➤ Bo'lajak onalarni qiziqishlari bo'yicha turli kasb-hunar, to'garaklarga, o'quv kurslariga jalb etish (oila psixologiyasi, uy hamshirasi, musiqa va raqs, tasviriy san'at, gazlamalardan gul yasash, to'qish, turli o'yinchoqlar yasash, chevarchilik, pazandachilik, qandolatchilik va hokazo);

➤ Til va turli xalqlar va madaniyatini madaniyatini o'rganish markazi (ingliz, rus, nemis, frantsuz, koreys, xitoy, yapon va hokazo);

➤ Axborot resurs markazi;

➤ Madaniy dam olish (musiqa tinglash, kinozal, ekologiya (jonli tabiat) burchagi, fitobar.

Bu markazda yosh oila vakillari ya'ni bo'lajak ota-onalar vrach nazoratidan o'tishlari, ro'yxatdan o'tishlari, diagnostika xizmatlari, psixolog maslahatlaridan foydalanishlari (bu albatta poliklinikalar, skrining markazlarida mavjud) bilan bir qatorda biz taklif etayotgan xizmatlardan ham foydalanishlari mumkin. Bu esa bo'lajak ona va tug'iladigan farzandi uchun ham kerakli ruhiy-ma'naviy ozuqani, jismoniy va tibbiy holatlarini tiklashlari, hamda kelajakdagi oilani moddiy jihatdan oyoqqa turishida o'z hissasini qo'shish uchun kasbiy bilim va malakalarni olishlari mumkin. Zero, bo'lajak ota-ona uchun ham, tug'ilajak farzandlarimiz uchun ham san'atning, adabiyotning, jismoniy tarbiya va tabiatning o'rni beqiyosdir¹²⁷.

"Yosh ota va ona ulug' hakim Ali Abu ibn Sino huzuriga hozirgina tug'ilgan farzandlarini olib kelishibdi va undan: - Farzandimizning tarbiyasi bilan shug'ullanishni qachondan boshlashimiz kerak", deb so'rashibdi - Siz to'qqiz oyga kechikibsiz, - deb javob qilgan ekan o'shanda ulug' hakim. Darhaqiqat, bizning zaminimizdan qadimdan yuzlab buyuk allomalar yetishib chiqqanligi, o'sha davrlardanoq ajdodlarimiz farzandlar ta'lim-tarbiyasiga, oiladagi muhitni sog'lomlashtirishga yuksak e'tibor bilan qaraganliklari mahsulidir.

AVESTODA JAMIYAT HAQIDAGI G'OYALAR

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi,

Gulnoza Abdurazzoqova - NamDU talabasi

"Avesto" faqat odamnigina emas, balki bir hovuch tuprok, bir qultum suv, bir nafas havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" nasroniyni haqiqiy nasroniy, musulmonni haqiqiy musulmon etib tarbiyalaydigan noyob durdona. U ko'rning ko'zini, karning qulog'ini ochadi, zanglagan ko'ngillarni iymon suvi ila yuvadi, umidsiz bandalarga abadiyat shamchirog'ini tutqazadi. U odamlarga hayot va oxirat ma'nosini tushuntiradi.

¹²⁷ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q //Muloqot.-1998.-№5.-B. 33.

“Avesto” ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal” degan tamoyilni oladigan boʻlsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini koʻrish mumkin. Ana shunday fikrlar, yaʼni ezgu niyat, soʻz va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor gʻoyasi sifatida talqin etish bizning bugungi maʼnaviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bogʻliq, nechogʻliq mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa, eʼtiborlidir.¹²⁸

Darhaqiqat, “Avesto” bizga nafaqat ezgulikdan saboq beradi, balki “Avesto”ni hech ikkilanmasdan Fukarolik jamiyatining asosi, huquqshunosligimiz sarchashmasi deya ayta olamiz.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, “Avesto”da ilgari surilgan adolatli jamiyat qurish haqidagi gʻoyalar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmasdan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yoʻlidan borayotgan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fukarolik jamiyatini rivojlantirish ishlariga dasturilamal boʻlib kelmoqda. Yurtboshimiz Islom Karimov oʻzining qator asarlarida amalga oshiriladigan demokratik islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri bu jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish ekanligini aytib: “Biz shunchaki demokratik davlat emas, adolatli demokratik davlat qurmoqchimiz. “Adolat” soʻzi ming yillar davomida insonga hamroh boʻlib kelgan. Asrlar davomida kishilar adolat uchun kurashgan, mislsiz qurbonlar bergan. Adolat haqida juda chiroyli gapirish mumkin. Adolat haqida juda uzoq gapirish mumkin. Ammo gap chiroyli va uzoq gapirishda emas, balki hayotda adolatni oʻrnata olishda. Ayniqsa, rahbar adolatli, elu yurtga yetakchilik qilishdek ogʻir masʼuliyatni boʻyniga olgan odamning adolati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga ega...”, deya taʼkidlagan.

“Avesto”da ham kishilar hayotining barcha jabhalari, hatto el, yurt osoyishtaligi, mamlakatdagi vaziyatning beqarorligi-yu oʻzi haqida emas, oʻzgalar xususida gʻamxoʻrlik qilish, ularning izzat-nafsi, taqdirini hisobga olish haqida ham hamon oʻz mohiyatini yoʻqotmagan mulohazalar, pandlaru daʼvatlar bisyorligini koʻramiz va bundan qariyb uch ming yil muqaddam yaratilgan “Avesto” da ham adolat haqida ayni shunday fikrlar yuritilganiga guvoh boʻlamiz.

Bashariyat ulkan umidlar, ezgu niyatlar bilan uchinchi ming yillikka qadam qoʻydi. Yangi asr xalqlar oʻrtasida tinchlik, barqarorlik, doʻstlik, hamkorlik, hamjihatlik asri boʻlib qoladi, madaniyatlar bir-biriga yanada yaqinlashadi, degan ulugʻ umid har bir inson qalbini munavvar etib, unga koʻtarinki ruh bagʻishlamoqda. Huquqiy demokratik dunyoviy davlat qurish va bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish ishq bilan astoydil mehnat qilayotgan respublikamiz xalqlari bu asrni milliy gʻoya va istiqloq mafkurasini takomillashtirish bilan qarshi oladilar. Zero, “Milliy istiqloq gʻoyasi bugungi tez surʼatlar bilan oʻzgarayotgan tahlikali dunyoda oʻzligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi oʻsib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmogʻi zarur”, - deydi Prezidentimiz I. A. Karimov.

¹²⁸Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2010. B.32.

Zardushtiylikdagi ezgulikni qaror toptirish g'oyasini insonparvarlikning buyuk tamal toshi, desa bo'ladi. Shu g'oya asosida shakllangan davlat va jamiyatda odam eng oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Axuramazda o'z bandalariga iroda erki berib, ezgulikni yovuzlikdan ajrata bilishni, faqat yovuzlikka qarshi kurash jarayonidagina qachonlardir jamiyatda ezgulik barqaror bo'lishini aytadi.

"Avesto"da jamiyat bir butun ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi va bunda davlat muassasalari bilan birga jamoat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko'rsatishlari kerakligi ta'kidlanadi. Bu esa hozirda bizning demokratik odil jamiyat va huquqiy davlat barpo etishimizda milliy g'oyaning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ijtimoiy hamkorlik g'oyasiga to'g'ri keladi.

Yana "Avesto"da ta'kidlanishicha, jamiyatni boshqarish uchun Ilohiy Nizom va Odil Nizom(Osha) zarurligi aytilib, davlat mahkamalarida va jamoat tashkilotlaridagi barcha yo'nalishlar shu nizomlar doirasida faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Ilohiy nizom talablari "Avesto"ning "Vendidod" va "Xot" daftar(kitob)larida bayon etilgan Ilohiy nizomlarga ko'ra odam faoliyatining barcha yo'nalishlari ezgulik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart.

Bundan tashqari, bizning fuqarolik jamiyati barpo etishimizda milliy g'oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo'nalishlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, dinlararo bag'rikenglikni o'zimizda tasavvur etamiz. Bu degani xilma-xil diniy e'tiqodga mansub insonlarning bizning yurtimizda bir-birini dinini hurmat qilgan holda, hamkor va hamjihat bo'lib, ezgu maqsad yo'lida birlashishini tushunamiz. Ushbu tamoyil Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'z aksini topgan. Jumladan, Zardusht yangi mazdoparastlik dinining tub mohiyati haqida gapirib, nutqlaridan birida quyidagilarni uqtiradi: "Bu din turli qavmlarni hamjihatlikda, do'st-birodarlikda yashashga da'vat etadi, jangarilarning yo'lini to'sadi".¹²⁹ Demak, zardushtiylikning bosh shiori yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal bo'lganidek irqi, qavmi, aymog'i, dinidan qat'iy nazar, hammani basharning yagona a'zosi deb biladi, dinni ro'kach qilib munofiqlik bilan, el orasiga noittifoqlikni yoyadigan har xil riyokor oqimlarni qattiq qoralaydi. Yashtlarda olijanob insoniy fazilatlar g'ayriinsoniy xatti-harakatga, shar'iy amallar g'ayrisha'iy ishlarga zid qo'yib tasvirlangan, bayon etilgan: "Biz istaymizki, bu yurtda farmonbardorlik, bo'ysunmaslik, sulh janjal, to'g'rilik egrilik, g'ayratlilik tanballik, rostso'zlik yolg'onchilik, adolat zulm ustidan hamisha g'alaba qilsin".

Biz bilamizki, jamiyatimizning eng kichik bo'lagi bo'lgan oilaga e'tibor, mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi- ayol zotiga ehtirom milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillaridan biridir. "Avesto"da ham ayol erki, xotin-qizlarning jamoat ishlarida erkaklar bilan teng ishtiroki, onaning xonadondagi mavqei alohida ta'kidlangan. Bu masala yodgorlikning barcha qismlarida o'z ifodasini topgan. Zardushtiylikda qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Zardusht ta'limoticha, har bir ota-ona o'z qizini balog'at yoshiga(15yoshga) yetguncha zamonasining barcha hunarlarini bilishini ta'minlashi, mol boqishu ro'zg'or tutishni mukammal o'rgatishi, e'tiqodda bosiq, pokiza qilib tarbiyalashi zarur. Bu bir tomondan, ota-ona ishini yengillatib, xonadon yumushlarini hamisha

¹²⁹Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. Toshkent: Sharq, 2007. B. 96.

saranjom, pok, isrofgarchiliksiz bo'lishini ta'minlasi, ikkinchi tomondan qiz tushgan xonadonning obodligini ta'minlashga zamin yaratadi, bolalar tarbiyasi, ta'lim bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqliklarini, qaynota va qaynona, kuyov hurmatini qozonishini, yangi oila mustahkamligini ta'minlaydi. Buning uchun qiz bola ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol bo'lmo'g'i zarur. Bunda onaning roli va mavqei ancha yuksakdir.

"Avesto"da juda ko'p hayotiy muammolar xususida bahslar, mulohazayu mushohadalar bilan birga zurriyotning asl bo'lishi tadbirlarini ko'rish haqida ham teran fikrlar mavjud. Yodgorlikning aksariyat bandleri atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy gigiena xususida pand-nasihatlari berilganda aqliy, jismoniy, ruhiy poklik birma-bir sanab o'tiladi, unga rioya qilish me'yori-nizomlari uqtiriladi, shunga da'vat qilinadi. Hatto biz buni Tangriga iltijo va murojaatlarda ham uchratamiz: "Axuramazda yaratgan yaxshilik moyasiga, sog'lom, aql-hushi tetik farzandlarga, jasur, dono, turli tillarni biladigan o'g'il-qizlarga, uzoqni ko'ra biladigan, yurtni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarga, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan poktiyat avlodlarga olqishlar bo'lsin!"

Mana bir necha yildirki, muhtaram Prezidentimiz ayol, ona hakida g'amxo'rlik qilib, kelajagimiz har tomonlama yetuk, barkamol, ham ruhan, ham jisman sog'lom farzandlar qo'lida ekanligini ta'kidlab, bularning isboti va natijasi o'larok, deyarli har bir yilga ana shu yuksak tushunchalar asosida nom beradilar. Jumladan, 2016-yil ham shularning davomi sifatida Sog'lom ona va bola yili deb nomlandi. Qolaversa, yurtboshimiz o'zlarining Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir deb nomlangan asarlarida bo'lajak onalar, ya'ni balog'atga yetayotgan qizlarni oliy ma'lumotga ega bo'lishlari, hech bo'lmaganda hunar egallashlari shart ekanligini uqtiradilar. Demak, jamoa timsoli bo'lgan oila, hayot abadiyligining ramzi hisoblanmish ayol, onaga kuchli e'tibor, g'amxo'rlik, ular timsolida kelajakni ko'rish bundan bir necha ming yil muqaddam yaratilgan muqaddas "Avesto" da ham yuksak darajaga ko'tarilgan.

"Avesto"ning juda ko'p o'rinlarida bevosita ayollar madhini uchratamiz. Jumladan, 3-xotda "biz barcha ayollar va erkaklarning pok raftorlari va ravonlarini madh etamiz deyilsa, Yashtlarda "Biz pok va shijoatli ayolu erkaklarning ruhi ravonlarini madh etamiz", degan fikrlarni o'qiyimiz. Zardusht bo'lsa, "ayol huquqini tahqir etmok yomon amaldir, u nodonlik belgisidir" deydi.

Ajdodlarimiz jamiyatda, oilada ayolning erlar bilan barobar huquqli bo'lishlariga intilishgan. "Avesto" ning 53-Yashtida Axuramazdaning bu xususidagi farzlariyu Zardusht pandlari keltirilgan. Yashtlardagi mulohazalarga qaraganda jamiyat hayotining biron sohasida xotin-qizlar huquqi cheklangan emas.

Quyidagi fikr ayol zotining jamiyatda, oilada insoniyat tarixida tutgan o'rniga berilgan eng adolatli bahoday tuyuladi: "Dastlabki kundayok Axuramazda ayollarga buyurdi: Ey ayol! Seni e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim. Toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini yer yuzidan yo'qotsinlar".

Demak, ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kuni kecha paydo bo'lgan emas, rivojlanayotgan demokratik

mamlakatlar tarixiy taraqqiyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, hech bir jamiyat, hech qaysi bir davlat barkamol avlodni voyaga yetkazmasdan turib buyuk o'zgarishlarni sodir eta olmaydi.

Avestodek madaniy merosning nihoyatda katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati bor. U yoshlarimizda axloq-odob va ezgulikni, do'stlik va ahillikni, yaxshilik va oliyhimmatlikni, qahramonlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlikni shakllantirish va tarbiyalashda o'ziga xos o'ringa ega. Ana shu xislatlariga ko'ra ham u zamonamizga xizmat qilaveradi va hech ikkilanmay Avestoni demokratik odil jamiyat qurishning poydevori deyishimiz mumkin.

Zero, "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"¹³⁰.

TURKISTONGA TEMIR YO'L TRANSPORTINING KIRIB KELISHI (KASPIYORTI TEMIR YO'LI MISOLIDA)

Sh.I.Mamadaliyev - Namangan davlat universiteti

XIX asrning 80-yillari boshlariga kelib, Rossiya imperiyasining harbiy-strategik vaziyati va siyosiy ahvoli zudlik bilan O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi bilan temir yo'llar vositasida bog'lash zaruriyatini taqozo etdi. Turkistonga temir yo'l o'tkazish to'g'risidagi fikr-mulohazalar etilib, bu boradagi amaliy harakatlarga o'tish davri keldi. Bu masala savdo va sanoat tabaqasi vakillari hamda hukumat doirasida yanada qizg'inlik bilan muhokama etila boshlandi.

Turkistonga temir yo'l o'tkazish uchun eng ma'qul yo'nalishni tanlash maqsadida Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan uyushtirilgan ilmiy ekspedit-siyalarning xulosasiga ko'ra, Orenburg orqali Toshkentgacha bo'lgan yo'nalish eng ma'qul ekanligi ham ilmiy jihatdan asoslanib, uni amalga oshirish uchun fursat va barcha shart-sharoitlar etilib kelgan edi. 1874-1876-yillarda Batraki stansiyasidan Orenburggacha 512 verst uzunlikdagi, umumiy qiymati 30 mln. rubl bo'lgan temir yo'l o'tkazilgan va buning natijasida Rossiya bozorlari bilan Turkiston o'lkasi bozorlari ham birmuncha yaqinlashgan edi¹³¹.

Biroq, Rossiya imperiyasining bu davrdagi siyosiy-harbiy vaziyati uzoq vaqtdan buyon muhokama etilib, ma'qullanib kelinayotgan Orenburg-Toshkent yo'nalishida emas, balki butunlay boshqa yo'nalishda temir yo'l qurilishining boshlab yuborilishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalish – boshqa yo'nalishlarga nisbatan kam loyihalarda tilga olingan, general Chernyayev tomonidan samarasiz deb topilib, qattiq tanqid qilingan,¹³² Kaspiy dengizning qirg'oqlaridan Turkistonning ichkarisigacha bo'lgan yo'nalishdagi temir yo'l edi. O'lkadagi ilk temir yo'lning nomi Kaspiyorti temir yo'li deb nomlandi.

¹³⁰ Karimov I.A.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997. B. 140.

¹³¹ Материалы по обследованию железных дорог ... – С. 2.

¹³² Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии ... – С.229.

Imperiya hukumati Kaspiyorti temir yoʻli qurilishiga qaror qilishining asosiy sababi-yuqorida aytib oʻtilganidek, ingliz-rus munosabatlarining keskinlashuvi oqibatida imperiya oldida oʻzining sharqiy chegaralarining mustahkamlab olish zaruriyati tugʻilgan edi. Bundan tashqari, turkmanlarni boʻysundirish, Marv vohasini zabt etish, Kaspiyorti hududida oʻz ahvolini mustahkamlab olish uchun Kaspiyorti temir yoʻli qurilishi gʻoyasi amalga oshirildi. Maʼlumki, rus hukumatining Marv vohasini bosib olish uchun uyushtirgan 1879-yildagi Axaltegin ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsiz yakunlangan edi. Hukumat doirasidagi uzoq muzokaralardan soʻng, 1880-yil 11-12-fevraldagi hukumat majlisida ikkinchi Axaltegin ekspeditsiyasini uyushtirish va bu harbiy harakatlarda gʻalabani taʼminlash maqsadida Kaspiy dengizining Mixaylovsk qoʻltigʻidan Qizil Arvotgacha temir yoʻl qurishga qaror qilindi¹³³.

Yoʻlni qurish ishlari harbiy vazirlik ixtiyoriga topshirildi. Unga general-leytenant M.N. Annenkov boshchilik qildi. Qurilish 1880-yil 26-avgustda boshlanib, 9 kun mobaynida tugatildi. 4-sentyabrda Mixaylovsk qoʻltigʻidan Mulla Qorigacha boʻlgan masofada relslar yotqizib boʻlindi. Ushbu yoʻlni qurish uchun 1-harbiy temir yoʻl bataloni tashkil qilindi hamda Rossiyadan malakali ishchilar chiqarib olindi¹³⁴.

1880-yil 25-noyabrda hukumat Mulla Qoridan Qizil Arvotgacha boʻlgan masofada, 217 verst uzunlikda temir yoʻlni qurishni davom ettirishga qaror qildi. 1881-yilning 1-sentyabrda, 8 oy davom etgan qurilish nihoyasiga etkazildi va Mixaylovsk qoʻltigʻidan Qizil Arvotgacha boʻlgan masofada temir yoʻl qatnovi boshlandi. Qizil Arvot temir yoʻl boshqaruvining markaziga aylantirildi. Temir yoʻlning boshlangʻich va soʻnggi nuqtalari boʻlgan Mixaylovsk va Qizil Arvotda zarur temir yoʻl ustaxonalari, depo va omborlar barpo qilindi. Shu tariqa, Oʻrta Osiyodagi ilk temir yoʻl tarmogʻi ishga tushdi va shundan soʻng qurilish ishlari maʼlum muddatgacha toʻxtatib qoʻyildi.

Aytib oʻtish lozimki, ushbu temir yoʻl gʻoyat qiyin sharoitlarda qurib bitkazildi. Birinchidan, Qoraqum sahrosi qumliklari orqali rels yotqizish rus quruvchilari uchun jahonda ilk tajriba boʻlib, keyinchalik u fransuz injenerlarining Sahroi Kabirda temir yoʻl qurishlari uchun namuna vazifasini oʻtagan edi¹³⁵. Ikkinchidan, qurilish materiallari tashib kelish sahro sharoitida mashaqqat bilan amalga oshirildi. Qoraqum sahrosida rels yotqizish ishlari quruvchilarni ogʻir ahvolga soldi.

Qurilish materiallari Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali Rossiyadan tashib keltirildi. Kaspiyorti temir yoʻlining birinchi uchastkasi qurilishi rus hukumatini nafaqat qumli sahroda temir yoʻl qurilish mumkinligiga ishontirdi, balki bu narsa Rossiyaning Turkistondagi harbiy va siyosiy barqarorligi taʼminlanishiga olib keldi.

Qurilish toʻxtab qolgan muddat oraligʻida hukumat doirasida temir yoʻlni davom ettirish masalasida tortishuvlar boshlanib ketdi. Koʻpchilik buni zarur deb

¹³³ Ахмеджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане ... - С.17.

¹³⁴ Ходжаев С. Развитие транспорта в Узбекистане. - Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1957. - С.13.

¹³⁵ Очерки истории техники в России (1861-1917). - М.: Наука, 1975. - С.7.

hisoblasa, ba'zi davlat arboblari temir yo'l qurilishini davom ettirish ishini foydasiz deb topishdi.

Kaspiyorti temir yo'li qurilishini davom ettirish maqsadida ko'pgina xususiy tadbirkorlar, turli kompaniyalar, shuningdek, aksionerlik jamiyatlari rus hukumatiga murojaat qilishdi. Masalan, 1884-yilning oxirida Gromov, Lavrov, Korf singari toshkentlik savdogarlar xuddi shunday taklif bilan chiqishdi. Biroq, ularning takliflari rad etilgan edi¹³⁶.

Kaspiyorti temir yo'lini davom ettirish tarafdorlari safiga Rossiya harbiy vaziri, Kavkaz harbiy okrugi qo'mondoni, Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvini kiritish mumkin. 1884-yilda, Marv Rossiyaga qo'shilib olinishidan ilgari okrug qo'mondoni hukumatdan Kaspiyorti temir yo'li qurilishini davom ettirishni so'ragan va uni harbiy va tashqi ishlar vazirliklari qo'llab-quvvatlagan edi. Marv, Murg'ob va Tajan vodiysining katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tgach, harbiy vazirlik yo'lni Ashxobodgacha davom ettirish talabini yanada qattiqroq qo'ydi. U bu narsa nafaqat harbiy, balki iqtisodiy manfaatlarni ham nazarda tutishini qayd etdi.

1884-yil 30-iyulda hukumat Kaspiyorti temir yo'lining Ashxobod uchastkasini qurish loyihasini tasdiqladi. Yig'ilishda, shuningdek qurilish muddati belgilab berildi va zarur materiallarni tashib kelish uchun mablag' ajratildi.

1885-yil 17-martda, Ashxobod yo'nalishi qurilishi nihoyasiga etmay turib, ingliz-rus munosabatlarining keskinlashib ketganligi munosabati bilan qurilayotgan yo'l qurilishini davom ettirishga qaror qilindi. 1886-yil 16-aprelda temir yo'lni Amudaryogacha davom ettirish loyihasi hukumat tomonidan tasdiqlandi.

Imperiya hukumati barcha talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda, 1885-yilda Chorjo'y stansiyasidan Samarqandgacha bo'lgan yo'nalishida temir yo'l qurish uchun tadqiqot ishlari o'tkazish haqida ko'rsatma berdi¹³⁷.

Ushbu qurilishlar davom etayotgan bir paytda, Samarqandgacha temir yo'l qurish to'g'risida ham kelishib olingan edi. 1888-yilning 26-fevralida Buxoroga birinchi poezd tashrif buyurdi. 11-mayda Samarqand shahrida ham temir yo'l ochilishining tantanali marosimi o'tkazildi. Mixaylovsk qo'ltig'idan Samarqandgacha bo'lgan 1335 verst uzunlikdagi Kaspiyorti temir yo'l yagona loyiha asosida emas, balki kichik-kichik loyihalarning umumlashuvi oqibatida bunyod qilindi. M.A.Terentevning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandgacha 62 ta stansiya bo'lib, ulardan 32 tasida suv bor edi xolos, qolgan staniyalarga tashib keltirilardi. Shuningdek, 129 ta parovoz, 1965 ta vagon bo'lib, shulardan 136 tasi yo'lovchilar uchun mo'ljallangan edi¹³⁸.

Kaspiyorti temir yo'li qurib bitkazilmasdan ilgari yo'lni Toshkent va Farg'onaga etkazish lozimligi to'g'risidagi fikrlari ilgari surila boshlagan edi, chunki, Turkistonning siyosiy-ma'muriy, savdo va madaniy markazi Toshkentni o'lkaning paxta etishtiruvchi asosiy hududi Farg'ona bilan temir yo'llar vositasida bog'lash imperiyaning iqtisodiy manfaatlari uchun o'ta muhim edi. Imperiyaning siyosiy va harbiy-strategik ehtiyojlari bu viloyatlarda temir yo'l qurilishini talab etardi.

¹³⁶ Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане ... – С.19.

¹³⁷ Хужаев С. Развитие транспорта в Узбекистане... – С.14.

¹³⁸ Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии ... – С. 229.

Toshkent va Farg'onaga o'tkaziladigan temir yo'lni qurishga ko'plab chet el kompaniyalari va tadbirkorlari o'z mablag'larini taklif etishgan bo'lsada, ushbu yo'lni davlat xazinasi hisobidan qurishga qaror qilingan. Bu masalaga ayniqsa Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiy qattiqqo'llik bilan yondashgan edi¹³⁹. 1895-yilning 27 mayida Samarqand-Andijon yo'nalishini Toshkent shoxobchasi bilan qurishga qaror qilindi, 21 sentyabrda esa bu erda qurilish ishlari boshlandi. 1897-yilda Qo'qonga birinchi poezd keldi. 1899-yilda Toshkentgacha temir yo'l qurib bitkazildi. Samarqand-Toshkent yo'nalishining uzunligi 357 kmni, Ursatevdan Andijon stansiyasigacha bo'lgan masofa esa 325 kmni tashkil etdi¹⁴⁰.

MILLIY G'OYA VA MILLIY MA'NAVIY QADRIYATLAR

Xurshid Mirzaxmedov - katta o'qituvchi

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli va qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklar bo'ladi. Bular orasida milliy g'oya va ma'naviy kadriyatlar yukori o'rinni egallaydi. Milliy g'oya xalqimizning yuksak ma'naviyati an'ana va udumlarga tayanadi, adolat, mustaqillik, erklik bilan bog'liq tuyg'ularni aks etdiradi. Milliy g'oyaga Prezidentimiz «Men milliy g'oya deganda avlodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlanib kelayotgan, shu yurtda yashaydigan xar bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy extiyoji va xayot talabiga aylanib kelgan ta'bir joiz bo'lsa, xar qaysi millatning ezgu intilish va maqsadini o'zida ifoda etgan bo'lsak, uylaymanki uning mazmun mohiyatini namoyon qilgan bo'lamiz» deb ta'rif berganlar¹⁴¹.

Milliy g'oya ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy bog'liklik mavjud bo'lib ular quydagilarda o'z ifodasini topadi.

Birinchidan: milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz ya'ni manbaa bo'lib xizmat kiladi.

Ikkinchidan: milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak boskichga kutarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili hisoblanadi.

Uchunchidan: milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazardan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baxo beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'naviyat qadriyatlar va milliy g'oya – jamiyat xayotining juda murakkab va serqirra o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan soxalari hisoblanadi.

Milliy g'oya va milliy qadriyatlar aloxida olingan xar bir shaxs xayotida xam, jamiyatdagi turli gurux va qatlamlar faoliyatida xam, qolaversa insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy qadriyatlar – muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli aziz va ardoqli bo'lgan, manfaat va maqsadlarga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar g'oyalar va metodlar sanaladi¹⁴².

¹³⁹ O'ZR MDA, I-1 jamg'arma, 13-ro'yxat, 5-ish, 83-varaq.

¹⁴⁰ Ходжаев С. Развитие транспорта в Узбекистане ... – С. 15.

¹⁴¹ Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent Ma'naviyat, 2008

¹⁴² Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent Ma'naviyat, 2008

Milliy g'oya va ma'naviyat qadriyatlarida xalqning dunyo qarashi va xayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzida o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruxiy olami va taffakur tarzi, orzu umudlari, vijdoni aks edati. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarni asrab avaylash va yosh avlod ongiga singdirishda xar birimizning o'z o'rnimiz ishtirokimiz bo'lmog'i zarur.

Asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga bebaxo meros bo'lib o'tib kelayotgan turmush tarziga singib ketgan «Navro'z» «Lola sayli» «Xo'rmon tuyi» «Qovun sayli» kabi bayramlarning zaminida tabiatni e'zozlash, mehnatni ulug'lash bo'lgani uchun ham u yangi zamon talablariga to'la javob bera oladi. Qish faslida nishonlanadigan «birinchi qor», «qor xat» sayli o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan edi.

Qadimda birinchi qor yoqqan kun «qor xat» yozishar, dalalarda qor otishar, o'yin-kulgular, sovg'a-salomlar va mexmondo'stlik ziyofatlaridan tashkil topgan qishki xalq bayramlari ommaviy tus olgan edi. Mustakillikga erishganimizdan so'ng Prezidentimiz I.A.Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga milliy madaniyatning bir-biri bilan yakinlashuvi va milliy qadriyatlarning an'analarning va bayramlarimizning tiklanishiga katta e'tibor qaratdilar. O'zbek xalq an'nalari qatoriga o'lkamiz xayota mos, milliy va maxalliy xususiyatlarga ega bo'lgan yangi bayramlar qo'shildi. Bularga: «tabiat bayrami», «qishlok bayramlari», «ko'cha bayramlari», «maxalla bayramlari», «kariyalar bayrami», «palov va obi non bayramlari», «do'stlik karnavali», «sport bayramlari» kabilarni kiritish mumkin. Bu bayramlar zamonaviy bayramlar sifatida xozir ham xalqimiz xayotida katta axamiyat kasb etmokda.

O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MILLIY G'URURINI SHAKLLANTIRISH

Hamidova Muhayyoxon Obidovna - Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

"Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqei va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir"¹⁴³ deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlaridek bugungi kunda "... barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat"¹⁴⁴.

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, tub islohotlar davrida jamiyat hayotiga daxldorlik, millat va mamlakat taqdiriga befarq bo'lmaslik hissi shakllangan yoshlarga bo'lgan ehtiyojni hayotning o'zi taqozo etib, kelajagimiz bo'lgan yoshlarni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi.

Darhaqiqat, ijtimoiy faol, ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy zamini oliy ta'limgacha bo'lgan davrda, ya'ni o'quvchi yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, oliy ta'lim muassasasida kasb tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonda yangicha fikrlash va yangicha dunyoqarash tarkib topadi. O'z navbatida, yangicha dunyoqarash dunyoviy va taraqqiyparvar mazmunga ega bo'ladi. Dunyoviylik tafakkuri ilmiylik printsipiga tayanishi asosida o'z e'tirofini topadi. Shunga muvofiq, insonparvarlikka suyanish asosidagi ijtimoiy faollik "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da¹⁴⁵ belgilab berilgan shaxs g'oyasi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini singdirish masalasiga ham jiddiy munosabatda yondashish lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan har xil janrdagi asarlarni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularga bizning yurtimizda g'ururlanadigan tariximiz borligi, faxrlandigan xalqimiz borligini ularga singdirib boriladi. Bu faxrlanish ijodkorlarimizga ilhom bag'ishlaganligini Vatan, xalq va shonli tariximizdan g'ururlanib qalam tebratgan shoirimiz Erkin Vohidovning zavq-shavqqa to'lib toshgan, mag'rur jaranglab turgan "O'zbekim" qasidasidan keltirilgan ushbu jumla misolida ham tushuntirish mumkin:

¹⁴³ Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish borasida publitsistik mulohazalar). - Toshkent: Sharq, 1999.-B.98.

¹⁴⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. -B. 19.

¹⁴⁵ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq, 1997.-B.31-63.

Qayga bormay, boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk.
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.

Yoki O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Insof" kitobida ta'kidlab etilganidek, "Xalqimizning ajoyib udumlari bor. Chaqaloqning tanglayini ko'tarayotganda "Umring uzun bo'lsin, insofli-tavfiqli bo'l", deb duo qiladi. Biron muammoni hal etayotganda "insof sari baraka" deydi. Birovning noinsofligidan ranjisa, "Insof qiling-da, birodar" deydi. Va nihoyat, judayam jonidan o'tib ketsa, "O'g'ri bo'l, g'ar bo'l, insof bilan bo'lgin-da", deydi.

Xullas, "Insof" degan tushuncha bilan bog'liq xalq maqollari ko'p. "Insof" tushunchasining boshqa tillardagi tarjimasini topish qiyin. Masalan, rus tili dunyodagi eng boy tillardan biri. Qolaversa, mustaqillik davrigacha o'n beshta qardosh respublika shu tildan keng foydalanib keldi. Rus tilida "chestnost", "poryadochnost", "velikodushie", "dolg", "sovest" singari teran ma'no tashuvchi so'zlar ko'p. Biroq ular aynan "insof" degan so'z ma'nosini to'liq anglatmaydi.

Insof degan narsaning o'zi nima? Uning salmog'i nima bilan o'lchanadi? Chegarasi qayerdan boshlanadi yu, qayergacha davom etadi?

Uzoq-yaqin o'tmishga nazar tashlasak, bu tushuncha bilan bog'liq talay rivoyatlaru hikoyatlar yodga tushadi.

Shunday rivoyatlardan birini o'quvchilarga o'qish darslarida o'qib berishimiz mumkin:

Bir do'kondor yumush bilan uyiga borib kelsa, shogirdi xursand bo'lib o'tirganmish. Sababini so'rsa, bir to'p gazlamani to'rt yuz dirhamga sotib, ancha foyda ko'rganini aytibdi. Do'kondor shogirdiga o'sha xaridorni qayerdan bo'lmasin topib kelishni buyuribdi. Shogird bozor aylanib, xaridorni topib kelibdi.

- Shogirdim adashib ikki yuz dirhamlik mato uchun sizdan to'rt yuz dirham olibdi,- debdi do'kondor va ortiqcha pulni qaytarib beribdi. Xaridor hayron bo'пти.

- Men bu yerlik emasman,- debdi. - Bizning yurtida bu mato to'rt yuz dirham turadi, shogirdingiz adashgani yo'q, bergan pulimga roziman.

- Men esa rozi emasman, -debdi do'kondor. - Bizda ikki yuz dirham turadi, menga birovning haqi kerak emas"¹⁴⁶.

Turk olimi Yusuf Tovaslining "Hikmatlar xazinasini" kitobida tag'in shunday bir rivoyat bor. "Abdurahmon degan kishi hazrat Umarning xonadoniga yumush bilan boribdi. Qorong'i tushib qolgan, xalifa sham yorug'ida ishlab o'tirgan ekan. Mehmon bilan so'rashgach, yonib turgan shamni o'chirib, boshqa shamni yoqibdi.

- Mana endi gaplashsak bo'ladi,- debdi mehmonga.

Mehmon hayron bo'пти.

- Boyagi shamni nega o'chirdingiz-u, nega xuddi shunaqa shamni yoqdingiz?

- Yonib turgan sham davlatniki edi. Men uning yorug'ida davlat ishini bajarayotgandim,- debdi xalifa.- Sen bilan qiladigan suhbatimizning davlat yumushiga daxli yo'q. Shuning uchun o'z pulimga sotib olgan shamni yoqdim"¹⁴⁷.

¹⁴⁶ Hoshimov O'. Insof.-Toshkent: "Davr Prets" NMU, 2014.- B.3.

¹⁴⁷ Hoshimov O'. Insof.-Toshkent: "Davr Prets" NMU, 2014.- B.3-4.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan har xil janrdagi asarlarni o'quvchilarga tanishtirish, o'rgatish orqali ularda milliy g'ururni shakllantirish, milliy qadriyatlarimizga hg'urmat hissini singdirib boriladi. Bu esa ularning kelajakda shu kabi ma'naviy qadriyatlarimizdan faxrlanib, g'ururlanib, o'z yurtimiz shonini ko'klarga ko'tarishda munosib ishlari bilan hissalarini qo'shishga undaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH ORQALI YOSHLAR ONGIGA XALQ MANFAATLARI VA O'ZLIGINI ANGLASH TUSHUNCHALARINI SINGIDIRISHNING DOLZARB MASALALARI

*M. Ne'matova, T. Ne'matov - Farg'ona pedagogika kolleji,
Yo.Alimova - Farg'ona shahar 46-sonli MTM*

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasida: "Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-etibor bilan qarashi kelajagimizga bo'lgan ishonch, millati-mizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasi deb bilamiz"- deb takidlagan edi. Darhaqiqat, adolatparvar va yoshlar baxti, baxtli taqdiri uchun kurashib kelgan xalqimiz "tarixning har qanday to'fon va suronlarga qaramasdan, milliy o'zligi va azaliy qadriyatlarini saqlab qolib, bugungi dorilamon zamonlarga bezavol yetib kelishida uning qon-qoni, suyak-suyagida bo'lgan manaviy jasorat tuyg'usi, hech shubhasiz, hal qiluvchi tasir o'tkazib kelmoqda."

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida: "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomondagina amalga oshiriladi"-deyilgan.

Xaqsevar xalqining manfaatlarini anglagan inson o'zligini anglaydi, albatta. Birovning haqini yemaslik, haromni hazar qilish, birovning omonatiga hiyonat qilmaslik, yetim-esirlarning mol-mulkini ko'paytirish kabi xalq hikmatlari huddi Konstitutsiyasining bosh g'oyasiga kiritilgan. Konstitutsiyada inson hayoti, uning shani, qadr-qimmat, haq-huquqlari va manfaatli oliy qadriyat sifatida mustaxkamlab qo'yilgan. Asosiy qonunimizda belgilangan normalarining hayotda amaliy ifoda topishida o'sib kelayotgan yosh avlodning Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati to'g'risida, huquqiy bilimga egaligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning yuksakligi muhim rol o'ynaydi. Shuni hisobga olib, davlatimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish zarurligini dolzarb masala ekanligini takidlab talim-tarbiya sohasida ustuvor yo'nalish etib belgiladi. 2001 yil 4-yanvarda Respublika Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilindi. Umumtalim maktablariga, o'rta maxsus, kasb-hunar kollej va oliy o'quv muassasalarida Konstitutsiyani o'rganish, Konstitutsiyaviy huquqni o'zlashtirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-oliy yuridik kuchga ega huquqiy hujjatdir. Uning qabul qilinishi huquqiy tiklanish va taraqqiyot sari qadam bo'ldi. Mustaqillik Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqilligining ulkan ramzi bo'lib, unda o'z istiqloq va taraqqiyot yo'limiz aks etadi. "Uni kelgusi avlod erkinlik mustaqillik, ozodlik va hurfiylik tantanasi sifatida tarixda ezoz-hurmat bilan tilga oladi. O'zbek xalqi ana shunday ulug'vor Konstitutsiyaga munosib buyuk xalqdir."

Talim-tarbiya sohasida Konstitutsiyani o'rganish-bu nafaqat xalq manfaatlarini va o'zligini anglash tushunchasini shakllantirish jarayoni, balki bugungi dunyo xalqlari tinchligiga rahna solayotgan terrorizm, diniy ekstremizm, davlat shovinizmi, irqchilik, millatchilik, fashizm g'oyalarini tiklash xavfi kabi yot begona g'oyalar, zararli mafkura kabi xavf-hatarlarni oldini olish va jamiyatimizda huquqiy mafkurani shakllantirishdir.

Ho'sh, istiqloq mafkurasini nima? Istiqloq mafkurasining tarkibiy qismi bo'lmish huquqiy mafkura yoshlar o'zligini va xalq manfaatlarini anglashda qanday muhim mazmun-ahamiyatiga ega?

Mafkura-milliy o'zlikni anglatuvchi kuch. Istiqloq mafkurasini quyidagi umumbashariy qadriyatlarni etirof etadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfiyliklik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, marifatparvarlik;
- o'zga xalqning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash.

Aynan bunday umumbashariy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish-xalqimizning oliyjanov manfaatini tashkil etadi. Zero, bular barchasi-tinchlik-osoysishtalikni, umuminsoniy fazilatlarini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan. Demak, o'z navbatida huquqiy mafkura, albatta, talim-tarbiya, undagi Konstitutsiya qoidalarini singdirish jarayonida shakllanadi va yoshlar ongida quyidagi fazilatlarini tarbiyalaydi:

- huquqiy madaniyatni kishilarga qo'shilish;
- qonun va huquqlardan ongli foydalanish;
- yuksak huquqiy madaniyatga ehtiyoj kuchayganda qonunlarga bo'ysunish zarurligini anglash;
- qonuniylik talablarini tashviq va targ'ib qilish;
- har qanday vaziyatda jamiyat manfaatiga zid bo'lgan xatti-harakatlarga va tahdidlarga Konstitutsiya asosida baho bera olish, kerak bo'lsa kurashga kirishish va o'zini o'zi, xalq manfaatlarini himoya qilish.

Shuningdek, talim-tarbiya sohasida Konstitutsiyaning tasiri beqiyosdir. Konstitutsiyadan kelib chiqqan qonunlarga itoat qilish yoshi kattalarning ibratidan boshlanadi. Oila azolari, o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, mahalla ahli bu yo'sinda bolalar va yoshlarga bosh-qosh bo'lishi zarur.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

И.Хузина - преподаватель русского языка и литературы Маргиланского профессионального колледжа легкой промышленности и педагогики

Приоритеты образования сегодня глубоко изменились. Процессы модернизации системы охватили все этапы непрерывного обучения и воспитания, в том числе среднее специальное и профессиональное обучение.

Проблемы глобализации человеческого общества, а также быстрая и оперативная информатизация разума человека недвусмысленно диктует необходимость качественного знания не только английского, но и русского языка.

В основе современного образования лежит активность и стремление к самосовершенствованию и преподавателя, и что не менее важно, и учащегося. Ведь учебный материал усваивается учащимися в учебном процессе. От этого зависит результат обучения. Тем более, что отношение студентов к собственной деятельности, в значительной степени, определяется тем, как педагог организует их учебную деятельность.

В основе каждого урока лежит конструирование правильной содержательной концепции на всех его этапах с ориентацией на получение желаемого результата. Среди моделей обучения выделяют три его вида: пассивную, активную, интерактивную.

Пассивный метод - это форма взаимодействий учащихся и учителя, в которой учитель является основным действующим лицом и управляющим ходом урока, а учащиеся выступают в роли пассивных слушателей.

Активный метод - это форма взаимодействия учащихся и учителя, при которой учитель и учащийся взаимодействуют друг с другом в ходе урока и учащиеся здесь не пассивные, а активные участники урока. Интерактивный метод означает взаимодействовать, находиться в режиме беседы, диалога с кем-то. Именно использование этой модели обучения преподавателя на уроках русского языка говорит не только о его инновационной деятельности, но и о успешности познавательного процесса с о стороны студентов. Вследствие правильного отбора содержания учебного материала, а также рациональный подход (методы, педтехнологии) его реализации, срабатывает главный механизм усвоения и закрепления полученных знаний у студентов. Неправильный же отбор содержания учебного материала рождает следующие негативные моменты на уроке:

- перегрузку студентов;
- снижение интереса к уроку;
- отвлекание от стратегических подходов к решению тех или иных задач в познавательном процессе. Незнание современных подходов обучения и их оптимального сочетания негативно сказывается на деятельности учителя, которое выражаются в следующем:
 - неправильные отношения со студентами;
 - неправильные отношения между студентами;

- отсутствие творческой атмосферы на уроке;
- неумение создавать психолого - педагогической площадки для самостоятельной познавательной деятельности.

Следовательно, в отличие от активных методов, интерактивные методы ориентированы на более широкое взаимодействие студентов не только с учителем, но и друг с другом, а также на доминирование активности учащихся в процессе обучения. В связи с этим педагогическим явлением, мы предлагаем трансактивную педтехнологию, которая подразумевает оперативный поиск набора слов по значению и умению наладить коммуникацию на всем протяжении урока. Особенно такое нахождение и переброска необходимых знаний пройденного материала, а также, их использование на всех последующих уроках эффективна в национальных группах, для школ и колледжей с узбекским языком обучения. Это сможет сформировать ключевые компетенции учащихся на уроках русского языка с узбекским языком обучения. Вот почему сегодня необходима разработка такой содержательно - методической системы урока русского языка для национальных школ, где органично реализовывались бы следующие функции русского языка:

- коммуникативная;
- интегрирующая.

Конечно целевое назначение трансакций слов, предложений с их словарным толкованием реализуется в единстве и взаимодействии их основных функций. Так, основными функциями трансактивного обучения являются: информирующая; мотивирующая; коммуникативная; контролирующая. Все они осуществляются на фоне общедидактических функций.

Информирующая или информационная функция трансакции как педтехнологии заключается в том, что в нем задана учебная информация, а также предметное содержание. Учащиеся должны вспомнить всю технологию передачи информации. Учитель должен помочь им в этом, используя активность и стремление учащихся. Главное оружие учителя - профессиональная компетентность и педагогическое мастерство. Необходимо также продумать о средствах обучения.

Мотивирующая или мотивационная функция трансактивной педтехнологии состоит в том, что с ее помощью обеспечивается стимулирование речевой деятельности учащихся с их учебной деятельностью в целом, формируется интерес к теме, ее назначения в их жизни. Здесь учитель должен позаботиться о выполнении требований этой части проекта урока. Учащиеся обязаны вспомнить технологию речевой деятельности, привести примеры тех пройденных уроков, конкретных текстов, материалов. Словом, учитель должен помочь пробудить потребность в иноязычном общении, создать русскоязычную среду, а также направить учащихся на дальнейшее самообразование.

Коммуникативная функция служит обеспечению активной речевой деятельности учащихся в ее основных видах: говорение, аудирование, чтение, письмо, чтобы обучать именно общению.

Учитель русского языка должен использовать самые эффективные на его взгляд средства работы в той или иной группе. То есть, учитель должен дать

возможность транслировать предыдущие опыты говорения, чтения, аудирования. Например, должен подтолкнуть к мысли об ударении, использовании слова по назначению, по времени, по падежу, в нужном роде, в происхождении и т.д. Следующей функцией использования транслирования является контролирующая функция. Контролирующая функция предлагает создание реальных возможностей для осуществления контроля и самоконтроля с помощью специальных контролируемых упражнений, имеющих форму тестов, вопросов, заданий. В этом ракурсе учитель должен представить тесты, раздаточные материалы для контроля пройденного материала. Значит, учитель должен специально готовиться к транслированию пройденных материалов. Искать параметры дидактических средств. Поскольку дидактические функции урока стали объектом целенаправленного изучения, то учитель должен изыскать самые компактные и творческие приемы овладения знаниями.

САМООБРАЗОВАНИЕ – КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Д. Саидова - Ферганский областной институт
переподготовки и повышения квалификации
сотрудников народного образования*

Одной из актуальных проблем, современного непрерывного образования является самообразование педагогов-слушателей института повышения квалификации и переподготовки кадров. Ведь именно здесь педагогам предоставляется широкая возможность совершенствования педагогического мастерства и профессиональной компетентности. Совершенствование качества обучения и воспитания в средней школе напрямую зависит от уровня подготовки педагогов.

Приоритетное задание ИПК состоит в том, чтобы подготовить слушателя с устойчивой установкой на непрерывное совершенствование, самообразование и саморазвитие. Достижение этой цели предполагает перенос центра обучения на личность педагога и учителя, его интересы, потребности и возможности, создание модернизированных условий совершенствования квалификации сотрудников системы образования в целом. В процессе повышения квалификации слушатели получают возможность соотнести уровень своих профессиональных знаний и умений. Неоспоримо, что уровень должен постоянно расти. Эффективность профессиональной подготовки будет невелика без процесса самообразования учителя. А также, необходимо учитывать, что содержание компетентности меняется в соответствии с требованиями к профессионально-педагогической деятельности и определяется уровнем профессионализма, на которой находится педагог.

Таким образом, самообразование – это неотъемлемая составляющая современного образа жизни, без которой невозможно движения вперед. Особенно важно приобретение современных навыков самообразования учителей начальных классов, т.к. им принадлежит решающая роль в формировании

личности школьника – с активной гражданской позицией и потребностью в саморазвитии.

Президент Республики Узбекистан Ислам Абдуганиевич Каримов не раз указывал в своих речах, что психологическое и физическое становление приходится на этап начальной школы. В этой связи результатами реформы образования являются прекрасные условия не только для обучения и воспитания школьников, но и самообразования учителей. Тем более, что необходимость самообразования диктуется с одной стороны, самой спецификой учительской деятельности, её социальной ролью с другой стороны, реалиями и тенденциями непрерывного образования, что связано с постоянно изменяющимися условиями педагогического труда, потребностями общества, эволюцией науки и практики, всё возрастающими требованиями к человеку, его способности быстро и адекватно реагировать на смену общественных процессов и ситуаций, готовности перестраивать свою деятельность, умело решать новые, более сложные задачи познавательной активности, потребности педагога в самореализации.

В Узбекистане активно действует курс на строительство правового государства, формирование гражданского и демократического общества. Достигаются положительные успехи правовой культуры граждан.

Учителя – педагоги активно отвечают на требования государства знаниями законодательных актов, государственных стандартов обучения, «Закона об образовании», «национальной программы подготовки кадров» и многих других нормативно-правовых документов.

Необходимо отметить и тот факт, что глобальные проблемы человеческого общества, а также, негативные последствия, угрожающие, прежде всего, молодёжи, диктуют свои требования необходимости защитить молодое поколение, наоборот, воспитать в нём человечность.

В этой связи самообразование учителей, тем более учителей начальных классов, становится просто жизненно-важной и практической необходимостью современного педагога. Основными принципами самообразования являются:

- непрерывность;
- целенаправленность;
- интегративность;
- единство общей и профессиональной культуры;
- взаимосвязь и преемственность;
- доступность;
- опережающий характер;
- перманентность перехода от низкой ступени к высшей;
- вариативность;

Одной из успешных форм слежения самообразования слушателей является создание портфолио, это поможет сделать необходимые анализы своего самообразования квалификации.

Суть процесса самообразования, приходящегося на период повышения квалификации проявляется в следующем:

- пересмотреть свои знания;

- сравнить свою профессиональными подходами других учителей;
- построить свой индивидуальный – развивающий план самообразования при помощи портфолио;
- построить свою творческую площадку для обретения научных подходов в профессиональной деятельности;
- активно воспринимать все условия, требования, инновации управления, инновации в подготовке кадров а также инновации педагогических технологий;
- смело разрабатывать в себе информационно-компьютерную компетенцию;
- с самого начала курса начать разрабатывать наглядный урок, с использованием современных педтехнологий и применением информационной коммуникацией. Основе полученных знаний, умений и квалификации.

Важным аспектам в самообразовании является использование источников знаний. На время курса повышения квалификации ими могут стать:

- информационные ресурсы библиотеки;
- интернет;
- газеты и журналы;
- литература (методическая, научно-популярная, публицистическая, художественная и др.);
- семинары и конференции;
- открытые и наглядные уроки;
- научные и практические тренинги;
- мероприятия по обмену опытом;
- посещение уроков лучших учителей городов и районов.

Одно из замечательных достоинств Интернета – это то, что он является эффективным средством непрерывного повышения квалификации учителей. Существуют десятки сотен сайтов, порталов, объединяющих педагогов, методистов из различных стран и континентов. Общаясь с коллегами, пользователь интернета может найти ответы на поставленные вопросы, принять участие в разработке проекта урока, мероприятий, учебных пособий и программ. Например: сайт <http://www.it-n.ru> – это один из крупнейших учительских Интернет- проектов. Каждый месяц его посещают сотни тысячи уникальных и профессиональных посетителей из более чем 90 стран мира.

В результате работы портала создана целая система дистанционной профессиональной методической поддержки и самообразования его участников:

- активно работающие сообщества;
- мастер – классы;
- фестивали учителей предметников;
- профессиональные курсы;
- методический марафон и мн.др.

Слушатель ИПК также может использовать следующие сайты:

- uzedu.uz – официальный сайт министерства народного образования Республики Узбекистан;
- ziyosom.uz. - библиотека;

На сайте petsovem.org. – готовые материалы на занятиям (прежде всего в начальной школе).

ИПК должен создать тёплую, творческую и научно-методическую атмосферу для самообразования его слушателей.

Как отмечал в Сухомлинский «Самообразование – это не механическое пополнение знаний, не замкнутость и оторванность от людей, а живые человеческие отношения... Суть их должна состоять в обмене знаниями и умениями. Передовая вои знания людям, человек познаёт другого человека и себя. Интеллектуальные чувства при этом переплетаются с чувствами нравственными, человек переживает в себе рождение чувства долга перед людьми».

CHET TILLARINI O'RGATISH VA O'QITISH AHAMIYATI

L.Uzakova -FarDU

Hozirgi kunlarda hayotimizda chet tillar asosiy o'rinlardan birini egallayotganligini rad etib bo'lmaydi. Chet tillarini o'qitish uchun yangi dastur tuzilgan. Ushbu dasturga asos O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlar" togrisdagi PQ-18-75 son qarori muvofiqlashtirilgan. Shu qarorga asoslanib Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda SEFRga asoslangan chet tillar bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari yangidan yaratildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi 124-sonli qarori bilan uzluksiz ta'lim tizimining chet tillari bo'yicha davlat ta'lim standarti tasdiqlandi.

Yaratilgan DTSni xalqaro normalar va chet tillarni egallashning darajalari xalqaro tajribaga mosligi to'g'risida xorijiy ekspertlar (Rod Bolayto, Lest Kirkem, Richard Vest va boshq.)ning xulosasi olindi.

"Filologiya va tillarni o'qitish (chet tillari)", "Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishlari va tegishli mutaxassisliklarning DTS, o'quv rejalari va fan dasturlari ishlab chiqildi.

Bakalavriat bosqichining barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Chet tili" (1-blok) hamda barcha magistratura mutaxassisliklari uchun "Amaliy xorijiy til" (1-blok) fanlari bo'yicha namunaviy dasturlar ishlab chiqildi va takomillashtirilgan DTS va o'quv dasturlari vazirlikning 2013 yil 28 avgustdagi 319-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

O'zbekistondagi chet tili darsliklari jahon standartlariga javob beradigan qilib qayta ishlandi va zamon talablariga moslashtirilmoqda, chet tillarini o'rgatish va o'rganish tamoyillari o'zgartirilmoqda. Ingliz tili oqituvchularini tayorlash va ularni malakasini oshirishda Ozbekiston Respublikasi Oliy va Orta Maxsus talim vazirligi xamda Britaniya Kengashi xamkorligida amalga oshirilgan loyixa doirasida ishlab chiqilgan DUET dasturi ingliz tili oqituvchilarini tayorlash va ularni malakasini oshirishda muvaffaqiyat qozonmoqda.

DUET dasturining ananaviy dasturlardan farqi

An'anaviy dastur	DUET dasturi
<p>1. Ko'proq til aspektlari fanlariga (grammatika, fonetika) va til tizimi haqidagi bilimlarni egallashga e'tibor berilgan. Tinglab tushunish, o'qish, og'zaki nutq, yozma nutq kabi til ko'nikmalarini rivojlantirishga kam e'tibor qaratilgan.</p>	<p>1. Barcha til ko'nikmalariga alohida e'tibor beriladi (o'qish, tinglab tushunish, og'zaki nutq, yozma nutq, leksika, grammatika) va ularni integrallashgan holda mashq qilish imkonini beruvchi Integrallashgan til ko'nikmalari kursi mavjud.</p>
<p>2. Til o'qitish asosan ma'ruza va seminar mashg'ulotlar tarzida, ko'pgina hollarda yagona darslikka asoslangan holda olib boriladi va ularning mazmuni muntazam ravishda yangilanib borilgan.</p>	<p>2. Til o'qitish interfaol usullarga asoslangan bo'lib, amaliy mashg'ulotlar tarzida olib boriladi va o'qitishning turli manbalaridan foydalanilgan holda yangilik va o'zgartirishlar kiritilib boriladi.</p>
<p>3. Til o'rganishning asosiy usullari: - yod olish - ovoz chiqarib o'qish - o'qib gapirib berish, konspekt - ma'ruzalar tinglash - referatlar yozish (o'z fikrini bayon qilmagan holda) va boshqalar.</p>	<p>3. Til o'rganishning asosiy usullari: - loyiha ishi - bahs munozara/debat - insho - taqdimotlar - muammoli vaziyatlarga echim topish - kichik ko'lamdagi tadqiqot ishi va boshqalar.</p>

Chet tillarini o'rgatish yangi dasturi CEFR tizimiga asoslanib tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalaridan iborat. O'qish, yozish va tinglashga e'tibor bergan holda gapirish ko'nikmasiga asosiy o'rin berilmoqda. Har bir chet tilli o'qituvchisi tushunadi-ki til o'rganuvchining qobiliyati qanchalik yaxshi bo'lsa, o'rganish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Shuningdek, o'qish kompetentsiyasi va yozish qobiliyati o'rtasida chuqur aloqa mavjud. Yozish, gapirish, o'qish va tinglash kompetentsiyalar tilning o'ranish o'zaro bog'langan jarayoni.

Yangi dasturda o'qish kompetentsiyasini o'rgatish uslubi o'rganuvchining tildagi to'liq tajribasi va dunyo qarashiga asoslangan. Til o'rganuvchining o'qish tajribasi va turli bo'lishi kerak. Ushbu standartga davr talabiga mos jihozlangan axborot resurs markazlar va ulardan muntazam foydalanish bunga ko'mak bo'ladi. Yozish kompetentsiyasini ahamiyati beqiyosligini isboti shundaki, ushbu ko'nikma har bosqichida tekshiriladi va baholanadi. Baholash tizimi va mezonlariga alohida e'tibor berilmoqda. Chet tili o'qituvchisi turli baholash usullarini qo'llash kerak: o'qituvchi tomonidan o'zaro va o'zi o'zini baholash texnikalarini bunga misol bo'lishi mumkin.

O'rganuvchi mustaqil yozishni biladigan, yozishni harakat qilib va o'z yozuvini mustaqil va o'qituvchi tomonidan yonaltirilib kelib chiqadi. Ushbu jarayon tizimli yozish tajribasi, yonaltirish va rejalashtirishni talab qiladi.

Chet tili o'qituvchilari kompetensiyalarni ahamiyatini pasaytirmasliklari kerak, tildan foydalanishda gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'stirish jarayonida. Til o'rganuvchining og'zaki nutqi o'sishi va qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchining zimmasiga yuklatiladi. Til kompetensiyalari o'sishi bilan birgalikda o'rganuvchi suhbatni boshlash va qurish qoidalarini o'rganadi va boshqalarning fikr mulohazalariga chidamlilik rivojlanadi.

Ma'nosini tuashungan holda tildan unumli foydalanish sotsial hamkorlikga ko'maklashadi.

O'qib tushunish ko'nikmasi rivojlanishi bilan birga o'rganuvchi o'zining shaxsiy qiziqishlariga javob beradigan matnlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, o'qish odati takomillashtiriladi va til o'rganuvchi o'qish ko'nikmasi foydali va yoqimlilikini tushunib yetadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, chet tillarini o'qitish tizimining maqsadlarini o'qitish jarayoniga tadbiq etish uchun o'quv muassasasining rahbariyatining e'tibori ham zarur. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga maxsus mulohaza ajratilishi kerak. So'z bilan ishlash jarayonida yakuniy taqdimotning sifatini yaxshilaydi.

Bilim va g'oyalar ortirishda til muhim o'qinga ega. Til o'rgatish turli yondashuvlar va usullardan foydalanishni talab qiladi.

Biroq, ushbu yondashuvlar tugal bolib ketmaslik kerak, ular sinfning, guruhning va o'rganuvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan va muvofiqlashtiriladigan bo'lishi kerak. O'qituvchi o'zining iste'dodi, bilim va tajribasi bilan o'rganuvchiga ushbu maqsadlarga erishishga yordam beradi.

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TALIMIDA MATEMATIKA FANLARINI O'QITISHDA VATANPARVARLIKNI TARBIIYALASH MASALALARI

M. Xolmurodov -m. f. n. dotsent.

*Yusubjanova Musharraf - Matematika yo'nalishi
201-guruh talabasi*

Respublikamiz mustaqillikka erishgachtaim sohasida ulkan yutuqlarga erishildi va erishilib kelinmoqda. Bu haqida I. A. Karimov o'zining «Yuksak na'naviyat yengilmas kuch» nomli asarida shunday deb ta'kidlab o'tgan «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatning jahon jamjamiyatidagi obro' e'tibori, avvalombor farzanlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, janday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak».

Bizga ma'lumki, matematikafani ta'lim tizimida matematika o'qitish nuammolari, mantiq, psixologiya, pedagogika, matematika va falsafa fanlari bilan uzviy bog'liqda olib boriladi. Matematika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi quyidagi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1) Matematika tizimining butunligini buzmagani holda o'qishni fanlarning dasturlarini moslashtirish.

2) Boshqa fanlarda matematika qonunlarini, formulalarini, teoremlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan materiallardan matematika kursida foydalanish.

Matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko'rsatish qiyin, buni o'qituvchining o'zi amalga oshiradi, ya'ni o'quv matyerialini rejalashtirishda va darsga tayyorlanish vaqtida e'tiborga olishi kerak.

Qo'shni fanlarga doir materiallardan matematika darslarida foydalanish fanlararo uzviy aloqadorlikni yanada mustahkamlaydi.

Matematik bilim malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar o'z kundalik hayotlarida vatanparvarlik ruhidagi tushunchalarni shakllantirishda amaliy misol va masalalar ko'rinishda qo'llay olsalar bu bilimlar mustahkam bo'lib ular bolaning xotirasida uzoq hatto bir umrga muhrlanib qoladi.

Inson aqli insoniyat yaratgan turli bilimlarni organish, uni o'zlashtirish asosida doimo rivojlanib boradi. Aqlni yanada rivojlantirmoq uchun inson to'g'ri fikr-mulohaza yuritmo'g'i dardkor. Buning uchun esa aqliy bilish, xususan, mantiqiy bilish usullariga suyanmogi lozim. Mantiqiy bilish yordamida inson haqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va noma'lum narsalarni o'rganadi. Turli mantiqiy usullarni ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, ayniqsa, isbotlash tufayli inson aqliy qobiliyati borgan sari rivojlanib boraveradi. O'quvchini mantiqiy fikrlashga, izlanishga, ijod qilishga, o'z navbatida mustaqil ta'lim olishga, o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash maktabning asosiy vazifasidir. Mantiqiy fikrlashni shakllantirishga oid olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy mazmuni va mohiyatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida vatanparvarlikni shakllantirishham aynan shu mantiqqa borib tutashadi. Vatanparvarlik, pedagogik tushuncha sifatida ta'limning maqsadi va vositasiga birdek tegishlidir. Ya'ni ta'limdan maqsad, avvalo, mantiqiy fikrlaydigan, insoniy fazilatlarini egallagan, o'z Vatanga nisbatan sodiq shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bugun ta'lim-tarbiya jarayonini davr talablariga mos ravishda amalga oshirishning eng zarur omili bo'lgan zamonaviy darsning har biri o'quvchi-yoshlar uchun o'ziga xos quvonch doirasiga, har bir ta'lim dargohi esa shodlik maskaniga aylanishi lozim. Xususan, darsga ishonch bilan kelib, o'z o'qituvchisini alohida hurmat va e'zoz bilan kutib olish tuyg'usini shakllantirish bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy mezonlaridandir. O'qituvchi dars paytida o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq berib tursa, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar faol ishtirokchiga aylanganini o'zlari bilmay qoladilar.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak.

Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash esa katta boylikdir. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda ungarioya qilmaymiz».

O'quvchilarda matematika darslaridan quyidagi natijalar ko'zlanadi:

-masalani yechish jarayonida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish;

- o'quvchilarda nostandart masalalarni turli usullar bilan yechishni ijodiy fikr yurita olish ko'nikmalarini shakllantirish va bu orqali o'ziga nisbatan ishonch, vatanga nisbatan ifixor tuyg'usini shakllantirish;

- o'quvchilarda turli xil yangi adabiyotlarni taqdim etish, buning natijasida ta'lim tizimida bo'layotgan rivojlanishni ko'rsatib berish;

- o'quvchilarda matematik masala va misollarda to'g'ri yondashuvni ta'minlash va hayotda ham to'g'ri yo'lni tanlashga yo'naltirish;

-o'quvchilarda kurashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarda dastlabki negizni tashkil etishga imkon yaratish;

-misol va masalani yechish jarayonida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish, umumlashtirish, masalalarni mustaqil tuzishi, yechish uchun ma'qul usulning tanlanishi, yechilgan masalaning ko'pchilik o'quvchilarga amaliy qo'llanilishi tushunarli bo'lishiga erishish va bu esa o'quvchilarda egoistik tuyg'usini yo'qotadi, har xil o'zbekligimizga yot bo'lgan tuyg'ularni o'zida shakllanishiga yo'l qo'ymaydi;

-o'qituvchilardan esa darsni qiziqarli o'tish, o'quvchilarni boshqa keraksiz ishlarga o'zlarini chalg'itishga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki barcha yomon illatlar o'quvchilarni bekor va nazoratsiz yurishidan kelib chiqadi. Ijodiy yondashuv o'quvchilarda ruhiy quvvatini oshiradi, fikrlashini kengaytiradi. Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda izlanuvchanlik, ijodkorlikni o'stirish bugungi kunda har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biri. Buning asosida ta'lim natijada tarbiya berishimiz hech kimga sir emas. O'qituvchi birinchi navbatda bolalarning bilimlarga qiziqishlarini, mantiqiy qobiliyat – mantiqiy fikrlash, umumlashtirish qobiliyatini, abstraktsiyalashni, tasavvur va hokozolarini, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil egallash va amalda qo'llay olish imkonini rivojlantirishi kerak. Ayniqsa bu o'rta ta'lim maktablari, ya'ni mantiqiy fikrlashi endi rivojlanib kelyotgan kelajak-avlodga o'rgatish, uni to'g'ri yo'lga boshlash, bizning oldimizda turgan eng dolzarb muammodir. Negaki aynan shu davrlarda o'quvchilar hayotning faqat yengil-yelpi tomonini ko'radi. Bunday vaqtda ta'lim berishdan oldin, aynan matematika darslarida tarbiyaviy jihatdan ko'proq o'rnak bo'ladigan misol va masalarni o'quvchilarga taqdim etish lozim. Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Demak, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar, aynan ma'naviy komillikka erishgan shaxslarni tarbiyalash uchun xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O'qituvchilar darslarini muammoli izlanish usulidan foydalangan holda tashkil etmoqlari kerak. Negaki hayotda inson oldida juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Agar matematika darslarida hosil qilinadigan muammoli vaziyatlarni hal qila olsagina, o'quvchida mustaqil fikrlash uyg'onadi. To'g'ri masala yoki misolni hayotga har doim ham tadbiiq qilish mumkin emasdir, lekin bu orqali hosil qilingan muammoni

hal qila olish qobiliyati shakllanadi. Biz esa mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarni shakllantirgan bo'lamiz. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, o'quvchilarga o'quv jarayoniga ijodiy yondoshishni o'rgatishlari lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mantiqiy fikrlashini faollashtirish zarur. Ularni evristik muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish o'quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo'lishiga xizmat qiladi. Biron bir muammoni turli usullarda mushohada yuritib yechish orqali o'quvchining mantiqiy fikrlashi ortadi, ular ijodiy izlanish, erkin fikrlash, narsa va hodisalarni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish hamda hukm va xulosalar chiqarishni o'rganadi. O'quvchida mustaqillik, ijodkorlik, zehnilik, maqsadga intiluvchanlik, muammolarni osonlik bilan hal qilish kabi xislatlar tarbiyalanadi. Buning natijasida o'quvchilarda kurashuvchanlik, qiziquvchanlik, vatanparvarlik tuyg'ulrini shakllantirgan bo'lamiz va bunga to'laqonli erishishimiz mumkin.

Mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Uning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlarini hisobga olish kerak. Buning uchun:

- o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir o'quvchining mantiqiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

-ijodiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish; turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Turli fikrni diqqat bilan eshitishi uni mulohaza bilan, o'ylab fikr yuritishini ko'rsatadi.

Ta'limni samarali amalga oshirish va o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotchilardan kelib chiqadiki, tuziladigan masalalar Respublikamizning mustaqillik yillarida erishgan statistik ma'lumotlarni aks ettirsa o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'si yanada mujassamlashadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda biz eng avvalo, o'quvchiga o'zligini anglatishimiz zarur. Negaki haqiqiy o'zligini anglagan insongina elim, xalqim, millatim deb jon bera oladi, vatanimiz yuksalishi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. O'zbekiston, 2008. – 176 b.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T., 1997
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» T., 1997.

HUQUQSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA DINIY TUSHUNCHALAR BILAN BOG'LANISH ORQALI O'QUVCHILAR ONGIDA IJOBIY IJTIMOIY-HISSIYOT TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

R.Kirgizov - Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish kolleji

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday degan ekan: "Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Bugungi asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyliги va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq va xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamati qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi avvalambor, ruhi poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarni keng targ'ib yetish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston xalqi uzoq tarixidan boshlab haqsevar xalqdir.

Huquqshunoslik darslarida o'quvchilarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash – yoshlar ongida milliy vijdonning uyg'onishiga va shakllanishga ko'maklashadi. Ular ajdodlarimiz taraqqiyot yo'lini, tarixiy tajribasini, tarixda bo'lib o'tgan qonunchilik tizimini, ijtimoiy adolatni o'rgandagina, ularda istiqloq tafakkuri, hozirgi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushni o'tmish bilan qiyoslash, davrning kishilar jamiyatidagi huquqiy ongni aniqlash hamda kelajakka nazar solish malakasi shakllandi.

Bu yo'sinda o'qituvchi diniy tushunchalar va dinshunoslik fani bilan integratsiyalashuvidan foydalansa, o'ylaymizki, o'quvchilarda quyidagi ijobiy ijtimoiy-hissiy tuyg'ular shakllanadi.

- o'zgalarning haq va huquqlariga hurmat;
- jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilib yashash;
- kattalarni hurmat qilish va yoshlarni izzatlashi;
- ayollarga mehribonlikni bildirish;
- ustoz, o'qituvchi va murabbiylarga hurmat;
- bilimga intilish;
- daxldor bo'lishga doimo intilish.

Din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish Respublikada demokratik, huquqiy jamiyat qurish poydevorini mutahkamlashga xizmat qiladi. Zero, qonunga hurmat hissini o'zigina emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg'ulari bilan hisoblashish, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlariga jalb etish qayg'iqonuniy xatti-harakat ekanligi,

jamoat joylarida diniy masalalarda zo'rovonlik, mutaassiblikka, tajovuzkorlikka yo'l qo'ymaslikni chuqur tushunib yetish talab etiladi.

O'quvchi-talabalar shuni tushinish kerakki, "har qanday jamiyat tarix sahnasida paydo bo'lishi bilan turli ta'limotlar va nazariyalar, mazhab va yo'nalishlar paydo bo'la boshlaydi. Ular asli o'z ideallarini, orzu-umidlarini va shu asosda yaratilgan mafkuralarini bayroq qilib, keng xalq ommasini o'z tarafiga tortishga va shu orqali o'zlarining siyosiy maqsadlariga erishish uchun kurashib kelgan. Bunday kurashlar taraqqiy qilgan yuksak madaniyatli demokratik bo'lsa, qoloq, xurofiy tasavvurlar ta'sirida nodonlikda yashab kelayotgan o'lka va mamlakatlarda jiddiy to'qnashuvlar va hatto qonli urushlar shaklida o'tayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Afg'onistonning fojiali ahvoli bunga yorqin misol bo'la oladi".

Shuning uchun, darslarda qachon huquqiy manbalar, huquqiy holat, qonunchilik tizimi yoki bironta huquqiy normalar va diniy-nazariy holatlar qiyoslanilsa, misollar keltirilsa, shuncha yoshlar ongida abstrakt tushuncha yo'qolib, huquqiy ong shakllanadi. Pedagogik-psixologik jarayonida o'quvchilarda bilishga, bilimni boyitishga motivatsiya paydo bo'ladi. O'qituvchi, aynan vaziyatda diniy manbalar, tarixiy va huquqshunoslik manbalarining uyg'unligidan foydalanganligi o'quvchi-talabalarida ijtimoiy-hissiy tuyg'ulari yanada ham sifatlanadi.

Tarix va huquqshunoslik fani o'qituvchilari, albatta islom qadriyatlari va ma'rifatdagi ibrat masalalar haqida ham so'zlashishlari pedagogik maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganligini alohida ta'kidlash joiz, boshqacha qilib aytganda, diniy-ma'rifiy jarayonlarning ta'sirchan kuchiga ishonch va ishtiyoqning har bir fuqaro va shaxs ruhiyatiga singdirilishi ibratdan boshlanadi.

Islom dini va Qur'on (huquq manbai ham hisoblanadi) ilmining umrboqiyligi, shundaki, unda umuminsoniy milliy qadriyatlar birdek mujassam bo'ladi.

Masalan, ayol va erkaklar tenghuquqligi haqida gap ketayotganda o'qituvchi nafaqat Konstitutsiyaning 46-moddasini ("Xotin-qizlar va erkaklar tenghuquqlidirlar"), balki "Baqara" surasidan ko'plab misollar keltirishi mumkin. (Bir hil mehnatga bir hil maosh olishi; ayollar ham oldingi zamonlarda sud qozisi bo'lishi mumkinligi va h.k.).

Albatta, shunday amaliy misollar bilan o'quvchilar qalbida ijobiy his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Ularda fanga, diniy qarashlar va tushunchalarga hurmat va qiziqish ortib boradi. Insonparvarlik tuyg'usi ham shakllanadi. Mehr oqibat, muhabbat, shafqat, sadoqat, do'stlik, me'yorlarni tushunish oiladagi ayollar va erkaklar vazifalari, bola tarbiyasi, jamiyat oldidagi mas'uliyati shaxsiy gigienasiga e'tibor berish uy-joy hovlisini tozalikda tutish va boshqa dolzarb masalalar yorqinlashadi.

Bular hammasi insonning nafaqat Qonun va huquqlarni bilishi, balki yuksak ma'naviyatli bo'lishiga da'vat etadi. Zero, o'tmishda va hozir ham ma'naviy hayotimizning tarkibiy qismi hisoblangan insonning xulqi-atvorimizni, ruhiyatimiz va turmush tarzimizni mustahkamlashdagi xizmatini unitish mumkin emas.

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN
PEDAGOG KADRLARNING KASBIY SALOHIYATINI OSHIRISH
ZAMONAVIY O'QITUVCHI KOMPETENSIYASINING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK ASOSLARINI TASHKIL ETISH ORQALI PEDAGOG
KADRLAR TAFAKKURINI O'ZGARTIRISHNING AYRIM MASALALARI**

*M. Nematova M. Sodiqova - Farg'ona pedagogika kolleji
tarix fani o'qituvchisi,*

*A. Kuchkarova - Farg'ona shahar 2-ijtimoiy-iqtisodiyot
kolleji iqtisodiyot asoslari fani o'qituvchisi*

Mustaqillik yillarida davlatimizning siyosati birinchi o'rinda ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilib, umumta'lim o'rta maktablarini 9 yillik, keyingi bosqich uch yilga mo'ljallangan o'rta-maxsus kasb-hunar kolleji va akademik litseylar, shuningdek butun uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmuni fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi zarurligini, mehnat bozori, jamiyat, madaniy hayotning barqarorlashuvini malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishni ko'zda tutilgan.

Bunday dolzarb aspektli jarayon esa pedagog kadrlarning tafakkurini o'zgartirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash uzuliksiz ta'limning qismi sifatida qayd etilgan. Bu uzuliksiz jarayon sifatida ta'lim-tarbiya metodlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqarish nazariyasiga asoslangan pedagogik tizim doirasida ijro etiladi. Mazkur tizimning samarasi ta'lim jarayoni ishtirokchilari, il g'or o'qituvchilar-hodimlarning kasbiy mahoratiga, o'z ustida tinimsiz ishlashga ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgartirishlariga moslasha olishiga, tashabbuskorligiga, faolligiga bog'liq. O'qituvchi, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasining pedagogik kadrlarning tafakkurini o'zgartirishda quyidagi pedagogik-tarbiya talablar yuzaga keladi:

- pedagogik mahoratlarning sifat darajasini oshirish;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- mutaxassislik fanlarini mukammal o'zlashtirish;
- dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida olib borish;
- innovatsion yondoshishda muvaffaqiyatli loyihani ishlab chiqish;
- darsning pedagogik komponentlari va atributlarida innovatsion talabchanlik zaruratini aniqlash;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish;
- davlat ta'lim standartlari talablariga ijodkorlik bilan yondoshish;
- chet tilini puxta o'rganish va undan o'qituvchilik faoliyatida keng foydalanish va h.k;

O'z navbatida malaka oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining yangi shakl va metodlarini egallash zarurati tufayli professor- o'qituvchilarning o'z nazariy bilimlarini, amaliy ko'nikmalarini va kasbiy bilim mahoratlarini uzuliksiz yangilab borish jarayonidir.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim professor- o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirishda quyidagi shaxsiy va kasbiy- pedagogik fazilatlar talab qilinadi:

1. O'tilayotgan har bir mashg'ulot samarasini ta'minlovchi didaktik sharoitlarini aniqlashni;
2. Shu asosda uzuluksiz malaka oshirish rejasini ishlab chiqishda o'z ijodiy pedagogik-psixologik maydonchasini tashkil etish;
3. Kasbiy pedagogik faoliyatini namoyish etish;
4. Tadqiqotchilik ishlarga tinglovchilarni qiziqtirish va jalb qilish;
5. Fan yutuqlarini aniqlashtirishda yuqori malakali tarzda yondoshish;
6. AKT dan samarali foydalanishning ahamiyatini yoritib borish;
7. Axborot resurs kutubxona fondi bilan doimiy bog'lanib borish va tinglovchilarni fond zahiralari bilan tanishtirish;
8. Chet tilini bilishga, o'rganishga chaqirish;
9. Tinglovchi o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini o'rganish va o'ziga tegishli xulosa chiqarish;
10. Malakali yordam berish orqali ta'lim-tarbiyadagi muammolarni o'rganish va h.k

Zero, xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish jarayonida quyidagi faoliyatning zazifalariga e'tibor qaratilishi lozim:

- konstruktiv
- kommunikativ
- tashkilotchilik
- informatsion
- tarbiyalovchi
- rivojlantiruvchi
- tadqiqotchilik
- texnikaviy

O'qituvchilarning faoliyat turlari:

- a) konstruktiv;
- b) kommunikativ funksiyani joriy etish;

O'qituvchilarning faoliyati uchun zaruriy bo'lgan bilimlar doirasi:

- milliy g'oya;
- ijtimoiy-iqtisodiy;
- psixologik;
- matematik;
- texnik-texnologik;
- huquqiy;
- madaniy;
- informatsion;
- axloqiy;
- pedagogik;
- ekologik;

O'qituvchi-hodimlarning ko'nikma va malakalari:

- axloqiy;
- kasbiy;

Shuningdek pedagoglarning shaxs sifatlarini aniqlovchi yo'nalishlar:

- malakaviy;

- kasbiy;

Bugungi zamonaviy pedagog (xoh malaka oshirish jarayonida dars beruvchi, xoh malakasini oshiruvchi) ongli ravishda zamon talablariga moslashib, tafakkurini o'zgartirib borishi uzluksiz ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Undan tashqari, respublikada davom etayotgan modernizatsiyalashuv jarayonlari hamda bozor iqtisodiyotining bosqichma-bosqich rivojlanishi pedagog kadrlarga, o'qituvchilarning ma'suliyatini yanada oshirmoqda, ularning dars mashg'ulotlari va o'quvchilarga nisbatan munosabatlarni tubdan o'zgartirishga erishilmoqda.

Demak, uzluksiz ta'limdagi malaka oshirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchi-pedagogning tafakkurini zamonaviylashishning quyidagi kriteriy-sifatlarini yuzaga keladi:

- professor o'qituvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini uzluksiz yangilab borish uchun zaruriy shart-sharoitlarni tashkillash;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning kafolatlari poydevorini yaratish;
- professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish shartlarini aniqlashtirish;
- ularning pedagogik va axborot texnologiya loyihalarini ishlab chiqish va samarasini aniqlash;
- professor- o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishning portfoliosini yaratish;
- monitoring ko'rsatkichlarini doimiy o'rganish va amaliy ishlarning sifat darajasiga ko'tarib borish.

O'z navbatida xalq ta'limi xodimlarini malaka oshirish davrida o'zini muxandis- pedagog sifatida idrok etishga jalb qilish, uzluksiz ta'limning dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, unda o'z ustida doimiy ishlashni taqazo etadi. Chunonchi ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning mashg'ulotlarida axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimediyalardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mustaqillik, erkin fikrlashni, tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini oshirish ularning shaxsiy ehtiyojiga aylantirishni talab etadi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida quyidagi uch darajada qo'llaniladi;

1. Umumiy pedagogik;
2. Metodik;
3. Lokal(modul) darajada.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqazo etadi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari asosan uzluksiz ta'lim doirasida o'rganilmoqda.

Ta'lim texnologiyasi deb, o'quv tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmuni va modellashtirish darajalari-o'quv materiali, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni

o'quvchilarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim vositalari, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz.

Agar o'qituvchi pedagog o'z ta'limiy-tarbiyaviy maqsadi vazifalarini zamon talablariga qarab doimiy moslashtirib borsa, uning pedagogik mahorati sifat darjasiga ko'tariladi.

O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIKLARINI TAMINLASHDA AKTNING AHAMIYATI

D.Saidova - FVXTXQTUMOI o'qituvchisi,

U.Ernazarov - TATU talabasi,

A.Yo'ldasheva - Farg'ona pedagogika kolleji

Bugungi kunga kelib o'qituvchilar diqqat e'tiborlarini o'quvchilarning bilish faolliklarini ta'nimlashining innovatsion usullariga qaratish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu bilan birga ommaviy axborot vosetalarining ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zni borasida yangi yillarda mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Axborot resurus markazlari, ular qoshidagi kutibxonalari ham keng foydamaydonlari va kompyuter dasturlariga egadirlar. Shuningdek o'qituvchi-pedagoglar o'quvchini shaxsini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy-pedagogik ro'lini oshirish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkillashda quyidagi tashkiliy pedogogik omillar nomoyon bo'ladi:

O'qituvchilar kompyuter texnologiyalarini o'rganib boradilar:

AR kutibxonadagi kompyuter kompyuter dasturlarni o'rganadi va foydalanadi.

Vazifa topshirishda internet materiallaridan foydalanadi;

O'quvchilarni internet saytlaridan fanlarga (mavzular)ga oid manbalarini olish, o'rganish, tahlil qilish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda ularni texnologik yo'naltiradi. Demak o'quvchi o'zi innovatsion ko'nikmalarini yaratishi uchun o'z ustida ko'p ishlashi zarur. Zero axborotlashtirish va globallashtirish davrida o'quvchilarning ham dunyoqarashlari tez o'zgarimoqda. Masalan yoshlar dunyoqarashlari shakllanishga quyidagi salbiy tendensiyalar to'sqinlik qilmoqda.

- Telefonamiya

- Kitob o'qimasligi

- Uy vazifasini tayyorlamasligi

- Internetdan foydalanganda aniq reja tuzmaganligi

- Aniq maqsadni anglamaganligi

- Maqsaddan vazifaga o'tish kontsepsiyasini ishlab chiqarmaganligi

- Aniq natijaga intilish tuyg'u yo'qligi vax.k

Bunday holatlarni tushingan holda o'quvchi masofaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishi zarur. Ular quyidagi turlardan iboratdir:

TV texnologiya

- Tarmoq texnologiyalari

- Birgalikdagi ta'lim texnologiyalari;

- Interaktiv texnologiyalar

- Reprodultiv texnologiyalar.

Bu yosinda o`quvchi texnologik platformalar amaliy tushuncha va tajribasiga ega bo`lsa o`quvchilarni information taxdidlar hurujda asrab olish ularni o`z kasbiga qiziqtirish har qanday fan (mavzu)ga information yondashishga, ko`maklashishga yordam berish ta`limiy-tartbiyaviy maqsadlarda muvafiq bo`laveredi. Masalaviy ta`lim texnologik platformalarida yil da masofaviy ta`lim ko`rsatish xizmatiga qaratilgan o`quv protseduralarni boshqarish va masofadan turib o`quv jarayonlarini o`tkazishni o`z ichiga olgan dasturiy-texnik vositalar mazmunini tushunamiz. Albatta masofaviy ta`lim texnologiyalari samaradorlikka erishish va ananaviy anditoriya o`qitish tizimini o`rnini egallashi uchun oson va soddalashgan bo`lishi lozim. Dasturlashtirishgan talim jarayoni o`quvchilarning aqliy faolliklarini ta`minlab billish faoliyatlarini jadallashtirish imkonini beradi. O`quvchi o`z fel atvorining muayyan qisminigina texnik vositalar xizmatidan foydalalnish bilan almashtirish mumkin. Uning axborot manbayi sifatidagi mavqayining o`zgarishi va zamonaviy axborot texnologiyasi bilan almashinishi subekt doirasini kengaytiradi. Bunday jarayonda o`quvchi pedagog quyidagi vazifalarni bajaruvchi shaxs xisoblanadi; o`quvchilar faoliyatini boshqaruvchi muvofiqlashtiruvchi ularga maslaxat beruvchi subyek sifatida chunonchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni quyidagi imkoniyatlarni yaratib bermoqda o`quvchilarga aqliy faoliyat usullarini o`qituvchilar tomonidan to`g`ri o`zlashtirishini ta`minlash imkonini beradi.

- o`quv jarayonini nazorat qilish

- tuzatishlar kiritish

- o`quvchilar o`quv materiallarini o`zlashtirishganlik darajalarini ham uzviy tahlil qilish vax.k

Bundan tashqari maskur yondashuv natijasida o`quvchilar faoliyatida quyidagi ijodiy va ijobiy muhitni tashkil etuvchi hatti harakatlar namoyon bo`ladi:

- masuliyat

- ko`tarinki kayfiyat; tartibi intizomga rioya qilish;

- o`z aroxurmat:

- ko`pchilik oldida o`zini tuta olish ko`nikmasini shakllantirish:

- keng fikrlikka intilish

- bilimdonlikka intilish

- nutqini o`stirish

- tahlil qilish qobilyatini o`stirish

- o`quvchi va boshqa tengdoshlar bilan baxs munozaraga kirishish

zero ko`rgazmalilik asosida tashkil qilingan darslar mazmunan boy yorqin ranglarda ifodalangani va o`tilayotgan mavzu o`quvchi shuurida yaqqol ifodalanishi bilan ham ahamiyatlidir. AKTyordamida o`quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasi nafaqat o`quvchining bilimlari yaxshi o`zlashtirishi, balki uning o`z faoliyatini baholash jarayonining holatiga ham bog`liq. O`quvchi o`quv topshiriqlarni takomillashtirish davrida o`quvchilarda o`z faoliyatlarini baholash ko`nikmalarini shakllantirishni maqsadi qilib qo`yishi kerak. Bu yosinda o`quvchi bolalardagi quyidagi xususiyatlarni inobatga oladi.

- Ularning yosh xususiyatlarini

- Milliy olami

- Xissiyotlarini

- O'quv-biluv imkoniyatlarini.

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda pedagoglarni ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga innovatsion uslublarni media texnologiyalarini joriy etish talab qilinadi. Interfaol doska electron darsliklar va boshqa electron axborot ta'lim resurslaridan (EATR) o'quv jarayonida foydalanishning eng qulay imkoniyatini beradi. Ayniqsa boshlang'ich sinflar uchun Multimaedia Markazi tomonidan birqancha EATR ishlab chiqilgan bo'lib bular interfaol electron doska yordamida o'quvchilarga yetkazib berilishi lozim. O'quvchilar mustaqil o'zlari yoki guruhlarda interfaol doska yordamida EATRLardagi o'yinlar, testlar, krossvortlar va boshqa qiziqarli mashg'ulotlarni bajarishlari mumkin. Shuningdek, dars jaraayonida fe'l-atvorlarini ko'rish va kuzatish mumkin bo'lmagan hollarda ulardan foydalanish yanada asosli bo'ladi.

Multimedia markazi tomonidan tayorlangan electron qo'llanmalar ham o'z samarasini beradi. Maskur qo'llanmalardagi animatsiyalar bolada zavq uyg'otadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv adabiyotlarini axborot kommunikatsion texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida multimedilar yani musiqali o'yinli electron darslik ko'rinishida ishlab chiqish va ular asosida dars jarayonini tashkil qilish berilayotgan o'quv materiallarini oson va qulay o'zlashtirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi mustaqil ravishda uyda, masofadan turib bilim olishga ega bo'ladilar.

CHET TILINI O'RGANISG ORQALI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY TAFAKKURNING SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

L.Qodirova, M.Toshpo'latova - Farg'ona pedagogika kolleji o'qituvchilari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012yil 10 dekabrda "Chet tillar o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875 – sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 4 yanvardagi 07-07/ 1- 840 – sonly majlisi bayoni, Xalq ta'limi vazirligining 2013 yil 8 yanvardagi 8- sonly buyruqlarida o'sib kelayotgan yosh avlodga xorijiy tillarni samarali o'rgatish vazifalari belgilangan . Albatta, aytish joizki, aynan vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi pedagog o'z ustida ishlashning quyidagi tashkiliy jihatlarni yaqindan va amaliy o'rganishi zarur:

___ davlat tomonidan talab qilingan bilim, ko'nikma va malaka darajalarini o'rganib chiqishi;

___ metodik ko'rsatmalar ustida ishlashi;

___ o'z pedagogik va mutaxassislik faoliyatini qayta ko'rib chiqish va talablarga moslashtirish.

Ya'ni o'qituvchi o'z dars mashg'ulotida o'quvchilar tafakkurini rivioltirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanib shunday shart – sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki natijada o'quvchi uchun taqdim etilgan o'quv materiallar undagi xohishi, qiziqishi, shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan jihatlari namoyon bo'lishi kerak. Chunoschi, har bir shaxs uchun muloqotda bo'lgan

ehtiyoj tabiiy xarakterga ega. Shuning uchun ham u ta'lim – tarbiya jarayonida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning intilishlarini o'qituvchi yoki tengdoshlarining ichki olamiga yaqinlashtirish uchun atrofda qilargana uning nazari bilan yondashish, ularni tinglash va tushunish muhim o'rin egallaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar nafaqat bilimlarni o'rganishga jalb etiladilar, balki ularning muloqotga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi.

Masalan, o'qituvchi qayta aloqa yordamida guruhlardan topshirilgan vazifani qay darajada tushunganligini tekshirib oladi, agarda guruh ishtirokchilari vazifani to'g'ri tushunmagan bo'lsa, topshiriqni kutilgandek bajara olmaydi. "Qayta aloqa"da o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanadi:

- savol –javob;
- tezkor so'rash;
- "auksion";
- o'ylang, juftlikda ishleng, fikr almashing.

Shuningdek, maktab o'quvchilarida ingliz tilini o'rganish orqali ijtimoiy tafakkurning shakllantirishning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham ingliz tili fani o'qituvchisi har bir dars mashg'ulotida gapirish malakasiga alohida va doimiy e'tibor berishi zarur .

O'qituvchi o'quvchilardagi bilimlar potensialini ishga solishga ijodiy va pedagogik- psixologik imkoniyatlarini ta'minlab berishga shay bo'lib turishi zarur.

Ta'lim mazmuniga binoan, gapirish malakasini egallash jarayonida o'quvchi quyidagi mavzularni uzviylikda egallab borishi nazarda tutilgan;

- dialogik nutqda
- monologik nutqda

Albatta, ijtimoiy tafakkurni shakllantirishda chet tili fani o'qituvchisi o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. O'qituvchi pedagogik muloqot qonun –qoidalarini yaxshi bilishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'z navbatida, faqatgina pedagogik muloqot orqali o'quvchilarni tashabbuskorlikka, hamkorlikka, o'zaro ijobiy munosabatlar o'rnatishga muvaffaq bo'ladi.

Oquvchi (learner) faqat muloqotdosh sifatida emas, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o'rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar to'plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi) ni oshirish bilan mashg'ul bo'ladi.

Dialogik nutqda quyidagi faoliyat ko'rinishi:

- o'zini tanishtirish tanishtirish;
- minnatdorchilik bildirish;
- iltimos qilish;
- ma'lumot olish va berish;
- uzr so'rash;
- tabriklash;
- taklif etish va taklifni qabul qilish yoki rad edish;

Monologik nutqda:

- voqea, hodisa yoki tajribani soda bayon qilish;

- qisqa hikoyalarni gapirib berish;
- yoshiga mos mavzuda soda va kichik taqdimotlar qilish.

Bu yo' sinda gapirish malakasiga oid bo'lgan texnologiyalarning uchta jihatini alohida e'tirof etish mumkin:

- amaliyot imko niyatlarini (practice opportunities);
- maqsadli kommunikatsiya (purposeful communication);
- mazmunli holatlar (meaningful situations).

Bugungi ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvi hozirgi holati bilan emas, balki taraqqiyotning ertangi kun talablarini ham hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish zarurdir. Ijodkor o'qituvchi quyidagi metodlardan foydalanadi :

- Savol- javob (Ask and answer);
- Tasavvur qilish va chizish (Describe any draws);
- Muhokama (Discussion);
- Topqirlik (guessing));
- Eslab qolish (Remembering);
- Mimika (Miming);
- Tartiblashtirish (Ordering);
- Rolli o'yinlar (Role playing);
- Jigsaw uslubi.

Misol sifatida “Jigsaw” uslubini olamiz. O'quvchilar bu usulda guruhlariga bo'linib ishlagani ma'qul. O'qituvchi mavzuga oid to'g'ri rilanmagan jumladan iborat gaplar bitilgan qog'ozlarni guruhlariga tarqatib chiqadi. Guruh o'quvchilari o'zaro kelishilgan holda to'g'ri ketma ketlikda ularni joylashtirib matn hosil qilishadi . Nihoyat ushbu matnga oid o'z fikrlarini bildirib borishadi.

O'quvchilarda ijtimoiy tafakkurni shakllantirishda ijodiy hamkorlik hamda sog'lom “ mikroiqlim “ bo'lishi shart, chunki o'quvchilarda ongli intizom shakllanishida darsdagi axloqiy psixologik muhit ahamiyatga ega. Darsning psixologik muhiti yoki mikroiqlimi – bu o'quvchilar va o'qituvchining hissiy emotsional holatidir. Dars vaqtida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotda quyidagi iqlim bo'lishi zarur:

- hursandchilik;
- tetiklik va o'ziga ishonchlilik ;
- hamfikrlilik;
- o'qituvchining o'quvchilarga talabchanligi.

Demak, xorijiy tili o'qituvchisi shunday ijobiy, psixologik- pedagogik maydonni tashkil etsa o'quvchi nafaqat yozish, gapirish malakasiga ega bo'lmay, balki tinglab tushunish va bevosita muloqotga kirishishga shay bo'ladi. Zero, chet tili o'rgatish metodikasida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. (“O'quv dasturi”, “Curriculum”)

Bular bilan birga bu saboqlarni har xil interfaol, visual, kognitiv o'yinlar orqali axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan o'tkazish, dastlabki asosiy tushunchalarni esa oson, yengil o'zlashtirilishiga sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lishi zarur.

AKT orqali interfaol usullar o'quvchilarni erkin fikrlash, mustaqil, ijobiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi va to'g'rima to'g'ri ijtimoiy tafakkurning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

AKTdan foydalanish usuli quyidagi ijobiy afzalliklarni yaratadi:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash va mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi;
- axborotning qabul qilishning audiovizual va kinestetik qabul qilish imkonini yaratadi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish uchun qulay pedagogik va psixologik shart - sharoit vujudga keladi;
- kreative fikrlash;
- grafikli ifodalash;
- o'z- o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati vujudga keladi;

Agar o'qituvchi boshqa fanlarga integratsiyalashishni muvaffaqiyatli amalga oshirsa o'quvchilarda ijtimoiy tafakkurning shakllanishiga yangi imkoniyat tug'iladi, unda o'qituvchi tashkily savollar, amaliy yordam, ilmiy yondashish xususida fikr almashishi va yuritishi mumkin.

Chet tili ta'limida kommunikativ metod tatbiq etiladi. Xorijiy G'arb lingvodidaktikasi istilohida buni madaniyatlararo muloqot yo'nalishi nomi bilan yuritiladi. Mazkur metodik nazariya kognitologiya, lingvokulturologiya va boshqa zamonaviy fanlarning so'nggi yutuqlariasosida shakllangan va keng ko'lamda joriy etilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda "Umumyevropa kompetensiyalari" asosida yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimining Davlat Ta'lim Standartlari barcha til o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar uchun asosiy me'yor sifatida qabul qilindi.

Ana shunday me'yorlarni va boshqa talablarni bajarish uchun o'qituvchidan doimiy izlanish va topqirlik talab qilinadi.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO'GARAKLARI ISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Muhammadbobur Saydaliyev - FDU qoshidagi 2-son akademik litsey jismoniy tarbiya o'qituvchisi

Yurtboshimiz I.A.Karimov "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir" nomli ma'ruzasida "... hammamizga ayonki, farzandlarimizni, yangi avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, bu maqsadga erishish, hech shubhasiz, davlatimiz, jamiyatimizning e'tibor markazida turishi, olib borilayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart. Shu maqsadga bu masalaga daxldor va mutasaddi bo'lgan qaysi soha, qaysi jarayonni olmaylik, ularning barchasini rivojlantirish, yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishda davlatning roli katta ekani hech kimga sir emas". Darhaqiqat, davlat tomonidan, aynan, ta'lim-tarbiya sohasida kuchli huquqiy va moddiy asoslar ham yaratilgan.

Ta'lim-tarbiya shaxsga yo'naltirilib, shaxsning shakllanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaxshilash, takomillashtirish kabi vazifalar ko'zda tutilgan. Zero,

Prezidentimiz I.A.Karimov “o’g’il qizlarimizni turli to’garaklarga jalb etish, kam ta’minlangan oilalarga moddiy va ma’naviy yordam ko’rsatish, o’z hududida yana boshqa masalalar bo’yicha mahalla faoliyatini kuchaytirish, ularga yangi vakolat va imkoniyatlar berish lozim”.

Demak, shaxsni shakllantirishda sinfdan tashqari, maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirish, barcha shart-sharoitlardan foydalanish lozim.

Har qanday to’garak o’quv muassasasining tayanch mexanizmi hisoblanadi. To’garaklar sinfdan tashqari vaqtida ta’lim oluvchilar bilan ishlash, ularning qobiliyati, iste’dodini shakllantirish hamda fan yutuqlarini singdirish uchun xizmat qiladi.

Albatta, to’garak rahbarining vazifalari ham aniqlangan. Bular quyidigicha:

- ta’lim muassasasi to’garak ishini tashkillashtiradi va rahbarlik qiladi;
- to’garak ishini buyuk ajdodlarimiz merosiga chuqur hurmat bilan yondoshish, milliy g’urur va Vatanga sadoqat ruhida, darsdan tashqari vaqtdan unumli foydalanish maqsadida to’garak faoliyatini yurgizadi;
- yo’nalish bo’yicha to’garak a’zolari bilan individual va guruhviy mashg’ulotlar olib boradi;
- to’garak a’zolarida kasbiy mahoratni mustahkamlash va bilim darajasini yuksaltirishga harakat qiladi;
- to’garak a’zolarini (jamo) turli musobaqa, konsert va boshqa ommaviy tadbirlardagi ishtirokini ta’minlaydi;
- to’garak a’zolari (jamo)ni o’quv intizomiga rioya etishni nazorat qiladi va davomatini olib boradi;
- ota-onalar, Axborot-resurs markazi, kutubxona xodimlari, guruh hamkorlik qiladi va h.k.

To’garak rahbari uchun lozim bo’lgan talablar:

- O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonunlari, ta’lim to’g’risidagi boshqa hujjatlari, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi, O’rta maxsus kasb-hunar markazining normativ-huquqiy hujjatlarini, ushbu yo’nalish bo’yicha to’garak ishlari dasturini, pedagogika asoslarini, pedagogika-psixologiya hamda o’smirlar psixologiyasini bilishi shart.

- Zamonaviy tarbiya va o’qitishning ilg’or usullari hamda uslublarini, turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o’tkazishni, madaniyat va san’at, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo’lishi shart va h.k.

Ammo, lekin, sir emaski, ayrim o’quv muassasalarda to’garak ishlari yaxshi yurgizmagan. Agar to’garaklar ishlasa ham o’quv muassasaning ma’naviy-ma’rifiy ishlari bilan bog’lanmagan, yoki nazorat ostidagi kerakli darajada emas. Bunday holatlar quyidagi salbiy oqibatlariga olib keladi:

-ma’rifiy ishlari bilan bog’lanmagan, yoki nazorat ostidagi kerakli darajada emas;

- o’quv muassasaning ma’naviy-ma’rifiy ishlar sust darajada bo’lishi;

- fan Olimpiadasiga o’quvchilar tomonidan qiziqmasligi;

- o’quv muassasasida ham o’qituvchilar ham o’quvchilar jamoasi ichida ijodiy muhitning yo’qligi;

- jamoat ishlari va ularning bajarilishi yaxshi darajada emasligi;
- olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar kerakli estetik atvorida emasligi;
- o'quv muassasalarida to'garak ishlari bo'yicha ko'rik-tanlovlar olib borilmasligi;

- Axborot-resurs kutubxonalar bilan aloqa o'rnatmaganligi;
- maktab-kollej-oliy o'quv yurti konsepsiyasi mavjud emasligi va h.k.

Bizning davlatimizda insonning sog'ligiga, uning sog'lom turmush tarziga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 9650 dan ortiq umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, unda 9700000 dan ortiq o'quvchi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi.

Mustaqillik tufayli jismoniy tarbiya va sport yurtimiz taraqqiyotining barcha sohalarini kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivoj topmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, "Ommaviy sport tadbirlarini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi qarorlar va shu sohaga oid boshqa konseptual hujjatlarning qabul qilinishi, ularning bosqichma-bosqich hayotga tadbir etilayotganligi hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunlarda jismoniy tarbiya va sportga alohida urg'u berilgan. Prezident I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ham buning isbotidir.

Yoshlar o'rtasida "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada"lar kabi sport musobaqalari keng ommalashmoqda.

Bizning fikrimizga ko'ra, aynan, jismoniy tarbiya va sport to'garagi barcha vazifalarni, muammo va yechimlarni hal etishga xizmat qiladi.

Bunday to'garaklarda quyidagi ijobiy fazilatlar shakllanadi:

- to'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari yoshlarimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- farzandlarimizni jismoniy va ruhiy rivojlanishiga asos bo'ladi;

- himoya-moslashuv reaksiyalarini oshirib, organizmini chidamliligini kuchaytiradi;

- o'smirlarga quvnoqlik, tetiklik bag'ishlaydi;

- bellashuv jarayonida o'zini idrok etadi;

- to'garak a'zosi o'z qobiliyatiga ishonchni hosil qiladi;

- boshqalarni hurmat qiladi;

- guruh uchun fidoyilashadi;

- katta va kichiklarni hurmat qiladi;

- o'z tengqurlari bilan do'stona munosabat o'rnatadi;

- to'garakda ustozini hurmat qilish orqali boshqa fan o'qituvchilarini ham hurmat qilishni boshlaydi va h.k.

To'garak ishlarini jonlantirish uchun qanday usul va ish shakllaridan foydalanish mumkin? Biz quyidagi jadvalni taqdim etdik.

Tt/r	Tadbir nomi	Ish shakli	Usul	Mas'ul shaxslar, tashkilotlar
1	“Avlodlar uchrashuvi”	Jismoniy tarbiya va sport faxriylari bilan uchrashuvi	Ma'ruza, sportchilar chiqishlari, musiqaviy va badiiy ko'rinishlar	Mahalla, maktab, sport qo'mitasi, ota-onalar Kengashi
2	Boshqa maktablar bilan sport-bellashuvi	Musobaqa, bellashuv	Shartlar asosida baholash	Mahalla, maktab, sport qo'mitasi, ota-onalar Kengashi
3	Maktab tadbirida to'garakning ishtiroki	Sport chiqishlari	Sport mashqlarni namoyish qilish	To'garak rahbari, to'garak a'zolari, ota-onalar Kengashi
4	“Umid nihollari”ga to'garak a'zosini tayyorlash	“Umid nihollari”ga qatnashish uchun Dasturi, me'yorlari bilan tanishtirish ishlari bilan shug'ullanish	Me'yorlarni yodlash, devoriy gazetasida yoritish	To'garak rahbari, to'garak yetakchisi, a'zolari
5	Ota-onalar bellashuvi	Otalar va onalar o'rtasida bellashuvlar o'tkazish	Tayyorlanishga yordam berish	Mahalla, ota-onalar Kengashi, maktab ma'muriyati, sport qo'mitasi

Albatta, bunday jadvalni ham kengaytirish ham uzaytirish mumkin. Ya'ni “jadvalga o'tkazish vaqti”, “hamkor tashkilotlar”ni ham qo'shish mumkin.

Eng asosiysi, to'garak ishlari milliy g'oya, milliy urf-odatlar, huquqiy madaniyat asosida olib borilishi shartdir.

To'garak ishini sistematik ravishda olib borgan o'qituvchi-pedagog o'quvchilar, ota-onalar, mahalla ahli, aholi tomonidan hurmat va ehtiromga sazovor bo'ladi.

“HUQUQSHUNOSLIK” FANINI O’QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*B.Yo’lchiyev, M.Yigitaliyeva - Uchko’prik sanoat va
qishloq xo’jalik kolleji*

Respublikamizda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda “Huquqshunoslik” fanining o’rni va roli cheksizdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1997 yil 20 may kuni Respublika huquq-tartibot idora rahbarlari, huquqshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari shakllari bilan uchrashuvda xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi lozimligini, mustaqillik so’zining zaminida katta, ulug’ huquqqa ega bo’lish degan tushuncha yotganini aytgan edi. O’zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi Qonuni yoshlarga oid qonun hujjatlari asosini tashkil etadi.

Yoshlar o’rtasida jinoyatchilikni olish, ular o’rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida ko’plab ishlar qilinmoqda. Aynan, ta’lim-tarbiya sohasida islohotlar o’tkazish yo’sinida O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’lim to’g’risida”gi Nizomi, “O’zbekiston Respublikasida o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” va boshqa bir qancha huquqiy hujjatlar misol bo’la oladi.

“O’zbekiston Respublikasida yoshlar va turli yoshdagi balog’atga yetmaganlarning huquqiy ta’limi haqida”gi Nizomga asosan huquqiy ta’lim respublikadagi barcha oliy o’quv yurtlarida maktablarida, gimnaziyalarda, litseylarida (o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) maxsus dastur asosida olib borilishi ta’kidlangan.

Shuningdek, “Huquqshunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari aniq belgilanib berilgan.

“Huquqshunoslik” fanining mazmun-mohiyati, unda o’tiladigan huquq sohalarida olgan bilimlarning amaliyotda qo’llanishi fanning predmeti hisoblanadi. Huquqshunoslikda tarkib topgan barcha huquq sohalarni o’zlashtirgan holda huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishda o’z hissalarini qo’shishga o’rgatish – “Huquqshunoslik” fanining asosiy vazifasidir.

Demak, o’qituvchi-pedagoglarning asosiy maqsadi – bu innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o’quvchi shaxsda huquqiy madaniyatni shakllantirishdir.

Innovatsion texnologiya nima?

Innovatsion so’zi innovatsiya tushunchasidan kelib chiqib yangi (novaya), yangilikni kiritish ma’nosini anglatadi. “Texnologiya” yunoncha so’zdan kelib chiqqan bo’lib, “techno” – mahorat, san’at va malaka va “logos” – so’z ta’limot ma’nolarini anglatadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondoshish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishlardir. Demak, innovatsion texnologiyasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- yangi, zamonaviy texnologiyalarni o'rganish;
- dars-mashg'ulotga tayyorlanishda loyiha, reja va didaktik materiallarni tayyorlashda fan va pedagogika yutuqlaridan foydalanish;
- interfaol ta'limni tashkil etish;
- AKTdan foydalanish va h.k.

Texnologik yondashuvga asoslangan ta'lim – bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ta'limga tizimli – harakatli yondashuvga asoslanadi. Ta'lim oluvchi shaxs – ta'lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning insonparvarligi va erkinligi, o'qishga majburlashdan voz kechishni ham nazarda tutadi. Tabaqalashtirish va individuallashtirish umumiy ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular o'zlashtirilishini hisobga olishni ta'kidlaydi.

Innovatsion texnologiya, albatta, o'rganish – aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiy ta'lim oluvchilarning egallagan bilimlarni qo'llay olishlari xususiyati bo'yicha izlanuvchan ijodiylikni ifoda etishi kabi mazmun-mohiyatiga ega.

“Huquqshunoslik” fani boshqa fanlardan o'z tizimlili bilan farq qiladi, birinchidan, ikkinchidan, ushbu fan ijtimoiy voqelikdan kelib chiqib, unda kundankunga yangiliklar kuzatilmoqda. Bular ham ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlari bilan bog'langan bo'lib, davlat tomondan tasdiqlangan qonunlardan kelib chiqadi.

Demak, “Huquqshunoslik” fanini o'qitishda o'qituvchi faoliyatiga 2 ta asosiy, bir-birini to'ldirayotgan va boyitadigan yo'nalishlar jonli jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Bular quyidagilar:

- kasb komponentligi;
- pedagogik mahorati.

Innovatsion pedtexnologiyasini qurishda o'qituvchi-huquqshunos yana 2 ta asosiy omillarni qo'shishi zarur:

- milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim-tarbiyani olib borish;
- axborot kommunikatsion texnologiyasidan foydalanish.

Albatta, o'qituvchi-huquqshunos interfaol ta'limni tashkil etishda yuqorida keltirilgan pedagogik va zaruriy omillardan foydalanadi.

Interfaol (interaktiv) deganda “inter” – birgalikda “act” – faoliyat, harakat ma'nosini anglatadi.

O'qituvchi dars-mashg'ulotida, eng zamonaviy usullardan foydalanadi. Ya'ni, axborot kommunikativ texnologiyasidan foydalanish barcha qulayliklar yaratadi.

Bular:

- Internet materiallaridan foydalanish;
- Kompyuter dasturidan foydalanish.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek, qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim

jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir.

Masalan, o'qituvchi talablarga "Huquqiy davlat", "Huquqiy madaniyat" tushunchalarni keltirganda, hozirgi zamonda ularning dolzarbligiga urg'u berib, risolalaridan foydalanishi o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati haqida dalolat beradi. "Huquqiy madaniyatni shakllantirish – davr talabi" mavzusida talabalar o'rtasida mulohazalar tashkil etib, fan yutuqlaridan foydalanishi – bu darsdagi innovatsiyalar kiritish mexanizmi yuqori darajada ishlayotganligining isbotidir.

Aynan, o'qituvchi bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014 yil 6 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli qaroriga imzo chekkanligini aytib, ushbu Qaror asosida maxsus Davlat dasturi tasdiqlanganligini gapirib o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortadi.

Dastur ijrosini to'laonli hamda sifatli amalga oshirish harakat rejasi ishlab chiqildi.

Mazkur harakat rejasi 7 bo'lim 76 bandedan iborat bo'lib, o'zida turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni qamrab olgan.

1. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish yo'nalishi.

2. Yuksak ma'naviyat, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo'nalishi.

3. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish yo'nalishi.

4. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish yo'nalishi.

5. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishi.

6. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikni va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish yo'nalishi.

7. Barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'nalishi.

Yuqoridagi yo'nalishlarni tahlil qilish, o'quvchilarning fikriy munosabatlarini o'rganish orqali, darsda effektiv rezonans paydo bo'ladi. O'qituvchi hukumat portaliga, "Qonunchilik" saytlariga kirib o'quvchilarni qiziqtirishi mumkin. Undan tashqari, "Milliy istiqloq g'oyasi", "O'zbekiston tarixi", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlar bilan integratsiyalashuvi, ulardagi so'z va terminlarning etimologiyasi darsni boyitiradi.

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*B.Yo'lchiyev, M.Yigitaliyeva - Uchko'prik sanoat va
qishloq xo'jalik kolleji*

Jamiyat hayotiga ilmiy axborotlarning tezlik bilan kirib kelayotganligi pedagoglar salohiyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda. Zero, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda respublikamizda o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darsliklar, multimedia hamda elektron doskalarni keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. AKT kommunikatsiya texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, mashg'ulotlarni tashkil etishda, darsdan tashqari mashg'ulotlar, tadbirlarni o'tkazishda quyidagi ko'rsatmalilik namoyon etmoqda:

- slaydlar;
- videolavhalar;
- audiovositalar;
- multimedia;
- elektron doska yordamida ovoz va tasvirlarni namoyish qilish va h.k.

Shuning uchun, bu borada pedagog kadrlar salohiyatini yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Ular o'z bilimlarini mustaqil oshirib, malakalarini takomillashtirishlari talab etiladi.

O'qituvchi-pedagog quyidagilarni amalga oshirishni o'rganishi zarur:

- Internet tarmog'idan foydalanib, o'quv va ilmiy axborotlar qabul qilish;
- Unda o'z sahifasini ochish;
- Elektron kutubxona yaratish;
- Masofaviy tizimni yaratish;
- Elektron darslik va ulardan foydalanish asoslarini o'zlashtirish va h.k.

Ta'limda o'quvchilarga o'rgatilishi kerak bo'lgan nutqiy mavzular asosida darslik materiallaridan tashqari videofilmlar, audiovositalar, multimedia, qolaversa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanishdan ko'zlagan asosiy maqsad quyidagilar:

- videolavhalar yordamida matn mazmunini his qilish voqea-hodisalar, asar qahramonlariga munosabat bildirish, o'zaro bahs-munozaraga kirishish;
- darslik bilan chegaralanib qolmaslik;
- o'quvchilarda ma'lumotlarni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish, mustaqil ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- topshiriqlarni qisqa muddatda sifatli bajarish;
- fan va amaliyotning yangi yutuqlardan foydalanib o'quvchilarda faoliyatni motivatsiya qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarning qobiliyatini maksimal darajada kengaytirish va ularni har tomonlama rivojlantirish imkoniyatini o'rganish;
- o'quvchilarning savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarda erkin fikrlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;

- ta'lim sifati va samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarish.

Albatta, zamonaviy o'qituvchi ham o'zi o'rganib ham ushbu xususida o'quvchilar bilan fikr almashishi kerak.

Masalan, o'qituvchi-pedagog quyidagi axborot va ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur:

- tarmoq tushunchasi;
- Internet, internet tarmog'i tushunchasi va unda ishlashni ta'minlovchi

qurilma;

- elektron pochta haqida tushuncha;
- elektron pochtaga kirish;
- elektron pochtaga xat yuborish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va h.k.

Zamonaviy o'qituvchining AKTni sohasidagi kompetentligi pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotida aktiv muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Davlatimiz tomonidan mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimida keng e'tibor qaratilib, ta'lim muassasalari zamonaviy o'quv-texnik vositalar, kompyuter texnikalari bilan ta'minlanib, internet, Ziyonet tarmog'larida ulandi.

Barcha ixtisosliklar bo'yicha elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va elektron axborot ta'lim resurslari yaratilib muntazam zamonaviy fan-texnika yutuqlarini qo'llagan holda yangilanib borilmoqda.

O'qituvchining AKT-kompetentligini nazariy aspektda hayot tarzi, metodologik aspektda esa aniq maqsadga erishish zarurdir.

Masalan, o'qituvchi-pedagog tomonidan portfolioni tashkil etish effektiv natijaga egadir. Chunki o'qituvchi o'ziga xos o'sish darajasini, egallagan yutuqlari yoki kamchiliklarni kuzatish mumkin.

Demak, o'qituvchi AKTdan keng foydalanish mumkin. Hozirgi davrda globallashtirish jarayonlari eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik hamda odamlar hayoti uchun zarur axborotni yig'ish va taqsimlash, mehnat unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda.

Shu bilan birgalikda o'qituvchi-pedagog o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni saqlab qolishda, ularni yuksak darajasiga olib chiqishi haqida qayg'urishi lozim. Chunki o'zgarib borayotgan dunyo mantig'ining chuqur mazmun-mohiyatini, hozirgi dunyoda vujudga kelayotgan ixtilof va ziddiyatlarning sabablarini to'g'ri aniqlash uchun ijtimoiy rivojlanishning asosiy tomirini belgilash zarur. Bular esa, madaniyat va uning bosh o'zagi bo'lmish ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridir. Demak, zamonaviy o'qituvchi-pedagog dars-mashg'ulotlarini loyihalashtirganda, AKTdan foydalanish qismida o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy mezonlarini sifatlashga harakat qiladi. Chunonchi, uning har bir dars mashg'uloti rang-barang, innovatsion yondashuv, interfaollik va foydali ma'lumotga ega bo'lgan axboroti o'quvchilar ongida fanga nisbatan quyidagi ijobiy motivatsiyalarni tug'diradi:

- qo'shimcha fikrni bildirish;
- o'zini ifoda etish;
- internet materiallardan foydalanishga intilish;

- kompyuter dasturini o'rganish va undan unumli foydalanish;
- kompyuter moslamasiga qiziqish;
- klaviaturaga va undan foydalanishga qiziqish;
- fan yutuqlari haqida ma'lumot izlash va h.k.

Sifatli tayyorlangan ta'lim muhiti bir butun rivojlanuvchi va o'z-o'zidan paydo bo'luvchi boshlanish sifatida ta'lim oluvchilar shaxs rivojlanishi uchun yoki samarali ta'limning bosh faktori uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Masalan, "Huquqshunoslik" fani o'qituvchisi ko'plab sayt va portallaridan foydalanishi mumkin. Ular quyidagichadir:

- Prezident va hukumat portali;
- Oliy Majlis sayti;
- Vazirlar Mahkamasi sayti;
- Adliya vazirligi va h.k.

O'qituvchi, integratsiyalashuv maqsadida fanning oqimiga qarab, ish saytlariga kirib, foydalanishi mumkin. O'qituvchining kasbiy mahorati axborot va kommunikatsiyasidan foydalanish orqali shakllanishi darkor.

Bundan tashqari, o'quvchilar ta'limini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan test (misol tariqasida) sinovlar o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalanishi o'zi dars sifatini oshirishga olib keladi.

ADABIYOT VA SAN'AT

F.SHILLERNING "DON KARLOS" TRAGEDIYASIDAGI MARKIZ POZA OBRAZI

O' Nurmatov - f.f.n., dotsent,

M.Valijanova - NamDU talabasi

F.Shiller "Don Karlos" tragediyasini yozishga 1783 yilda kirishadi va asar ustida qariyb 5 yil ishlaydi. Bu yillar ichida adibning badiiy ijodga munosabati, g'oyaviy-siyosiy qarashlari o'zgaradi, binobarin, asarning mazmuni, g'oyasi, obrazlar silsilasi, xarakterlarda qam o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tragediya nihoyat 1787 yilda chop etiladi.

Garchi tragediya Don Karlos nomi bilan atalsa-da, asarning bosh qahramoni markiz Pozadir. Aynan shu obraz dramaturg g'oyalarning, o'y-fikr, orzularining ifodachisi sifatida tasvirlangan.

Poza yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum uchun kurashuvchi xalqparvar shaxs. Biroq F.Shiller ham bu davrga kelib "Bo'ron va tazyiq" adabiy harakati ta'siridan chiqqan, uning qahramoni endi jamiyatni zo'ravonlik, to'ntarish yo'li bilan emas, balki yuqoridan, ya'ni qirol tomonidan o'tkaziladigan islohotlar orqali amalga oshirishni maqsad qiladi. Shu sabab barcha umidlarini shahzoda Don Karlos bilan bog'laydi. Uni tushkunlik kayfiyatidan chiqarishga, shaxsiy dardlarini unutish va ozodlik uchun kurashga bel bog'lashiga bor kuchini sarflaydi, hatto qirolni ham o'z qarashlari ta'siriga olishga harakat qiladi.

Poza - obraz-simvol, obraz-g'oya. U yuksak aql-idrokka, chuqur falsafaga, nozik his-tuyg'ularga ega. U nafaqat tenglik, ozodlik haqida ehtiros bilan so'zlaydi, balki niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun Niderlandiya xalqi mustaqilligi uchun astoydil kurashadi, qirol bilan to'qnashadi, turli amaliy rejalar ishlab chiqadi. Uning fojeasi shunda ediki, u kurash usulini aslida noto'g'ri tanlaydi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'sirida ozodlik va tenglik haqidagi orzularini qirol yoki shahzoda iltifoti, islohoti bilan bog'laydi. To'g'ri, o'z orzularini ro'yobga chiqarishda Poza xalq ummasining ulkan rolini ham unutmaydi. Uning fikricha, xalqni tarbiyalash, yuragiga olov yoqish zarur. O'shandagina u ozod hayot uchun kurashga qo'zg'oladi. Lekin bari-bir u ko'proq qirol islohotidan umid qiladi va komil ishonch va ehtiros bilan o'z fikrlarini ochiq-oydin mustabid shohga bayon qiladi:

Bir imzoingiz bilan,

O'zgargay dunyo butun!

Hur, erkin fikrlashchun

Insonga bering imkon!

(Schillers Werke. In 5 Baenden. Bd.1-5. Ausgewaehlt und eingeleitet von J. Mueller.-Berlin: Aufbau-Verlag, 1969)

Poza o'z orzularini ro'yobga chiqarishda ko'proq shahzoda Don Karlosga umid bog'laydi. U o'zining halok bo'lishini bilganida ham, shahzodaga quyidagi so'zlarini yetkazishni Yelizavetadan so'raydi:

Garchi o'tar asrlar, ammo

Textga kelar shunday shahzoda!

Qalbida yongay ozodlik o'ti,

O'shanda adolat qilgay tantana! (*O`Nurmatov tarjimalari*)

Poza fikricha, yakka hokimlik, qirollik tuzumi fuqarolar ozodligi bilan uyg'un tarzda rivojlanmog'i lozim. Feodal mutloq hokimchiligi "ozodlik bahorining kelishiga to'sqinlik qilmasligi, tarix g'ildiragini to'xtatish"ga urinmasligi, shu bilan birga, quyidan inqilob qilish g'oyasi ham majburan singdirilmasligi lozim. Ana o'shanda jamiyat asta-sekin gullab boradi.

Ammo F.Shiller siyosiy g'alaba uchun, adolat uchun ochiq kurash yo'lini ham inkor etmaydi. Shu bois ham Don Karlos Niderlandiyaga borib, xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilishni niyat qiladi.

Tragediyadagi ijobiy qahramonlar halokati ularning ma'naviy inqirozi emas. Ilg'or g'oyalar tantanasi sarob emas. Hur fikr, ozodlik g'alabasiga komil ishonch ruhi butun tragediyaga singdirib yuborilgan. Shu bilan nemis dramaturgi F.Shillerning "Don Karlos" asari bugungi kunda ham qadrlidir.

MURABBIYNING TA'LIM-TARBIYADAGI O'RNI

*O` Abdullayev - NamDU Tasviriy sa'at va muhandislik
grafikasi kafedrası mudiri,*

X.Raximov - TSMG yo'nalishi 4-kurs talabasi

O'qituvchilik-o'ta mas'uliyatli va kerakli kasbdir. O'qituvchining zimmasiga eng muhim vazifa-inson tarbiyasi yuklatilgan.

Bola ilk bor maktabga qadam qo'yar ekan, o'qituvchi-murabbiy uni mehr bilan kutib oladi. O'z farzandidek asrab-avaylaydi, voyaga etkazadi. Ona, Vatan kabi muqaddas so'zlarni shu murabbiy o'rgatadi, bola qalbiga singdiradi. Bola maktabga qatnagan dastlabki kunlardan oq, o'qituvchi bilan yaqin muloqotda bo'lib uning ko'rsatmalari, maslaxatlari bo'yicha ish olib boradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchi ko'rsatmalarini bajarishni shart va zarur deb tushunishadi. Bu tabiiy ho'l, albatta. Shu boisdan ham o'qituvchi shaxsiy kamolotga erishgan, e'tiborli, xushyor, zamonaviy bilimlarni egallagan kishi bo'lishi lozim. Demak, u o'z ustida tinmay ishlashi, hayot bilan hamnafas bo'lishi va g'oyaviy-siyosiy jihatdan namunaviy bo'lishi kerak. O'qituvchining yana bir mas'uliyatli vazifasi shuki, u muomala madaniyati, kishilarga bo'lgan samimiy munosabati, o'zini tuta bilishi, kiyinishi, umuman xulq-atvori bilan ham yoshlarga ibrat namunasi ko'rsatishi kerak.

O'qituvchi-ustoz va donomaslahatchi hamdir. Ba'zi o'quvchilarda ayrim sabablarga ko'ra, ruhiy tushkunlikka tushish, dars qoldirish yoki darsga tayyorlanmasdan kelish hollari yuz beradi. Bu o'rinda o'qituvchi ulardagi bunday o'zgarishlarni o'z vaqtida seza bilishi, uning sababini aniqlashi, o'quvchiga to'g'ri yul ko'rsatib, yordam berishi zarur. Chunki, ayrim o'quvchilar o'z shaxsiy hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni ota-onalariga aytishga jur'at qilolmaydilar. Demak, o'qituvchi o'quvchilardagi umumiy xislatlardan tashqarim, ulardagi shaxsiy xislatlarni ham ko'ra olishi kerak.

Bir sinf yoki bir auditoriyada bir necha millat vakillari bilim oladilar. Ularni do'stlik, qardoshlik, o'zaro mehr-muhabbat degan qudratli kuch bir oila farzandlaridek birlashtiradi. O'qituvchi esa, bu tuyg'ularni yanada takomillashtiradi.

O'z kasbining ustasi bo'lgan, fanini chuqur va puxta egallagan har bir o'qituvchi o'quvchilarda shu fanga nisbatan mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchining yuksak mahorati tufayli uning kasbini egallab kelgusida etuk olim bo'lib etishgan bir qancha o'quvchilarni bilamiz. O'quvchilarda fanning ma'lum bir sohasiga qiziqish maktab xonalaridan boshlanadi.

"Insonni mehnat ulug'laydi", -deydi dono xalqimiz. Mehnat tufayli el-yurtga tanilgan, obro' qozongan, chinakam baxt egasi bo'lgan kishilar jamiyatimizda behisobdir. Ular haqida suhbat uyushtirish, targ'ibot qilish o'quvchilarda mehnatga hurmat bilan qarash ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Bu tushuncha ularda o'quv qurollarini, sinf va maktab jihozlarini ozoda tutish, darsga tayyorlanish, sinf va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, shanbaliklarda ishlash natijasida yuzaga keladi.

O'qituvchi estetik tarbiya namunalarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi bilan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'ladi. Ozoda, shinamgina, did bilan kamtarona kiyinish murabbiy xislatiga xosdir. Ortiqcha yasan-tusan, pardoz-andoz, zebu ziynatlar taqish o'quvchilar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi e'tiborini dars materiallarini o'zlashtirishdan ko'ra, o'qituvchining tashqi ko'rinishi bilan band bo'ladi. Aksincha, o'qituvchi kamtarlik – inson ko'rki ekanligini ko'rsatsa ayni muddaodir.

Maktab har bir o'quvchi uchun hayotda o'z o'rnini tanlashda yo'lchi yulduzdir. Qadrdon maktabda olingan bilim, mehnat tarbiyasi, sevimli o'qituvchilar, unitilmas damlar butun umrga o'quvchilar xotirasida saqlanadi.

TASVIRIY SAN'ATDA ANIMALIZM JANRI

Saydullayeva Muyassar - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Odamlar tomonidan biror ish, narsa, buyum va boshqa narsalar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarini san'at asari deymiz. Tasviriy san'at o'z o'rnida haykaltaroshlik, rang tasvir va grafika kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'atda voqelik, borliq shakllari chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi. Tasviriy san'atning 5 ta janrga bo'linadi. Bular: portret janri, natyumort janri, manzara janri, tarixiy janr va animalistik janrlarga bo'linadi. Biz animalistik jar hususida ta'xtalib o'tsak.

Tasviriy san'atda animalizm janr sifatida shakllanishigacha bo'lgan davr. Animalizm (lotincha animal-hayvon) ma'nosini bildiradi Animalizm juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Biror hayvonni ilohiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod va tasavvurlar majmui bo'lib xizmat qilgan. Ibtidoiy odamlar ovchilik bilan tirikchilik qilgan davrlarda o'ljani qo'lga kiritish uchun ov oldidan hayvonlarini sexrlovchi turli marosimlar qilganlar. O'rtaga gulhan yoqib mamint shohlari va bosh suyaklarini ko'tarib gulhan atrofida aylanib turli hayvonlar tovushini o'xshatib hirgoyalar qilganlar va fantamimaga o'xshash raqslar ijro etganlar. Ular qaysi

hududda yashasalar – o'sha hududda mavjud bo'lgan hayvonlarning xulq atvorini yurish turishini mukammal o'rganganlar va ilohiylashtirganlar. Masalan: Shimoliy Osiyo va Shimoliy Amerikada ayiqning, Hindistonda Sigirning, Avsraliyada Kenguruning va boshqa malakatlarda turli hayvonlarni muqaddas hisoblangan.

Poleolit g'orlaridan topilgan toshga o'yib ishlangan mamont, bug'u ovi syujetlari juda ta'sirchan va o'ziga hoslik bilan tasvirlangan. Bu tasvirlar ibtidoiy davr ovchilarining naqadar boy tassavurga ega ekanligidan dalolat beradi. Qushlar, hayvonlarni, o'ljani qurshab olgan ovchilarning harakatlarini tasvirlovchi toshga o'yiqlik grafik tasvirlar har qanday kishini hayratlantirishi mumkin. Keyinchalik asta sekin hayvonlarning haykallari, ko'zga tushirilgan tasvirlari paydo bo'ldi. Skiflar, saklar va sarmatlar qabilalarida hayvonlarning tasvirlari amaliy san'at darajasiga ko'tarildi.

Hozirgi kunlarda ham odamlar tasavvurini lol qoldirib kelayotgan Misr exromlari piramidalar ichki devorlaridagi va haykallaridagi hayvonlarning va qushlarning juda mohirona ishlangani tasvirlari bu san'at eng qadimiy sivilizatsiya madaniyatiga ham janr sifatida shakllanib borganidan bizga dalolat berib turibdi.

Dunyo sivilizatsiyasining belanchagi hisoblangan Misrda eramizdan avvalgi IV-III asrlarga me'morchilik va tasviriy san'at, haykaltaroshlik, mahobatli rangtasvir, rel'yef san'atlari rivojlandi va yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Me'morchilikda ilk kalonnalar –ustunlar ilk –palmalik formalari kashf etildi. 20 metrlik Sfinks haykali odam, qush va sher tasvirlarini birlashtirilgan buyuklik va qudratning simvoli sifatida misrlik ijodkorlarning bunyodkorlik ishlari namunasi edi. Nil daryosining quyi oqim tekisliklariga qurilgan shaxarni uchta kattakon balandiligi 170 metrlik piramidali ichki qismdagi devorlari bezagi sifatida Firavnlarni ilohiylashtirish va ularni tarixiy zafarlarini madx etuvchi devoriy rasmlar, simbolikalar va irograflar burgut, sher, ilonlar tasvirlari abjirlik, kuch- qudrat simvollari bo'lib hizmat qiladi. Bundan tashqari bo'ri, g'oz, buqa tasvirlari ham boylik, adolat va shavqat qabilida badiiy mushoxada qilingani yaqqol sezilib turadi. Biz ana shu tasvirlar va san'at namunalarini mushoxada qilib shunday hulosa qilishimiz mumkinki Misrlik ijodkorlarning ijod namunalarida o'ziga hos yuqori darajada badiiy maktab shakllandi. Bu maktab kelajakda Rim imperiyasining yaratilishiga tamal toshi bo'lib hizmat qildi.

Poleolit davriga mansub devoriy rasmlar biz Yevropa malakatlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun Fransiyaning Fon-de-Gon g'oridan topilgan toshdagi bezob (buqa) tasviri juda ishonarli mohirona ishlangan. Uni ko'rib biz ana shu davr suratchisining tasavvuriga qobiliyati va maxoratiga ajablanmay ilojimiz yo'q. Teyran idrok va mushoxada va yuqori darajadagi plastika ibtidoiy davr rassomi bilimi sezgisi va ixtirosi naqadar to'g'riligiga qoyil qolamiz. Boshqa tasvirlarni uchratish mumkin. O'rta asrlarda Yevropada allegorik va fol'kyor ruhdagi tasvirlarning suratleri va haykallari juda keng tarqalgan. Odatda bu haykallar mahalliy homashyodan tayyorlanardi. Sopol, yog'ochga o'yib ishlangan haykallar ana shular jumlasidandir.

Xitoyda ham animalistik rassomlar ijodini kuzatish mumkin. VIII-XIII asrlarda Tan davri Xan Xuan, Sun davri Mu-tsi asosan ipak qog'zga, shoyi matolarga ishlangan suratlarda afsonaviy ajdar ilonlardan tortib uy hayvonlarigacha bo'lgan tasvir namunalariga duch kelishimiz mumkin.

Uyg'onish davri rassomlari A. Dyurer, Pizanelolar hayvonlar tasvirlarini o'ziga qarab ya'ni naturadan chiza boshlaganlar. XVIII asrda Fransiyada J.B.Udri, XIX-XX asrda Rossiyalik I.F. Grom kabi rassomlar animalistik janrning namoyondalari hisoblanishadi.

Animalistik janrda ijod qilishga turtki bo'lgan asosiy omillar.

Ibtidoiy davr odamlarining ilk qadriyatlarini juda qisqa bo'lib turmush quvonchlarini oddiy insoniy ehtiyojlar qorini to'ydirish, dam olish bilan cheklangani uchun, qolaversa ular o'quvsiz bo'lganliklari yani qiziqish va idrok qilish doiralari xali rivojlanish fazasida emasligi uchun eng asosiysi esa taraqqiyot hali ijodiy mushoxada talablariga muhtojlik sezmagani uchun g'ordagi suratlar bilan cheklangan. Keyinchalik odamlar dexqonchilik va hunarmandchilik bilan kun kechira boshladilar. Oila bo'lib yashash ham davlatchilikka qo'yilgan ilk qadam bo'lgan. Asta-sekin jamiyatdagi boy kambag'al degan tushuncha paydo bo'ldi. Moddiy boyliklar ko'paya borgan sari inson manaviy va maishiy ehtiyojlari orta boshladi. Urug'lar birlashib dunyoda katta imperiyalar paydo bo'la boshladi. Bunday jarayonlar albatta jamiyatning har tomonlama rivojlana boshlashga asosiy omil bo'ldi.

Avvallari tabiatning mo'jizalari quyosh, oy, yulduzlar, olov va suvni undan keyin hayvon va parrandalarni iloh deb hisoblagan odamlar ongiga bizni qurshab turgan olam haqidagi tushunchaning to'g'ri talqin qilishning natijasida odamlarning hayvonlarga bo'lgan munosabatlari o'zgarib ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari orta borgan. Tabiatda yovvoyi otlar, qo'y -qo'zilar, itlar, bezonlarni qo'lga o'rgatish zaxira yig'ish ehtiyojlaridan kelib chiqdi. Keyinchalik mehnat quroli sifatida fillar va tuyalarni bu jarayonga jalb qilindi.

Hozirda olamimizda juda ko'p hayvon va parradalarining turlari yo'qolib bormoqda buning asosiy sabablari odamiylashish ehtiyojlari orta borishi, tabiat resurslarining kamayib borayotgani, migratsiya masalalari va shunga o'xshash muayyan sabablarning ortib borishi natijasida desak mublag'a bo'lamaydi.

Bugungi kunda animalistik janrda yaratilayotgan asarlarga talab juda yuqori. Turmushning qaysi jabhasiga murojat qilmaylik. Badiiy bezak ishtirok etmagan madaniy va maishiy sohani topa olmaysiz. Ana shu bezaklarda hayvonlar va parradalarining ulushi salmog'li. Shaxarsozlikda, Lanshaft -dizaynida, sanoatning maishiy sohalarida: oziq-ovqat sanoati kiyim ust bosh sohasi va boshqa sohalarida. Sport kiyimlari brendi "Puma" va shunga o'xshash juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Milliy hunarmandchilik san'ati namunalari ham minglab misollar keltirishimiz mumkin.

RUS RASSOM-PEDAGOGI A. P. SAPOJNIKOVNING QALAMTASVIR O'QITISH FANINING RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

*B. G'. Jabbarov - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrasini dotsenti*

1804 yili maktablar nizomiga asosan Rossiyaning barcha uezd bilim yurtlari va gimnaziyalarining o'quv predmetlari qatoriga qalamtasvir ham o'quv predmeti sifatida kiritiladi. Bu esa o'z navbatida maktablari uchun ko'plab qalamtasvir

o'qituvchilari yetishmasligi muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni burtaraf qilish maqsadida 1825 yili graf Stragonov tashabbusi bilan Moskva shahrida texnik qalamtasvir bilim yurti tashkil qilinadi. Bu bilim yurtida umumta'lim maktablari uchun qalamtasvir o'qituvchilarini tayyorlaydigan maxsus bo'lim ham faoliyat ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablari uchun qalamtasvirga oid maxsus o'quv va uslubiy qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj ham qattiq sezilib qoladi. Bu davrgacha chop qilingan qo'llanmalar maxsus bilim yurtlari va ixtisoslashgan maktablarga mo'ljallangan bo'lib, umumta'lim maktablari uchun esa qalamtasvirga oid hech qanday o'quv adabiyoti yaratilmagan edi.

1834 yili harbiy-muxandis, taniqli rassom-pedagog A. P. Sapojnikov tamonidan "Qalamtasvir kursi" (Kurs risovaniya) nashr qilinadi. Bu umumta'lim maktablari uchun rus rassomi muallifligida nashr qilingan qalamtasvirga oid ilk o'quv qo'llanma bo'ldi. Unda qalamtasvir o'qitishning yangi yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'lib, qalamtasvir nafaqat maxsus bilim yurtlari, balki umumta'lim maktablari o'quv predmeti sifatida ham qaraladi.

Sapojnikov qalamtasvir o'qitish metodikasiga yangicha yondoshadi. U o'z oldiga bo'lajak qalamtasvir ustalarini amaliy ish jarayonida fikrlashga, taxlil, mushohada qilishga o'rgatish vazifasini qo'yadi. Shuning uchun ham u karton va simlardan turli xil modellarni ishlab chiqadi. Bunday modellar jumlasiga kvadrat va aylanani qurilishi va hajmini, perspektivani hamda yorug'-soya qonuniyatlarini o'rgatish uchun tayyorlagan modellari kiradi. Ular asosida esa Shebuev bilan birgalikda anatomik mulyajlar modellarini ham tayyorlaydi.

Sapojnikov tomonidan taklif qilingan qalamtasvir o'qitish metodikasi o'quv-tarbiyaviy ishlarda tub burilish yasaydi. Uni qo'llanmasi nashrdan chiqquniga qadar barcha umumta'lim maktablarida qalamtasvir o'qitish Preysler kitobi asosida olib borilar va asosiy e'tibor asl nusxalardan ko'chirma olishga qaratilardi. Naturadan ishlashga deyarli ahamiyat berilmas, realistik rasm chizishning ba'zi bir qonuniyatlarini haqida jiddiy fikr yuritish haqida esa hech kim o'ylab ham ko'rmagan edi.

Sapojnikov "ixtiyoriy bir buyum tasvirini chizishda o'quvchiga yordam berishning eng yaxshi vositasi"- deb o'qishni boshlarida mazkur buyumlarni soddalashtirish asosida tasvirlash uslubini tavsiya qilgan. Bunda o'quvchi buyumni tashkil qilgan geometrik asosni aniqlab olishi kerak bo'ladi, keyin esa tasvirlashga o'tishi mumkin deb hisoblaydi.

Sapojnikov o'qituvchining vazifasi "o'quvchi chizish jarayonida yo'l qo'ygan hatolarini to'g'rilab, chizib berish bilangina cheklab qolmasdan, balki og'zaki tarzda o'quvchining hatosini tushuntirishdan ham iborat"- deb hisoblaydi. Bunga erishish uchun esa u turli xil modellardan samarali foydalanadi. Uni modellari tasvir ko'rinishini ko'chirish uchun kerak bo'lmasdan, aksincha, naturanig tuzilishi qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qilgan. Modellar natura bilan yonma-yon qo'yilgan bo'lib, ularning vazifasi naturani o'ziga xos konstruktiv tuzilishi qonuniyatlarini o'quvchilarga tushuntirishdan iborat edi. Misol uchun, Sapojnikov gipsdan yasalgan odam boshi tasvirini chizishda simdan yasalgan bosh ko'rinishidagi modeldan foydalanishni tavsiya qiladi: "Gips bosh turgan holatga mos ravishda

qo'yilgan simdan yasalgan model bosh bo'laklarining perspektiv o'zgarishini tushintirishga xizmat qiladi"¹⁴⁸.

Bu modelning maqsad va vazifasi haqida muallifning o'zi shunday deb yozadi: "Badiiy Akademiya imperatorligi kengashiga men tuzgan "Boshlang'ich rasm kursi"ning bir nusxasini, unga tegishli modellar solingan quti va simdan yasalgan bosh modelini yuborishga jazm qildim. Ularni o'z marhamatingiz doirasida qabul qilishingizni o'tinib so'rayman. Agar ushbu model Akademiyaning rasm chizish sinflarida foyda keltirsa men juda baxtli bo'lar edim. Agar bu modelni xuddi shu burilishda namuna xizmatini o'taydigan gips boshning oldiga qo'yib ishlansa, u o'zini tarkib toptirgan qismlarining perspektiv o'zgarishini anglab olishga yordam beradi"¹⁴⁹.

Sapojnikov tomonidan tavsiya qilingan yangi uslub nafaqat umumta'lim maktablarida, balki tasviriy san'atga ixtisoslashgan maxsus o'quv yurtlarida ham keng ko'lamda qo'llanila boshlanadi. Yangi uslubning muvaffaqiyati shunda ediki, u har qanday buyumning murakkab tuzilishini ko'rgazmali qurol bo'lgan modellar yordamida oddiy va sodda qilib ochib berar edi.

Barcha mutaxassis va tanqidchilar ham bir ovozdan Sapojnikovning uslubiga yuqori baho berishadi. Biroq, o'sha davrda chop qilingan uslubiy qo'llanmalarda uni nomi deyarli tilga olinmagan deb taxlil qiladi Rostovtsev. Haqiqatdan ham Rostovtsevgacha bo'lgan ko'plab uslubiy qo'llanmalarda aka-uka Dyupyui, Galyarilarning uslublari "yangi va juda ham yaxshi o'qitish uslubi" - deb maqtab yozilgan, biroq, Sapojnikov uslubi haqida esa bir og'iz ham so'z yuritilmagan. Shunga qaramasdan Sapojnikovning uslubi va modellari Dyupyui hamda Galyarilarning uslubi va modellari bilan umumiy o'xshash tomonlari ko'p bo'lgan.

Shu o'rinda Sapojnikovning uslubi - 1834 yilda, Dyupyui - 1842 yilda, Galyari - 1844 yilda chop qilinganligini keltirib o'tishini maqsadga muvofiq deb topdik. Bundan Sapojnikov ulardan oldin o'z uslubini nashrdan chiqarganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, ular modellardan natura sifatida foydalangan bo'lsalar, Sapojnikov modellari esa buyum hajmining tuzilish qonuniyatlarini ochib berishga, perspektiva va yorug'-soya qonuniyatlarini o'rganishga xizmat qilgan. Xulosa qilib, Sapojnikov uslubi Dyupyui va Galyarilarning uslubidan oldin yaratilgan va samarali uslub bo'lgan deyishimiz mumkin.

XX asr rus rassom-pedagoglari tomonidan uning uslubi o'rganib, ilmiy taxlil qilib chiqildi va keng ko'lamda qo'llanildi. Ayniqsa, N. N. Rostovtsevning pedagogika institutlarining "Chizmachilik, tasviriy san'at va mehnat" mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma sifatida chop qilingan "Istoriya metodov obucheniya risovaniyu" kitobida XIX asrning birinchi yarim yilligi bo'limida Sapojnikov uslubiga alohida e'tibor qaratiladi va uning afzallik tomonlari ochib beriladi.

XXI asr boshlarida rassom-pedagog Botir Boymetov tomonida "Portret qalamtasviri" o'quv qo'llanmasida Sapojnikov tomonidan ishlab chiqilgan uslub ilk marotaba o'zbek tilida batafsil bayon qilindi va uning qalamtasvir sohasiga qo'shgan o'ziga xos xissasi e'tirof etiladi.

¹⁴⁸ Rostovtsev N. N. Istoriya metodov obucheniya risovaniyu. M.; 1982. 60-bet.

¹⁴⁹ Boymetov Botir Portret qalamtasviri. T.; 2001. 19-20-bb.

A. P. Sapojnikovning qalamtasvir o'qitish uslubining ijobiy tomonlari hozirga qadar ham o'zining qiymatini yo'qotgan emas, undan oqilona foydalanish esa qalamtasvir mashg'ulotlari samaradorligini oshiradi.

TASVIRIY SANATDA ANIMALISTIK JANR

Saydullayeva Muyassar - Tasviriy sanat va muhandislik grafikasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Odamlar tomonidan biror ish, narsa, buyum va boshqa narsalar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning sanatkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan rassom, haykaltarosh, memor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarini sanat asari deymiz. Tasviriy sanat o'z o'rnida haykaltaroshlik, rang tasvir va grafika kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy sanatta voqelik, borliq shakllari chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi. Tasviriy sanat 5 ta janrga bo'linadi. Bular: portret janri, natyumort janri, manzara janri, tarixiy janr va animalistik janrlar. Biz animalistik jar xususida to'xtalib o'tsak.

Tasviriy sanatta animalizm janr sifatida shakllanishgacha bo'lgan davr. Animalizm (lotincha animal-hayvon) manosini bildiradi. Biror hayvonni ilohiyashtirish bilan bog'liq bo'lgan etiqod va tasavvurlar majmui bo'lib, xizmat qilgan. Ibtidoiy odamlar ovchilik bilan tirikchilik qilgan davrlarda o'ljani qo'lga kiritish uchun ov oldidan hayvonlarini sehvlovchi turli marosimlarni bajarganlar. O'rta gulxan yoqib mamont shohlari va suyaklarini ko'tarib gulxan atrofida aylanib, turli hayvonlar tovushini o'xshatib hirgoyilar qilganlar va pantomimaga o'xshash raqslar ijro etganlar. Ular qaysi hududda yashasalar – o'sha hududda mavjud bo'lgan hayvonlarning tabiatini, yurish turishini mukammal o'rganganlar va ilohiyashtirganlar. Masalan: Shimoliy Osiyo va Shimoliy Amerikada ayaqning, Hindistonda sigirning, Avstraliyada kenguruning va boshqa malakatlarda turli hayvonlarni muqaddas hisoblangan.

Poleolit g'orlaridan topilgan toshga o'yib ishlangan mamont, bug'u ovi syujetlari juda tasirchan va o'ziga xoslik bilan tasvirlangan. Bu tasvirlar ibtidoiy davr ovchilarining naqadar boy tassavurga ega ekanligidan dalolat beradi. Qushlar, hayvonlarni, o'ljani qurshab olgan ovchilarning harakatlarini tasvirlovchi toshga o'yilgan grafik tasvirlar har qanday kishini hayratlantirishi mumkin. Keyinchalik asta sekin hayvonlarning haykallari, ko'zga tushirilgan tasvirlari paydo bo'ldi. Skiflar, saklar va sarmatlar qabilalarida hayvonlarning tasvirlari amaliy sanat darajasiga ko'tarildi.

Hozirgi kunlarda ham odamlar tasavvurini lol qoldirib kelayotgan Misr ehromlari piramidalar ichki devorlaridagi va haykallaridagi hayvonlarning va qushlarning juda mohirona ishlangani tasvirlari bu sanat eng qadimiy tsivilizatsiya madaniyatida ham janr sifatida shakllanib borganidan bizga dalolat berib turibdi.

Dunyo tsivilizatsiyasining belanchagi hisoblangan Misrda eramizdan avvalgi IV-III asrlarga memorchilik va tasviriy sanat, haykaltaroshlik, mahobatli rangtasvir, relief sanatlari rivojlandi va yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Memorchilikda ilk kalonnalar-ustunlar, ilk-palmalik formalari kashf etildi. 20 metrlik Sfinks haykali

odam, qush va sher tasvirlarini birlashtirilgan buyuklik va qudratning timsoli sifatida misrlik ijodkorlarning bunyodkorlik ishlari namunasi edi. Nil daryosining quyi oqim tekisliklariga qurilgan shaharni uchta kattakon balandligi 170 metrlik piramidali ichki qismdagi devorlari bezagi sifatida Fir'avnlarning ilohiylashtirish va ularni tarixiy zafarlarini madh etuvchi devoriy rasmlar, simbolikalar va ierograflar burgut, sher, ilonlar tasvirlari abjirlik, kuch- qudrat timsollari bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari bo'ri, g'oz, buqa tasvirlari ham boylik, adolat va shavkat qabilida badiiy mushohada qilingani yaqqol sezilib turadi. Biz ana shu tasvirlar va sanat namunalarini mushohada qilib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, misrlik ijodkorlarning ijod namunalarida o'ziga xos yuqori darajada badiiy maktab shakllandi. Bu maktab kelajakda Rim imperiyasining yaratilishiga tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

Poleolit davriga mansub devoriy rasmlar biz Yevropa malakatlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun Frantsiyaning Fon-de-Gon g'oridan topilgan toshdagi bezob (buqa) tasviri juda ishonarli mohirona ishlangan. Uni ko'rib biz ana shu davr suratchisining tasavvuriga qobiliyati va mahoratiga ajablanmay ilojimiz yo'q. Teran idrok va mushohada va yuqori darajadagi plastika ibtidoiy davr rassomi bilimi sezgisi va ixtirosi naqadar to'g'riligiga qoyil qolamiz. Boshqa tasvirlarni uchratish mumkin. O'rta asrlarda Yevropada allegorik va folklyor ruhdagi tasvirlarning suratları va haykallari juda keng tarqalgan. Odatda bu haykallar mahalliy xomashyodan tayyorlanardi. Sopol, yog'ochga o'yib ishlangan haykallar ana shular jumlasidandir.

Xitoyda ham animalistik rassomlar ijodini kuzatish mumkin. VII-XIII asrlarda Tan davri Xan Xuan, Sun davri Mu-tsi asosan ipak qog'ozga, shoyi matolarga ishlangan suratlarda afsonaviy ajdar ilonlardan tortib uy hayvonlarigacha bo'lgan tasvir namunalariga duch kelishimiz mumkin.

Uyg'onish davri rassomlari A. Dyurer, Pizanellolar hayvonlar tasvirlarini o'ziga qarab yani naturadan chiza boshlaganlar. XVIII asrda Fransiya J.B.Udri, XIX-XX asrda rossiyalik I.F. Grom kabi rassomlar animalistik janrning namoyondalari hisoblanishadi.

Animalistik janrda ijod qilishga turtki bo'lgan asosiy omillar. Ibtidoiy davr odamlarining ilk qadriyatları juda qisqa bo'lib turmush quvonchları oddiy insoniy ehtiyojlar qorin to'ydirish, dam olish bilan cheklangani uchun, qolaversa ular uquvsiz bo'lganlikları ya'ni, qiziqish va idrok qilish doiralarining hali rivojlanish fazasida emasligi uchun eng asosiysi esa taraqqiyot hali ijodiy mushohada talablarıga muhtojlik sezmagani uchun g'ordagi suratlar bilan cheklangan. Keyinchalik odamlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan kun kechira boshladilar. Oila bo'lib yashash ham davlatchilikka qo'yilgan ilk qadam bo'lagan. Asta-sekin jamiyatdagi boy kambag'al degan tushuncha paydo bo'ldi. Moddiy boyliklar ko'paya borgan sari inson ma'naviy va maishiy ehtiyojlari orta boshladi. Urug'lar birlashib dunyoda katta imperiyalar paydo bo'la boshladi. Bunday jarayonlar albatta jamiyatning har tomonlama rivojlana boshlashga asosiy omil bo'ldi.

Avvallari tabiatning mo'jizalari quyosh, oy, yulduzlar, olov va suvni undan keyin hayvon va parrandalarni iloh deb hisoblagan odamlar ongiga bizni qurshab turgan olam haqidagi tushunchaning to'g'ri talqin qilishning natijasida odamlarning

hayvonlarga bo'lgan munosabatlari o'zgarib ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari orta borgan. Tabiatda yovvoyi otlar, qo'y-qo'zilar, itlar, bezonlarni qo'lga o'rgatish xaxira yig'ish ehtiyojlaridan kelib chiqdi. Keyinchalik mehnat quroli sifatida fillar va tuyalarni bu jarayonga jalb qilindi.

Hozirda olamimizda juda ko'p hayvon va parradalarining turlari yo'qolib bormoqda buning asosiy sabablari odamiylashish ehtiyojlari orta borishi, tabiat resurslarining kamayib borayotgani, migratsiya masalalari va shunga o'xshash muayyan sabablarning ortib borishi natijasida desak mubolag'a bo'lamaydi.

Bugungi kunda animalistik janrda yaratilayotgan asarlarga talab juda yuqori. Turmushning qaysi jabhasiga murojat qilmaylik. Badiiy bezak ishtirok etmagan madaniy va maishiy sohani topa olmaysiz. Ana shu bezaklarda hayvonlar va parradalarining ulushi salmog'li. Shaxarsozlikda, Lanshaft-dizaynida, sanoatning maishiy sohalarida: oziq-ovqat sanoati kiyim ust bosh sohasi va boshqa sohalarida. Sport kiyimlari brendi "Puma" va shunga o'xshash juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Milliy hunarmandchilik sanati namunalaridan ham minglab misollar keltirishimiz mumkin.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATI RIVOJIDA NAMANGANLIK RASSOMLAR IJODINING AHAMIYATI

*Azizbek Soliyev - NamDU "Tasviriy san'at va amaliy-bezak
san'ati" mutaxassisligi I-bosqich magistranti,*

Ilmiy rahbar: dots. O'. Abdullayev

Hozirgi kunda Namangan rangtasvir san'ati yurtimizda eng etakchi o'rinda turadi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Chunki, Namanganda tug'ilib, o'sgan, voyaga etgan o'ndan ortiq rangtasvir san'atining etuk ustalari O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Markaziy qo'mitasida faoliyat ko'rsatib kelish bilan birgalikda ijodlarining yuqori cho'qqisiga chiqib, san'at ixlosmandlari o'zlarining ijodiy asarlari bilan manzur bo'lib kelmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan san'atkorlarda ijodiy erkinlik vujudga keldi, o'zligini namoyish qilish imkoniyati tug'iladi. Respublikada viloyatlarda ijod qilayotgan rassomlarning birinchi ko'rgazmasini ham Namanganlik rassomlar boshlab berishgan. 1994 yili Toshkentda "Namangan tasviriy san'ati kunlari" bo'lib o'tdi. Unda san'at ixlosmandlari, yurtimiz mehmonlari qatnashib Namangan o'zining gullagan davriga kirib kelganligini ta'kidlashgan edilar. Undan buyon yanada yangi-yangi ijodkorlar etishib chiqib namangan rangtasvir san'atini gullab -yashnashiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Shu o'rinda Namangan rangtasvir san'atining tamol toshini kimlar qo'ygan? -degan savol tug'ilishi tabiiy. Shuning uchun ham biz avvalo Namanganda rangtasvir san'atini paydo bo'lishi va uni rivojlantirishiga to'xtab o'tishni lozim topdik.

XIX -asrning 70-yillaridan boshlab o'rta Osiyo erlari Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida Namangan shahri ham mustamlaka bo'lib qoldi.

1918 yildan boshlab esa Namangan shahri ham Sovetlar qo'liga o'tdi. Shundan boshlab san'at va madaniyat qat'iy ko'rsatmalar, yo'l -yo'riqlar asosida yaratiladigan

bo'ldi. Milliy san'atimiz na'munolari tashib ketildi, qolganlari yo'q qilindi. 1931 yili Namanganda viloyat drama teatri tashkil etildi. Bu erda Gofman, Zinger, Usta Mo'min (Nikolayev) kabi rassomlar chetdan kelib ishladilar.¹⁵⁰ Shu tariqa Namangan rangtasvir san'atiga asos solindi.

1940 yili Tursunboy Abdullayev birinchi mahalliy rassom Respublika badiiy bilim yurtini tugatib, teatrga bezovchi rassom bo'lib ishga kelganligi bilan ham Namangan san'atida muhim sana bo'lib qoldi. U teatr sahnaga qo'ygan o'nlab asarlarga bosh rassom sifatida o'zining ijodiy asarlarini va sahna bezaklarini yaratdi. Teatr bilan hamohang boshlangan rangtasvir san'atida T.Abdullayevning o'rmi beqiyos. Rassom rangtasvir san'atining portret, manzara, natyurmort va maishiy janrlarida ham asarlar yaratdi. U Namangan tabiat muzeyi uchun qator ijodiy ishlar qildi. Rassom asarlarida Namangan xalqining o'tmishi, kundalik turmush tarzi, mehnati, kelajak haqidagi orzu –umidlari o'z ifodasini topdi.

Tursunboy Abdullayevdan keyin etishib chiqqan mahalliy rassomlardan yana biri Mutallib Abbosovdir. Bu rassom ham Respublika badiiy bilim yurtini va Teatr rassomchilik institutini tugatib, Namangan musiqali –drama teatrining bosh rassomi bo'lib ishladi. U ham yuzlab sahna asarlariga dekorativ-bezak ishlarini yaratdi.

M.Abbosov rangtasvir san'atining portret, manzara, natyurmort va maishiy janrlarida ijod qildi. Viloyat va respublika miqyosidagi ko'rgazmalarda faol qatnashdi. Uning asarlarida xalqimizning o'tmishi, kundalik turmush tarzi yorqin bo'yoqlar vositasida aks ettirgan. Rassom Namangan shahridagi II –jahon urushi qurbonlariga bag'ishlangan xotira yodgorligi loyihasining muallifidir. M.Abbosov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, ijodkor rassom, teatr dekoratsiyasi ustasi sifatida mashhur bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan O'zbekistonning aksariyati viloyatlarida bo'lgani singari Namanganda ham rangtasvir san'ati teatr san'ati bilan hamohang tarzda paydo bo'lgan va shakllangan deb xulosa qilishimiz mumkin.

XX asrning 60 – 70 yillariga kelib Namanganda dastgohli rangtasvir san'atiga umidli, ijodkor rassomlar Po'latxon Jalilov, Erkin Azizovlar ham qo'shilishdi. endilikda rassomlar o'rtasida o'zaro ijodiy muhit shakllangan edi. Buning natijasida esa tarixiy voqea sodir bo'ldi, ya'ni Namanganlik rassomlar ijodiy asarlarini ko'pchilik hukmiga havola qilib, ko'rgazma tashkil qilishdi.

Bu birinchi, katta ko'rgazma 1971 yilning oktyabr oyida Namangan O'lkani o'rganish muzeyida tashkil qilindi. Ko'rgazmada san'at arbobi M.Abbosov, ustoz rassom T.Abdullayev rassomlardan T.Jalilov, E.Azizov, V.Semyavkin, K.Sodiqovlar bilan birgalikda Leningrad (Sankt–Peterburg) Badiiy institutining talabalari M.Nuriddinov, L.Razuvayeva, T.Oqilov singari umidli yosh ijodkorlarning tarixiy va maishiy mavzudagi 200 ga yaqin asarlari namoyish etildi.¹⁵¹

Ko'rgazmada eng ko'p tuxfasi bilan, ya'ni 30 ga yaqin asarlari bilan qatnashgan rassom Po'latxon Jalilov bo'ldi.

¹⁵⁰ Oripov B.B. Namangan tasviriy san'ati. N, 2000y. 11-bet

¹⁵¹ Mamajonov B. Namangan rangtasvir san'ati. –Namangan, 1998 - B. 22.

Mutallib Abbosov asarlaridan uning teatr sahna ko'rinishlarining mohir ustasi ekanligi ko'zga tashlanib, uning asarlari teatrdan sahnasiga olib chiqilayotgan asarlarni yanada qiziqarli bo'lishiga ulkan hissa qo'shishi ko'rinib turar edi.

V.Selyavkinning "Kuz payti bog'da" asari, Tursunboy Abdullayevning "Bizning ko'cha", "Ayqiron qishlog'i" kabi shahar va qishloq manzaralari va "Raxima" portreti, Erkin Azizovning zamondoshlar turmush tarzini aks ettirgan asarlari, Qambar Sodiqovning zamonaviy hayotni ifodalovchi tasvirlari, qishloq odamlari, mehnatkash odamlarning kundalik turmush tarzi, g'o'za chopig'i mavzularidagi asarlari, Muxammadjon Nuriddinovning "O'lkam", "Zamondosh", "Kulol" singari odamlar portretlari tamoshabinlar hukmiga havola qilingan.

T.Oqilovning jonajon, go'zal shahar Namanganning qiyofasini ifodalagan asarlari yig'ilganlarni hayratga solgan. Ayniqsa, rassomning "Kosmos" deb nomlangan zamonaviy choyxona loyihasi tomoshabinlarga juda ham manzur bo'ldi.

Farg'ona badiiy ishlab chiqarish ustaxonasi tasarrufida bo'lgan Namangan badiiy ustaxonasi 1972 yildan mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Namangan badiiy ishlab chiqarish korxonasi asoschilari T.Abdullayev, M.Xusainov, P.Jalilov, T.Ortiqboev, K.Sodiqov, E.Azizov o'zlarining jonbozliklari bilan namangan san'atida o'chmas iz qoldirdilar. Bu rassomlar rangtasvirning portret, manzara, natyurmort, maishiy va shu kabi ko'plab janrlarida keng ko'lamda ijod qilishdi.

XX asrning 80-yillari Namangan rangtasvir san'atining salmoqli taraqqiyot yillari bo'ldi. Bu paytga kelib ustoz -rassomlar safiga T.Ashurov, R.Yo'ldoshev, J.Raxmonov, A.Nuriddinov, O.Qozoqov kabi ko'plab umidli yosh rassomlar kelib qo'shilishdi. Bu vaqtda Namangan rassomlari ko'plab ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, nafaqat viloyatimizda, balki respublikamizning ko'plab shaharlarida, qator xorijiy mamlakatlarda o'zlarining muxlislariga ega bo'ldilar. Shu o'rinda Erkin Azizovning Rossiyaning Tinda shaxrida 1980 yili shaxsiy ko'rgazmasining ochilganligini eslatib o'tish ham fikrimizning dalili ekanligidir.

1987 yilda Namangan pedagogika institutida Badriddin Oripov say'i - harakatlari bilan tasviriy san'at yo'nalishini ochilishi ham Namangan rangtasvir san'atining keyingi rivojiga katta hissa qo'shdi. Endilikda rassomlar korxonasi o'rniga universitet rassomlar, yosh ijodkorlarning markaziga aylandi. Keyinchalik bu erdan ko'plab fan nomzodlari, san'atshunos olimlar, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Ijodkorlari uyushmasi a'zolari, rassomlar etishib chiqdi. Bu esa hali o'rganilishi lozim bo'lgan alohida mavzudir.

BEHBUDIY HAYOTI VA IJODIDA XORIJ SAFARLARINING AHAMIYATI

Sobirjon Daminjanov - Nam DU o'qituvchisi

Jadid adabiyotini o'rganilishida o'sha davr yani honliklarning tugatilishi va yangi davlat paydo bo'lishi paytlariga to'g'ri keladi. Ko'pgina ziyolilar horij davlatlaruga; jumladan Turkiya, Rossiya, Arabiston kabi davlatlarining nufuzli oliyogoh va ta'lim muassasalarida ta'lim olishgan. Shu talim olish va safarlar ziyolilarning ijodida ham aks eta boshlagan. Biz buni Cho'ponning "Doktor Muxammadyor" (Doctor Muhammad-yar)", Fitratning "Hindistonda bir Farangi ila

buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida munozarasi” (Debate between a teacher from Bukhara and a European¹⁵²)” kabi asarlarda yaqqol sezishimiz mumkin. Bu sohada Mahmudxo’ja Behbudiyning o’rni alohida ekanligini bilamiz. «Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g’oyasining yalovbardori, yangi maktab goyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, birinchi dramaturg, teatrchi, noshir va jurnalist» Mahmudxo’ja Behbudiy chet ellarga bir necha marotaba safarga chiqqan.

Behbudiyning hajga borgunga qadar hayotini aksariyat qismini Qozilik va Muftilik qilish bilan o’tkazgan deb yozadi. Darhaqiqat shunday bo’lgan, ammo Behbudiyning haj safariga borguniga qadar 1892 yilda butun jadiid dinyosining yo’lboshchisi hisoblangan Issmoilbek Gasparali yangi “Usuli jadid” maktablarini ochishga muvaffaq bo’ladi ammo 1897 yilda bu maktablar davlat tomonidan yopiladi. Ammo bu erda bu maktablarni Toshket va Samarqandda ochilishida Behbudiyning o’rni ham bor. Ismoilbek va Behbudiy o’rtasida ustoz shogird risshtalari bo’lganligi va bu munosabat ohir kelib yaqin do’stlikka aylanganligini bilamiz. Demak bu erda Behbudiyning Haj safari oldidan ham yangi tuzimdagi maktablar ochish maqsadi borligini fahmlashimiz mumkin. Safari unga o’z kamchiliklarini bartaraf etganligiga shohid bo’lishimiz mumkin

Ilk bor Mahmudxo’ja Behbudiy 1899- 1900 yillarda buxorolik do’sti Hoji Baqo bilan birga haj safariga chiqadi.

Mahmudxo’ja Behbudiy 1903- 1904 yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo’ladi. Adabiyotshunos olim Begali Qosimovning fikricha «bular sayoxat emas, xizmat safari edi». Olim o’z fikrini davom ettirib, Nijniy Novgorodda 1906 yilning 23 avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bagishlangan qurultoy chaqirilganligini, Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruxini boshqarganligini va katta nutq so’zlaganligini keltiradi va bu mahlumotlarni A.A.Pyaskovskiydan olganligini ma’lum qiladi.¹⁵³

Bu safar haqida M. Behbudiyning o’zi shunday mahlumot bergan edi:

“Ilmiy va fanniy maqolalar uchun fanniy va tarixiy naqshlarni qolibi-klisheisi lozim. Oqibat qaror berildiki, Kafkaz va Qirim vositasi-la Istanbulg’a, andin Yunonistonga kirib, so’ngra Bayrut tariyqi-la Misr al-Qoxirag’acha borib, yana qaytishga Istanbulg’a kirib, Rum eli temur yo’li ila Bulgoriston, Avstriya va Berlin tariyki-la vatani azizimiz Rusiya va Turkietonta advat etilsa, ikki-uch oy din beri ushbu safarning taxiyyasida eduk».

M.Behbudiy o’z «Sayohat xotiralari»da yo’l ocherklari janriga mansub bo’lgan barcha qonun-qoidalarga rioya qiladi, yahni o’zi borib ko’rgan yurt, elat, millatning tavsifi, turmish-tarzi, kiyim-kechagi, urfi-odati boshqa etnografik hodisalar haqida hikoya qiladi hamda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va sanhat haqida fikr yuritadi.

¹⁵² Charles Kursman. “What is reform” translated from Uzbek

¹⁵³ Qosimov B. Karvonboshi. // Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to’ldirilgan 2 —nashri. T., Ma’naviyat, 1999, 5— bet.

M. Behbudiy bergan ma'lumotlar o'zining aniqligi bilan kishini lol qoldiradi. Adib o'zi borgan shaxarlar va ular bilan Samarqand o'rtasidagi, yoki ularning orasidagi masofalarni aniq ko'rsatishga harakat qiladi. Jumladan:

«Tom 24 soatda Ishqobodg'a (Ashxobod) yetdukki, Samarkanddan 895 chaqirimdur». Yoki: «Mineralni vodadan Kislovodskig'acha 61 chaqirim bo'lub, Yesentuki va Petigorskidagi ma'dan suvlari shu arodadur. Masalan, Mineralni vodadan birinchi muxatta Beshtog, andan Petigorski shahri, andan Esintuki shaxri, andan Kislovodski shahrig'a borilur. Beshtog'dan Temursuyi (Jeliznuyudski) shahri 7 chaqirim bo'lub, boshqa bir butoq ila ketiladur».

Bahzan M.Behbudiy u yoki bu aholi punkti o'rtasidagi masofaning qanchaligini ko'rsatish bilan birga, yo'lda qanday xolatlar, voqealar ro'y berishi haqida fikr yuritadi:

M.Behbudiy o'z safari davomida uchratgan xalqlarning madaniyati va turmush tarziga katta ehtibor beradi. Adib ayniqsa Kavkazdagi shahar va qishlqlarning, jumladan, Beshtog' (Pyatigorsk), Temirsuyi (Jeleznovodsk) va Rosto'f (Rostov) shaharlarining obodligini ko'rib zavqlanadi:

«Tog' etaklaridagi qishloqlarni butun qudratning ajoyib, rango-rang gul va chamanlari tabiiy ziynat berilgan. Shaharlari bo'lsa, favqulodda chahorbog' va sung'iy gulistonlar ila o'hshatilib, dilrabo va mazarfirib xosiyat paydo etgandur. Bul masofat tamoman o'rmon, chamanzor, guliston va har yerda ajoyib ko'shku imoratlari bino etilgandur». (Pyatigorsk).¹⁵⁴

Behbudiy safar davomida o'zi ko'rgan va guvoh bo'lgan ehtiborli voqealar, faktlarni oddiygina qayd qilib qo'ymaydi, balki ular haqida mushohada yuritadi, tahlil qiladi.

Behbudiy o'z asarida yo'l ocherklari janriga xos barcha usullar va unsurlardan keng foydalanadi. Jumladan, u safar davomida faqatgina o'zi ko'rgan-bilgan voqeahodisalarnigina bayon qilmay, balki boshqalardan bilgan, eshitgan voqealar, ma'lumotlarni ham o'quvchiga yetkazadi. Masalan, Marvda va uning atrofida yashovchi turkmanlar «xanjar o'rnig'a qalam tutush zamoni kelaganini bilmaydurlar», zero «bir eroniyning so'zig'a qaraganda, ... yerli turkmanlar uchun munda maktab yo'q».

Keltirilgan misollardan ko'rinib turganidek, Behbudiy «yo'qsillik va nimvahshiylikning» sababini ilmsizlikda, savodsizlikda deb biladi. Shu sababli adib insonlarni ilmlarni egallashga, tillarni o'rganishga chaqiradi.

Behbudiy Istanbuldan Adrnaga safar chog'ida ham aynan bilimlarni va hunarlarni egallash, yaxshi odob va axloqqa o'rganish haqida o'ylaydi:

«16 iyun kech Istanbuldan otasharoba qatorig'a kirduk. Istanbul ila Adrna arosi qator ila o'n soatlik yo'l bo'lub, Avstriyo nazoralari temur yo'lining sohibi va 2- sinf belati o'n so'mdur. Bechora musulmonlar besh yo'z yildan beri Ovrupoda ulturib. Ovrupo odati. libosi va yamon ishlarini odat kilib, ammo ilm ila xunaridan keragincha hissa olmabdurlar. Bul xar yerda shundaydur. Bu kung'acha bir chakirim

¹⁵⁴ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T, Ma'naviyat, 1999, 62 —bet. o'sha joyda, 64 — bet. o'sha joyda, 57 — bet.

temur yo'li bino qilmoqg'a butun musulmonlarning ilm va iqtidori yo'qdur. Ammo popirus, ichkulik va buzuqlik tarafig'a bor kuchimiz ila ahlo holda tarmasharmiz» .

Shom (Suriya)da «yo'l va bozorda ozgina mastlik zohir bo'lsa ham hukumat hibbs etar ekan. Hatto, zohiriy mayxona yo'q dedilar».

Muallif o'zining Yofa shahriga paroxodda o'tishi davomida ham aynan shu haqida o'ylaydi. Paroxodda taomxona hamma uchun mo'ljallangan. Bu yerda yer yuzining turfa taomlari, mevalar va xatto ichimliklar mavjud: «Ammo shishadagi maskarotdan na ul boyvachchalar va na ul ovrupomijoz bo'lgan arab va turklar bir qatra bo'lsun ichmadi.

Behbudiyning «Sayohat xotiralari» nafaqat gumanistik, balki vatanparvarlik tuygulari bilan sugorilgan asardir. Adib safarda vatanini qumsaydi, ayrim vatandoshlarining xorijda o'zlarini tutishlaridan or qilsa-da, boshqa vatandoshlari bilan fahrlanadi.

Bu haqda Baldauf shunday deb yozgan «Behbudiyning «Sayohat xotiralari»da uning asosan, dunyo bilan hamjihatlik, ma'rifatga yo'z berish, madaniy-muassasalarni kengaytirish, xo'jalik yuritishda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanishga alohida ehtibor berganligi yaqqol ko'zga tashlanadi».¹⁵⁵

Begali Qosimov Behbudiyning ushbu asariga yuqori baho berib, uning janri haqida shunday deydi: «Xotiralar» ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. Ular adabiyotimizdagi anhanaviy tarixiy memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasidir».

Darhaqiqat yurt kezzan insonning taffakuri, aql idroki yuqori bo'lishi turgan gap. Demak horij safarlari Behbudiyning komil inson bo'lishi va ijodini yuksalishida muhim xizmat qilgan desak adashmagan bo'lamiz.

¹⁵⁵ Baldauf I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. T., Ma'naviyat, 2001, 29 — 6.

№	MUNDARIJA	Bet
<u>MILLIY G' OY. MA' NAVIYAT VA MAFKURA</u>		
1.	Demokratiyani eksport qilishning vositalari, manbaalari va namoyon bo'lish shakllari. <i>B. Talapov</i>	3
2.	Yoshlar faolligining ortib borishida ma'naviy omillarning roli. <i>Tillayev Bobomurod</i>	9
3.	Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda huquqiy yondashuvlar. <i>Tillayev Bobomurod Abdurahobovich</i>	11
4.	Yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf qilishning yo'l – yo'riqlari. Amaliy masalalarni hal etish: muammaso va yechim. <i>R. Sharafiddinov, M. Ne'matova, Yo. Asqarova</i>	13
5.	Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy madaniyatning o'rni. <i>Xotamov Nosirjon, Xurshid Mirzaxmedov</i>	16
6.	“Ommaviy madaniyat”-ma'naviyat kushandasi. <i>Gavharoy Mo'minxo'jayeva</i>	17
7.	Milliy ma'naviyatni asrashda mafkuraning o'rni. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Muxammadsharif Sharipov</i>	18
8.	Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ma'naviyatning o'rni. <i>B.B.Ibrohimov</i>	20
9.	G'oyalar –ijtimoiy hayot in'ikosi. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Shahnoza Mamatobilova</i>	22
10.	Перспективы глобализационных процессов. <i>Н.Исмоилова, Сохиба Хабибуллаева</i>	24
11.	Milliy g'oya va yoshlar. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	27
12.	Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash masalalari. <i>B. Tillayev</i>	29
13.	Milliy qadriyatlar – yoshlarning ma'naviy tarbiyasini rivojlantiruvchi omil. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	31
14.	O'quvchilar ongida yuksak ma'naviyatni va vatanparvarlikni shakllantirishda ayrim masalalari. <i>O.Umarova, X.Akbarova</i>	33
15.	Axborot - maqsadga erishishning globallashtan usuli. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	35
16.	Milliy- ma'naviy qadriyatlar. <i>B.B.Ibrohimov</i>	37
17.	Jamiyatning ma'naviy hayoti. <i>Xurshid Mirzaxmedov, M.Muhammadazimova</i>	38
18.	Диалектическое и социально-философское учение Гераклита. <i>Таубаева Д. X.</i>	39
19.	Globallashtan va ma'naviy-axloqiy inqiroz. <i>Orifxo'jayev Ayubxon</i>	43
20.	Amir temur tuzuklari, unda ilgari surilgan ma'naviy g'oyalar. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Ilhom Karimov</i>	45
21.	Milliy g'oya - ma'naviy yuksalish asosi. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	47
<u>SIYOSAT VA HUQUQ</u>		
22.	Shahar va qishloq hududi yerlarining umumiy tavsifi. <i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i>	48

23.	Ishni tayyorlash va tayinlash haqidagi ajrim chiqarish. <i>J.Umarov</i>	50
24.	Mehnatga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi. <i>A.Jumaboyev</i>	53
25.	Milliy xavfsizlikni ta'minlash. Axborot sohasida milliy xavfsizlikni tashkillash tizimining yaratish zaruriyati. <i>Husnora Tursunova, A.Qambarov</i>	55
26.	Huquqiy munosabatlar-inson ongli faoliyatining mahsuli. <i>A.Jumaboyev</i>	56
27.	Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish. <i>M.Akayeva</i>	59
28.	Jamiyat hayotining mezonini konstitutsiya. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Xolmamat Ismoilov</i>	61
29.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jinoyat protsessining asosiy huquqiy manbasi. <i>J.Umarov</i>	63
30.	O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida milliy an'analar ifodasi. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Marhabo Irgasheva</i>	70
31.	Konstitutsiya va ma'naviy-madaniy yuksalish. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Lola Mo'minova</i>	72

ISLOHOT VA IJTIMOY HAYOT

32.	Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirishda tolerantlikni singdirishning dolzarb muammolari. <i>D. Xudoyberdiyeva, M. Sharipova, N.Musoxonova</i>	75
33.	Fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanish kontekstida o'rta sinfni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati. <i>Gulnoza Rafiqova</i>	77
34.	Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatning tadrijiy rivojlanishi kontseptsiyasi sifatida. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Maxmudov Fazliddin</i>	79
35.	Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik mamlakat taqqiyotining muhim omili. <i>Axrorjon Akbarov</i>	82
36.	Millatlararo totuvlik ilmiy va umuminsoniy qadriyat sifatida. <i>B.B.Ibrahimov</i>	84
37.	Yoshlarni kasbga yo'naltirishning dolzarb masalalari. <i>Q.T.Inamov</i>	86
38.	Davlatning ijtimoiy-siyosiy islohotlar tizimida milliy mafkuraning tutgan o'rni. <i>Rafiqova Gulnoza</i>	89
39.	Yoshlar ta'lim tarbiyasida madaniyat mussasalarining o'rni va roli. <i>K Xolmirzayev, M. Tojiahmedova</i>	91
40.	Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiyaning singdirilishi. <i>Abdulhayeva Maftuna, B.Tillayev</i>	93
41.	Ota-onalar bilan ishlashda innovatsion yondoshuvning dolzarb ahamiyati. <i>D.Axunjanova, G.Dadajonova, I.Mahmudov</i>	95
42.	Yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining ahamiyati. <i>Tursunova Sarvinoz, B.Tillayev</i>	98
43.	Ayollarga e'tibor - elga e'tibor. <i>O. Chuboyeva, huquqshunos, Dildora O'rmonova</i>	100
44.	Komil inson - buyuk kelajak poydevori. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	101

45.	Intellectual salohiyatli avlod tarbiyasi jarayoni. <i>B.B.Ibrahimov</i>	103
46.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya va mafkura asosida tarbiyalashning ahamiyati. <i>Mo'minova Shohista, B.Tillayev</i>	105
47.	Социология как наука. <i>Азамжон Ахмадалиев</i>	106
48.	Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyat va o'zlikni saqlash. <i>Nozima Ahmadxonova, A.Qambarov</i>	108

TARIX VA ETNOGRAFIYA

49.	Taraqqiyparvarlar harakati tarixining o'rganilishi. <i>Tohirjon Qozoqov</i>	110
50.	Amir Temur – markazlashgan davlatning bunyodkori. <i>M.Nematova, P. Atajonova</i>	112
51.	Духовные и нравственные ценности деятельности джадидов. <i>Ташбаева Д.Х.</i>	114
52.	Sovet hukumatining O'zbekistonda olib borgan quloqlashtirish va jamoalashtirish siyosati: unda temiryo'lining ishtiroki. <i>B. Jalolov</i>	117
53.	O'zbekistonda jamoat transporti: paydo bo'lishi va rivoji masalalari. <i>Sharofiddinov Mahmudjon</i>	121
54.	Avestoda ezgulik g'oyasi. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Gulnoza Abdurazzoqova</i>	123
55.	Из истории достижения благородных целей независимого Узбекистана. <i>Н. Исмоилова</i>	125
56.	Xalq milliy o'yilari milliy tarbiya asosidir. <i>Sobirjanova Naima, B.Tillayev</i>	133
57.	Intellectual avlodni voyaga yetkazishda oilaning roli. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Muxammadsharif Sharipov</i>	135
58.	Avestoda jamiyat haqidagi g'oyalar. <i>Xurshid Mirzaxmedov, Gulnoza Abdurazzoqova</i>	136
59.	Turkistonga temir yo'l transportining kirib kelishi (Kaspiyorti temir yo'li misolida). <i>Sh.I.Mamadaliyev</i>	140
60.	Milliy g'oya va milliy ma'naviy qadriyatlar. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	143

TA'LIM

61.	O'qish darslarida o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantirish. <i>Hamidova Muhayyoxon Obidovna</i>	145
62.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish orqali yoshlar ongiga xalq manfaatlarini va o'zligini anglash tushunchalarini singidirishning dolzarb masalalari. <i>M. Ne'matova, T. Ne'matov, Yo.Alimova</i>	147
63.	Использование инновационных технологий в обучении русскому языку. <i>И.Хузина</i>	149
64.	Самообразование – как важный фактор в системе непрерывного образования. <i>Д.Саидова</i>	151
65.	Chet tillarini o'rgatish va o'qitish ahamiyati. <i>L.Uzakova</i>	154

66.	O'рта maxsus, kasb-hunar talimida matematika fanlarini o'qitishda vatanparvarlikni tarbiyalash masalalari. <i>M.Xolmurodov, Yusubjanova Musharraf</i>	156
67.	Huquqshunoslik fani darslarida diniy tushunchalar bilan bog'lanish orqali o'quvchilar ongida ijobiy ijtimoiy-hissiyot tuyg'ularini shakllantirish muammolari. <i>R.Kirgizov</i>	160
68.	Uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish zamonaviy o'qituvchi kompetensiyasining pedagogik-psixologik asoslarini tashkil etish orqali pedagog kadrlar tafakkurini o'zgartirishning ayrim masalalari. <i>M. Nematova M. Sodiqova, A. Kuchkarova</i>	162
69.	O'quvchilarning bilish faolliklarini taminlashda AKTning ahamiyati. <i>D.Saidova, U.Ernazarov, A.Yo'ldasheva</i>	165
70.	Chet tilini o'rganisg orqali o'quvchilarda ijtimoiy tafakkurning shakllantirishning ayrim masalalari. <i>L.Qodirova, M.Toshpo'latova</i>	167
71.	Jismoniy tarbiya va sport to'garaklari ishlarini shakllan-tirishning dolzarb masalalari. <i>Muhammadbobur Saydaliyev</i>	170
72.	"Huquqshunoslik" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. <i>B.Yo'lchiyev, M.Yigitaliyeva</i>	174
73.	Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni. <i>B.Yo'lchiyev, M.Yigitaliyeva</i>	177
ADABIYOT VA SAN'AT		
74.	F.Shillerning "Don Karlos" tragediyasidagi markiz Poza obrazi. <i>O'. Nurmatov, M.Valijanova</i>	180
75.	Murabbiyning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. <i>O'.Abdullayev, X.Raximov</i>	181
76.	Tasviriy san'atda animalizm janri. <i>Saydullayeva Muyassar</i>	182
77.	Rus rassom-pedagogi A. P. Sapojnikovning qalamtasvir o'qitish fanining rivojiga qo'shgan hissasi. <i>B. G'. Jabbarov</i>	184
78.	Tasviriy san'atda animalistik janr. <i>Saydullayeva Muyassar</i>	187
79.	Mustaqillik yillarida O'zbekiston tasviriy san'ati rivojida namanganlik rassomlar ijodining ahamiyati. <i>Azizbek Soliyev, dots. O'. Abdullayev</i>	189
80.	Behbudiy hayoti va ijodida xorij safarlarining ahamiyati. <i>Sobirjon Damirjanov</i>	191

“Navro‘z” nashriyoti: litsenziya raqami AI-170, 20 dekabr 2009 yil.

Manzili: Toshkent shahri, A.Temur ko‘chasi 19 uy.

«Fazilat org texservis» x/k bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 72.

ISBN 978-9943-3818-8-9



9 789943 381889